Geographic location, rich raw material base, cheap energy, labour and other types of resources are the competitive advantages of the gas complex of Central Asia. However, the existing gas export potential of the Central Asian countries far from fully utilized, not rationally and efficiently enough. Prospecting for new fields poorly conducted, there is an acute shortage of new technologies, export contracts are spontaneous, and the geography and structure of gas exports are chaotic. The investment attractiveness of the industry is insufficient, its technical equipment is weak, economic mechanisms and incentives, legal support and the industry management system, tariff and tax system are imperfect. The gas pipelines of the Central Asian countries, which based on the Central Asia-Centre gas transmission system, built during the Soviet era, are badly worn out and require urgent modernization. Such a rapid growth of China's economy at historically unprecedented speed and scale over the last three decades has completely altered the supply-demand equation of global energy. Its galloping manufacturing machine has been running on massive quantities

of coal and oil from a country with no private cars to the largest auto market in the world, China has dramatically accelerated its petrol consumption. With millions of skyscrapers and lower buildings of all kinds shooting up in its hundreds of large cities that have to be cooled and heated, China has become a giant in the overall consumption of energy by the world's cities. Given its limited domestic supply of oil and gas, China has to get this massive amount of new energy from somewhere else in the world. **Combination of the quantity and sources of China's added demand for energy that has spun a new web of global and regional geo-economic ties involving Central**



Figure 3. Central Asian main perspective gas source (Source: GRID-Arendal, Petroleum Economist)

The increase in the potential of Central Asia in the gas sector and the discovery of new resources indicate that the potential of the region in this area is still high. In this case, the above 3 regions can be highlighted: 1) As a result of the construction of the Aral Sea sand zone, the Aral Sea, and geological exploration work here in the 2000s, it was discovered that the region has great potential for gas resources; 2) The Turkmen part of the Caspian Sea, the richness of the Caspian Sea shelf gas fields has been identified in recent years; 3) The presence of not only oil but also large gas fields in the Kazakh part of the Caspian Sea has aroused the interest of large gas corporations in the region (Fig. 3).

5. Conclusions

The paper studies the situation on the global gas market and international relations in the gas sector of Central Asia and analyses the possibilities for the development of the gas industry of Central Asian countries. Besides that, this paper shows the prospects for export potential for strengthening the economy and development of foreign trade of these states and directions of integrating the gas industry of Central Asia into the world economy. The risks and problems of Russia in the Central Asian region and the possibilities of their reduction are identified.

As China has risen to the central gravity of the global economy, it has brought Central Asia into the field of that gravity through various energy connections. One should not be surprised by this parallel or paired development into a new regional energy nexus. For centuries, China and Central Asia were linked through peace, war, trade and marriage, with the exception of the last 100 years when Central Asia fell into the orbit of tsarist Russian and Soviet influence, and became delinked from China. Are we seeing a replay of a Great Game in Central Asia, in energy, with China and the United States replacing the former Soviet Union and Great Britain? South way one of the future gas pipelines for Central Asia

In this future transit, South Asian countries are increasing India's economic growth and the need for gas, and gas pipelines are essential for the strategically stable use of such energy resources. However, there are several obstacles in the implementation of the southern way, including the problematic relations between India and Pakistan, the unstable political situation in Afghanistan. Trans Caspian pipeline to Azerbaijan, the first political and economic foundations of the Trans Caspian pipeline to Azerbaijan were laid in 1996. This is seen as a way for Central Asia to bypass Russia and enter the European market, but this project is not yet underway. In this case, it is possible to connect the gas pipeline to the Trans-Anatolian Natural Gas Pipeline. This equation stands to favour China now and into the future as the regional energy nexus evolves in the larger geo-political context of Eurasia.

REFERENCES:

- [1] Han Z Y, Weng W G 2011 *Hazardous Materials* **189** 509- 518pp
- [2] Jo Y D and Ahn B J 2002 *Loss Prevention in the Process Industries* **15**, 179-188pp
- [3] Jo Y D, Ahn B J 2005 *Hazardous Materials* **123**, 1-12
- [4] Narbaev Sh, Abdurahmanov S, Allanazarov O, Talgatovna A, Aslanov I, 2021 *In E3S Web of Conferences*, **263**, 04055
- [5] Matkan A, Shakib A, Pourali H and Nazmfar H 2009 *Environmental Sciences* **6**, 2
- [6] Gang S Z, Yi Z Z, Lan X, 2002 *Chinese Journal of Nuclear Science and Engineering*, **22(3)** 193–198pp
- [7] Zhi W Z, Quan D Y, Jun W L, 2006 *Engineering Science*, **8(4)**, 46–49 pp
- [8] Hai S Z, Lin L X, 2010 *Progress in Geography*, **29(1)** 23–30pp
- [9] Zhi W Z, 1995 *China Safety Science Journal*, **15(S)**, 183–186 pp
- [10] Mei L Y, Hui L, Wei Y, 2009 *Oil & Gas Storage and Transportation*, **28(10)**, 6–9 pp
- [11] Ling Q, Qiong C. L, Kang C, 2007 *Natural Gas and Oil* **25(2)**, 15–17 pp
- [12] Gang Z, Lin Y A, Fen Z X, 2005 *Technology Supervision in Petroleum Industry* **5**, 94–98 pp
- [13] Ronza A, Vilchez J A, Casal J 2007 *Journal of Hazardous Materials* **146** 106-123 pp

- [14] B. Kara, V. Verter, *Management Science*, 54 (1), 29-40 (2008)
- [15] Godoy S M, Santa Cruz A, Scenna N J 2007 *Reliability Engineering & System Safety* **92** 847-857 pp
- [16] Glickman, E. Erkut, M.S. Zschocke 2007 *Accident Analysis and Prevention* 39, 1015–1025 pp
- [17] Gegelashvili N A 2012 *Rossiya i novye gosudarstva Evrazii* **2/15** 145-168 pp
- [18] Kuzmina E M 2015 *Russian Foreign Economic Bulletin* (**10**) 35-46 pp
- [19] Zakharev Ya O 2017 *Journal of Central Asia Economy* **1 (1)** 11-18 pp
- [20] Ziyadullaev N S, Ziyadullaev U S, Talipova N T 2016 *Russian Foreign Economic Bulletin* (**2**) 60-70 pp

ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ТАЖРИБАСИ

Ҳомиджонов Дониёржон Қахрамонжон ўғли
Фаргона давлат университети 3 – босқич талабаси

Аннотация: Мақолада академик лицейларда физика фанини ўқитишда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш жараёнида ўқувчиларга билим бериш, уларнинг билиш қобилиятини ривожлантириш, тарбия бериш каби муҳим вазифалар ҳал қилинади. Ушбу масаларни ҳал қилишда олиб борилган тадқиқотларга ва олинган тажрибалар натижаларига биноан, уларни ўқув жараёнига тадбиқ этиш тажрибалари келтирилган ва учрайдиган муоммоларни ечими ифодаланган.

Таянч сўзлар: физика, замонавий ахборот технологиялари, аудио-видео, компьютер, мультимедия, компьютер-конструктор, ЭҲМ дастурлари, эксперимент, анализ, синтез.

Илмий техника тараққиётининг ҳозирги босқичида замонавий ахборот воситаларининг кўпайиши ва таълим тизимларига кириб бориши, улардан амалда фойдаланиш дарс самарадорлигини ошириши шубҳасиздир.

Афсуски, таълим тизимида ишлаётган барча ўқитувчилар ўқитишда замонавий ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланмоқда деб бўлмайди. Бунга сабаб дарс жараёнида замонавий ахборот технологияси методикаси барча фан йўналишлари бўйича ишлаб чиқилмаганлигидадир.

Бизнинг мақоламиз масала ечиш жараёнига ахборот технологияси воситаларини қўллаш методикасига бағишланган бўлиб, таълим тизимида ишлаётган ўқитувчиларга амалий ёрдам беради деб ўйлаймиз.

Ўқув жараёнининг сифати фақатгина ахборот технологияларини ўқув жараёнига тадбиқ этишнинг ўзида кўринмайди, балки, педагог замонавий ахборот технологияларини амалда тўғри қўллаганда, масалалар ечиш дарси давомида тушунарли ва унумли фойдалангандагина кўринади.

Ҳар бир академик литсейда физика фанининг механика ва молекуляр физика бўлимини ўқитиш жараёнида инноватсион технологиялардан фойдаланганда, ўқувчиларнинг билимларни олиш даражаси янада ошади, шунингдек, бу технологиялар ёрдамида ўқувчи ҳамда ўқитувчи ўзи мустақил равишда керакли йўналиш бўйича мустақил тайёрланишига имконият яратилади. Бунда ўқитувчи ва ўқувчининг ўзидаги ижобий ёки салбий ўзгаришларни кузатиш ва шунга қараб навбатдаги режаларини тузиши кўзда тутилади. Улар ўзини машқлар, тестлар асосида синаб кўради ва физика фани тўғрисида аниматсиялар, мультимедиялар ёрдамида яққол тасаввурлар ҳосил бўлади.

Замонавий Ахборот Технологиялари (ЗАТ) – бу маълумотларни олиш, сақлаш, кидириш, қайта ишлаш ва ахборот узатишдир. ЗАТларини қуйидагиларга ажратиш мумкин: *аудио-видео, компьютер, мультимедия, компьютер-конструктор*[2].

Ўқув жараёнига янги технологияларни қўллаш:

- *илгор педагогик методларнинг ривожланишига;*
- *масалалар ечиш жараёнида ўқитувчи иш услубининг ўзгаришига;*
- *педагогик системанинг структурасини ўзгаришига олиб келади.*

Экспертларнинг хулосаларига кўра, ўқув жараёнига ЗАТларини қўллаган вақтда табиий фанларни ўқитиш самарадорлиги 30% га ошганлиги айтиб ўтилган. Физика дарсларида компьютер дастурларидан фойдаланиш ўқувчиларнинг фанга бўлган қизиқишларининг ортишига, масалалар ечиш дарсларида, уйга вазифаларни ечишда компьютер дастурларини тузиб, мустақил фикрлашларига олиб келар экан [3].

Дарсда фақат бўр ва латта ишлатиладиган вақти ўтди. Ўқувчиларни самарали ўқитиш учун компьютерлар, проекторлар ва Ахборот-коммуникатсион технологиялардан (АКТ) дастурлари билан жиҳозланган аудиториялардан фойдаланишлари керак. АКТ кундалик ҳаёт талаби ва жамиятнинг глобаллашувида муҳим аҳамият касб этади.

Агар физика дарси давомида 3Д экранда электромагнетизм мавзусини босқичма босқич тушунтирадиган виртуал тақдимот пайдо бўлса, бундай тақдимотни ўқувчи ҳеч қачон эсдан чиқара олмайди ва чуқур ўзлаштира олади. Физика бу ҳар хил ҳодиса ва воқеаларни атрофдамиздаги олам билан боғлаб илмий ёндашиб диаграммалар ва суратлар орқали кўриб чиқиш бўлиб ҳисобланади.

Агар ўқувчилар берилаётган материалларни қуриш асосида қабул қилса, ахборотни хотирада сақлаш 25-30%ошади. Бунга қушимча сифатида о`қув материаллари аудио, видео ва графика қурилишида мужассамлашган ҳолда берилса, материалларни хотирада сақлаб қолиш 75% ортади.

Ҳозирги вақтда 20 дан ортиқ ЭҲМ дастурлари бўлиб, улардан физика дарсларини ўқишда кенг фойдаланилмоқда. Бу дастурларни қуйидагича классификацияларга ажратиш мумкин:

Демак, тузилган дастурларнинг қулайлик томони шундаки, масалалар ечиш жараёнида ўқувчиларнинг қизиқишларини эътиборга олиб, масалаларни қийин ва осон усулда ечиш технологиясини ажратиб олиш мумкин. ЗАТларидан фойдаланишда экспериментларнинг, намоёишларнинг, физика фани бўйича расмларнинг ҳаракатли тасвирини катта экранда кўриш имконияти мавжуд.

Бундай ноанъанавий дарсларни ўқув жараёнига қўллаганимизда ўқувчиларни фанга бўлган қизиқишлари ортади. Ўқитувчилар ва ўқувчиларнинг илмий-амалий конференцияларга маърузалар тайёрлашлари ҳамда фанга қизиқишни орттириш билан бирга уларда маъсулият ҳиссини тарбиялаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. // Баркамол авлод -Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т. Шарқ. 1997.
2. Қосимова А.Х., Холиқова Ф.А.. // Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. -Тошкент, - 2004. - 52 б.
3. Усманова Г.А. Тажриба-тадқиқот майдонларида илғор педагогик технологияларидан фойдаланиш. // Журнал Таълим технологиялари №1, - 2012, - б. 29-32.

PROKSEMIK VA PARALINGVISTIK OMILLAR

Muxtorova Albina Ilg'or qizi

Samarqand Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada nutqni ifodalovchi proksemik va paralingvistik vositalar va ularning leksik-semantik jihatdan qiyoslanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *notiqlik san'ati, paralingvistik vosita, proksemik vosita, verbal va noverbal muloqot.*

Notiqlik san'ati nafaqat so'z qudratidan, balki paralingvistik omillardan oqilona foydalana olishni ham o'z ichiga oladi. Jonli so'zning mo'jiza yaratishi-yu, so'zning qanchalik yuksak qudratga ega ekanligi hech birimizga sir emas, albatta. Ammo, notiq uchun faqatgina so'z boyligiga ega bo'lishning o'zi kamlik qiladi. Kishining betakror individualligini ifodalovchi erkin va qolipga tushmaydigan gapirish usuli, ma'nodor harakatlari, o'zini erkin va faol tutish usuli o'zgaralar nazarida uning samimiyligiga ishonch tuyg'usini uyg'otadi.

Shunday qilib, notiq faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishida uning tashqi qiyofasi-yu, ovoz xususiyatlaridan tortib muloqot qilish usuligacha muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi notiqning betakror imidjini yaratishda katta rol o'ynaydi.

Gapirayotgan odam ekadi va tinglayotgan odam hosil yig'adi deganlaridek, muloqotning maqsadi qabul qilinayotgan axbarotning tushunarligini ta'minlashdan iboratdir. Biz axborotni jonli muloqot, yoki axborot tarqatish vositalari orqali qabul qilishimiz mumkin. Axborot tarqatish vositalari orqali biz axborotni juda tez bilib olish imkoniyatiga egamiz, ammo shunday bo'lsada jonli muloqotning ko'p jihatdan ustun turishini hech birimiz inkor qila olmaymiz. Chunki, bunda notiq konkret auditoriya xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z nutqini tuzishi mumkin va eng asosiysi bunda paralingvistik omillarning, ya'ni ohang, emotsiya, mimika va jestlarning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Aynan paralingvistik omillar nutqning ishonchligi, ta'sirchanligi va jozibadorligini maksimal darajada yuqori cho'qqiga ko'taradi.

Ko'pchilik tilshunos va psixolog olimlar bu omillarni "tana tili" deb ham atashadilar. Tana tilini tushunish notiq uchun nafaqat o'zgaralar oldida o'zini to'g'ri tutish, balki ularda o'ziga nisbatan bo'lgan kerakli taassurotni uyg'otish, qolaversa, tinglovchilar diqqatini o'ziga qarata olishi uchun ham juda zarurdir. Inson tanasi u nima haqida gapirayotganidan qat'i nazar, o'z "unsiz tiliga" ega bo'ladi. Shu o'rinda taniqli rus rejissori K.S. Stanislavskiyning "Qo'llar fikrni oxirigacha bayon etishga yordam beradi" degan gapini eslatib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Bundan tashqari qadimgi Yunoniston notiqalaridan biri bo'lmish Demosfen ham, bu to'g'risida alohida to'xtalib, yaxshi notiq bo'lish uchun qo'l harakati, qo'l harakati va yana bir bor qo'l harakatiga katta e'tior berish kerakligini aytib o'tgan. Shunday ekan, notiq o'z nutqi jarayonida nafaqat chiroyli so'zlarga

, balki tana, qo'l harakatlari, mimika va boshqa nolissoniy vositalardan foydalanishi darkor. Bu esa shak-shubhasiz notiq nutqining muvafaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Paralingvistik vositalardan foydalanganda ham shunchaki foydalanish kerak emas, balki ularning ma'nolarini chuqur anglagan va bilgan holda o'z nutqida qo'llashi kerak. Chunki ba'zi paralingvistik vositalar turli mamlakatlarda turfa xil ma'nolarni anglatishi mumkin. Qaysidir mamlakatlarda u ijobiy ma'no anglatrsa, boshqa birida esa aksincha salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bularga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: slavyanlarda ko'rsatgich barmog'ini dahani ostidan chapdan o'ngga o'tkazish "to'ydim" ma'nosini bersa, bizda "kallangni olaman" ma'nosini beradi. Yaponiyada esa bu "ishdan bo'shatildingiz" degan ma'noni bildiradi. Aksariyat xalqlarda boshni yuqoridan pastga qarab silkitish "ha" degan ma'noni bildirsa, vengerlarda bu aksincha "yo'q", yaponlarda esa "iltimos, davom eting" deganidir. Bosh va ko'rsatish barmoqni birlashtirib ko'rsatish ko'pchilik xalqlarda "yaxshi" degan ma'noni anglatrsa, Avstraliyada "yomon" va Turkiya, Gresiyada esa juda qo'pol ma'nolarni bildirar ekan.

Noverbal muloqotning yana bir ustun tomoni shundaki; u suhbatdoshning yashirin maqsad va intilishlarini oshkor qilib qo'yishi mumkin va eng asosiysi esa "tana tili" inson ma'naviyatining qay darajada ekanligini namoyon qiladi. Bu borada Sh. Larashfuko har qanday hissiyotning o'ziga xos qo'l harakati va mimikalari borligini uqitirib, ular uyg'otgan taassurot odamlarni biz tomon intilishlariga yoki bo'lmasa, aksincha bizdan qochishlariga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Shunday qilib tana tilini yaxshi bilmasdan turib ulardan foydalanish, insonlarni noxush holatlarga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin ekan, ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanilsagina yoqimsiz holatlarning yuz berishining oldini olish mumkin bo'ladi.

Nutq jarayonini tashkil qilishda yuqoridagilardan tashqari yana bir muhim masala borki, biz uni chetlab o'tolmaymiz. Bu ham bo'lsa masofa masalasi. Bu bir qarashda e'tibor qilishga arzimaydigan masaladek ko'rinsa-da, aslida esa bu aksincha juda katta ahamiyatga ega. Afsuski, ba'zi bir odamlar suhbat jarayonida o'zining suhbatdoshiga juda yaqin kelib muloqatga kirishadilar. Bu esa ularning madaniy jihatdan qashshoqroq ekanligidan dalolat berib, tinglayotgan insonga noqulaylik tug'dirishi tabiiy hol. So'zlovchi tomonidan bunday holatga yo'l qo'yilmasligi uchun, undan masofadan turib gapirish qonun va qoidalarini bilish talab etiladi.

Nutqning masofadan urib tashkil qilinish qonun va qoidalarini proksemika o'rgandi. Proksemika inglizcha "proximity" so'zidan olingan bo'lib, "yaqinlik" degan ma'noni anglatadi. Bu masala bo'yicha birinchi bo'lib 1950-yillarda Amerikalik olim Edvard Holl ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U quyidagi to'rt masofa turlarini farqlab bergan:

- 1-intim masofa turi (0-0.5m);
- 2-shaxsiy yoki personal masofa turi (0.5m-1.2m);
- 3-ijtimoiy masofa turi (1.2m-3.65m);
- 4-ommaviy masofa turi (3.65m va undan yuqori).

Uning ta'kidlashicha masofa o'lchamlari mamlaktlarning madaniyatiga bog'liq bo'lib, o'zgarishi mumkin ekan. Masalan yuqoridagi ko'rsatgichlar sharq mamlakatlarida

biroz qisqaroq, g'arbda esa biroz uzunroq bo'lar ekan. 1973-yilda rus olimi Lebedev ham aynan shu masala xususida ish olib brogan. U ham Edvard Holl kabi masofa turlirini to'rtga bo'lib ko'rsatadi. Masofa o'lchamlari ham deyarli bir xil. U ko'proq personal masofa to'g'risida kuzatuvlar olib borib, uning ayol va erkaklar o'rtasidagi masofa o'lchamlaridagi farqlarga alohida to'xtalib o'tgan. Uning aytishicha shaxsiy masofa o'lchami yoshroq ayollar o'rtasida 55-100 sm ni tashkil qilsa, yoshi kattaroq ayollar orasida esa 125-230 sm gacha bo'lar ekan. Bu hol erkaklarda ularning yoshlaridan qat'i nazar o'zgarmagan holatda 70-156 sm ni tashkil qilar ekan. Kuzatuvlar oqibatida ma'lum bo'lishicha, odatda bo'yi uzun bo'lgan erkaklar yaqinroq kelib gapirishga, bo'yi pastroqlari esa uzoqroq turib gapirishga harakat qilshar ekan. Ayollarda esa aksincha ekan.

Xulosa qilib aytganda, S.Molcho ta'kidlaganidek, tasodifiy harakatlar bo'lmaydi. Biz paralingvistik omillarni va proksemik qonun-qoidalarni ruh va tananing dialogi yoki qalb ko'zgusi deb atashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.U.Saidov «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» T. 2007(63-b.);
2. U.Saidov «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» T. 2007(97-b.);
- 3.bus inessballs.com/body language
- 4.F.Larashfuko «Maksimning memuarlari» M.1993 (93-b)
5. "C:\Program Files\ABBY Lingvo x5\Lingvo.exe"
- 6.Wikipedia.ru.org/wikipedia
- 7.wiki.myword.ru

HAVONI TURLI ZARARLI CHANGLARDAN TOZALASHDA ELEKTROSTATIK USULNING AHAMIYATI

Baychayev Fazliddin Xusenovich

Navoiy davlat konchilik instituti

“Umumiy fizika” kafedrası, assistenti

Mustafoyev Islombek Ganiyevich

Navoiy davlat konchilik instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson sog'lig'iga xavfli bo'lgan havodagi turli zararli changlardan tozalash usullari va elektrostatik usul to'g'risida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *havoni tozalash usulari, elektrostatik usul, elektrod, ion gaz, turli zararli changlar.*

Toza havodan nafas olish bizning fiziologik ehtiyojimiz, sog'liq va uzoq umr ko'rish garovidir. Biroq, ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishi va dunyo aholisining tez suratda ko'payishi atrof-muhitni zararli bo'lgan chiqindilar hamda changlar bilan ifloslantirmoqda. Havodagi turli zararli changlar inson sog'lig'iga salbiy ta'sir qilib, uning tarkibiga kiruvchi turli xil mayda zarralar ko'pincha yuqori nafas yo'llarining allergik kasalliklarini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunga kelib, havoni turli zararli changlardan tozalashning bir nechta samarali usullari o'ylab topilgan bo'lib, ular turli maqsadlarda ishlatilib kelinmoqda. Ularni havoni tozalash tamoyiliga qarab, bir necha toifalarga bo'lish mumkin:


1. Elektrostatik usul (ionlashtiruvchi) - elektrostatik kuchlar ta'siri ostida gazni qattiq va suyuq zarralardan tozalash jarayoni amalga oshiriladi.

2. Fotokatalitik - katalizatorga kirgan organik moddalar, ultrabinafsha nurlanish ta'siri ostida zararsiz tarkibiy qismlariga parchalanadi.

3. Adsorbsiyali (ko'mirli) - zaharli aralashmalarni o'ziga yutub qolib, toza havoni chiqarish usuli.

4. Changli - bu eng oddiy usul bo'lib, changni o'zida tutib qoladigan turli matolar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda havoni turli zararli changlar tozalashining eng samarali usullaridan biri elektrostatik usul hisoblanadi. Chunki, bu usul katta sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlar paytida havoning tozaligini ta'minlash va undan zararli aralashmalarni ajratib olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi bo'lib, 1907-yilda amerikalik olim Frederik Gardner Kottrell tomonidan elektrostatik usul yordamida havodagi zararli zarrachalarni ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.



1-rasm

Elektrostatik usul mohiyati elektrostatikaning asosiy qonunlariga asoslanadi(1-rasm). Uning asosiy tarkibiy qismi asosan, tojli (-) va yig'uvchi(+) elektrodlar bo'lib, ular elektrostatik filtrlar deb nomlanadi. Bunda 30 ... 60 kV kuchlanishli elektrodlar orasidan zararli havo aralashmasi o'tishida zarrachalarning ionlanishiga olib keladi va natijada anionlar (+) va kationlari (-) bo'lgan ion gaz oqimi hosil bo'ladi. Ion gaz oqimiga elektrostatik kuchlar ta'sir qilishi natijasida, yig'uvchi elektrodlarda chang to'planadi. Shu tarzda, elektrostatik filtr orqali o'tgan havo tozalanadi. Bu yo'l bilan havoni tozalash jarayonida, elektrodlarda chang qatlami doimiy ravishda o'sib boradi. Uni vaqti-vaqti bilan olib tashlash kerak. Uy sharoitida ushbu jarayon qo'lda amalga oshirilsa, katta sanoat korxonalarida esa, elektrodni zararli moddalardan ajratish uchun zararsizlantirilib, boshqasiga almashtiladi.

Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, elektrostatik usulda havoni turli zararli changlardan tozalash quyidagi afzalliklarga ega:

- yuqori haroratlarda ishlash qobiliyati;
- to'yingan namlik muhitida qurilmaning ishlashi;
- noqulay muhitda ham ishlash qobiliyatining o'zgarmasligi;
- qurilmaning uzluksiz ishlash imkoniyati;
- ishlab chiqarish xarajatlarining kamligi;
- saqlash osonligi;
- qism va mexanizmlar ishonchliligining yuqoriligi;
- havoni turli changlardan tozalashning samaradorligi 99,9% ga yetadi;
- zarrachalar ushlab qolish imkoniyati mikron o'lchamlarda amalga oshadi;
- havoni zararli changlardan tozalash soatiga yuz ming kub metrni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME "E" harfi. Toshkent.2000 y.
2. Sultonov N. Fizika kursi. Darslik. T: Fan va Texnologiya, 2007.
3. Gurvis A.A. Пылеулавливание в металлургии. Spravochnik. M., "Metallurgiya", 1984
4. Экотехника. /Pod red. Chekalova L.V. Yaroslavl, "Rus", 2004.

JADIDCHILIK MAVZULARINI SAMARALI O‘QITISH METODLARI

Fattoyev Islom,
NavDPI magistranti


“Xalqimiz ozodlik, inqilob ma’nosini anglay olmadilar. Bularga hurriyat sirlarini, sabablarini, foydalarini anglatmoq kerak”, deganda Abdurauf Fitrat haq edi.

Darhaqiqat, bugungi egamanlik yillarida ozodlikning qanchalar aziz ne’mat ekanligi barchaga ayon. Bu kunlarga osonlikcha erishilmagani ham, buning uchun xalqimizning minglab navqiron, ilmi, ziyoli insonlarining qoni to’kilgani ham hech kimga sir emas. Jadidlarni shu yo’lda jonini tikkan fidoyilar desak, yanglishmaymiz.

Jadidlar millat taraqqiysi faqat ma’rifat va ilm bilan bo’lishini yaxshi anglagan va xalq ziyoli bo’lishi uchun na moli, na jonini ayamagan haqiqiy millatparvarlar edi. Shuni maqsad qilgan holda dasturlar ham ishlab chiqishgan edi. Vatanimiz mustaqiligi, millatimiz taraqqiysi haqida yosh avlodga ilm o’rgatar ekanmiz, ularga, eng avvalo, ushbu insonlarning aslida kim ekanligi, qanday fidoyiliklar ko’rsatganligini to’g’ri yetkaza olsakkina, ularda haqiqiy vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantira olishdek oliy maqsadimizga erishgan bo’lamiz. Zero, shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot tarix fani o’qituvchilari oldiga ham buyuk vazifalarni qo’ymoqda.

Maktabning 9-sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan darsligida jadidlar haqidagi mavzular 4 soatga mo’ljallangan. Bu jadidlarning dasturi va maqsadlarini yoritish uchun yetarli emas. Mavzular deyarli tarixiy faktlar, xronologik sanalardan iborat. Ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlar qamrab olingan-u, rivojlantiruvchi maqsadga e’tibor kamroq. Shu bois, ushbu mavzularni o’qitishda tarix fani o’qituvchisi mavzuga ijodiy yondashgan holda o’quvchilarga turli metodlardan foydalangan holda qo’shimcha ma’lumotlar bersagina rivojlantiruvchi maqsadni amalga oshirgan hisoblanadi. Ushbu mavzularni yoritishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. “Venn diagramma” metodi. Bu metodda o’quvchilarga jadidlarning amalga oshirgan ishlaridagi o’xshash va farqli jihatlar o’rgatiladi. Bunda o’quvchilar har bir doira ichida ismi ko’rsatilgan jadidning individual ma’lumotlarini yozadilar va doiralarni birlashgan qismda har uchchala shaxsga oid umumiy jihatlarni yoritib beradilar.



2. “Strategiya” metodi. Mazkur metod o’quvchilarda vatanparvarlik tuyg’ularini rivojlantirishda, ajdodlar yutuqlarini o’zlashtirishda hamda siyosiy faollikni oshirishda samarador hisoblanib, shaxsan o’zim yaratgan holda darslarimda doimiy foydalanib kelaman.



Ma'lumki, taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug'va istiqbolli maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan 5 yilga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi mamlakatimizni taraqqiyot tomon shiddat bilan yetaklamog'da, desak mubolag'a bo'lmaydi.

“Strategiya” – bu ma'lumotni izlash, ifodalash va rivojlantirish metodi bo'lib, u izchillik bilan, to'liq amalga oshirilganida maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Mazkur metodda “Haraklar strategiyasi” suratining har bir rangi ostida bir jadid namoyondasining surati taqdim etiladi hamda uning kim va qanday ishlarni amalga oshirganligi so'raladi. Ushbu metodda guruhlar bilan ishlanadi. Guruh vakillari topshiriqni bajargach, o'qituvchi jadidlarning maqsad va vazifalarini umumlashtirib, kelajakka qo'shgan hissalariga to'xtaladi, ularning harakatlarini davom ettirsa, taraqqiyotga erishilishi uqtiriladi. Bu metod o'quvchilarda ajdodlarga mehr, Vatanga muhabbat, avlodlar uchun mas'ullik tuyg'ularini rivojlantirishda samadordir.

3. “Olti shlyapa” metodi. Ushbu metodda har xil rangdagi 6 ta bosh kiyimni bir o'quvchining o'zi birma-bir “kiyishi” kerak. Oq rangda mavzudagi barcha faktlarni sinchkovlik bilan va xolis tekshirish topshirig'i bajariladi. Sariq rangda afzalliklarni tahlil qilish, qora rangda kamchiliklarni topish, yashil rangda bir nechta g'oyalar berish, qizil rangda hissiy munosabat bildirish va ko'k rangda umumlashtirish kerak bo'ladi.



Mazkur metod o'quvchilarni har tomonlama fikrlashga, eng maqbul xulosalarni qilishga, bir mavzu turli rakursdan o'rganishga yordam beradi. Masalan: 1917-yildagi Buxoro amiri Olimxon tomonidan chiqarilgan bir qator islohotlarni o'zida jamlagan farmoniga buxorolik jadidlar tomonidan tuzilgan Yosh buxoroliklar qo'mitasining munosabati masalasida fikr bildirishadi. Ushbu mavzuda mazkur metodni quyidagicha qo'llash mumkin: 1.Yuqoridagi fakt darslikdagi ma'lumotlar asosida o'rganiladi(oq); 2.Qo'mitaning tinch yo'l bilan amirni isloholarga ko'ndira olganligi(sariq); 3.Qo'mitaning o'zida bu masalada yakdillik bo'lmay, bo'linish yuz berganligi, radikal harakat tarafdorlarining ajralib chiqqanligi(qora); 4.Amir va uning tarafdorlari bo'lgan mullalar guruhi bilan muzokara olib borib, islohotlar xalq va mamlakat uchun nechog'lik zarur

ekanligini tushuntirish g'oyasini berish(yashil); 5.Sodda xalqimizning hayoti yaxshilanishiga bo'lgan umidi puchga chiqqanligi(qizil); 6.Kerak paytda birdamlikni yo'qotmaslikning ahamiyati(ko'k).

Yuqorida sanab o'tilgan metodlar tarix fanini o'qitishda, ayniqsa, jadidchilik harakatini yoritishga mo'ljallangan mavzularni o'qitishda samarali hisoblanadi.

KELAJAK YOSHLARI QANI ?

Muzrobxonova Madinabonu,
*Parkent tumani 17-umumiy o'rtta
maktabi 8-B sinf o'quvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hayotimizga allaqachon muqim o'rnashib olgan uyali aloqa vositalarining bugungi fenomen yoshlar faoliyati, hayotidagi ahamiyati, uning foyda va zararlari haqida ikki avlod vakillarining, muallifning fikrlari, dunyoqarashlari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Uyali aloqa vositalari, o'tmish, bugun va kelajak, yoshlar, vaqt, zamon*

Hayot insonga berilgan ne'matlar ichida eng xayrlisidir.

Bu umrda qanday yashamoq, uning har bir onini nimalarga sarflamoq, albatta o'zimizga bog'liq. Zamon shiddati bilan tobora rivojlanib borayotgan dunyoimizda texnika imkoniyatlarini hech nima bilan tenglab bo'lmasligi rost. Kezi kelganda uzoqni yaqin, og'irni yengil qilayotgan mana shu vositalar dastyorimizga ham aylanib ulgurgan. Bizning mamlakatimiz O'zbekiston ham mobil telefonlardan foydalanish shiddat bilan ortib borayotgan davlatlar sirasiga kiradi. 2020 yil avgust oyi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda mobil aloqalaridan foydalanuvchilarning soni 18 milliondan oshib ketgan. Shundan 10 foiz atrofida foydalanuvchilarning voyaga yetmagan o'smirlar ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekistondagi yil sayin shiddat bilan ortib borayotgan internet foydalanuvchilarning salmoqli qismini ham aynan yoshlar tashkil etishi aytiladi. So'nggi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, olti yarim milliondan ko'proq internet foydalanuvchilarning teng yarmini mobil telefon orqali kiruvchilar tashkil etadi. Kuzatuvchilarga ko'ra, o'smirlar hayotining muhim tarkibiga aylanayotgan uyali telefonlar zararli bo'lsa ham undan butunlay voz kechib bo'lmaydi. Shu o'rinda haqli savollar tug'iladi? Balki yoshlarning orasida foydalanish madaniyatini shakllantirish kerakmi? "Insonlar ushbu "ideal texnika"lar bilan bir zamonda baxtlimi???" Biz ushbu savol bilan murojaat qilgan holda yurtdoshlarimiz fikrlari bilan qiziqdik. IBRAGIMOVA ADOLAT 66 – yoshli onaxonimiz bilan samimiy suhbat jarayonida ular bizga quyidagilarni hikoya qildilar; "Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda qo'lida mobil telefon bo'lgan bolani ko'rib hech kim hayron qolmasa kerak. Bir tomondan, bu odatiy hodisa, ammo boshqa tomondan, beixtiyor bir fikr ongimizdan zumga sirg'alib o'tadi - hali erta emasmi? Bu zararli emasmi? Biz ushbu hodisaning ijobiy va salbiy tomonlarini tushunamiz va shu bilan birga, bunday sovg'aning qaysi yoshida ko'proq foyda keltirishi va nima bo'lishi kerakligini bilib olsak yaxshi bo'larmidi? Hozirgi kunda chaqaloq o'tirishni, yurishni va o'ynashni boshlashi bilanoq, uning nigohi onasining uyali telefoniga tushadi. Bu yoshdan boshlab chaqaloq yangi texnologiyalarga intila boshlaydi. Albatta, bunday o'yinchoq shaxsiy foydalanish uchun berilmaydi, ammo bola uchun bu uzoq kutilgan lahza uzoq emas.

Bizning yoshligimiz o'tgan 1914- yil davrida uzoqni, yaqin qiladigan vositalar bo'lmagan. Ammo ular juda ham yaxshi hayot kechirishgan. Hozirda bir zum qo'lida bo'lmasa turolmaydigan, telefon orqali oilasi buzilib ketayotgan, o'zbek mentalitetiga to'g'ri kelmaydigan har hil videolar bilan tanilayotgan yigit-qizlar manqurt kimsaga aylanib bormoqda. Shu o'rinda ushbu texnikalarning foydali tomonlari ham borligi rost. Lekin hamma narsani o'z o'rnida ishlatishni bilish ham bir san'at aslida."

Navbatdagi suhbatdoshimiz 14 yoshli Mobil telefonining chaqirish signaliga musiqa qo'yib olgan Asilboyeva Muslima ko'pchilik sinfdoshlari singari u ham uyali telefondan foydalanishni afzal deb biladi. Telefon orqali asosan sinfdoshlari bilan gaplashadigan, chet el tillarini o'rganishda yordam berayotgan telefonlar mana shu vositalar hisoblanadi. Bugungi katta yoshdagi aholi fikriga ko'ra 100% dan 60% insonlarga telefon shart emas. 40% yosh o'quvchilar telefon shart degan fikrlarning guvohi ham bo'ldik. Ammo biz o'qishni unutib, toboro ijtimoiy tarmoqlarga berilib ketyabmiz. Shifokorlar "mobil telefonlarda elektromagnit maydoni hosil bo'lishini, bolalarning asab tizimi kattalarga qaraganda rivojlanmagan, immuniteti hali yaxshi rivojlanmaganligi, bolalarning bosh suyagi juda yupqa bo'lishi. shuning uchun nurlar ko'proq o'tishini, agar bir xil kuch bo'lganda ham ta'siri ko'proq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

2020-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, bitiruvchi maktab yoshlarining 100% dan 30% igina OTMlarga qabul qilingan. Bu ayanchli hol har yili takrorlansa davlatimiz rahbarining kelajak yoshlari to'g'risidagi o'ylari puchga aylanishi mumkin. Bizlar uchun berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanmog'imiz lozim. Tengdoshlarimiz hozirgi kunda ilm fan bilan mashg'ul. Yoshlar uchun yo'lga qo'yilgan imkoniyatlar juda katta. Tadbirkorlik, shoiralik, yosh jurnalistlar uchun imkoniyatlar, bog'dorchilik, uzumzorlik, mahsulotlarni chet elga eksport qilish; bularning barchasi yoshlar uchun.

Hammasi elektron variantdan foydalanishi mumkin. Do'stlari bilan elektron ko'rinishlarda fikr almashishi, dunyoviy ma'lumot olishi lozim. Kerakmas saytlarga

Kirib, kerakmas kinolar videolar ko'rish shart emas. Bundaygina faqat biz oltinlarga teng soat, daqiqa, sekundlarni yo'qotamiz. Bu daqiqalar hech qachon qaytib kelmaydi. Olamga shunday ko'z bilan boqaylikki, zamonaviy ixtirolar yarataylikki, butun dunyo lol qolsin. Unutmang azizlar! Kelajagingizni barpo qilish ham barpod qilish ham o'z qo'limizda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Google.uz
2. Xalq og'zaki ijodi
3. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun

ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Mamarahimova Nargiza Turdiyevna

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi

60-umumiy o'rta ta'lim maktabning

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda tilni o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayonida oldindan rejalashtirilgan va to'laligicha loyihalashtirilgan, muayyan vaqtga mo'ljallangan, ta'lim jarayonida ko'proq ta'lim oluvchi shaxsiga qaratilgan, faollashtirilgan usullar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalangan holda o'quv maqsadiga erishishni kafolatlaydigan ta'lim berish jarayonidir.

Pedagogning jonli nutqi, harakatli mashqlari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Texnologiyalarni qo'llaganda o'quvchi bilimni kuzatish, bilimlarining o'siishida jamiyatda vujudga kelgan asosiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularning rivojlanish yo'llari va usullarini aniqlash, mosini tanlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullariga ahamiyat berishimiz kerak.

Texnologiyalarni metodikadan farq qiluvchi omillar:

1. Zamonaviy-an'anaviy o'qitish elementlarining mavjudligi;
2. Pedagogik jarayonda shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyani mavjudligi;
3. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogic texnologiyalar;
4. O'quv jarayonini samarali boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar;
5. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
6. Xususiy o'quv predmetlariga tegishli texnologiyalar.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rni, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash,

alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirish, o'z fikrini, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning ahloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim. O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o'quvchilarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda.

An'anaviy yo'nalishdagi dars didaktik maqsadiga ko'ra:

- yangi bilimlarni o'zlashtirish; o'rgatilgan bilimlarni amaliy tatbiq etish orqali mustahkamlash;
- o'tilganlarni takrorlash;
- bilim va malakalarni mustahkamlash;
- o'quvchi bilimini nazorat qilish va baholash;
- ularni bir tizimga keltirish kabi turlarga ega ekanligi pedagogika fanidan yaxshi ma'lum.

Ammo bashariyatning iqtisodiy -ijtimoiy ravnaqi, ilmu fan sohalaridagi yangi-yangi yutuqlar ta'limning asosiy vositasi bo'lgan dars (mashg'ulot) va uning turlarining ko'payishiga, takomillashuviga olib keldi.

Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash, o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilash, unga yangicha yondoshuvi, yangicha munosabatni ta'minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Ona tili darslarida musobaqa mashqlarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir.

Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular: "So'zdan gaplar yasang", "Nutq tovushlari musobaqasi", "Zakovat" darslari va hakazolar.

Ona tili metodikasida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til ta'limi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Dars mashg'ulotlarini rang – barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga hamda ijodga rag'batini ortadi.

POETRY TRANSLATION IS THE WORK OF THE SOUL

Sultonova Dildora Halim qizi*O`zbekiston Davlat Jahon tillar Universiteti,**Magistratura 2-bosqich talabasi;**Uchtepa tumani 123-maktab ingliz tili o`qituvchisi;***Isayeva Sitora Husniddin qizi***Yangi yo`l tuman 58-maktab ingliz tili o`qituvchisi**Toshkent, O`zbekiston Respublikasi*

Annotation: Topicality of the theme: *is conditioned by: 1) about the world of poetry; 2) necessity of different aspect of the poem 3) the importance of analysis of approaches in the poem in English and Uzbek.*

Maqola she`riyat olamiga bag`ishlangan bo`lib, she`rlarni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish usullari va yo`llari aytib o`tilgan. Mashhur o`zbek shoirlarining she`rlarini ingliz tilidagi tarjimalari keltirilgan.

The aim of the article. *This paper is devoted to the analysis of linguistic features of some English and Uzbek poems. The equivalents of some poems in a target language are given for interpreting them in the other language to find out several important innovative ways of translation and contrasting their peculiarities in the English and Uzbek languages. The results and examples of this paper can help to distinguish some differences in the meanings of the English and Uzbek poems and to learn linguistic peculiarities of them.*

Key words: *equivalent, aruz, yamb, vazn, radif, rubai.*

Literary translation involves a complex creative process. This complexity is especially evident in the translation of poetry. That is why we rightly call the representative of this field a poet-translator. The prose play has a plot, composition, plot and solution. In the words of the writer Askad Mukhtor, the translator is not an artist, but a painter, and conveys the author's opinion to the reader through various methods of translation, including metonymic, transformation, implicit (hidden) meanings. Strives to deliver more accurately. But it takes poetic inspiration and skill to translate the melody and lyrical experience of a four-line poem in a way that takes place in the heart of the reader. The translator of a work of poetry is radically different from a translator who works on a bespoke basis, dealing with other areas of translation (translation of scientific and technical, simultaneous, information and analytical materials). After all, he has an innate talent for feeling poetry in his heart. In this sense, custom-translated poems may not always be effective. This is because poetic translation, like poetry, is born when it is inspired, when the work has a strong influence on the translator. In the work of a translator who translates a poem with an order in hand, the priority is not the pleasure of creativity, but the desire to

deliver the order to the owner as soon as possible. Let's try to analyze some of the translated works as examples to prove our point.

Alisher Navoi's English translations of the rubai clearly reflect the oriental tone, rhythm and rhyme, as well as the beauty of the great poet's work. Here is an example:

Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.

Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin-ayog'ing yaxshi.

We read these verses in English translated by Kosim Mamurov:

Your eyes and brows are good, eyelids are good,
Your appearance and words are good, your lips are good,
Your cheeks with marks are good, chins are good,
Shall I name one by one, you are good from head to foot.

The combination of the original nouns has also been translated. The translator tried to create a melody by giving the words rhyme, *qabog'ing*, *dudog'ing*, *saqog'ing*, *ayog'ing* in English with the words *eyelids*, *lips*, and *chins*, which came before the radif. The melody of the rubai is fully preserved in the translation. There is no yamb in Uzbek poetry, just as there is no **aruz** in English poetry. From this point of view, there is a stark difference between yamb and aruz. The translator boldly wrote to harmonize the two distant poetic systems and traditions. He added a radiant rhyme to the English yam, giving it a new tone that could preserve the original conciseness and emotionality. The result is a poetic commonality, a combination of a third, a poetic element of the mother tongue and a foreign language.

The translation of the rubai with the radif "Opay" can also be called a western melody of the oriental style in terms of tone and sound:

Dedim zaqaning tutub, saqog'ingni o'pay,
Ko'z-qoshingga surtubon qabog'ingni o'pay,
Guldek yuzung islabon dudog'ingni o'pay,
Yo'q, yo'q, yo'q, agar desang ayog'ingni o'pay.

English translation:

I said, holding by your chin your cheeks I kiss,
Licking your eyes with eyelids your brows I kiss,
Smelling your rosy cheeks your lips I kiss,
If you say: No, No, No, your foot I kiss.

The translation is so clear and understandable that Navoi's tone can be felt in the English text. The desire of the lover to kiss his lips, cheeks, and eyebrows, and if this dream is not achieved, at least to kiss his feet and bleed to his friend, is an ointment for the pain of

the trade of divine and figurative love in both texts (in fact, even in translation) is equally clear and beautifully expressed. The question-and-answer art used in the rubai has also been recreated in translation.

Translating poetry is a work of the heart. Because poetic translation is belong to inspiration. And inspiration comes when you feel down. Therefore, the translator must sit in a calm, quiet environment during the translation of a work and be in the embrace of hot creativity.

USED LITERATURE:

1. Gulnoza Odilova, candidate of philological sciences. Newspaper «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» N2, 2013-y.
- 2 . Kosim Ma`murov personal blog <http://kosimamur.blogspot.com>

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

Salovov Isroil Kamoliddin o'g'li

Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashi Deputati,

O'zMTDP "YOSHLAR QANOTI" faoli,

Parkent tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi Yoshlar yetakchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hamma uchun dolzarb muammo bo'lgan boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi rivojlanishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, darslarga puxta hozirlik ko'rish, shuningdek O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta ahamiyat hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalar xususida fikrlar keltirilgan .*

Kalit so'zlar: *Chet tili, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar, boshlang'ich ta'lim, qiziqarli o'yinlar.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanib, odimlab borayotgan zamonda chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu qaror asosida chet tillarini ,asosan ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa ,alifbo ,o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi.

Yurtimizda xorijiy tillarning o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa standartlariri tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy

innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishda qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklessiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi subyekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Qiziqarli o'yinlar orqali ingliz tilini o'rgatish :Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqli o'rgatishning o'zni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Mana shunday interaktiv, qiziqarli o'yinlardan biri "Pantomima" didaktik o'yinidir. PANTOMIMA: ("PANTOMIME"). Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi. Bu o'yin orqali bolalarda ham aqliy, ham jismoniy harakat qilishga undaydi. Bolalarda zukkolik, topqirlik, ziyraklik, chaqqonlik, harakatlilik omillari rivojlanadi. Zero, bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerakligi bugungi dunyo tajribasida allaqachon o'z ifodasini topishga ulgur.

Xulosa qilib aytgandigan bo'lsak, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilin o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muammoning amaliy yechimini ta'minlaydi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan — el biladi».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston respublikasi prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'risida"gi PQ- 1875-sonli qarori;

2.Iriskulov A.T va boshqalar "Kids' english pupils' book", 2-sinf Toshkent-O'zbekiston;

3. N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. "INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet;

4. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU,2005.

O'ZBEKISTONDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODIKASI TARIXI VA RIVOJLANISHI.

Bekmuratova Gulbaxar Davletovna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri
1-sonli kasb hunar maktabi Matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqoladagi ma'lumotlardan matematika darsining kirish qismida foydalanishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *real dunyoning fazoviy formalarini va miqdoriy munosabatlari, flyuksiyalarni hisoblash usuli, algebraik tenglamalarni radikallarda hal qilish, mantiqan va tarixan rivojlanish.*

Matematika fanini rivojlanishini asoslari, boshqa fanlarini rivojlanishi kabi, insoniyat faoliyatining amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Fanning rivojlanishi bu ishlab chiqarishning shakllanishi bilan asoslanadi.

“Matematika, boshqa fanlar kabi, odamlarning amaliy ehtiyojlari natijasida vujudga keldilar: yer maydonining yuzalarini ulchash, idishlarning sig'imini o'lchash, vaqtni o'lchash va mexikaning elementlaridir”. F.Engels. Andi - Dyuring. Haqiqatan ham matematikaning turli bulimlari real dunyoning fazoviy formalarini va miqdoriy munosabatlarini o'rganishda o'zining metodlarining turli tumanligi bilan ajralib tursada, yagonaligi va umumiyliigi bilan yaxlit birlashtirib turadi.

Matematika fanining mazmuni quyidagicha;

- 1) uning rivojlanish jarayonida yig'iladigan - faktlar;
- 2) faktlar asosida ilmiy tasavvurning shakllanishi - gipoteza. O'z o'rnida bu tajriba orqali tekshiriladi;
- 3) faktlar va tajribalar natijalarini umumlashtirish hamda ularni nazariya va qonunlar ko'rinishiga keltirish;
- 4) nazariya va qonunlarni o'rganish, matematikani o'rganishni xarakterlaydigan umumiy yo'nalishlarni ifodalovchi metodologiyani yaratish.

Bu elementlar doimo o'zaro aloqadorlikda va rivojlanishdadir. Ana shu aloqadorlikni va rivojlanishni o'rganish bizlar qanday tarixiy davrga olib borishni aniqlash ro'yobga kelish sabablarini aniqlash - aynan mana shu matematika tarixining predmetini ifodalaydi. Shuning uchun matematika tarixi - matematikaning rivojlanishining qonunlarini o'rganuvchi fandır. Yuqoridagi aytilganlarga asosan matematika tarixi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak.

Birinchidan - matematikani fan sifatida rivojlanishining haqiqiy mazmuni yoritilishini. Bularda matematikaning metodlari, tushunchalari va fikrlari qanday paydo bo'lganligi, ayrim matematik nazariyalar tarixan qanday dunyoga kelgani yoritilishini.

Xalqlarda ma'lum tarixiy davrlarda matematikani rivojlanishini xarakteri va xususiyatlarini aniqlashni barcha zamondagi ulug' olimlarning qo'shgan hissalarini yoritishni hal qilish.

Ikkinchidan - matematika tarixi matematikani turli-tuman aloqalarini ochishi; jumladan; matematikani odamlarning amaliy ehtiyojlari va faoliyatlari bilan aloqasini, boshqa fanlar rivojlanishi bilan aloqasini ochish, jamiyatning sotsial va iqtisodiy strukturasi va sinfiy kurashlarga ta'sirini ochish, xalqlarning olim individining, olimlar kollektivining rolini ochishdan iborat.

Uchinchidan - matematika tarixini o'rganish hozirgi zamon matematikasini mantiqiy mazmunini, rivojlanish dialektikasini va kelajagini to'g'ri tushunishga yordam berishi kerak. Matematika juda qadimgi fanlardan biri bo'lib dastlabki bosqichlarda o'zaro muomala va mehnat faoliyatlari asosida shakllana boshladi. U asta-sekin rivojlana boshladi, ya'ni faktlar yig'a boshladi.

Matematika mustaqil fan sifatida vujudga kela boshlaganda uning bundan keyingi rivojlanishiga matematik bilimlarning o'zi ham ta'sir eta boshladi. Shulardan ba'zilarini qayd etib o'taylik.

1) N'yutonning (differentsial va integral xisobining ilk qadamlari) flyuksiyalarni hisoblash usuli darhol mexanikani masalalarini hal qilishni umumiy metodi darajasigacha ko'tarildi.

2) Lagranj algebraik tenglamalarni radikallarda hal qilish problemasini izlaganda tenglama ildizlarini —gruppalash masalalarini qaragan edi. Keyinroq esa E.Galua gruppalar nazariyasini rivojlantirib, yuqoridagi problemani hal etdi. So'ng XIX asrda A.Keli gruppaga ta'rif berdi. S.Li esa uzluksiz gruppalar nazariyasini yaratdi. 1890 yilda E.S.Fedorov gruppalar nazariyasi kristollografiyaga tatbik etdi. Hozirda esa gruppalar nazariyasi kvant fizikasining ilmiy quroliga aylangan. Bulardan ko'rinadiki matematika nafaqat o'z-o'zini rivojlantiradi, balki boshqa fanlarning rivojlanishiga va aksincha boshqa fan yutuqlari asosida o'zi ham rivojlanadi.

Matematika metodlarini tabiiy fanlarga tadbiqi;

1) U yoki bu hodisani mazmuniga mos keluvchi matematik masalani bayon etish, ya'ni matematik modelni vujudga keltirish va uni echishning metodini topish;

2) Matematik modelni yechish va uning forma va metodlarini takomillashtirish va mantiqiy kamolotga intilish;

So'ngi yillarda fan va texnikaning jadal rivojlanishi (kibernetika, hisoblash texnikasi,...) ekonomika, boshqarish sistemasi, psixologiya sohalarda matematikaning roli yanada kuchayib ketdi. Matematika tarixi matematikaning rivojlanish jarayonida ko'pdan – ko'p yorqin dalillar bilan bir qatorda qorong'u zulmat davrlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Haqiqatdan, ham din peshvolari din ta'limotiga mos kelmagan har qanday yangilikning yo'q qilishga yoki bo'g'ishga intilganlar. Faqat ayrim olimlarning katta jasoratigina fanni ilgari siljishi uchun imkoniyatlar yaratib bergan.

Matematika fanida ilg'or va reaksion kuchlarning kurashi har doim sinfiy xarakterga ega bo'lib kelgan. Ayniqsa tarixiy va filosofik masalalarda bu yaqqol ko'rinib turadi .

Demak, matematika tarixini bilish fanni mantiqan va tarixan rivojlanishining asosiy faktlarini va qonunlarini to‘g‘ri bilish va talqin qilish imkonini beradi, sxolostikani bartaraf etadi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003 yil.
2. Farberman V. «Ilgʻor pedagogik texnologiyalar». T. «Fan» 2000 yil.
3. Ishmatov Q. «Pedagogik texnologiya». Namangan 2004 yil.

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGI****Maxkamova Xafiza Kazakbayevna***Toshkent viloyati, Nurafshon shahar**10-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishni yangi Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan. Hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning pedagogik fikrlashida o'rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jaryonida qo'llashga oid tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan: o'quvchilarni boshqalar fikrini eshitishi, tushunishi, hurmat qilishi, o'zgarlar manfaatlarini bilan hisoblashishi, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish.

O'qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruxlantirdi, natijada o'quvchilar hamkorlik o'rgana boshladi. Har qanday interfaol metod to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya ta'lim tizimining rastional yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda etkazib berishidan iborat.

O'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe'latvori har xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Bunda o'quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo'lib, o'qish, mutolaa qilish, chizma chizish, proektstiyalar formulalarini tushunib asboblarni ishlata olishi, bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib, oldilariga qo'yilgan muammolarni yechishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshlarimizni o'ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishning vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning

majmui pedagogning umumlashtirilgan modelini va unga asosan quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi: ta'lim berish mahorati, tarbiyalash olish mahorati. O'quv tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlarini – ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Demak, o'qituvchi pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazarda yangilashi;
- axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tadbiiq etish, internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi.

- oilaviy ta'lim-tarbiya muammolari bo'yicha tasavvurlarini rivojlantirishi.
- dars jarayonida pedagogika texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'llarini bilishi.
- o'quvchilarning fikrlashlari va bir-birdari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi.

Yuqoridagi pedagog shaxsiga qo'yiladigan zamon talablari mazmunli amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrlashi, tafakkurini o'stirishi, pedagogik tehnologiyalari mustaqil o'rganishi, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak. Yangi pedagogik tehnologiya nima va biz uni qanday tushunamiz? An'anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada? Yangi pedagogik tehnologiya darslarning an'anaviy darslardan farqi shuki bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “ O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Farmoni, PF-5712. 2019 yil 29- aprel.
2. “ O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” //Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq”, 1997 yil.

TUB SONLAR VA TUB SON HAQIDAGI TEOREMLAR

Maxmudov A'zam Qudratovich

*Surxondaryo viloyati Termiz shahri**Termiz davlat universiteti akademik litseyi**Matematika fani o'qituvchisi*

Matematikada noldan to'qqizgacha bo'lgan belgilardan foydalaniladi. Ya'ni 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 lardir. Bu belgilarga raqamlar deyiladi. Sonlar esa raqamlardan hosil bo'ladi.

Masalan.

1) 93 soni 9 va 3 raqamidan hosil bo'ladi.

2) 275 soni 2, 3 va 5 raqamlaridan hosil bo'ladi.

Agar son nechta raqamdan tuzilgan bo'lsa, u shuncha xonali son deyiladi. Masalan. 56 soni ikki xonali, 268 soni uch xonali, 35689 soni besh xonali sonlardir.

Sanashda ishlatiladigan sonlar natural sonlar deyiladi. Natural sonlar 1 dan boshlanadi. Demak, eng kichik natural son bir. Eng katta natural son mavjud emas. Chunki eng katta deb olgan natural songa birni qo'shsak undan katta son hosil bo'ladi. Natural sonlar N harfi bilan belgilanadi.

Berilgan sondagi har bir son aniq bir xona va sinfga ega bo'ladi. Berilgan sondagi chapdan o'nga qarab har bir raqam bitta xona birligini, har uchta raqam esa sinf nomini bildiradi.

Sonlar odatda 2 turga bo'linadi:

Tub va murakkab sonlar.

Tub son — birdan katta natural son bo'lib, ikkita natural bo'luvchiga ega: 1 va o'zi. Tub sonlarni xossalari o'rganuvchi fan Sonlar nazariyasi deb ataladi.

Tub sonlar ketma-ketligi quyidagilardan boshlanadi:

2, 3, 5, 7, 11, 13, 17, 19, 23, 29, 31, 37, 41, 43, 47, 53, 59, 61, 67, 71, 73, 79, 83, 89, 97, 101 va hokazo

Tub sonlarning cheksiz ko'p ekanligini birinchi marta Yevklid isbotlagan.

Bir soni tub ham, murakkab ham emas

Eng kichik tub son 2 ga teng

Ta'rif. Faqat ikkita turli bo'luvchiga ega bo'lgan natural son tub son, ikkitadan ko'p turli natural bo'luvchiga ega bo'lgan natural son murakkab son deyiladi.

Izoh. p tub son 1 dan farqli bo'lib, faqat 1 va p ga bo'linadi.

Bir tub son ham, murakkab son ham bo'lmaydi. Bir shunday birgina maxsus natural son bo'lib, faqat bitta bo'luvchiga ega.

1-teorema: Birdan boshqa har qanday natural son hech bo'lmaganda bitta tub bo'luvchiga ega.

2-teorema: Har qanday murakkab son tub sonlar ko'paytmasi shaklida faqat birgina usul bilan tasvirlanishi mumkin.

Sonni tub sonlar ko'paytmasi shaklida ko'rsatish kanonik yoyilma deyiladi. Misol, $210=2\cdot3\cdot5\cdot7$

Ba'zan murakkab sonni tub ko'paytuvchilarga ajratganda tub ko'paytuvchi takrorlanishi mumkin. Masalan, $24=2\cdot2\cdot2\cdot3=2^3\cdot3$

Tub ko'paytuvchilarning takrorlanib kelishini hisobga olib murakkab A sonning tub ko'paytuvchilar shaklidagi kanonik yoyilmasi deb quyidagi ko'rinishdagi yozuvga aytiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bikbayeva N.U va boshqalar Matematika 2 - Toshkent.: O'qituvchi, 2005, 208 bet.
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.- T.: "Ilm-Ziyo", 2005, 240-bet
3. Xamedova N.A va boshqalar Matematika-Toshkent.: Turon-Iqbol, 2007, 312 bet.
4. Xoliqov A "Pedagogik mahorat" - Toshkent.: Iqtisod - moliya, 2010 - yil, 350 b.

O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI.

Turdibekova Nigora Zokirovna*Toshkent shahar Sergeli tumani**300-IDUMI ona tili va adabiyot**fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali davlat tilimiz haqidagi ayrim ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Tilning ijtimoiyligi; tilning rivojlanishi; davlat tili; lisoniy omil; nosiloniy omil; til bo'limlari.*

Til ijtimoiy hodisadir. Chunki u biror yakka shaxs yoki guruh tomonidan yaratilmaydi. Til jamiyatning maxsuli bo'lib, ibtidoiy jamoa davrida kishilarning birlashib yashashi va birga mehnat qilish jarayonida yuzaga kelgan. U faqat jamiyatda, odamlar orasidagina mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Til jamiyat tomonidan yaratilganligi uchun ham, uning yashashi va rivojlanishi shu tilda gaplashuvchilarning mavjudligi va taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Chunki jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlar ta'sirida til ham o'zgarib va rivojlanib boradi. Buni ayniqsa, tilning lug'at sathida yaqqol kuzatish mumkin. Demak, tilning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langandir.

O'z navbatida jamiyat ham tilsiz rivojlana olmaydi. Zero, u kishilarning o'zaro muomala va munosabatlarini ta'minlovchi eng muhim aloqa vositasi sanaladi. Kishilar o'zlarining eng nozik his-tuyg'ularidan tortib eng oddiy salomlashishgacha barchasini til orqali ifoda etadilar.

Hazrat Alisher Navoiy:

Til ayladi insonni judo hayvondin

Bilkim guhari yo'q sharifroq ondin.

deb bejiz yozmagan edi.

Dunyoda 3000 dan ortiq til bo'lib, ular o'zaro genetik jihati, tipologiyasi, mohiyati, yozuvga ega yoki ega emasligi, jamiyat hayotida tutgan o'rni va unda gaplashuvchilarning umumiy miqdori kabi belgilari bilan farqlanadi. O'zbek tili ham shular jumlasidan bo'lib, o'zbek xalqining milliy tili, O'zbekiston Respublikasining davlat tili hisoblanadi. Respublikadagi 24 million aholining 18 millioni o'zbek tilida so'zlashadi.

O'zbek tili eng teran fikrlarni, ilmiy-siyosiy tushunchalarni, eng chuqur his-tuyg'ularni, xilma-xil ma'nolarni bekamu-ko'st ifodalash imkoniga ega bo'lgan tildir.

1989 yil 21-oktyabrda «Davlat tili to'g'risida»gi qonun qabul qilingach, (1995 yil 21-dekabr yangi tahrirdagi qonun) o'zbek tili millatning ona tilisi sifatida yana ham beqiyos kuch-qudrat va ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, har bir o'zbek farzandining shuuriga ilk insoniy tuyg'ulardan tortib eng murakkab ilmiy tushunchalargacha barchasi, aynan ona tili orqali singdiriladi. Qolaversa ona tili dunyoni ko'rish, bilish, borliqni anglash, milliy ruh va

milliy tafakkurni shakllantirish, millatning ma'naviy boyliklarini kelajak avlodlarga etkazish vositasi ham sanaladi. SHuning uchun ham Respublikamizning «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ona tili masalasiga katta e'tibor berilgan. Shunga ko'ra har qanday etuk kadrning o'z ona tilini yaxshi egallagan bo'lishi unga qo'yiluvchi asosiy talablardan biri hisoblanadi.

O'rta ta'lim dasturida «ona tili» fani sifatida o'qitiluvchi o'zbek tili filologiya fakultetlarida bir necha yo'nalishlarda davom ettiriladi. Ular orasida hozirgi o'zbek adabiy tili kursi markaziy o'rin egallaydi. Bu kursni o'rganish ob'ekti hozirgi o'zbek adabiy tili hamda uning o'zbek milliy tili tarkibidagi o'rni kabilardan iboratdir. Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsadi: talablarni shu tilning qurilishiga mansub hodisalar va qonun-qoidalar bilan ilmiy asosda tanishtirishdan iborat. Vazifalari esa:

a) sohaga oid adabiyotlar ustida ishlash, asosiy tushuncha va terminlar nazariy umumlashmalar bilan tanishish.

b) tilning fonetik, leksik, semantik va grammatik satxlariga mansub birliklarning adabiy til uchun me'yor bo'lgan va bo'lmagan belgi xususiyatlarini qiyosan o'rganish, tahlil qilish.

s) hozirgi adabiy tilning tarixiy ildizlari dialektal asoslari va til taraqqiyotini belgilovchi ichki hamda tashqi omillar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Ushbu o'quv predmetida o'zbek tilining yaxlit holati (eski o'zbek tili nazarda tutilyapti) emas, balki sinxronik, yangi hozirgi kundagi holati bayon qilinadi. Lekin bunda tilning diaxronik, ya'ni tarixiy taraqqiyot sharoiti ham hisobga olinadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili eng dastlabki holat urug', qabila tili shaklidan hozirgi rivojlanish bosqichiga kutarilguncha, uzoq tarixiy davrni o'z boshidang kechirgan. O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi.

1. Qadimgi turkiy adabiy til:

a) eng qadimgi turkiy til (ilk til paydo bo'lgandan VII asrgacha bo'lgan davr. Avesto, Behistun yozuvlari bitilgan til).

v) qadimgi (o'rta turk tili) turkiy til (VIII-XI asrlar) O'rxun-Enasoy yodgorliklari yaratilgan til.

s) eski turkiy til (XI-XIII asrlar) «Qutadg'u bilig» – «Devoni lug'otit turk», «Hibatul haqoyiq», «Devoni lug'otit turk» kabi asarlar shu tilda yaratilgan.

2. Eski o'zbek adabiy til. Rabg'uziy, Xorazmiy, Atoi, Lutfiy, Sayfi Saroi, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Muqumiy, Zavqiy va boshqa ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

3. Yangi o'zbek adabiy tili (XIX asrning oxiri XX asr boshlari) o'zbek tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asrning 30-yillarida hozirgi o'zbek tili shakliga kirgan o'zbek tilining qadimiy turkiy tildan to hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan lisoniy taraqqiyotini kuzatish til davrlari orasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Ular quyidagi 2 omilga asoslanadi.

- 1) muayan tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlariga;
- 2) ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi kontaktga.

O'zbek tilining rivojlanishida turkiy til bilan boshqa tillar ham katta rol o'ynagan. Bunda turkiy til asos (substrat) til vazifasini, arab, fors-tojik va rus tillari esa ustama (superstrat) til vazifasini o'tagan. Asos til bilan ustama til (lar) o'rtasida yuzaga kelgan aloqalar hamda ichki taraqqiyot qonuniyatlari qadimiy turkiy tildan to hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda til strukturasi qator o'zgarishlarni olib kirgan. Masalan, qadimgi turkiy til vokalizmida 8 ta unli bo'lgan; eski o'zbek tilida esa 9 ta (a, ы, o, i, e, i, o, y, e), hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida esa unlilar miqdori 6 taga (a, o, i, i, e, o') tushib qolgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar 2 xil:

1. Lisoniy omillar. Tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari asosida rivojlanib borishi lisoniy omillar hisoblanadi, lisoniy omillar uzoq vaqt davomida yuzaga keladi.

2. Nolisoniy omillarga tildan tashqarida mavjud bo'lgan omillar kiradi: ijtimoiy tuzum farmasiyalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti shular jumlasidandir. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-tarifiy va ma'naviy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bularning barchasi o'zbek tili leksikasiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Sobiq ittifoqdagi davlat tuzimga xos ayrim tushuncha nomlari (partkom, raykon, ministr, pioner, ...) iste'moldan chiqib, tarixiy qatlamga o'tib qoldi. Mustaqil O'zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so'z va atamalar (kollej, reyting, marketing, biznes, xakker, ...) paydo bo'ldi.

Ishonchimiz komilki, o'zbek tili va madaniyati jahon sivilizatsiyasida yanada ravnaq topib xalqaro til darajasiga ko'tariladi va dunyo xalqlari ham bu tilni sevib o'rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov U., Muxtorov J., SH.Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1992 y.
2. Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.

O'ZBEKISTONDA MATEMATIKA FANINING TUTGAN O'RNI**Shamsiyeva Hulkar***Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi
Abdulla Qodiriy Nomidagi ijod maktabi matematika O'qituvchisi***Nuraliyeva Barchinoy***Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi 10-a sinf o'quvchisi*

Annotatsiya: *Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim sifatini oshirish, matematika va tabiiy fanlarni o'quvchilar chuqur o'zlashtirishi asosiy vazifaga aylandi. O'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun avvalo ularning bilimni oshirish lozim. O'quvchilarning bilimni oshirish uchun matematika darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlashi va ijodiy fikrlashiga katta e'tibor qaratish lozim.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifatini oshirish, matematika, qiziqish va bilimni oshirish, mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash, Vatan taraqqiyoti.*

Mustaqil Vatanimizning birinchi prezidenti I.A.karimov aytganlaridek, "farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart". Yurtimizning kelajagi albatta yoshlarimiz qo'lida, yoshlarimiz qanchalik bilimli, zukko, tarbiyali bo'lsa, yurtimiz kelajagi porloq bo'lishi tayin. Shuning uchun ham, bugungi kunda Respublikamizda o'quvchi- yoshlarimizning chuqur bilim olishi, har taraflama salohiyatli bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'quvchi-yoshlarimizning jahon talablari darajasida bilim olishi uchun ta'lim sohasida keng ko'lamlil ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy talablar asosida jihozlangan, keng va yorug' sinfxonalarga, barcha zamonaviy shart-sharoitlarga ega bo'lgan maktablarning qurib bitkazilgani, ayrimlari qayta rekonstruksiya qilingani yuqoridagi fikrimning dalilidir.

Ta'lim-davlat kelajagining ko'zgusi deb bejiz aytilmagan. Yoshlar qanchalik chuqur bilim va salohiyatga ega bo'lsa, bu yoshlar voyaga yetib mamlakat taraqqiyotini shu darajada yuqoriga ko'tarishini bugungi kunda butun jahon tan olmoqda. Shu sababli o'quvchilarga chuqur bilim berish hozirgi kunda yurtimizda bosh maqsadga aylandi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "Matematika barcha aniq fanlarga asos. bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi". Matematika barcha aniq fanlarning asosi hisoblanadi, bu fanni o'quvchilarimiz yaxshi bilsa, boshqa tabiiy fanlarni ham chuqur o'zlashtira oladi. bugungi o'quvchi-yoshlarimizning matematika va tabiiy fanlarni chuqur egallab, bilimlarini sanoat va texnikada faol qo'llay olishi, mamlakatimiz taraqqiyotiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi.

O'quvchilarga chuqur bilim berish uchun avvalo ularda fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish darkor. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi. O'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni qanday oshirish mumkin?

ko'pchiligimizga sir emaski, boshlang'ich sinflarda sinfdagi deyarli barcha o'quvchilar matematika fanini qiziqib o'qiydilar. 6-7-sinfga borib, sinfdagi o'quvchilarning yarmidan ko'prog'i qiziqib o'qiydi bu fanni, yuqori sinflarga borganda esa yarmidan ko'pi qiziqmay qo'yadi (matematikaga ixtisoslashgan sinf yoki maktablar bundan mustasno). chunki boshlang'ich sinflarda matematika fanining o'quv dasturi oson, o'quvchilar qiynalmay o'zlashtiradi, o'quvchilar tushunishga qiynalgan mavzularga uyda ota-onalari tushuntirib, yordam berishadi. Yuqori sinfga o'tgan sari matematika fanining o'quv dasturi qiyinlashib boradi, o'quvchilar qiynalgan mavzularni uyda ota-onalari ham tushuntirib berishga qiynaladilar. O'quvchilar qaysi fanga yaxshi tushunsa, albatta o'sha fanga qiziqadilar. Yuqori sinfda matematika fanini tushunishga qiynaladi ko'p o'quvchilar, shu sababli qiziqishlari ham pasayib boradi. hammamiz bilamizki, matematika fani zinapoyaga oxshaydi, har bir sinf materialini to'liq o'zlashtirmagan o'quvchi keyingi sinf mavzularini o'zlashtirishga qiynaladi. Shunday ekan, biz har bir sinfda o'quvchilarning fanga qiziqishini va bilimlarinini oshirib borishimiz zarur.

Men shu o'rinda bir maqolni eslatmoqchiman: "Matematikani qo'lda qalam bilan o'qi!". Albatta bu naql behuda aytilmagan. boshqa ko'p fanlarni o'qish va yodlash bilan o'rganish mumkin. Lekin matematika fanini misol va masalalarni ishlamay turib o'rganib bo'lmaydi. bu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, matematika fanini o'rganish uchun o'quvchidan irodali va sabrli bo'lish talab etiladi. Matematika fanini chuqur o'zlashtirgan o'quvchi albatta irodali, sabrli bo'lib voyaga yetadi, bunday inson hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga, albatta, erishadi.

Shu o'rinda yana bir narsaga e'tiborni qaratmoqchiman. bugun o'quvchilarga jahon talablari darajasida bilim berish va ularni PISA topshiriqlariga tayyorlash ta'lim tizimidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. PISA topshiriqlariga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ularda o'quvchilarning bilim darajasi emas, balki o'quvchilar olgan bilimlarini hayotga bog'lay olishi va kundalik hayotda qo'llay olish darajasi tekshiriladi. Agar o'quvchilar dars mavzusining tub mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetsalar, shundagina bu mavzuni hayotga bog'lay oladilar. Demak, biz o'quvchilarni PISA topshiriqlariga tayyorlash uchun eng avvalo o'quvchilarning dars mazmunini chuqur anglab yetishlari uchun ko'maklashishimiz zarur.

Yana avvalgi savolga qaytsam, o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini qanday oshirish mumkin? Sir emaski, insonning biror sohada bilimi qancha yuqori bo'lsa, bu insonning shu sohaga qiziqishi shuncha yuqori bo'ladi. demak, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish uchun avvalo ularning bilimini kichik sinflardan oshirib va mustahkamlab borishimiz darkor. kichik sinflardan boshlab o'quvchilarning mavzularni yaxshi o'zlashtirishi va bilimlarini oshirib borish uchun nima qilishishimiz kerak? buning uchun biz o'quvchilarni 3-4-sinflardan boshlab, matematika darslarida mustaqil ishlash va ijodiy fikrlashga o'rgatib borishimiz zarur. Matematika fanidan har bir dars o'tilgandan

keyin uyga vazifa qilib, o'quvchilar shu o'tilgan mavzu bo'yicha o'zi mustaqil misol yoki masalalar tuzib, ishlab kelish topshirig'ini berishimiz lozim. O'quvchi o'zi misol yoki masala tuzish uchun mavzu bo'yicha o'ylanadi, fikrlaydi, natijada mavzuning tub mazmun-mohiyatini anglab yetadi. Misol tuzadi va ishlaydi, bu jarayonda mavzu mustahkamlanadi. Mavzuni chuqur o'zlashtirgan o'quvchining bilimi albatta oshadi, bilim oshgandan keyin fanga bo'lgan qiziqishi o'z-o'zidan kuchayadi. O'quvchilarni bajargan uy ishlariga (o'zi tuzgan va ishlagan misol yoki masalalarga) qarab, qay darajada bilimga ega bo'lganini bilish va qiynalmay baholash mumkin. demak, biz matematika darslarida o'quvchilarni kichik sinflardan boshlab ijodkorlikka va mustaqil ishlashga o'rgatib borishimiz kerak. Ijodkor va mustaqil fikrlaydigan inson albatta kelajakda katta yutuqlarga erishadi.

Bugun bir narsani yaqqol ko'rishimiz mumkin, o'qimishli, ziyoli oila farzandlari albatta bilimli va tarbiyali bo'lib voyaga yetadi. demak, biz bugun yoshlarimizni bilimli va keng tafakkurli qilib tarbiyalay olsak, ularning farzandlari ham, ya'ni kelajak avlod ham bilimli, salohiyatli bo'lib o'sadi. bugungi kun yoshlarining kuchli bilim va salohiyatga ega bo'lishi Vatanimiz taraqqiyotining kelajakda yuksaklarga ko'tarilishini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yunusova d. Matematika o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. darslik T: fan va tex- nologiya. 2011. -200b
2. Uzliksiz ta'lim. Jurnal 2010-2017 y
3. www.ta'lim.uz

«QARAQALPAQ ÁDEBIYATÍ» GAZETASÍ RUBRIKALARÍ

Tolğanay Járımbetova

«Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasınıń xabarshısı

Annotaciya: Maqalada Qaraqalpaqstandaǵı birden-bir basılıım – «Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetası rubrikaları haqqında sóz etiledi. Usı gazetada qaraqalpaq ádebiyatı hám folklorı, basqa da ádebiy processke baylanıslı materiallardıń járiyalanıwına tán ózgeshelikler úyrenilgen.

Gilt sózler: gazeta, qaraqalpaq ádebiyatı, poeziya, proza, ádebiy sın, maqala.

«Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetasınıń shólkemlestiriliwi de Respublikamızdaǵı ayrıqsha jámiyetlik, siyasıy waqıya boldı. Bul gazeta tikkeley kórkem ádebiyat, qaraqalpaq ádebiyattanıwı hám folkloristikası boyınsha materiallardı járiyalaytuǵın birden-bir basılıım. 2011-jıldıń yanvar ayında gazetanıń birinshi sanı shıqtı. Sol dáwirden baslap bul gazeta ayına bir ret shıǵarıla basladı.

Bul gazetanıń shólkemlestiriliwi múnásibeti menen usı basılımda X.Dáwletnazarovtıń «Ǵárezsizlik sharapatı» (2011, avgust-sentyabr, №8-9, (08-09)), T.Qurbanbaevanıń «Hámmemiz ushin maqtanış» (2011, avgust-sentyabr, №8-9, (08-09)) maqalaları járiyalandı. Maqalalarda atap ótilgenindey, «Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetası ǵárezsizliktiń 20 jıllıǵı toyına sawǵa sıpatında inam etilgen, «úlden kewil tolıwshılıq penen tilge alıwǵa arızıtuǵın, ... elimiz basshılıǵınıń ádebiyatqa, mádeniyatqa itibarınıń, olardı rawajlandırıw boyınsha alıp barıp atırǵan siyasatınıń nátiyjesi» (X.Dáwletnazarov. «Ǵárezsizlik sharapatı», 2011, avgust-sentyabr, №8-9, (08-09)) dep qarawǵa boladı.

Bul gazetanıń shólkemlestiriliwi haqqında «Ámiwdárya» jurnalınıń 1-2-sanlarında járiyalanǵan Q.Orazımbetov hám G.Mátyaqubovalardıń «Ádebiyat – haqıyqatlıqtıń kórkem sáwlesisi» ádebiy sáwbetinde oqıymız [1]. Ádebiy sáwbette professor Q.Orazımbetov hám Qaraqalpaqstan xalıq shayı G.Mátyaqubovalar ádebiyattıń hár qıylı problemaları haqqında sáwbetlesiw alıp barıladı.

Professor Q.Orazımbetov sáwbetlesisi menen, tiykarınan, G.Mátyaqubovanıń «Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetasın shólkemlestiriwdegi jankúyerlik isleriniń túrtki bolǵanlıǵı menen baslaydı. G.Mátyaqubova bul gazetanıń shólkemlestiriliwi haqqındaǵı pikirlerin tómendegishe bayan etedi: «Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetası tuwrısındaǵı pikirlerińiz, bálki, durıs shıǵar. «Bul gazetanıń zárúrligi álle qashan-aq payda bolǵanı menen onı jariqqá shıǵarıwǵa hesh kim, hátteki, usı ádebiyattıń eń jankúyerimen, súdinimen degenler de bilek sıbanıp shıqpaǵanı da bar gáp» dep atırsız. Lekin, dóretiwshilerdiń ruwxı usı gazetadan dimar alatuǵını bar gáp... Men jaqında ótken ásirdeń 60-jıllarınan berli qásterlep kiyatırǵan bir dápterimdi qol jazbalarımınıń ishinen tawıp alıp, onı birme-bir betlep kórdim... Dápterde shala-sharpı, túrli temada jazılǵan qosıqlar bar edi. Olargá kóz juwırtıp, sol balalıq, óspirimlik jıllardaǵı halatqa tústim. Samalday tez keliwshi arızıw-ármanlar, úmitler –

átirapımdağılardan hesh kim meniń bunday halatlarımdı ańlamas, túsınbes edi. Maǵan tek kitaplar ustaz edi... Solardı eslep, búgingi kúnde sol meniń jasımdaǵı óspirimlerdiń kún aradan «Qoraqalpoǵıstın tongı» gazetası redakciyasına alıp kelip atılǵan qosıqları, gúrrińleri haqqında oyladım. Álbette, olardıń barlıǵın analizlewge, gazetada járiyalawǵa imkaniyat joq... Gazeta da ádebiyat emes. Bizniń dáwirimizdegi jaslarǵa búgingi gárezsizlik jıllarındaǵıday bilim hám dóretiwshilik esikleri ashılıp, keń imkaniyatlar jaratıp berilmegen edi. Eger búgingi kúnde ol imkaniyatlardı qosımsha tek ádebiyatqa xızmet qılıwshı gazeta ashılsa, jas talantlar ushın hám minber, hám ustaz payda bolar edi, dep oyladım»[1]. Bul pikirlerden shayıranıń ádebiyattıń jankúyeri, ásirese, ádebiyatqa jańa qádem taslap kirip atırǵan jas talantlardıń ǵamxorshısı ekenligi ayqın sezilip turadı. Jáne de shayıra óziniń ádebiyat haqqında pikirlerin dawam etip, «Ádebiyat insańǵa xızmet qıladı, álbette. Lekin ulıwma insaniylik ádebiyattıń ózinsheligi saqlanıp qala beredi. Sonday-aq ádebiyat qaysı zaman yaki qaysı mákanda júzege kelmesin milliy ózinsheligin saqlap qalıwı tiyis. Sonı menen birge onda ulıwmainsaniylik belgiler bolıwı kerek. Men ádebiyatshı alım emespen, biraq joqarıdaǵı pikirlerimdi tolıqtırıp aytıwım múmkin, hár qanday milliy ádebiyatqa, álbette, ózge ádebiyat úlgileriniń kórkem sheberlik hám usıllarınıń kirip keliwi tiyis. Mine, usınday iygiliqli maqsetler «Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetasınıń 4 tilde – qaraqalpaq, ózbek, rus, anglichan tillerinde shıǵıwına sebepshi boldı» dep bul gazetaniń baslı ózgesheliklerin atap ótedi.

Bul gazeta tek qaraqalpaq ádebiyatı hám folklorı materialları menen sheklenip qalmastan, onda dúnya ádebiyatı hám tuwısqan xalıqlar ádebiyatı dóretiwshileriniń shıǵarmaların hám olarǵa tiyisli máselelerge baylanıslı jazılǵan maqalalardı da sáwlelenip baradı. Gazeta bir neshe rubrikalardan turadı.

Ilimiy dáreklerge názer taslaytuǵın bolsaq, rubrika – sózi «astı sızılǵan» degen mánini bildiredi, gazeta-jurnallarda bolsa mazmunı jaǵınan bir-birine jaqın publicistikalıq, ilimiy maqalalardıń bir atama astında jámlestirilip beriliwin támiyinleydi. Al, internet maǵlıwmatlarına qarasaq, rubrika tariyxı haqqında mınaday maǵlıwmatlar berilgen: «Происходит от лат. rubrica «заглавие закона написанное красной краской», далее от лат. ruber «красный», далее из праиндоевр. *reudh- «красный» (ср.: русск. рдеть, лит. raudonas «красный», латышск. raūds «красный», готск. *rauθ «красный», др.-в.-нем. rōt «красный», нем. rot «красный», англ. red «красный», др.-сканд. rjōðr «красный», др.-ирл. ruad «красный», лат. ruber «красный», др.-греч. ἐρυθρός «красный», авестийск. raodita- «красный», санскр. रुधिरः (rudhiráh) «кровь»»[2].

Sonday-aq, rubrikalar kópshilik jaǵdaylarda maqalalardıń mazmunıń ashıp beriwge xızmet etedi. Sonlıqtan, kópshilik talǵamı kúshli oqıwshılar birinshi gezekte, gazetaniń rubrikalarına kóz juwırtıp, sol maqalalardı oqıwǵa kirisedi. Rubrika gazetada járiyalanıp atırǵan maqalanıń temasına ayqınlıq kirgizip, onıń aldına qoyǵan maqset hám talapların tolıqtırıp baradı. Rubrikaniń atamasınan oqıwshı ondaǵı maǵlıwmatlar haqqında dárhal ańlap aladı.

«Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetası 2011-2014-jıllar aralıǵında 57, 2014-jıldan baslap házirgi kúнге deyin bolsa 100 jaqın rubrikalardan paydalanǵanlıǵın kóremiz.

Búgingi kúnde Qaraqalpaqstan baspasózinde kúndelikli gazetalardıń rubrikaları tómendegishe túrlerge bólinedi:

1. Turaqlı rubrika.
2. Mapazlıq rubrika .
3. Arnawlı rubrika.
4. Reklamalıq rubrika [3].

Turaqlı rubrikalar jıl dawamında gazeta oqıwshılarınıń turaqlı sırlası bolıp, gazeta materiallarınıń tiykarın quraydı.

«Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetasında poeziyalıq shıǵarmalar «Poeziya», «Dúnya ádebiyatınan», «Ǵárezsizlik ilhamları», «Qızlar tvorchestvosı», «Balalar ádebiyatı», «Nawız ilhamları», «Gúz ilhamları», «Qıs ilhamlar», «Doslıq sharjları», «Qızlar mushayrası», «Qızlar gúldástesi», «Balalargá oqıp beriń», «Shayırlar balalargá», «Redakciyamız miymanı», «Ǵárezsizliktiń ádebiy gúlsanı», «Jaslar tvorchestvosı», «Gazeta oqıwshılarınıń dóretiwshiliginen» betlerinde basılıp turdı. Bul rubrikalardagı shıǵarmalar ideyalıq-tematikalıq baǵdarı, janrlıq qásiyetleri, kórkemlik dárejesi boyınsha hár qıylı. Gazeta betlerindeki poeziyalıq, prozalıq shıǵarmalar ele arnawlı ilimiy jumıslar obyektine aylangan joq. Tek ayırım jol ashar, recenzialıq maqalalarda geypara shıǵarmalar haqqında pikirler aytiladı.

«Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetasınıń «Ádebiyattanıw», «Ádebiy sáwbet», «Mánghi bulaqlar», «Jas ádebiyattanıwshılar minberi», «Ádebiyat tariyxı», «Yadnama», «Ádebiy pikir» h.t.b rubrikalarında ádebiy sınıń bir neshe janrlarında jazılǵan maqalalar jariq kóredi.

Gazetaniń «Proza», «Ómirbek laqqı», «Jaslar tvorchestvosı», «Gazeta oqıwshılarınıń dóretiwshiliginen», «Dúnya ádebiyatınan» rubrikalarında prozalıq shıǵarmalar jariq kóredi.

Demek, «Qaraqalpaq ádebiyatı» gazetası búgingi kúnde qaraqalpaq ádebiyatın, ádebiy process jańalıqları menen tanıtıwda belsendilik etpekte.

ÁDEBIYATLAR:

1. Оразымбетов Қ. Матякубова Г. Әдебиет-хақықатлықтың көркем сәўлесі. //«Әмиўдәрья», 2014, №1, 73-бет.
2. ru.m.wiktionary.org .
3. Bekbawliev D. Gazeta qalay shi'g'adi'? -No'kis, «Bilim» 2011, 54-бет.

QURILISH VA MELIORATSIYA MASHINALARINI YIG'ISH, CHINIQTIRISH VA SINASH

Safarov Husniddin Sirojiddin o'g'li,

Yuldashev Sherzodbek Gofur o'g'li,

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti Buxoro filiali*

Annotatsiya: *Maqolada qurilish va melioratsiya mashinalari ishonchliligini, ularning yeyilishi, ishqalanishi, buzilishi, ta'mirbopligi va saqlanishiga moslashganligini aniqlash hamda sinash bo'yicha aniq ma'lumotlar berib o'tilgan. Mashina detallarini qayta tiklash ularni joriy va butkul ta'mirlash texnologik jarayonlarni yaratish uchun mashinalarni tashkil etuvchisi konstruktiv va nokonstruktiv elementlarning ishlash sharoitini yaxshilash, ishqalanish va yeyilishga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish yo'llari yoritilib borilgan.*

Tayanch so'zlar: *Yeyilishga ta'sir qiluvchi omillar, sub'ektiv va ob'yektiv omillar, shikastlanishlar: siyqalanish, mikroqirqilish, qatlamlanib ko'chish, ezilish, uvalanish, yopishib qolish, yedirilish. Mikrometaj, profilograflash, tarozida tortish. Radioaktiv usulda ishqalanish, moylash, tinch va harakatdagi ishqalanish.*

Ma'lum uzal va agregat detallarini o'lchamlariga qarab xillash hamda tutashuvlari bo'yicha tanlash jarayoni detallarni komplektlash deyiladi. Detallar qator belgilariga qarab o'lcham guruhi va remont o'lchamlari bo'yicha, vazni (massasi) bo'yicha, qoldiq resursiga qarab va ro'yxatdagi nomlari bo'yicha tanlanadi. Komplektlanadigan detallar uch xil usulda tanlanadi: oddiy, selektiv va aralash usullar. Oddiy komplektlashda agregat (uzal) ning bazaviy detali uchun bir talay detallar ichidan o'lchamlari ushbu tutashmada normal zazor (tirqish) hosil qilish imkonini beradigan tanlab olinadi. Selektiv tanlashda tutashmadagi ikkala detallning o'lchamlariga berilgan biroz siyqalanishlar maydoni bir nechta bir xil oraliqlarga bo'linadi, detallar esa shu oraliqlarga, binoan, o'lcham guruhlariga ajratiladi. Har qaysi o'lcham guruhiga haqiqiy o'lchamlari ishqalanishlar maydoni chegaralarida joylashgan detallar kiradi. Detailarni o'lcham guruhlari, albatta, raqamlar, harflar, bo'yoq va boshqalar bilan belgilanadi. Tutashuvchi detallar bir xil guruh ichida tanlanadi. Detailarni aralash usulda komplektlashda ikkala usuldan foydalanadi. O'ta muhim tutashmalarning detallari selektiv tanlab, unchalik muhim bo'lmagan tutashmalar detallari esa oddiy tanlab komplektlanadi. Aralash usulda detallarni komplektlash remont korxonalarida keng ko'lamda qo'llaniladi. Komplektlash ishlari maxsus jihozlangan komplektlash bo'limida bajariladi. Bu bo'lim detallarni va komplektlarni Saqlash uchun tegishli uskunalari: stellajlar, tagliklar, stollar, ko'chma aravachalar, komplektlash yashiklari, konteynerlar va universal o'lchash asboblari bilan ta'minlanishi lozim.

Yig'ish-yakunlovchi jarayondir. Mashinalarni yig'ishda hamma jarayon (operatsiya) larni namunaviy texnologiyada keltirilgan tartibda aniq bajarish va yig'ish ishlarining umumiy prinsipiga rioya qilish zarur. Dastavval, detallardan iborat birikmalar yig'iladi, so'ngra ular ma'lum tartibda uzil qilib biriktiriladi, keyin uzellardan agregatlar yig'iladi va nihoyat agregatlar, uzellar va detallardan mashinalar yig'iladi. Mashina uch guruh detallardan: yoyilgan, ammo hali ishlatishga yaroqli, tiklangan va yangi detallardan yig'iladi. Shu sababli, ularni qo'shimcha ravishda bir-biriga moslash va nazorat ishlarini amalga oshirish zarur. Yig'ish ishlarida yuqori sifatni ta'minlash uchun maxsus remont-texnologik asbob-uskunalardan foydalanish talab etiladi. Mashinalar yig'ish ishlari tugagandan keyin chiniqtiriladi. Chiniqtirish jarayonida remont qilish vaqtida yo'l qo'yilgan kamchilik va xatoliklar aniqlanadi va bartaraf etiladi, shuningdek, mexanizmlar, qism va tutashmalar uzil-kesil rostlanadi. Detallarni ishqalanuvchi sirtlari chiniqtirish yo'li bilan bir-biriga moslashadi. Mashinalarni yurgizib yoki styondlarda chiniqtirish mumkin. Ixtisoslashgan remont korxonalarida styondlarda chiniqtirish usuli ko'proq joriy etgan. Traktorlar har bir ish uzatmasida (I, II, III uzatmalarda) 10...15 min, yuqori uzatmalarda 5...10 min, har bir orqaga yurish uzatmasida 3...5 min davomida chiniqtiriladi. Chiniqtirish jami 1,5...2,5 soat davom o'tkazadi. Chiniqtirish tugagach, mashina qayta ko'zdan o'tkazilib tekshiriladi, topilgan nuqsonlar bartaraf etiladi. Topilgan nuqsonlarni xarakteriga qarab mashina qisqartirilgan yoki to'la rejimda qayta chiniqtiriladi va sinaladi.

Mashinalarni sinash –remont sifatini baholash maqsadida o'tkaziladigan nazorat ishi. Sinashda dvigatellarning quvvati, yonilg'ining solishtirma sarfi, gidravlik nasosining ish unumi, hajmiy foydali koeffitsiyenti kabilar aniqlanadi.

Izlanishlar natijasida shu narsa aniqlanganki, dvigatel detallarining ishlab moslashi dastlabki 2...3 soat davomida sodir bo'lib, 50...60 soatdan keyin butunlay tugaydi. Shu sababli, dvigatellar styondlarda uch bosqichda chiniqtiriladi: sovuqlayin chiniqtirish, gaz berib yuksiz ishlatib chiniqtirish, gaz berib yuklab chiniqtirish. Chiniqtirishga sarflanadigan vaqtni kamaytirish maqsadida ixtisoslashtirilgan korxonalarida tezlashtirib ishlab moslashish usullari joriy etgan. Dvigatellarni chiniqtirish va sinash uchun KI-5542, KI-5543, KI-5274 va boshqa universal elektr tormozli nazorat-sinash styondlaridan foydalaniladi.

Bo'yash texnologik jarayoni sirtni tayyorlash (yuvish, eski buyoqni ko'chirish, zangdan tozalash); gruntlash, shpatlyovkalash, bo'yash, quritish operatsiyalaridan tashkil topadi. Sirtni bo'yashga tayyorlash buyoqning detalga yaxshi yopishishi uchun to'sqinlik qiladigan eski buyoqlarni, zanglarni, yog' va boshqa kirlarni tozalashdan iborat. Eski buyoqni tozalashda turli markali yuvgichlar, masalan SD, AFT-1 yuvgichlari, N 646, 647 eritgichlar ham ishlatiladi. Sirtlarni eski bo'yoqdan cho'tka (sim), jilvirtosh, po'lat shpatellar ishlatib mexanik usulda ham tozalash mumkin. Sirtlarni bo'yash oldidan gruntlanadi. Grunt-bo'yash uchun tayyorlangan sirtga surtiladigan qatlam. Grunt qatlami detalni zanglashdan himoya qiladi va bo'yoqning sirtga yaxshi yopishishini ta'minlaydi. GF-020 va N 138 gliptali gruntlar qora detaldan tayyorlangan detallar uchun, GF-031 va GF-032 gliptali gruntlar alyuminiy va magniy qotishmalaridan tayyorlangan detallarni

bo'yash uchun mo'ljallangan. Shpatlevka – grunt ustidan surtiladigan qatlam bo'lib, sirtlarni tekislash uchun bajariladi. Shpatlevka qatlamining umumiy qalinligi 1...1,5 mm dan oshmasligi lozim. Shpatlevkadan keyin sirtga bo'yoq yoki emal surtiladi. Qishloq xo'jalik texnikalari uchun pnevmatik bo'yoq purkagich yordamida bo'yashning universal usuli qo'llaniladi. Buyum sirtig'a bo'yoq siqilgan havo yordamida purkalib, yupqa tekis qatlam hosil qilinadi. Bo'yoq sifatida PF-133 yoki PF-115 pentaftalli emallar va XV-133, XV-125, PXV-6, PXV-15 kabi perxlorvinilli emallar ko'proq ishlatiladi.

Quritish. Sirtlarga surtilgan bo'yoqlar ochiq havoda tabiiy ravishda quritiladi yoki yuqori haroratda sun'iy usulda quritiladi. Bo'yoqlarni quritishning bir nechta sun'iy usullar mavjud: konvektsiya, termoradiatsiya, indukatsion, termoradiatsiya-konvektsiya usullari. Konvektsion quritishda buyum issiq havo yoki boshqa issiqlik manbalari yordamida quritish xonalarida qizdirib quritiladi. Termoradiatsion quritishda bo'yalgan detall infraqizil nurlar bilan nurlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С.Вафоев, Р.Мусурмонов. “Курилиш ва мелиорация машиналарини ишлатиш”. Тошкент-2015 йил. “Тафаккур Бўстони”.

2. S.Vafoev, N.Dauletov. Melioratsiya va qurilish mashinalaridan foydalanish va texnik servis T. “Taffakur Bosoni” 2013 -264 b.

3. Yo'ldoshev Sh.U. Mashinalar ishonchliligi va ta'mirlash asoslari (darslik). - Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 696 b.

4. Т.С.Борцов, И.В.Лисовский. «Настройка и регулировка мелиоративных машин». Ленинград ВО «Агропромиздат. 1989 г.

QISHLOQLARNING TARIXIY RIVOJLANISHIDA QISHLOQ ZIYOLILARINING TUTGAN O'RNI.

Ravshanova Umida Kamolovna

*Qarshi Davlat Universiteti akademik litseyi
tarix fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *Qishloq ziyolilari — aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi, hunarmand, diniy va har tomonlama dunyoviy bilimlarga ega bo'lgan, hur fikrga ega shaxslarni tushunamiz. Ular odatda, tashqi muhitdagi voqea hodisalar jarayonining mohiyatini to'g'ri va darhol anglab oladigan, umuman, aql farosatli bo'lib, hamisha vaziyatga qarab to'g'ri xulosa qila oladilar. Ushbu maqolada, biz shu kabi madaniyatli insonlar, ularning shaxsi va qishloq hayotining modernizatsiyalashuvida va tarixiy rivojlanishidagi ularning tutgan o'rinlari, shuningdek, qishloq ziyolilarining mehnatlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *qishloq hayoti, madaniyat, ma'rifat, qishloq ziyolilari, tarixiy rivojlanish.*

Odam tug'ilgan kundan boshlab rivojlanadi, ya'ni doim kelajakka intiladi. U o'qiydi, hatto o'zi tushunmasa-da, oldiga yangi vazifalarni qo'yishni o'rganadi. Hayotda o'z o'rnini qanchalik tez egallab olsa, shunchalik tez qoshiqni ham ushlab o'rganadi va birinchi so'zlarini aytishni boshlaydi. Keyin o'spirinlikka va yigitlikka ham o'rganadi. Nihoyat doim intilgani bilimlarini amalda qo'llaydigan vaqt yetib keladi. Inson har doim kelajakka initalaveradi, kelajak esa real bilimlarda, mahoratga ega bo'lishda emas. Eng muhim narsalardan biri bu insonning haqiqiy ziyoli shaxs bo'lib kamol topishida hisoblanadi. Bu borada esa qishloq ziyolilarining o'rnini va ahamiyati qishloq hayoti va taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir. Ya'ni ziyoli shaxslar bo'lg'usi avlodlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq aholisi - mamlakat jami aholisining viloyat va tumanlardagi qishloq-ovullarda yashaydigan qismi bo'lib, qishloq aholisining aksari qismi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik yoki qishloq xo'jaligining boshqa turlari bilan mashg'ul bo'ladi. Bu degani ko'z oldingizga faqat ketmon ko'tarib, kechgacha dalada tomorqadan beri kelmaydigan insonlarni tushunish kerak emas. Mamlakat iqtisodiy rivojlangan sari sanoatda ishlovchilar salmog'i ortib, butun aholi tarkibida qishloq aholisi salmog'i kamayib boradi. Bunda qishloq hayotiga nazar soladigan bo'lsak, dehqonlar, fermerlar orasida ham ziyoli shaxslar ko'plab uchraydi. Tarixiy faktlarga qaraydigan bo'lsak, qishloq aholisi yig'ilib turli kitoblarni birgalikda o'qib mulohazalar yuritgani haqidagi ma'lumotlar ko'plab tarixiy asarlarda keltirilgan.

Qishloq ziyolilari turli kasb egalari bo'lishi mumkin. Ko'pincha, qishloq joylarida ham turli xildagi sohalarni rivojlantirish maqsadida mutaxassislar jalb qilinadi. Misol uchun, bu shifokorlar, o'qituvchilar, bor muhandislar, texniklar, professor, oshpazlar, qurilish ishchilari, arxeologlar, rahbarlari va boshqa xodimlari faoliyatida yangi innovatsiyalar

tadbiq etilmoqda. Qishloq ziyolilarining tashabbusi bilan qishloq hayotining rivojlanishi, muayyan axloqiy qadriyatlar, uning bilimi, madaniyatini rivojlantirish hamda tarixiy qadriyatlarini saqlab qolish maqsadida turli tashabbuskorlikdagi tadbirlari, qishloq ziyolilari bilan suhbatlar tashkil qilish muhim sanaladi.

Qishloq ziyolilarining qishloq taraqqiyoti va ularning rivojlanishidagi ahamiyati yuksak baholanadi. Iintellektual zamonaviy ma'noda - albatta, ta'lim, ilmiy shaxs, madaniyatli, odobli, qat'iy ma'naviy tamoyillariga rioya etiladi. Aqlli odam hurmatsizlik bilan boshqa odamlar haqida yomon gapirishga uchun, kufr keltirish va nomaqbul muloqot yilda qo'pol foydalaning. tarixi qarab, biz ta'lim barcha odamlarni o'z ichiga oladi. Qishloqda ziyoli shaxslarning ko'payishi qishloq hayotida ilmiy darajaning rivojlanishiga, aqlli, tarbiyali, bilimdon, sobitqadamlik bilan umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishi muhimdir. Ziyoli shaxs har bir bosqichida odam turli xil yo'llar bilan ta'lim konsepsiyasini idrok qila oladi. O'quvchilar maktabda sifatli ta'lim olishlarida qishloqdagi ziyoli shaxslarning o'rni bor. Bunda pedagoglar ham haqiqiy ziyoli bo'lmog'i darkor. Ta'lim nuqtai nazaridan qaralganda, katta avlod vakillari ta'lim jarayonida ham o'zlarining bilim va tajribalari bilan bo'lisha olishadi. Bundan tashqari, qishloq ziyolilarining bilim, ijtimoiy tajriba, ilmiy daraja, o'qimishli bo'lish muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, bu dunyoda ko'p narsalar bir-biriga bo'lgan, lekin bu ta'lim hamda tarbiya markaziy va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun u katta jiddiyliги, istak va anglash bilan muomala qilish zarur bo'ladi. Qiyinchiliklarga qaramay, siyosiy yoki harbiy, ota-bobolarimiz, biz hayotimiz uchun mukammal sharoitlar yaratilgan. Va bizning qo'lida zurriyotimizdan uchun, bu shartlar ham yaxshiroq qilish. Ta'lim baxtli odam o'z hayotlarini chiniqtiradigan va bo'lish uchun, biz uchun zarur. Qishloq ziyolilari qishloq hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni yumshatishda, qishloq bolalarining madaniyatini, bilimini rivojlantirishda ularning o'rni salmoqli hisoblanadi. Qishloq ziyolilari bir necha yuz yillardan buyon qishloq madaniyatining saqlanib qolishadi, ijtimoiy iqtisodiy va tarixiy rivojlanishiga sabab bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. http://toshvil.uz/oz/qishloqda_zamonaviy_madaniyat_markazi_barpo_etildi
2. <https://daryouz.cdn.ampproject.org/v/s/daryo.uz/amp/2019/09/04/oqimishlini-ziyoli-bilan-adashtirmaslik-zarur-akademik-dmitriy-lixachyovning-oqishni-va-bilim-olishni-organish-borasidagi-maslahatlari>
3. <https://uz.delachieve.com/oqimishli-odamlar-bilimli-odam-fazilatlari-hisoblanadi/>

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA RO'ZG'ORSHUNOSLIK ASOSLARINI O'RGATISH

Kazakova Sayyora Erkaevna

*Xorazm viloyati xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash hududiy markazi
Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

Anotatsiya: ushbu maqolada texnologiya fanining mazmun – mohiyati va maqsadi, ro'zg'orshunoslik asoslarini o'rgatishda o'quvchilarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar, o'quvchilar fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish hamda Texnologiya ta'limining tarbiyaviy ahamiyati haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Uy-ro'zg'or, fan, ta'mirlash, pol, qoplamalar, mebellar, ta'mirlash, oyna, romlar, me'morchilik, xona, jihoz, dizayni, xonadonlar.

Texnologiya (yunoncha *techne* — san'at, mohirlik, uquv) — sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani ta'lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beraladi. O'quvchilarni amaliy mehnatga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlaydi.

Fan bo'yicha o'quvchilarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida o'quvchilar:

- uy-ro'zg'or yuritish;
- uy-ro'zg'or mashinalarini ta'mirlash;
- uy-ro'zg'or buyumlariga texnik qarov to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari;
- xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari;
- pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullarini bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qollay olishi;
- yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni;
- sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari;

- xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash;

- taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash;

- shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari;

- uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari;

- ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari;

- uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari;

- suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish;

- qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilar fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'qitishda plakatlar, chizmalar, ko'rgazmali texnik vositalar (kompyuter texnikasi va elektron versiyalar) yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, bilim ko'nikma va malakalami hosil qilish ko'zda tutiladi.

Bundan tashqari, texnologiya fanidan o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

a) mehnat ta'limi darslarida ish qurollaridan xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda amaliy mashg'ulotlarni bajara olish;

b) turli bayramlarga applekasiya usulida tabriknoma tayyorlay olish;

c) qog'ozdan turli buyumlar yasashni va bezashni, qorbobo ustaxonasida archa bezaklarini yasashni, to'g'ri to'rtburchak ichida applekasiyadan foydalanib, naqsh tuzishni, gilamdagi naqsh elementlarni hosil qila olish;

d) pape-mashe usulida kosa yasay olish;

e) oddiy xamir tayyorlay olish;

f) yumshoq o'yinchoq (3-4 qismdan iborat) tikish ko'nikmalarini egallash;

g) to'qish usullaridan foydalanib, kichik hajmda buyumlar to'qiy olish, gazlama gullaridan applekasiya usulida guldasta tayyorlay olish;

h) ipdan o'yinchoq yasay olish;

i) plastilindan ertak qahramonlarini, oshxona jihozlarini, uy-ro'zg'or buyumlarini yasay olish;

j) kuzgi gullarga qarab donlar, urug'lar, tabiiy material xomashyolardan gullar yasay olish;

k) maktab yer uchastkasida ishlash va gullarni parvarish qilish ko'nikmalarini egallash.

Texnologiya ta'limining tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar

o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. K.Davlatov Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi Toshkent "o'qituvchi" 1992 y
2. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umumiy dasturi: asosiy tamoyillar va privord islohotlar" Nukus 2005 y
3. B.U. Olimov Mehnat ta'limi darslarida fanlararo bog'lanishlar. Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008 y
4. <https://fayllar.org/mavzu-texnologiya-darslarini-tashkil-etish-bosqichlari-bajardi.html>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Texnologiya>

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI (IJODKORLIKNI) RIVOJLANTIRISH

Narziyev Po'lat Imomovich

*Xorazm viloyati xalq ta'limi xodimlarini malakasini
oshirish va qayta tayyorlash hududiy markazi
Amaliy fanlar va maktabdan tashqari
ta'lim metodikasi kafedrasini o'qituvchisi*

Anotatsiya: *ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda kreativlikni (ijodkorlikni) rivojlantirish hamda ularni estetik jihatdan tabiiylashda tasviriy san'at fanining o'rni, maqsad-vazifasi, mazmun mohiyati, ijodiy hissiyotni o'stirish haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, dars, o'quvchilar, kreativlik, ijodkorlik, rivoj, estetika, tabiiy, fan, maqsad, vazifasi, mazmun, mohiyati, hissiyot.*

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda kreativlikni (ijodkorlikni) rivojlantirishni ilk bor qo'lga qalam olib chizishni boshlaydigan maktabgacha ta'lim tizimi, o'rta maxsus ta'lim tizimi misolida ko'rib chiqsak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 - yil 29 - dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega. Tasviriy san'at darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy vositalarini o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morchilikdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, qadrlash va muhofaza qilishni

o'rganib boradilar. O'quv fanining bosh maqsadi o'quvchilarda estetik madaniyatni va badiiy tafakkurni yuksaltirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda kreativlikni (ijodkorlikni) rivojlantirish uchun tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajarishlari, san'at asarlarini rasmga qarab hikoya qilishlari; tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishishlari zarur. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikasiya, qurish-yasash mashg'ulotlari hisoblanadi. Keltirilgan mashg'ulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, muassasalarda olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg'ulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi.

Tasviriy san'at ta'limining vazifalari quyidagilardan iborat:

— tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardagi go'zalliklarni ko'ra bilish va idrok etish hamda kuzatish asosida olingan taassurotlarni hayotga tatbiq etishga o'rgatish;

— o'quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni o'stirish;

— o'quvchilarning tasviriy-ijodiy malakalarini shakllantirish;

— bolalarda ko'rish xotirasini, chamalash qobiliyatini, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fazoviy fikrlash, obrazli tasavvur va kombinatsiyalash kabi xususiyatlarni rivojlantirish;

— xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at bilan tanishtirish orqali bolalarni badiiy-estetik didini o'stirish;

— o'quvchilarni tasviriy va amaliy-bezak san'ati bilan tanishtira borib, ularda ushbu san'at turlarining o'ziga xos xususiyatlarini idrok etishga o'rgatish vositasida ularni badiiy fikr doirasini kengaytirish;

— o'quvchilarda amaliy va tasviriy san'atga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash;

— estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish.

Borliqni to'laqonli idrok etish, tevarak-atrofnii, hayotdagi voqea va hodisalarni bevosita kuzatish asosida olingan taassurotlar, tushunchalar hamda atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatda bo'lish bilan bog'liqdir.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko'rinishlari, kayfiyati haqida tasavvurga ega bo'ladilar va ularni tasvirlaydilar.

Badiiy obrazni idrok etish malakalarini rivojlantirish-san'at asarlarini o'rganishning asosidir. O'quvchilar asar haqida mulohaza yuritib, idrok etishni, uning mazmunini maxsus terminlarni qo'llagan holda so'zlab berishni bilishlari lozim.

San'atni idrok etishga 1-4 sinflarda maxsus soatlar ajratilmaydi. U rangtasvir kompozitsiyasi, naturaga qarab tasvirlash mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. 3-sinfdan boshlab esa san'atni idrok etish bo'yicha maxsus darslar tashkil etiladi.

Naturaga qarab rasm chizish vazifalari 1-2 dars davomida va qisqa muddatli (5-15 daqiqa davomida bajaradigan lavha va chizgilar) bo'lishi mumkin. Xomaki ish va chizgilar darsning muayyan mavzusidan kelib chiqib, darsning boshlanish qismi, o'rtasi yoki oxirida bajarilishi mumkin. O'quvchilarning ko'rib, eslab qolish qobiliyatini, makon haqidagi

tasavvurlarini rivojlantirish uchun ularga eslab va tasavvur qilib rasm chizish bo'yicha ko'proq vazifa berish kerak bo'ladi.

Naturaga qarab rasm ishlash o'quvchilarda narsa va hodisalarning hajmi va fazoda joylashuvi, ularning bir muncha tirik belgilari haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi, tasvirlash malakalarini o'stiradi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida geometrik shakllarni topa olishga yoki ko'ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi kattaligi, uzunligi, balandligini, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishini bilan tanishish bolalarni maktab ta'limida elementar matematik tushunchalarini puxta egallashlariga yordam beradi.

Qurish-yasash mashg'ulotlarida materiallardan qurish yasash o'quvchilarda ko'z bilan chamalashni shakllantiradi va ularni maktabdagi texnik darslarni egallashga yoki o'zlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida o'quvchilardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki o'quvchilar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, o'quvchilarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sultonov.X. Y Rangtasvir 2019
2. Oripov B.N O'quv qo'llanma 2013
3. Sultonov X.E Molodoy uchyonniy 2017
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-fani>
5. <http://btr2014.zn.uz/oqituvchilarga-2/oquv-reja/tasviriy-sanat/>

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA KONSTRUKTSIYALASH ASOSLARINI O'RGATISH USULLARI

Kenjayev Sherzod Mammatjumabayevich

*Xorazm viloyati xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash hududiy markazi
Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi
kafedrası mudiri*

Anotatsiya: *ushbu maqolada texnologiyaning tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishi hamda konstruktsiyalash asoslarini o'rgatish usullari to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *axborot, pedagogika, texnologiya, o'quvchilar, fan, o'zlashtirish, jarayon, darslik, o'quv-uslubiy, qo'llanmalar, texnik vositalar, qurilmalar, materiallar, axborot, interfaol usullar, ta'lim vositalar, ta'lim, o'yinlar.*

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani ta'lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beraladi. O'quvchilarni amaliy mehnatga tayyorlash va ularni mehnat, malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlaydi.

Mehnat ta'limining tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, o'quvchilarning fanni o'zlashtirish jarayonida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya darslarida o'quvchilarga konstruktsiyalash asoslarini ko'p usullari mavjud bo'lib biz quyida kiyimni konstruksiyalashni o'rgatish usullari to'g'risida tavsiyalar berib o'tamiz.

Bugungi kunda jahon bozorida tabiiy mahsulotlarga talab juda katta. Shu bois Respublikamizda mahalliy tabiiy xomashyodan ishlab chiqariladigan tikuvchilik mahsulotlari hajmini ko'paytirish, kiyim strukturasi yanada takomillashtirish, sifatini

yaxshilash, raqobatbardosh va xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun

Respublikamizning tikuvchilik korxonalarida yangi texnika va ilg'or texnologiyani joriy etish, yangi majmua mexanizatsiyalashtirilgan jarayonlarni qo'llash, yangi materiallardan foydalanish, shu bilan birga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda yangi kichik korxonalar barpo etish ishlarini yo'lga qo'yish talab qilinadi.

Tayyor kiyim yuqori sifatli va ishlab chiqarish jihatidan samarali bo'lishi uchun unga loyihalash bosqichidayoq zamin yaratish lozim. Kiyimni konstruksiyalash loyihalashning eng muhim qismi bo'lib, u badiiy konstruktorlik va texnik vazifalarining yechimini o'z ichiga qamrab oladi.

Yetakchi tarmqolar tajribasidan ma'lum avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarini yaratish va amaliyotda qo'llash loyihalash jarayonini takomillashtirishning taraqqiyoti va perspektiv asosi hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining asosiy maqsadi — sifatni yaxshilash, moddiy harajatlarni kamaytirish va loyihalash muddatlarini qisqartirishdir.

Konstruksiya — biror narsaning qurilishi yoki tuzilishini anglatadi. Kiyimning tuzilishiga bog'liq holda bichilgan va bichilmagan kiyim konstruksiyalari mavjud. Bichilgan kiyim konstruksiyalari bir-biri bilan berilgan tartibda ulanib, kerakli shakl hosil qiluvchi muayyan konfiguratsiya va o'lchamga ega bo'lgan detallardan tuziladi.

Tekis material konstruktiv chiziqlar yordamida asosiy detallarga bo'lib olinadi. Konstruktiv chiziqlar kiyimning shaklini hosil qiluvchi va ko'pincha dekorativ ko'rinish bermaydigan kiyim detallarining kontur chiziqlaridir. Odamning anatomik tuzilishi va tanasining hajmi kiyimni konstruktiv chiziqlar yordamida asosiy detallarga bo'lishni taqozo etadi. Shu bois konstruktiv chiziqlar, ko'pincha tananing chiqqan yoki botiq joylariga yaqin yon satxi bo'ylab yoki unga ko'ndalang holda o'tadi. Yelkali kiyimlarning asosiy detallariga orqa, old bo'lak, yeng va yoqa kiradi.

Shakl konfiguratsiya, rasm, surat, skulptura shaklidagi tasvirlar orqali grafik tarzda ifodalanadi. Siluet hajmiy shaklning soddalashtirilgan ramziy ifodasi. Kiyimning asosiy siluetlari gavdaga nisbatan (tanaga yaqinlik darajasi) va geometrik shakliga ko'ra tasniflanadi. Tanaga yaqinlik darajasi bo'yicha siluetlar quyidagicha farqlanadi: — yopishgan; — belga yopishgan (lif va yubka turli hajmiylikka ega); — sal yopishgan; — to'g'ri; — kengaygan; — toraygan. Geometrik shakl ko'rinishi bo'yicha: — to'g'ri to'rtburchakli; — trapetsiyasimon; — sal yopishgan; X — iks shaklida; — ovalsimon.

Modaning almashib turishi, kiyimning eng muhim fazilatlaridan biridir. Har bir yangi tavsiya etilgan kiyim modeli uchun baza asosi konstruksiyasini yaratish birmuncha murakkab vazifa hisoblanadi. Ishni yengillashtirishda har xil va baza konstruksiyalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'RXATI:

1. N. Hasanova — Buxoro Yengil sanoat kasb-hunar kolleji o'qituvchisi.
2. S. A. Hamroyeva — Buxoro Oziqovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutining «TSMT» kafedrasini mudiri, dotsent.
3. S. U. Po'latova. Kiyimni konstruksiyalash. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol», 2006-y, 120 bet.
4. https://hozir.org/pars_docs/refs/40/39062/39062.pdf
5. <http://staff.tiame.uz/storage/users/308/books/JcQaRF0Dg8ByqAoy6xKgbJsthtxU3W6hJtuZZtUL.pdf>

XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O‘QITISHNING TAMOIYILLARI.

Sotiboldiyeva SHoxista Jaloliddin qizi

TDPU magistri

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018yil 8dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 997-sonli qarori bilan Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlangan.

Unda eng ustivor vazifa qilib quyidagilar olindi:

Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish, matematika

Va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan davlat ta’lim standartlari, o‘quv

Dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish

Va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish;

o‘quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratish va

2019-2021 yillarda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borish.

Shuning chun PISA tadqiqotiga batafsilroq nazar tashlaylik:

Hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialini takomillashtirmoq mamlakatning iqtisodiy o‘shishning eng muhim omillari hisoblanmoqda.

Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun dolzarbdir. Shu munosabat bilan innovatsion rivojlanishning darajasini tezkor va ishonchli tahlil qilishga mo‘ljallangan baholash tizimi mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Bunday baholash tizimlari sifatida obro‘li xalqaro tashkilotlari tomonidan yaratilgan xalqaro reyting tizimlari qo‘llanilmoqda. Shulardan eng mashhur reyting tizimi sifatida INSEAD biznes-maktabi, Kornel universiteti va intellektual mulk Jahon tashkiloti tomonidan qo‘llanilayotgan Global innovatsion indeks xizmat qiladi.

Global innovatsion indeks(bundan buyon GII) innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi eng muhim axborot manbai hamda qaror chiqaruvchi organlar uchun foydali nazorat vositasi sifatida dunyo miqyosida e’tirof qilingan. Mazkur indeks ham iqtisodiy rivojlangan, ham bozor iqtisodiyoti endi shakllanayotgan davlatlarga qo‘llanilishi hamda innovatsiyalarga keng ravishda yondashgani uchun e’tiborga loyiq. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018yil 21sentabrdagi PF-5544-son “2019-2021yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida ”Farmonida O‘zbekiston Respublikasining 2030yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi belgilangan. GII dagi “inson kapitali va tadqiqotlar” guruhning ma’lumotlarini tahlili doirasida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)) o‘quvchilarni Xalqaro baholash dasturi (Programme for International Student Assessment) da olingan ko‘rsatkichlarga e‘tibor qaratish lozim.

PISA–turli davlatlarda 15yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi test. 78 mamlakatda o‘tkaziladi. Har bir mamlakatda 4500 dan 10000 nafargacha o‘quvchi test sinovlariga jalb etiladi.

PISA doirasida quyidagilar tadqiq etiladi:

Yoshlar kelajakda o‘zlari duch keladigan qarama-qarshiliklarga qaydarajada tayyor? O‘quvchilar ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o‘z g‘oyalarini taqdim etishga qodirmi? O‘quvchilar qaydarajada o‘z bilim va ko‘nikmalarini real hayotga tatbiq etish qobiliyatiga ega?

PISA ning asosiy maqsadi maktabni tugatgandan so‘ng o‘quvchilar faol hayotiy pozitsiyani egallashlariga imkon beradigan chuqur bilimga egalik darajasini baholashdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI YARATILGAN ASARLARDAGI O‘Z VA O‘ZLASHGAN QATLAM

Sharipova Sarvinoz Sayid qizi,

Annotatsiya: *Maqolada XIX asr birinchi yarmida O‘rta Osiyoda yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar hamda buning natijasida yuzaga kelgan lisoniy manzara haqida so‘z boradi. O‘zbek tiliga umuman begona bo‘lgan rus tilidan yangi so‘zlarning kirib kelishi, shuningdek, bunga qarshi kurash sifatida jadidlarning o‘zbek tili ichki lisoniy imkoniyatlari doirasida adabiy tilni boyitishga urinishlari haqida ma‘lumotlarlar keltiriladi. Fikrlar misollar bilan isbotlanadi.*

Kalit so‘zlar: *adabiy til, termin, xalq tili, “Turkiston viloyati gazetisi”, Muqumiy, ma‘no kengayishi.*

O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shib olinishi arafasida chekka o‘lkalarda yashagan millatlar va elatlar shu jumladan o‘zbek xalqining ham rus madaniyati va adabiyotidan bahramand bo‘lishida ijobiy rol o‘ynadi. Bu davrda ikkita adabiyot-reaktsion va progressiv-demokratik adabiyoti o‘sdi va taraqqiy etdi. Davrning adabiy tiliga diqqat qilsak, undagi o‘zgarish va burilish avvalo leksikada ko‘rinadi. XIX asrning I yarmida so‘z san‘atkorlari yangi tushunchalarni ifodalash uchun rus tiliga, mahalliy shevalarga va o‘zbek adabiy tilining ichki imkoniyatlariga murojaat qildilar.

So‘z tanlash va ijod qilishda o‘sha davrda uch manbaga asoslanib ish tutdilar. Ular quyidagilardir:

1. O‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan so‘zlar hisobiga adabiy til boyidi. Ma‘lumki, jamiyatda paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bunday so‘zlarning bir qismini semantik neologizmlar tashkil etadi. Rus madaniyati va fani bilan bog‘liq kirib kelgan tushunchalar quyidagicha ifoda qilingan:

a) Ruscha tushunchalarning ma‘nosini berish uchun o‘zbek tilida avvaldan bo‘lgan so‘zlar moslashtirilgan. Masalan, Jahonnoma geografiya ma‘nosida, manzil («*Turkiston viloyati gazetisi*»)-stantsiya ma‘nosida, bosmaxona-tipografiya, tabib-vrach, nishon («*Turkiston viloyati gazetisi*») –orden.

b) Rus tilidagi terminlarni kol‘ka qilish orqali yangi tushunchalar ifoda qilingan: *poxval’naya gromata-ta’rifnoma, ambulatornaya – tabibxonona, upravitel’ – boshqaruvchi, jeleznaya doroga – temir yo‘l, beliy tsar’ – oq poshsho, povestka – chaqiruv qog‘ozi, kerosin – er yog‘i, shtraf – jarima puli, ruchka – po‘lod qalam, poezd – otash arava, poroxod – otash kema.*

2. Xalq jonli tilidan foydalanib, adabiy tilni boyitdilar, Bu davr so‘z san‘atkorlari XIX asrning 1-yarmida yashab ijod etgan Maxmur, Gulxaniy traditsiyalarini davom ettirib, «avomcha» hisoblangan xalq tilidan foydalanib adabiy tilning boyishiga xizmat qildilar.

Professor Karimov ta'kidlaganidek, adabiyotning jonli tilga intilishi va uning xazinasidan samarali foydalanishi bu adabiyotning hayotga yaqinlashayotganidan, realizmga qarab intilganidan dalolat beradi. Haqiqatan xam, demokratik adabiyotda realizmning g'alaba qilayotganligi adabiy til taraqqiyotida ham, uning leksik sostavida ham ko'rinib turadi. Shunday ekan, demokratik adabiyot vakillarining asarlarida jonli so'zlashuv tiliga xos bo'lgan so'zlarni ko'plab topish mumkin. Masalan, *bo'zchi, kosov, bezgak, paxsa, loy, arava* va boshqalar.

3. Adabiy til rus tilining hisobiga boyidi. «Turkiston viloyati gazetisi» da mahalliy ziyolilar ayrim asar va maqolalarni rus tilidan tarjima qilib nashr qila boshladilar. Bunda ko'pgina ruscha so'zlar o'z holicha qabul qilindi. Bundan tashqari madaniy va siyosiy hayotdagi boshqa o'zgarishlar rus tilidagi so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishiga olib keldi. Shu davrdagi progressiv-demokrat shoir va yozuvchilar asarlarida «Turkiston viloyati gazetisi» sahifalarida quyidagi sohalarga oid ruscha va rus tili orqali kirgan so'zlar qo'llangan:

1. Ijtimoiy-siyosiy, harbiy-politsiya rejimi bilan bog'liq bo'lgan so'zlar: *uyezd, volost', дума, пристав, konsul, soldat, tor'ma, shtraf, geniral, gubernator*.
2. Transportga oid so'zlar: *poezd, vagon, kolyaska, vokzal, stantsiya*.
3. Pochta va telegraf bilan bog'liq bo'lgan so'zlar: *pochta, telegraf, adres, marka, konvert*.
4. Sanoat va moliya ishlari bilan bog'liq so'zlar: *zavod, fabrika, kupets, magazin, bank, vensel'*.
5. Fan va madaniyat bilan bog'liq so'zlar: *gimnaziya, teatr, muzika, muzey, gazeta*.
6. Meditsinaga oid so'zlar: *gospital', doktor, lazaret, fel'dsher*.
7. Sud ishlariga oid so'zlar: *sud'ya, zakun*.
8. Hujjat va mukofotlarga oid so'zlar: *bilet, pasport, orden, medal'*.
9. Uy-xo'jalik predmetlari nomlari: *stul, patnis, talinka, lampa, fonuz, pech', samovar, stol, kalish, dran, sitets*.
10. O'lchov birliklari nomlari: *pud, sajen, vershon, minut*.
11. Oziq-ovqatga doir so'zlar: *pivo, kvas, limonad, kofe, konfet, kartoshka, suxari*.
12. Etnik va toponomik nomlar: *Moskva, Rossiya, ingliz, frantsuz, rus*.

Bu davrdagi rus tilidan o'zbek tiliga so'z qabul qilinishi asosiy sababi shundan iboratki, madaniy turmushda bir qancha yangiliklar paydo bo'ldi. Bunday tushunchalarni ifodalash uchun o'zbek tilida so'z yo'q edi. Shuning uchun rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri so'z qabul qilganlar.

XIX asrning I yarmida rus tilidan o'zlashgan so'zlarning bir qismi aslida turkiy so'zlardir: Ular yangicha ma'no va ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan qabul qilingan. Bularga *tovar, istihān, karandash (qalam) boyar, bek, bashmak, kolpak, kabluk, chulan, cherak, den'gi, karaul, yarlik, kabak* va h.o. O'zlashgan so'zlar ichida etimologik jihatdan arabcha va Yevropaning boshqa mamlakatlari tillariga oid so'zlar ham bor.

Yuqoridagi kabi so'zlarning aksariyat qismi jonli so'zlashuv nutqi orqali va vaqtli matbuot orqali o'zbek tiliga kirib kelgan. Turli tildagi tarjimalar faqat rus tilidan emas, balki

fors-tojik tilidan ham bo'ldi. Ayniqsa bu davrda Bedil ijodi bilan qiziqish va unga ergashish kuchaygan edi. Shu tufayli demokratik shoirlar zullisonaynlikni davom ettiradi. Natijada klassik adabiyotda fors-tojikcha, arabcha leksik va grammatik elementlardan foydalanish traditsiyasi ham davom ettirildi.

Muqimiy tiliga rus tilining ta'siri. Muqimiyning satirik asarlarida o'zlashgan so'zlarga oid 32 ta ot turkumiga, 2 ta sifat, bittadan ravish, yuklama va fe'l turkumiga oid qo'llangan.

Bunda ot turkumiga oid so'zning ko'proq bo'lishi bir tildagi ikkinchi tilga predmet bilan birga kirib kelgan so'zlarning o'zlashishini ko'rsatadi. Muqimiy asarlari tiliga rus so'zlari asosan og'zaki nutq orqali kirib kelgan. Chunki rus tili va rus tili orqali kirgan so'zlar shu davrda qanday talaffuz qilingan bo'lsa, shundayligicha olingan. Masalan, *o'rus, kantur, zavut, kupes, chut (schyot), uez, poliska (politsiya), purjina, klaska, pristun, kalush, meshin, piyon (p'yaniy) doxtur, vogun, bo'lis, ishtiron, zakun, zakalat (zaklad), dabirnas.*

Rus tilidan qabul qilingan ba'zi so'zlar ma'nosi kengaytirilgan. Masalan, *vagun* so'zi *poezd* ma'nosida qo'llangan:

Sur'at ilak xayr ulusdin etib

Borlig'i ham xayriyat uldi vog'un.

Samovar so'zi choyxona ma'nosida qo'llangan:

Takyalab charlar, samovaru oqar suv xush havo.

Muncha ham serob ekan, obod olding oxunim.

Muqimiy rus tilidan kirgan ayrim so'zlarda o'zbekcha so'z yasovchi affikslar qo'shib yangi so'zlar hosil qilgan:

Moshinachiga berub, tiktirmaganda barvaqt

Sovuq havo, Muqimiy ojiz, yamon, afandim.

Shunday so'zlarga *tiligrafchi, purjinali* kabi so'zlarni ham keltirish mumkin. Ruscha so'zlardan shaxs nutqini individuallashtirish maqsadida ham foydalangan.

Bunday maqsadda *seychas, durrak, pajalista, poshol, piyonista* kabi so'zlarni qo'llagan. Topib mardiktrini – seychas yuring Pojalista – der edi-emdi turing. Muqimiy tomonidan qo'llangan ruscha so'zlarning ayrimlari hozirgi tilimizda adabiy til normasiga aylangan bo'lsa, ayrimlari kabul qilingan emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш., Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 2008.
2. Мухторов Ж., Санақулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т. Ўқитувчи. 1995.
3. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка.-М.-Л., 1962.
4. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т. Ўқитувчи. 1994.
5. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. –Т., 1990.
6. www.literature.uz

7. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA AKTDAN FOYDALANIB DARS O'TISHNING SAMARALARI VA SNAPGENE VIEWER DASTURIDAN FOYDALANISH

Toshpulatova Kumush Muhidin qizi

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani

17-maktabning biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biologiya fanlarini o'qitishda ta'lim sifatini oshirish uchun AKT dan unumli foydalanish haqida so'z yuritiladi. Bunda SNAPGENE VIEWER dasturidan foydalanish qoidalari, afzalliklari, dasturning qulayliklari haqida to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *snagene viewer dasturi, dnk tuzilish, dnk tartibi.*

Biologiya fanlarini o'qitishda an'anaviy usullardan ko'ra AKT va koo'rgazmali usullarda dars o'tish darsning samarasini yuqori darajaga ko'taradi. Chunki ular foydalanish maqsadlariga ko'ra funktsionaldir. Nafaqat informatika darsida balki biologiya darslarida ham yaxshi natija beradi. Ma'lumotlarni matematik qayta ishlash, ma'lumotlarni saqlash va boshqa amallarni bajarish mumkin. Akt dan foydalanish birinchi navbatda biologiya o'qituvchilari va izlanuvchilar uchun o'quv maqsadlariga erishish samarali vosita bo'libgina qolmay, ularni ishini yengillashtiradi. Fanni yanadan qiziqarli qilish o'quvchilarni biologiyaga o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Kitob yoki maruza matnlaridan olingan bilimdan ko'ra bu usulda olingan bilim o'quvchilarni tasavvurida yorqin iz qoldiribgina qolmay, DTS talablarini yuqori o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. Pedagoglar tomonidan AKT quyidagi usullardasamarali foydalanish mumkin:

Slayd shoular: o'qituvchining ovoz hamrohligida alternative rasmlar (fotosuratlar, animatsiyalar) darsga ajoyib hissiylik, ekspressivlik ko'rinish beradi.

Interfaol modellar-animatsiya, ularning o'tishini o'qituvchi belgilab qo'yadi. Biologic jarayonlarni stimulyatsiya qilish uchun ishlatish mumkin. Interfaol jadvallarni ushbu turdagi obyektlarga kiritish mumkin. Bunda biror bir parchalar qisqa animatsiyada jonlanish yoki yangi tafsilotlar paydo qilishim mumkin.

Interfaol topshiriqlar- bajarilish bosqichlarini va xatolarni computer nazorat qilib boradi. Vazifalar bosqichi natijasiga qarab keying bosqich vazifalarni beradi. O'quvchilarni baholashni eng samarali usullaridan biri

Qo'llab-quvatlovchi materiallar- bularga ma'lumotnomalar, xulosalar jadvalalari. Agar o'quvchi o'zidagi bo'shliqlarni aniqlamoqchi vato'ldirmoqchi bo'lsashu tipdagi interaktiv materiallardan foydalanishi mumkin.

Nazorat va dignostika testlari-barcha vazifalarni bajarish uchun protokolga qo'shimcha ravishda ushbu mavzu bo'yicha bilimlardagi bo'shliqlarni oqilona tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar to'plami.

Biz bu maqsadda snapgene viewer dasturini taklif qilmoqchimiz. Bu dasturning ahamiyati qanday?

Bu dastur ancha mashxur dasturlardan hisoblanib genetika fanini o'rgatish masalalar yechish, va dnk tuzilishini o'rgatishda bu dasturga teng keladigani yo'q. shu bilan birgalikda dasturda o'zbek auditoriyasi uchun kamchiliklar ham mavjud bo'lib bu dastur interfeysi ingliz tilida. Bu unchalik muammo emas sababi interfeys intuitive va formulalar ketma-ketligi, ilmiy atamalrdan tashkil topgan o'qituvchi buni tushunishi oson. Yana bir kichik kamchilik dastur pullik bo'lib, bu muammoni hal qilish uchun ma'lum vaqtgacha tekin versiyasidan foydalanish mumkun.

DNK ketma-ketligini o'rganish haqida gap ketganda, barcha ma'lumotlarni qidirish, ketma-ketlikning har bir elementini sinchkovlik bilan o'rganish va har qanday anomaliyalarga e'tibor berish uchun sizda kerakli dastur bo'lishi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun SnapGene Viewer-dan yaxshiroq narsa yo'q. Bu dastur molekulyar biologiyaga ixtisoslashgan dastur hisoblanadi. Uning interfeysi bir nechta qisnga bo'lingan bo'lib biz unga kirish yorlig'i orqali kiramiz. Maktab o'quvchilari uchun quydagi bo'limlardan foydalanish mumkun:

Xaritani ko'rish. Barcha fermentlarning aylanish grafigidagi taqsimoti. Ko'rish ketma-ketligi. Barcha DNK ketma-ketligi to'g'ri tartibda.

Fermentlar. Bu sizga fermentlarni raqam yoki chiziq bo'yicha ko'rishga imkon beradi.

Komponentlar. Bir ketma-ketlikning barcha tarkibiy qismlarini ajratish.

Bundan tashqari dasturda ko'plab molekulyar biolog SnapGene yordamida bajarilgan har xil DNK ketma-ketliklari va sinovlarining har xil turlarini kuzatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. va boshqalar. Biologiyao'qitish metodikasi.Oliy o'quv yurtlari uchundarslik. Toshkent, 2013
2. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo'janazarov O'., Tog'aeva G. "Biologiya fanini o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2017

JISMONIY TARBIYANING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI**Xasanova Ruqiya Shokirovna***Buxoro viloyati Kogon shahridagi**5-son IDUMning jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

Yosh organizm normal o'sishi va rivojlanishida qad-qomatning shakllanishida gimnastik mashqlar, jismoniy ishlar, muhim rol o'ynaydi. Mehnat va gimnastik mashqlar bilan muntazam shug'ullanganda ishlab turgan muskul va suyaklarga qon oqib kelishi kuchayadi. Natijada o'sha muskul va suyaklar pishiq va yiriqroq bo'lib qoladi, suyaklarning muskullar birikadigan joylari esa ancha sezilarli bo'lib qoladi. Muskullarning ko'ndalang qismi va hajmi kattalashadi, nafas organlarning rivojlanishi hamda yurak-qon tomirlari faoliyati ritmi roslanadi.

Gimnastik mashqlar bilan shug'ullanish bolalarda yangi harakatlar kabi jismoniy rivojlanish bilan birga aqliy rivojlanishiga ham yordam beradi. Aqliy va jismoniy ish qobiliyati ko'tariladi. Nerv-psixik sohasining oliy darajada aktivlanishini talab etadigan ishni bajarishda odamning potensial qobiliyatini, aqliy ish qobiliyatini nerv muskul tizimini esa jismoniy ish qobiliyatini tashkil etadi. Yosh organizmda barcha fiziologik jarayonlar yagona sutkalik – kecha – kunduzlik ritmiga bo'ysinadi. Sutka mobaynida organizm bir xil holatda bo'lmaydi. Sutkaning ayrim davrlarida uning aktivligi va ish qobiliyati yuqori, boshqa davrlarda past bo'ladi.

Bunga ta'sir qiladigan asosiy omillar kun bilan tunning almashinuvi harorat, havo namligi, atmosfera bosimining sutka davomida o'zgarish, shuningdek kundalik rejim, ishning turi, vaqti va boshqalar kiradi. Ko'pgina fiziologik jarayoning yuqori aktivlik fazalari yig'indisi organizm harakatini uning ish qobiliyatini ifodalaydi. Ko'p jarayonlar kunduz kuni aktiv kechgani tufayli butun organizm ham kunduzi aktiv bo'ladi.

Dars jarayonida harakatsiz o'tirish natijasida aqliy ishdan keyin tolqish boshlanadi, shuning uchun qisqa vaqt ichida ayrim gimnastik harakatlar qilish kerak.

Jismoniy tarbiya va sportni, aqliy mehnat deb taqsimlashning o'zi ma'lum darajada shartlidir, chunki aqliy charchash ayni vaqtda ish qobiliyatining pasayishi bilan o'tadi. Harakat aktivligi yetarli bo'lmagan holda uzoq vaqtgacha aqliy mehnat bilan shug'ullanish natijasida organizmning yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari funksional holatning sustlashuvi, garmonal faoliyatning zaflashishi kuzatiladi.

Jismoniy ish aqliy mehnat bilan unumli shug'ullanishga imkon beradi. Jismoniy tarbiya odam organizmning normal o'sishi rivojlanishida, qad-qomadning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Muntazam ravishda mehnat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish natijasida muskul to'qimasida moddalar almashinuvi kuchayadi, muskullarga qon kelishi ko'payadi bu esa ularning oziq moddalar bilan ta'minlanishini yaxshilaydi. Tekshiruvlardan ma'lum bo'lishcha jismoniy mashq bilan shug'ullanuvchi kishilarning har 100 ta muskul tolasiga mayda qon tomirlari (kapillyarlar)ning soni boshqalarning

muskulidagiga nisbatan ikki marta ko'p bo'ladi. Bunday odamlar muskullarining qon, kislorod, oziq moddalar bilan ta'minlanishi yaxshi bo'lganligi uchun muskul hujayralari sitoplazmasida oqsil, gemoglobin miqdori ko'payadi. Bu esa muskul tolalarining yo'g'onlashuviga va ular mustahkam bo'lishiga, qisqarish kuchining ortishiga olib keladi.

Muskullarning yaxshi rivojlanishi, tolalari va paylarining baquvvat mustahkam bo'lishi, o'z navbatida suyaklarning yaxshi rivojlanishida, ularning mustahkam bo'lishiga imkon beradi. Shuning uchun ham odam yoshligidan boshlab jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug'ullansa, tayanch-harakat sistemasining o'sishi, rivojlanishi, shakllanishi yaxshi bo'ladi. Shu bilan birga organizmning boshqa hayotiy muhim organ va sistemalar (o'pka, yurak, yuqon-tomir, jigar, buyraklar, oshg'ozon-ichak, nervlar) funksiyasi ham yaxshilanadi. Buning natijasida odam organizmi har tomonlama garmonik rivojlangan, baquvvat, tashqi muhitning noqulay ta'siriga chidamli chiniqqan bo'ladi.

Jismoniy tarbiya sog'liqni mustahkamlash, yuqori ish qobiliyatiga erishishga hayotiy muhim harakat o'quv va malakalarni egallashga yo'llangan. U odamning unumli mehnat qilishga tayyorlashda muhim ahamiyatda ega. Jismoniy xususiyatlardan tashqari tezlik, kuchlilik, chaqqonlik, chidamlilik bu vaqtda qimmatli ruhiy xususiyatlar (matonat, iroda, maqsadga intilish, qat'iylik, o'zini idora qila bilish) ham rivojlanadi. Turli xil jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar, sport jismoniy tarbiyaning vositalari hisoblanadi. Ular bilan uy sharoitida (ertalabki gimnastika) maktabda (jismoniy tarbiya darslari) sport va turistik seksiyalarda, bolalar hamda o'smirlar sport maktablarida shug'ullanadi.

Ayollar chidamli, bo'lib, uzoq muddatli ishlarni yaxshi bajaradilar. Shuning uchun o'g'il bolalarning jismoniy tarbiyalash metodlari bir muncha farq qiladi. Chidamlilikni, tezlikni rivojlantirish mashqlari, harakatlari aniqligi o'quvchilarning har ikkala jinsi uchun bir xil foydali, lekin o'g'il bolalarga kuchni rivojlantirish mashqlari, qiz bolalarga esa elastiklikni rivojlantirish mashqlari qo'shilishi zarur. O'g'il bolalar, o'smirlar va o'spirinlar o'zlarining jismoniy kuchlariga ortiqcha baho beradilar, kam namoyish qilinadilar, ammo hayotiy birmuncha muhim xususiyatlarning mensimaydilar, ayniqsa chidamlilikni qadriga yetmaydilar. Xususan o'smirlar birinchi navbatda shuni esda tutish kerakki, atrofdagilar hurmatiga, jismoniy xususiyatlarning namoyish qilib emas balki faqat foydali ishlar bilangina sazovor bo'lishi mumkin. Jismoniy tarbiya organizmga rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi va tuzatuvchi ta'sir etadi. U qaddi – qomatdagi nuqsonlarni umurtqa pog'onasining qiyshiqiligini, bukchayganligini yo'q qiladi. Jismoniy mashqlar yordamida qomatdagi ayrim kamchiliklarni ya'ni ko'krak botiqligi, yelka qiyshiqiligi va muskullarni yaxshi rivojlanmaganligini ham to'g'rilash mumkin.

TASVIRIY SAN'AT METODIKASI VA UNING ESTETIK TARBIYASI

Xodjimatova Odinoxon Astonovna*Andijon viloyati Andijon tumani**27-umumiy o'rta ta'lim maktabning**Tasviriy sanat fani o'qituvchisi*

Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. Tasviriy san'at deyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san'ati tushuniladi. Me'morchilik va dekorativ-amaliy san'at asarlari ham qisman tasviriy san'atga kiradi. Haqiqatda esa ularda mavjud borliq tasvirlanmaydi. Lekin bu san'at asarlarida ijodkorning maqsadi, fikri, his-tuyg'ulari, orzu-istaklari o'z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi va mazmuni o'z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriy san'at sifatida qaraladi. Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin shu bilan birga, ulardan har birining o'ziga xos tasviriy uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o'rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator tur va janrlarga bo'linadi.

Mustaqillik yillarida ijod erkinligi san'atda izlanishlar va turli uslub va yo'nalishlarning rivojlanishiga olib keldi. Rassomlik san'atining mavzusi kengaydi. Rassomlarning milliy tarixga murojati natijasida yangi yangi mavzular, eng avvalo milliy tarix bilan bog'liq voqealar ko'pchilik rassomlarni o'ziga jalb etdi. San'atda tarixiy portret va kompozistiyalarning paydo bo'ldi. Amir Timur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi ikonagrafik portretlari uchun tanlovlar o'tqazilishi ham shu jarayonda muhim o'rinni egalladi.

Estetik va badiiy fanlararo aloqalarning hayotiy murakkabligi hamda hayotiy yashash yo'lini fikrlab ko'ra bila oladigan o'quvchilarni tarbiyalash, amaliy ish jarayonida bilim berishni qayta qurish tubdan ko'rib chiqishni talab etadi.

Axloqiy madaniyatni yuqori darajada shakllantirish uchun ijodiy tasavvurni takomillashtirish lozim bo'ladi. Ijodiy kengqamrovli tasavvur qila olish qobiliyatiga ega bolalarga tasviriy san'at alifbosiga to'g'ri yo'naltirishni yo'lga qo'yish kerak.

Tasviriy san'at inson hayotida, uning axloqiy tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Insonning his qilish, san'at obyektidan hissiy lazzatlanish xususiyatlarini shakllantirishda – san'atning y'naltiruvchi asosiy kuchini ko'ramiz.

V.A.Suxomlinskiy – bolalar tarbiyasi to'g'risida juda ko'p foydali fikrlar berib ketgan. Bolalarni hissiy tarbiyalash estetik-axloqiy madaniyatli etib tarbiyalash go'zallikni seza olish, qabul qilish bilishni shakllantirish kerak.

Jismoniy va ilohiy go'zallikni his qilish tasavvur qilish haqida ham o'ylab ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qilgan ishidan zavqlanish, san'atni tushunish va his qilish, hamda bolalarni san'at asarlarini sevisgah o'rgatish, tabiatni muhofaza qilish tabiatdan zavq

Chet tili fani to'rt qismga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri va unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini va sifatini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir bo'lim(o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, audio playersiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni proektor yoki electron doska orqali namoyishlarni, dialoglarni, kino yoki ingliz tilidagi ko'rsatuvlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- guruhlar asosida turli xil mavzuga tegishli bolgan o'yinlar tashkil qilish
- o'quvchi yoki talaba qiziqqan yo'nalishda karaoke qo'shiqlar kuylash va manaloglar ijro etish..

Bu metodlardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Globalashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi.

Bugungi kunda innavatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim visitalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani ,masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innavatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish, preintatsiyalar orqali namoyish etish. va hayotga tadbiiq qilish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innavatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli fodalaniilganligidadir.

ADABIYOTLAR:

1. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. — М., 1997. — 331 с.
2. Mavluda Q.A. Chet tillarini o'qitish metodikasi. — M., 2012. — 148 с
3. Yoqutxon R.J. O'quv va metodik qo'llanma. — M., 2011. — 80 с
4. <http://uza.uz/oz/society/talim-tizimi-etibor-va-islo-otlar-11-09-2018>

**“XX ASR 50-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSRDA MADANIY SOHASIDA
NURITDINOV MUHIDDINOV QILGAN ISLOHOTLARI”****Olimov Nodirbek Anvarjon o‘g‘li**

Kalit so‘zlar: *Qatag‘on, NKVD, Kompartiya, ministrlar soveti, „paxta ishi“, surgun, „xalq dushmani“ , plenum, siyosiy byuro, „Oltin meros jamg‘armasi“, sekretar, Sobiq ittifoq, konsullik.*

Kadrlar siyosatidagi bunday holatlar va ruslashtirish siyosati mahalliy aholining moddiy va ma‘naviy imkoniyatlariga zarar keltirib, respublikada ijtimoiy vaziyat keskinlashuvi hamda millatlararo munosabatlarning murakkablashuviga zamin yaratdi. Markazning milliy siyosatida kadrlar masalasi muhim o‘rin tutar edi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi sekretarlari, O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi hamda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisining birinchi o‘rinbosarlari, Davlat xavfsizlik komiteti va muhim ministrlilar rahbarlari, viloyat va shahar partiya tashkilotlarining ikkinchi sekretarlari Moskvadan yuborilgan vakillar (asosan slavyan va armanlar)dan iborat bo‘lib, ular katta huquq va imtiyozlarga ega bo‘lib, respublikadagi kadrlar taqdirini o‘z ixtiyorlari bilan hal qilishgan. Bundan tashqari Markazga bo‘ysunadigan lavozimlar ham mavjud edi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari, respublika hukumati va davlat organlarining rahbarlari, viloyatlar partiya komitetlarining birinchi sekretarlari va viloyat ijroiya qo‘mitalari raislari asosan mahalliy millat vakillaridan tayinlansa ham bu nomzodlarni Kreml tavsiya qilar edi. Bunday siyosat mahalliy aholining manfaatlariga ziyon yetkazar edi. Yetakchi sanoat sohalari uchun mutaxassislar Markazdan taklif qilingan. 1959-yilda respublika aholisi tarkibida o‘zbeklarning salmog‘i 62 foizdan ortiq bo‘lsa ham undagi o‘zbek ishchilarining miqdori atigi 43 foizni tashkil etgan. Ittifoqqa bo‘ysunadigan korxonalar asosan Rossiya va boshqa respublikalardan taklif etilgan mutaxassislar va ishchilar bilan ta‘minlanardi. Bunday korxonalarda ish haqi mahalliy sanoat korxonalaridagiga qaraganda 2-3 marta va undan ham ko‘proq bo‘lgan. Nuritdin Muhitdinov U 1957 – 1959-yillarda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi sifatida o‘zidan yaxshi taassurot qoldirdi. U iste‘dodli tashkilotchi va mohir rahbar edi. Nuritdin Muhitdinov rahbarligida O‘zbekiston iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishda muayyan muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. 1924-yildan to 1991-yilgacha bo‘lgan Sobiq ittifoq davridagi O‘zbekiston rahbarlari ichida eng dovuqlilaridan biri, shuningdek o‘zining aqlu zakovati , notiqligi va tashabbuskorligi bilan oldingi saflardan birida turuvchi Nuritdin Muhiddin Akramovich edi. Garchi Nuritdin Muhiddinov Akramovich 2 yil davomida 1955-1957-yillarda O‘zbekistonga rahbarlik qilgan bo‘lsada(undan oldin respublika ministrlar kengashining raisi, o‘rinbosari, tashqi ishlar ministrii, Toshkent va Namangan viloyatlari rahbari, O‘zkompartiya lektori bo‘lib ishlagan), keyinchalik doimiy ravishda nigohi, e‘tibori, butun qalbi O‘zbekistonda bo‘lgan shaxslardan biri bo‘lgan. O‘z davrida sobiq ittifoqning eng yuqori martabalaridan biri-KPSS Markaziy kengashining kotibi edi. N.A.Muhitdinovning hayot faoliyati „Kremlde o‘tgan yillarim“ (Toshkent1994) va „Vaqt daryosi: Stalindan Gorbachyovgacha“ (Moskva-

1996) nomli memuarlarda aks etgan.³⁰ Xalqimizning milliy, madaniy-ma'naviy tiklanishi, millatimizning rivojlanishi bilan bog'liq jihatlar ham mislsiz darajada rivojlandi. Vatanimiz hududida yashab o'tgan barcha allomalarning nomlari tiklandi, ular qoldirgan ilmiy va madaniy meros qaytadan nashr etildi, jamiyatimiz nafaqat zamonaviy modernizatsiyalash tajribalari asosida, balki buyuk mutafakkirlarimiz qoldirgan milliy merosdan unumli foydalangan holda rivojlana boshladi. Xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilay oladigan salohiyatga erishdi. Milliy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatga sermazmun va maftunkor jihatlar bag'ishladi. Bu sohada qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish jamiyatimizning yaratuvchanlik va ijodkorlik jihatlarini shakllantirdi. Ushbu vazifalardan eng muhimi - yangi jamiyatimizni isloh, qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, hozirgi davr talabi asosida yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, muhimi, ular ongiga milliy istiqlol, Vatanga sadoqat va yurtparvarlik g'oyalarini yanada chuqurroq singdirish va teran anglatishdan iboratdir. Kelajagi buyuk davlatni qurish va mustahkamlash uchun jamiyatni harakatga keltiruvchi komil insonlarni yetishtirish kerak. XX asrning boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hamda demokratik harakat jarayoni asosan ikki yo'nalishda rivojlanib borgan. Birinchi yo'nalish chor Rossiyasiga qarshi kurashni turlicha g'oya va yo'nalishlarda olib borish maqsadida Rossiyaning o'zida vujudga kelgan sotsial-demokratik kadetlar, eserlar va boshqa siyosiy partiyalarning vakillari edilar. Hali bu guruhlar vakillari hatto oktabr to'ntarilishiga qadar ham o'lkada siyosiy partiya o'laroq uyushib shakllanmagan edilar. Chunki ular oz sonli va asosan kelgindi rusiy zabon millatlarning vakillaridan iborat bo'lganlar. Mahalliy xalq bu siyosiy guruhlarning birortasiga ham ommaviy sur'atda ergashmagan, ularni qo'llab-quvvatlamagan, bu guruhlariga a'zo bo'lib kirmaganlar. Chunki, mahalliy xalq tili boshqa, dini, urf-odati boshqa bo'lgan rusiy zabon millatlarga yotsirab, begonasirab, ularni g'ayridinkofirlar deb, bosqinchi-mustamlakachilar deb qaraganlar. Bu siyosiy guruhlarning dastur maqsadlari, taktik kurash usullari mahalliy xalq g'oyasi va saviyasidan yiroq bo'lgan, ular bu dastur maqsadlar mohiyatini chuqur tushunib yetmaganlar va ularni qabul qilmaganlar. Hali oktabr to'ntarishi yuz bermagan 1917-yil yozidayoq bir guruh andijonlik jadidlar bolsheviklar, mensheviklar, eserlarga xat yo'llab, ularning g'oya va dasturlarini Turkiston musulmon xalqi o'zlariga singdira olmasliklarini bayon qilgan edilar. Aynan Stalin davrida ham qatag'on siyosati davom etadi. 1937-1938-yillarda juda ko'plab ziyollar qatag'on qilingan. Urush tugagandan keyin oradan ko'p o'tmay O'zbekiston SSR bo'ylab yana bir yalpi qatag'on to'lqini yelib o'tdi. XX asr 40-yillari oxiri va 50-yillari boshlaridagi qatag'onlar asosan madaniyat va fan arboblari qatag'on qaratildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Markazning yo'l-yo'riqlariga tayangan holda dunyoqarashi va ijodi kommunistik partiya mafkurasidan farq qiladigan ijodiy ziyolilar vakillariga qarshi hujum boshladi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti byurosi 1950-yil 1-sentyabrda "O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining ishi to'g'risida"gi masalani ko'rib, akademiya olimlaridan sharqshunos va tarixchi Abdusamad Boboxo'jayev, adabiyotshunos va faylasuf Vohid Zohidov, iqtisodchi Olim Aminov, tilshunos Olim Usmonov va boshqalarni nohaq

1. ³⁰ „O'zbekiston milliy ensklopediyasi. VI tom“ . Toshkent. „Davlat ilmiy nashriyoti“ . 2006-yil.

ravishda qoraladi. Nihoyat, 1952-yil fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining mafkuraviy masalalarga bag‘ishlangan X plenumi (yalpi majlis) bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretari Amin Niyozov “Respublikada mafkuraviy ishning ahvoli va uni yaxshilash choralari to‘g‘risida” ma‘ruza qildi. Ma‘ruzada O‘zbekiston ziyolilaridan bir guruhi (yozuvchilar, olimlar, shoirlar va b.) noto‘g‘ri ravishda millatchilikda ayblandi. O‘zbek xalqining qatag‘on qilingan bu vakillarining asarlari va “Alpomish” dostonini o‘qish taqiqlandi. Ma‘ruzada O‘zSSR FA tarkibidagi Tarix va arxeologiya, Sharqshunoslik, O‘zbek tili va adabiyoti institutlari olimlari keskin ravishda, biroq nohaq tanqid qilinadi. Mazkur plenum va unda qabul qilingan qarorlar O‘zbekistonning ma‘naviy hayotiga kuchli zarba bo‘lib tushdi. Ijodkor ziyolilardan Said Ahmad, Shukrullo, Mirzakalon Ismoilov, Shuhrat, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim, Ne‘mat Toshpo‘lat, Yong‘in Mirzo, Hamid Sulaymonov, Muhiddin Qoriyoqubov va boshqalar (12 kishi) “sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati” olib borganlikda ayblanib, 1951-yilda qamoqqa olindi va 25 yilga ozodlikdan mahrum etildi. Ular “xalqlar otasi” va “xalqlar dohiysi” I.V.Stalin vafot etganidan bir necha yil o‘tib, 1955-yili sovet rejimi tomonidan oqlanib, qamoqdan ozod qilindi. 1956-yil 25-fevralda bo‘lgan KPSS XX syezdining yopiq majlisida KPSS MK Birinchi sekretari Nikita Xrushchev shaxsga sig‘inish va uning oqibatlari to‘g‘risida ma‘ruza qildi. Ma‘ruzada Stalin shaxsiga sig‘inish qoralandi va uning oqibatlarini tugatishga kirishildi. Bu davrda qatag‘on qilinganlarni oqlash jarayoni ham boshlandi.³¹

2. ³¹ Nuritdin Muhitdinov „Kremlida o‘tgan yillarim“ Toshkent. „O‘zbekiston“ nashriyoti. 1995-yil

OMON MATJON LIRIKASIDA O'XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Qodirova Dilfuza Xalimovna

Andijon davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Omon Matjon lirikasida o'xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *lirika, lingvopoetika, obrazlilik, o'xshatish, lirik qahramon, tilshunoslik, badiiy matn, nutq, personaj, publististik matn.*

Ma'lumki, badiiy ijodni, xususan, poetik nutqni lingvopoetik vositalarsiz tasavvur etish qiyin. Poetik matnlar tilining emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri o'xshatishdir. Insonning ijodiy faoliyati mahsuli bo'lgan badiiy matnlar lingvopoetik tahlil uchun material vazifasini o'taydi. Tabiiyki, matndan tashqarida, alohida belgilab olingan so'z yoki iborani tahlilga tortish orqali ijodkorning boshqalardan ajralib turadigan o'ziga xos bo'lgan uslubi, u tomonidan yaratilgan poetik matnda ishtirok etgan lirik qahramonlar yoki personajlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab bo'lmaydi. O'xshatishlarning hosil bo'lishi zamirida muallifning kommunikativ maqsadi, uning voqelik faktlariga bo'lgan munosabati, ularni lisoniy va nolisoniy omillarga tayangan holda baholashga intilishi yotadi.

Tilimizda nutqning turli ko'rinishlarida, xususan, og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda, qisman publististik matnlarda ham tez-tez uchrab turadigan "muzday suv", "qo'yday yuvosh", "toshday qattiq", "paxtaday yumshoq", "cho'chqaday semiz", "tulkiday ayyor", "terakday uzun" kabi bir qator o'xshatishlar nutqimizda ko'p qo'llanilganligi, tasvir obyektining ma'lum bir sifatinigina izohlash bilan cheklanib qolganligi uchun obrazlilik, ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotgan. Ular bugungi kunda an'anaviy o'xshatishlar hisoblanadi. Badiiy matnlar esa kutilmagan, kitobxon ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi, obrazlilik hosil qiluvchi vositalar hisobiga poetik qimmat kasb etadi. Tilimizda "O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi.

Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavalantiradi".

Omon Matjon she'riyatida qo'llanilgan o'xshatishlar betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi, unga zavq bag'ishlaydi. Bu esa shoirning tilimiz yashirin imkoniyatlari, o'xshatish hosil qiluvchi vositalarni yaxshi bilishidan dalolat beradi.

Ma'lumki, tilimizda o'xshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar bor. Leksik vositalar kabi, singari, qadar, yanglig', bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand,

xuddi, naq, go‘yo, teng, o‘xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo‘lmoq, bir, aynan, o‘zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar kirsak, grammatik vositalarga - day (-dek) -dak -(tak) -dag‘ (-dog‘) -dayin, -dan, -dir, -namo, - simon,- ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga) kabilar kiradi.

O‘xshatish hosil qiluvchi –dek, -day, -yanglig‘ kabi vositalar ishtirokidagi poetik tasvirning yuksak namunasini shoirning quyidagi she‘rida ko‘rishimiz mumkin. She‘rni o‘qir ekanmiz ko‘z o‘ngimizda dastlab sevgidan mast bo‘lgan, so‘ngra hijron azobida qiynalayotgan lirik qahramon gavdalanadi. Mana dastlabki holat:

Boshqalardek sevishdik biz ham,

Kuyib yurdik boshqalar kabi.

Bu savdoni baxt bildik biz ham,

Baxtdir, dedik visol, yor labi.

Avvalo, o‘xshatish uchun asos bo‘lgan birliklarning tanlanishi, yosh yigitning umrini quvonchni tark qilgan holda g‘amgin, za‘faronlikka qiyoslanishi, parishon umrining esa motamsarolikka nisbat berilishi o‘quvchi ko‘ngliga qandaydir mahzunlik olib kiradi, unga lirik qahramon ichki kechinmalari to‘g‘risida ishora beradi. Keyingi misralardagi o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi “dek” leksemasi vositasida esa bu mazmun yanada kuchaytiriladi. Omon Matjon o‘xshatish hosil qiluvchi “dek” leksemasi vositasida kutilmagan obrazlilikni yuzaga keltiradiki, kitobxon beixtiyor tasvirlangan obyekt haqida o‘ylay boshlaydi, uning shakl-u shamoyili va mazmun-mohiyatiga lirik qahramon ko‘zi bilan nazar tashlaydi.

Boshqalardek duch kelib qolsak,

Olislardik ming bor hayrilib.

Mana, biz ham bebaxt, beharsak

Boshqalardek ketdik ayrilib.

Inson ruhiy holatining bu tarzda ochib berilishi faqat Omon Matjon uslubiga xos deyish mumkin. “Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so‘z tanlash san’ati bilan belgilanadi. Bu o‘z o‘rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya’ni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati - lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi.

Chunki yozuvchi uslubida san’atkor tomonidan estetik jihatdan qo‘llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog‘liqlik asosida birlashadi”- degan qarashlarni Omon Matjon she‘riyatiga ham tatbiq etish mumkin. Yuqorida keltirilgan o‘xshatish hosil qiluvchi vositalar yordamida hosil qilingan betakror tasvir “Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan” badiiy matnning lingvopoetik imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalarning o‘rinli qo‘llanishi bilan badiiy tasvirning estetik ta’sirchanligi orta boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli. O'zbek tili va adabiyoti, 2011, 3-son.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. T. 2007. 35- bet.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti. Toshkent, 2009. B.78.

MOVAROUNNAHR – O`TROQ DEHQON VA KO`CHMANCHI CHORVADOR QABILALARI TO`QNASHGAN CHORRAHA.

Nurbek Sattorov

*Nizomiy nomidagi TDPU
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada diyorimizda dehqonchilik xo`jaliklarining kirib kelishi va yoyilishi, dasht ko`chmanchilarining shimoli-sharqdan Movaraunnahrning markaziy va janubga qarab kirib kelishi va o`troq qabilalar bilan aralashish jarayonlari, Sarazm dehqonchilik maskani haqida ma`lumotlar beriladi.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о притоке и распространении земледелия в нашей стране, притоке степных кочевников с северо-востока в центр и юг Моворауннахра, а также о процессе смешения с оседлыми племенами Саразмского земледельческого поселения.*

Annotation: *This article provides information about the influx and spread of agriculture in our country, the influx of steppe nomads from the north-east to the center and south of Movoraunnahr, and the process of mixing with settled tribes, Sarazm agricultural settlement.*

Kalit so'zlar: *Anov-Nomoz, "Sarazm", "Chust", "Xalifa", "Sazag'on", "Jom", "Sopollitepa", Qadimgi Baqtriya, Marg`iyona.*

Ключевые слова: *Анов-Намаз, «Саразм», «Чуст», «Халифа», «Сазаган», «Джом», «Сополлитепа», Древняя Бактрия, Маргиана.*

Keywords: *Anov-Namaz, "Sarazm", "Chust", "Khalifa", "Sazaghan", "Jam", "Sopollitepa", Ancient Bactria, Margiana.*

Tarixdan ma`lumki, O`rta Osiyo hududida qadimdan odamlar yashab kelishgan. Fikrimizni O`rta Osiyo va O`zbekiston hududida keng ko`lamda olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar isbotlaydi. Bu hududda qadimdan ikki tilda, ya`ni turkiy tilda so`zlashuvchi chorvadorlar va qadimgi eroniy tillarning shimoliy-sharqiy lahjalarida so`zlashuvchi o`troq qabilalar yashab kelishgan. Har ikkala xo`jalik bilan shug`ullanuvchi qabilalarning asrlar davomida o`zaro aloqalari ularning o`zaro aralashib, etnik jihatdan qorishib ketishiga olib keldi. Aynan ikki boshqa-boshqa xo`jalik bilan shug`ullanuvchi qabilalarning qorishuv nuqtasi Amudaryo va Sirdaryo daryolari oralig`i bo`ldi. Dastlab dehqonchilik madaniyatining hududimizda vujudga kelishi va boshqa hududdan kirib kelishiga e`tabor qaratadigan bo`lsak, eneolit davrida qadimgi dehqonchilik bilan shug`ullanuvchi qabila jamoalarida iqtisodiy-xo`jalik sohasidagi yuksalishlar ijtimoiy tabaqalanishga yuz tutib, qadimgi sharq sivilizatsiyasining yangidan-yangi mahalliy markazlari paydo bo`la boshlaydi.

Dehqonchilik madaniy-xo`jalik an`analari bizning hududimizga Joytun madaniyati an`analari asosida tarkib topgan Anov-Nomozga madaniyati dehqon qabilalari orqali bronza davriga kelib Movarounnahr va unga tutash hududlarga kirib keladi. Aynan shu kezlarda O`rta Osiyoning markaziy va shimoliy qismlarida ibtidoiy jamoalarning xo`jalik hayotida

tub o`zgarishar yuz bera boshlaydi, ya`ni Zarafshon daryosining yuqori oqimida Sarazm dehqonchilik maskani paydo bo`ladi. "Sarazm" so`g`dshunos olim V.A.Livshisning fikriga ko`ra, "sari-zamin" ya`ni yerning boshlanishi, aniqrog`i Zarafshon vodiysining boshlanishi ma`nosini anglatadi³². Akademik A. Asqarovning fikricha, qadimgi sarazmliklar bu joyga Janubiy Turkmanistonning qadimgi Geoksyur vohasidan ikki maqsadni ko`zlab kelib o`rnashganlar³³. Birinchisi dehqonchilik xo`jaligi uchun qulay ekin maydonlarini izlab toppish bo`lsa, ikkinchisi, qadimgi rangli metall-ma`dan konlariga ega bo`lish uchun kelishgan.

Sarazm yodgorliginiing buzilib ketgan eng yuqori qatlamlari matreallariga qaraganda, bu joyda gyuksyurdan kelgan sarazmliklarning faoliyati eneolitning rivojlangan bosqichidan to rivojlangan va so`nggi bronza davrigacha davom etgan. Sarazm madaniyatining mintaqa madaniyati ta`siriga e`tabor qaratadigan bo`lsak, Zarafshon vodiysida bu madaniyatga tegishli bironta yodgorlik hozirgacha topilmagan. Arxeolog N.A.Avanesova fikricha Zarafshon vodiysida Sarazm tipidgi yodgorliklar bo`lganligiga (Tugaynoe) ishora qiladi³⁴. Ammo, ularning barchasi vohani keyinchalik xo`jalik jihatdan jadal o`zlashtirish jadal o`zlashtirilishi munosabati bilan yo`qolib ketgan bo`lishi ehtimoldan uzoq emas. Lekin, Sarazm yodgorligining buzilib ketgan to`rtinchi bosqichi matreallari ichida Chust madaniyati (mill.avv XV-VIII) keramikasiga o`xshash rangli sopol parchalari ham uchraydi³⁵. Bu bosqichda sarazmliklar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tub o`zgarishlar sodir bo`ladiki, ularning boshqa hududlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari kengayadi.

Sarazm IV davriga oid bronza davrining mill.avv II ming yillikning o`rtalariga oid Zarcha Xalifa³⁶, Sazag`on³⁷ va Jom³⁸ mozorlaridan topilgan Sopolli madaniyatiga tegishli bronza buyumlar va kulolchilik mahsulotlari Sarazm IV davri buyumlari bilan bir xilligini arxeologik manbalar tasdiqlaydi. Afsuski, Sarazmning o`zida bu davr madaniy qatlamlari davr taqazosi bilan yomon saqalangan. Sarazm madaniyatiga tegishli qadimgi dehqonchilik jamoalari Zarafshon vodiysida kam uchrasa-da, ammo, real tarixiy haqiqat O`rta Osiyoda mintaqaviy rivojlanish jarayonlarining o`troq dehqonchilik jamoalari foydasiga kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Mill.avv II ming yillik o`rtalarida Sarazmda davom etgan hayot to`xaydi. Chunki, Sarazm madaniyati nafaqat qadimgi dehqonchilik madaniyatining noyob yodgorligi, balki mintaqaa eneolit va bronza davrining metallurgiya markazi ham edi.

Mill. Avv II ming yillikning ikkinchi yarmida bu ma`dan konlarini egallash uchun chorvador qabilalar bu hududga ko`chib kelib o`rnashadilar. Natijada Sarazm madaniyati inqirozga uchraydi. Tog` sanoati va metallurgiyadan keladigan mo`may daromaddan

³² Исаков А. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долины. Душанбе, 1991. С.5

³³ Asqarov A.A O`zbek xalqining kelib chiqish tarixi .-T.: O`zbekiston,2015.138-bet

³⁴ Аванесова Н.А. Межкультурные взаимодействия степного населения Евразии и урбанизированных земледельцев Средней Азии. Тез. Докл. <<Цивилизация Центральной Азии: земледельцы и скотоводы, традиции и современность >>. Самарканд,2002.С.17.

³⁵ Исаков А. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долины. Душанбе, 1991.С.112-113.

³⁶ Бобомуллоев С.Б. Верховья Зарафшана во II тыс. до н. э. Душанбе,1998.

³⁷ Аванесова Н.А. Новые матреалы эпохи бронзы Зарафшанской долины. << Археологические исследования в Узбекистан- 2001год>>. С.20-21.

³⁸ N. Avanesova, S.Sajdullayev, A.Yorkulov. Gzam-ein neuer bronzzeitlicher Fundort in der Sogdiana. <<Archaeologische mittilungen aus Iran und Turan>>. Berlin- 2001.p.63-72.

mahrum bo'lgan Sarazmliklar, bu joyda qolishning iloji yo'qligidan Sarazmni tark etdilar. Shimoli-sharqdan kirib kelgan chorvador dasht qabilalari bu hududda o'zlarining "Dashti Qazo" madaniyatini tashkil etdilar. Aynan, Yuqori Zarafshon hududida dastlabki o'troq dehqonlar va ko'chmanchi chorvador qabilalari bir birlariga to'qnash kelishadi va madaniyatlarning umumiy lashuvi yuz bera boshlaydi. Mana shu ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar natijasida qadimgi dehqonchilik madaniyati chegarasi O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy tomon kengayadi. Bu davrda mintaqaning janubiy hududlarida ham qizg'in dehqonchilik madaniyati yoyilish jaroyoni boshlandi. Ya'ni birin-ketin Murg'ob vodiysida, Baqtriyada qadimgi sharq sivilizatsiyasiga xos o'troq dehqonchilik va shaharsozlik madaniyatining o'choqlari tarkib topa boshlaydi. Jumladan, janubiy O'zbekistonda sug'orma dehqonchilik va yuksak darajada rivojlangan hunarmandchilik xo'jaligining bronza davriga oid Sopolli madaniyati shakllanadi. Sopollitepa aholisi Janubiy O'zbekiston hududining eng qadimgi dehqonlari edi. Bu yerdan topilgan juda boy va xilma-xil matriallar tahlili, ularning boshqa o'lka va tarixiy madaniy viloyat yodgorliklari bilan qiyosiy o'rganish Sopollitepa aholisining Qadimgi Baqtriyaga qo'shni Marg'iyonadan dehqonchilikka qo'lay yangi yerlar qidirib o'rnatishgan qabilalar ekanligini ko'rsatadi. Sopolli madaniyati dehqonchilik manzilgohi bo'libgina qolmay yodgorik bag'rida chorvador ajdodlarimiz moddiy va ma'naviy madaniyati izlarining topilishi esa, o'zbek xalqi etnogenezining boshlanish davriy sanasini bronza davri bilan belgilashni taqazo etadi.

Sopolli madaniyati o'zining Bo'ston bosqichida gullab-yashnab turgan kezlarda, Baqtriya sarhadlariga Qadimgi Farg'onaning Chust madaniyati tipidagi etnik guruxlar kirib keladilar³⁹. Ularning moddiy madaniyat izlari ibtidoiy urug'chilik jamoasining bronza bosqichidan ilk temir bosqichiga o'tish davri madaniyati sifatida Qadimgi Baqtriya hududlari bo'ylab keng tarqaladi. Keltirilayotgan ma'lumotlar yoritayotgan muammomizni ancha ochiqlyadi.

Diyorimizda yuqorida dehqonchilik xo'jaliklarining kirib kelishini va yoyilishini ko'rib chiqdik, endi esa dasht ko'chmanchilarining shimoli-sharqdan Movaraunnahrning markaziy va janubga qarab kirib kelishi va o'troq qabilalar bilan aralashishini ko'rib chiqamiz. Bronza davrida O'rta Osiyoning cho'l va dashtlarini chorvador qabilalar egallagan edilar. Ularning iqtisodiy hayotining asosini chorvachilik va ibtidoiy motiga dehqonchiligi tashkil etar edi.⁴⁰ Chorvador qabilalar O'rta Osiyoning asosan cho'l hududlarini egallaganliklar uchun bu qabilalar jamoalari maxsus adabiyotlarda "bronza asrining cho'l zonasi qabilalari" nomi bilan yuritiladi.⁴¹ Bu qabilalar madaniy va xo'jalik qurilishi sohasida janubiy o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi jamoalardan ancha orqada edilar. Lekin bu ikki mintaqa aholisi o'rtasida xo'jalik va madaniy aloqalar davom etib turgan.

Dehqon jamoalarining dasht qabilalari maddiy madaniyatiga ta'siri kuchli edi. Dehqon jamoalarining ilg'or xo'jalik va madaniy ta'sirida bronza davriga kelib alohida arxeologik madaniyatlar shakllandi. Ana shunday dasht qabilalarining o'ziga xos arxeologik majmuolari Zarafshon va Amudaryoning quyi havzalarida, Farg'ona vodiysida tashkil topdi.

³⁹ Asqarov A.A O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi .-T.: O'zbekiston,2015.182-bet.

⁴⁰ Asqarov A.A O'zbekisron tarixi.-T.:O'qituvchi,1994,76 bet.

⁴¹ Asqarov A.A O'zbekisron tarixi.-T.:O'qituvchi,1994,76 bet.

Xullas, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida O`rta Osiyoning barcha tog` oldi tumanlari, cho`l va dashtlari chorvador qabilalari bilan qoplangan edi. Ming yillikning oxiriga kelgunga qadar ular o`z chorva mollarini haydab to qadimgi dehqon jamoalari muhitiga qadar kirib bordilar. Bu holat O`rta Osiyoda etnik jarayonlarning faollashuviga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Oqibatda ibtidoiy jamoa ildiziga zil ketdi. Ikki xo`jalikning O`rta Osiyo hududida to`qnashishi Mill.avv II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida bu hududda yuz bergan migratsiya va etnik jarayonlar hozirgi zamon o`zbek va voha tojiklarning dastlabki etnik qatlamining shakllanishida muhim ro`l o`ynadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Asqarov A.A O`zbek xalqining kelib chiqish tarixi .-T.: O`zbekiston,2015.
2. Asqarov A.A O`zbekisron tarixi.-T.:O`qituvchi,1994.
3. Avanesova N., Sajdullayev S., Yorkulov A. Gzam-ein neuer bronzzeitlicher Fundort in der Sogdiana. <<Archaologische mittilungen aus Iran und Turan>>. Berlin-2001.p.63-72.
4. Аванесова Н.А. Межкультурные взаимодействия степного населения Евразии и урбанизированных земледельцев Средней Азии. Тез. Докл. <<Цивилизация Центральной Азии: земледельцы и скотоводы, традиции и современность >>. Самарканд,2002.
5. Аванесова Н.А. Новые матреалы эпохи бронзы Зарафшанской долины. <<Археологичесие исследования в Узбекистан- 2001Год>>.
6. Бобомуллоев С.Б. Верховья Зарафшана во II тыс. до н. э. Душанбе,1998.
7. Исаков А. Саразм. К вопросу становления раннеземледьческой культуры Зарафшанской долины.Душанбе, 1991.

MILLIY G'OYA TUSHUNCHASI, UNING TUZILISHI VA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Sharipov Ramazon Fazliddin o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarni to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy g'oya tushunchasi, uning tuzilishi va namoyon bo'lish xususiyatlari, maqsadi, vazifasi va rivojlanish tarixi uning o'qitish metodining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy interaktiv metodlarni yoritib berishga xarakteristik qilinadi.*

Kalit so'zlar: *G'oya, g'oyalarning shakllari, milliy g'oya, mafkura, monizm, gumanizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm.*

Milliy mafkura kecha, bugun yashab turgan barcha progressiv g'oyaviy qadriyatlarning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradi. Xuddi shuning uchun ham O'zbekiston milliy mafkurasining asosida nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar ham yotadi. Milliy mafkura Respublikamiz xududida yashovchi barcha millat va elatlarning tarixiy taraqqiyot tajribasiga asoslanishi bilan birga xorijiy mamlakatlar tajribasiga ham suyanadi.

Milliy mafkura ijtimoiy harakatlar va jamiyatning turli sotsial institutlari amalga oshirayotgan mafkuradan eng avvalo o'zining integrativ xususiyatga ega ekanligi bilan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, integrativ mafkura odamlarni yagona maslak atrofida birlashtiruvchi tarbiyaviy tadbirlarning summasi, bir butun sistemasidir. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, Amir Temur davlatining ham, Petr I davlatining ham mafkurasini xuddi shunday integrativ xususiyatga ega edi.

Integrativ xususiyatga ega bo'lgan milliy mafkura jamiyat bisotida mavjud bo'lgan barcha tarbiyaviy imkoniyatlari insonni ulug'lashga, uni erkin fikr yuritishi, ozod farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan eng yaxshi, eng ilg'or umumbashariy g'oyalarni to'plashi va uni amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan obektiv shartsharoitlar va subektiv omillarni yagona maqsad atrofida birlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, milliy mafkura uchun insoniyat qo'lga kiritgan tarixiy tajriba ochiq, undan foydalanish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Faqat milliy tajribadan emas, balki, umumbashariy tajribadan foydalanish imkoniyati to'g'riladi. O'tmish va bugun mavjud bo'lgan fan, madaniyat, san'at, din, axloqning konstruktiv, ilg'or elementlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Milliy mafkura ijtimoiy mafkuraning boshqa shakllaridan qudratli tashkiliy sistemaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xuddi o'sha tashkiliy sistema yordamida jamiyatda mavjud bo'lgan barcha sotsial institutlar: oila, mahalla, bolalar muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, maxsus va o'rta oliy o'quv yurtlari, mehnat kollektivlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar, jamoat tashkilotlarining mafkuraviy imkoniyatlarini muvofiqlashtiriladi va ularning bir maromda faoliyat ko'rsatishlari ta'minlanadi. Xuddi shunday yo'l bilan inson bilan jamiyat orasidagi aloqadorlik mustahkamlanadi.

Milliy mafkuraning insonparvarligi, uning ijtimoiy adolat prinsiplari, normalariga asoslanishi bilan o'lchanadi. Faqat ana shunday mafkura ta'sirida faoliyat ko'rsatagan fuqaro o'zini hur va baxtiyor xis etadi. Kommunistik mafkura hukmron bo'lgan mustabid tuzum sharoitida inson davlatga xizmat qiladigan bo'lsa, milliy istiqloq mafkurasiga ega bo'lgan O'zbekiston sharoitida huquqiy davlat insonga xizmat qilmog'i, chunonchi har bir fuqaroning huquqlarini himoya etmog'i darkor.

Milliy mafkura xalqning, millatning ma'naviyati bilan bog'langan. Mafkura xalqning ma'naviyatiga tayangan taqdiridagina qudratli ijtimoiy kuchga aylanadi. Boshqacha aytganimizda, mafkura ommaning ma'naviyatiga, odamlarning ma'naviy qiyofasi esa mafkuraga uzluksiz ta'sir o'tkazib turadi. Ana shu dialektik aloqadorlik mexanizmi qancha baquvvat bo'lsa, milliy mafkuraning xalqchilligi shuncha mustahkam bo'ladi. Shuning uchun hamodamlarning ma'naviyatini boyitmasdan turib, ularning ma'naviy qiyofasida sunib ketish arafasida bo'lgan milliy qadriyatlarni tiklamasdan turib, insonparvar, demokratik jamiyat qurib bo'lmaydi. Bu esa mamalaatimizda mavjud bo'lgan barcha intellektual, ma'naviy potentsiallar imkoniyatlaridan, chunonchi, maorif, madaniyat, fan, madaniy-ma'rifiy tashkilot va muassasalari erishgan yutuqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Ko'pmillatli O'zbekiston sharoitida milliy mafkuraning samaradorligi, ta'sirchanligini oshiruvchi eng muhim omil-lardan biri, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga asoslanishidir. Boshqacha aytganimizda, milliy mafkura respublika xududida yashovchi yerlik xalqning tarixiy, madaniy-ma'naviy urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayram va marosimlariga asoslangandagina, qudratli ijtimoiy kuchga aylanadi. Xuddi shu dialektik aloqadorlik mexanizmi qancha baquvvat bo'lsa, milliy mafkuraning xalqchilligi ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Bayon etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy mafkuraning asosini tashkil etuvchi umummilliy, umumdavlat g'oyasining bo'lishi ham tarixiy zaruratdir. Chunki har qanday davlat sharoitida ham uning turli millat va elatlarga, maslak va manfaatlarga mansub fuqarolari uchun umumiy g'oya zarur. Yagona davlat xududida yashovchi, barcha millatlar va elatlar manfaatiga mos tushuvchi umummilliy, umumdavlat g'oyasi bo'lmasa, ko'pmillatli davlat sharoitida u yoki millat manfaati oyoq osti bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham turli millatlar va elatlar yashayotgan O'zbekiston sharoitida barcha millat va elatlarning milliy manfaatiga mos tushuvchi umummilliy g'oya ularni nurafshon kelajak insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek oliyjanob maqsad atrofida birlashtiradi.

Umummilliy g'oya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sifatiy ijtimoiy o'zgarishni harakatga keltiruvchi qudratli motor vazifasini bajaradi. U ommaning ma'naviy-ma'rifiy energiyasini oshirishda ichki stimuly beruvchi buyuk genera-tordir. Shunday ekan milliy mafkuraning asosida qanday umummilliy g'oya yotishi mumkin? Bizning fikrimizcha, mustaqil O'zbekiston milliy mafkurasining asosida adolatli, inson-parvar, demokratik jamiyat qurish, o'sha jamiyatning bunyodkori bo'lgan jismonan baquvvat, ma'naviy-madaniy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-kor mahoratini o'zida mujassamlashtirgan barkamol inson shaxsini shakllantirish g'oyasi yotmog'i darkor.

Mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo'lgan, milliy man-faatni to'la tasavvur qiluvchi, milliy g'ururi baland, chinakkam vatanparvar, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlovchi, unga doimo amal qiluvchi xalq, davlat manfaati haqida qayg'uruvchi barkamol shaxsni tarbiyalamasdan turib, mamlakatimiz iqtisodiy, madaniy-ma'naviy mustaqilligini ta'minlash amrimahol. Boshqacha aytganimizda, milliy mustaqillikni mustaqil shaxs yaratadi. Mustaqil tafakkurga ega bo'lgan insongina, mustaqil davlatimiz qudratini barpo etadi. Xuddi shuning uchun ham bobolarimiz orzu qilgan fozil jamiyatning bunyodkori bo'lgan barkamol insonni tarbiyalash milliy istiqloq mafkurasining mazmunini tashkil etadi.

XULOSA

Har qanday g'oyani, har qanday mafkurani ham inson yaratadi. Aniqroq qilib aytganimizda, g'oyalar dastlab yakka kishining ongida tug'iladi. Mafkura yordamida harakatga keladi. Fuqarolar dunyoqarashiga aylanadi. Kundalik amaliy faoliyatiga, turmush tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi va uni yagona maqsad sari yo'naltiradi. Inson o'zi ishlab chiqargan bunyodkor g'oyalardan, mafkuralardan zavq-shavq oladi, kuchiga-kuch, quvvatiga-quvvat qo'shiladi. Vayronkor g'oyalardan afsus-nadomatlar chekadi, iztirobga tushadi, pushaymon qiladi. Bunyodkor g'oyalar insonni oliyjanob maqsadlar tomon boshlasa, vayronkor g'oyalar uni inqiroz tomon yetaklaydi.

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'liga diqqat bilan razm solsak, millatlar, xalqlar yoki davlatlar rivojiga ta'sir ko'rsatgan g'oyalar, mafkuralar jahon sivilizatsiyasining yirik xazinasiga aylanganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu xazina millionlab odamlar uchun bitmas-tuganmas madaniy-ma'naviy ozuqa manbai bo'lib xizmat qilayotir. Vayronkor g'oyalar esa insoniyatning barcha avlodlari tomonidan qattiq qoralanmoqda. Xuddi shuning uchun ham insoniyat tarixi g'oyalar, mafkuralarning vujudga kelishi va ular orasidagi kurash tarixidir.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR :

1. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.T.: "O'zbekiston",2000.
2. Karimov.I.A Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor". 2000 yil 8- iyun
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin // «Tafakkur» jur. 1998.

4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998, 32-b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 2000.

BUDDAVIYLIK DININING MARKAZIY OSIYO HUDUDIGA KIRIB KELISHI VA TARQALISHI

Yo'ldashev Umidjon Fayzullayevich
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buddaviylik dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishi tarixi, tarqalishi va manzilgohlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Buddaviylik, Seleng'ur, sivilizatsiya, Markaziy Osiyo, bronza davri, Kushon, Qoratepa, Fayoztepa, Zurmala, Ayritom, Dalvarzintepa, Zartepa, stupa, pali, Kanishka.*

1991 yilda dunyo xaritasida yangi mustaqil davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Mustaqilligimizning yigirma yili davomida mamlakatimiz ijtimoiysiyosiy va iqtisodiy hayotining barcha jabhalarida ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Amalga oshirilgan islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholandi. Yigirma yil katta muddat emas, ammo respublikamizda shu davr mobaynida amalga oshirilgan o'zgarishlarni har bir qadamda ko'rish mumkin. Ko'pgina shaharlar, qishloqlar qiyofasi tubdan o'zgardi, tarixiy va me'moriy yodgorliklar yangicha ranglarda jilolandi.

Ilm-fan va madaniyat sohasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari I.Karimovning tashabbusi va yordami bilan o'zbek xalqi tomonidan ming yillar davomida to'plangan milliy an'ana va qadriyatlarimizni qayta tiklash bo'yicha aniq yo'naltirilgan siyosat olib borilmoqda. Nafaqat mamlakatimizning ma'naviy boyligi, balki jahon hamjamiyati uchun ham muhim tarixiy manba hisoblangan tarixiy-madaniy merosimizni tadqiq etish, o'rganish, asrab-avaylash va qayta tiklashga bo'lgan yondashuv ham o'zgardi.

O'zbekiston o'z tarixi mobaynida geografik jihatdan joylashuvi bo'yicha turli etnik aloqalar chorrahasida bo'ldi. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi yirik daryolar - Amudaryo va Sirdaryo suvlari bilan sug'oriladigan hududi o'z iqlimiga ko'ra boshqa tarixiy-madaniy mintaqalardan ajralib turadi. Respublikamiz mis, qalay, oltin kabi foydali qazilmalar, yarim qimmatbaho toshlarga boy bo'lib, har doim odamlarni, qabilalar va xalqlarni o'ziga jalb qilib kelgan hamda bu xalqlar o'rtasida samarali madaniy aloqalar yo'lga qo'yilishiga sabab bo'lgan. Buning natijasida O'zbekiston hududi Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining o'zaro munosabatlar o'rnatishiga xizmat qilgan.

Farg'ona vodiysidagi Seleng'ur g'orida topilgan topilmalar mazkur hudud bir million yil muqaddam ibtidoiy odam tomonidan o'zlashtirilganidan dalolat beradi. Arxeologlarimiz tomonidan kashf qilingan va dunyo ilm-fani e'tirof etgan yodgorliklar Yevroosiyo antropogenezini o'rganishga salmoqli hissa qo'shdi, ular O'zbekiston zamini zamonaviy inson shakllangan hududlar sirasiga kirganini tasdiqlaydi.

Bronza davrida (mil. avv. III-II ming yillik) O'zbekiston janubida qadimiy sharqona turdagi shaharlashgan sivilizatsiya shakllanib, bu yerda protoshaharlar, ya'ni mahobatli saroylar, ibodatxonalar va qasrlardan iborat manzilgohlar joylashgan. Yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilgan: kulolchilik, metallsozlik va to'quvchilik kabi qosibchilik

tarmog'i rivojlangan, Mesopotamiya, Old Osiyo va Hindistonning buyuk sivilizatsiyalari bilan savdo hamda madaniy aloqalar yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, Avesto va qadimiy yunon manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, dastlabki mashhur davlat tuzilmalari - Baqtriya, Sug'd va Xorazm davlatchiligi yuzaga kelgan. Dunyodagi eng qadimgi monoteistik dinlardan biri - zardushtiylig paydo bo'ldi va rivojlandi. Antik davrda (mil. avv. III va mil. III asrlar) shaharlashish yanada yuksaldi. Yunon-Baqtriya podshoxligi, Kangyuy davlati, Davan va Kushon saltanati, yuzlab yangi shaharlar paydo bo'lgan, hunarmandchilik turlari rivojlangan. O'zbekiston hududi jahon savdo tizimiga jalb etilgan. Buyuk ipak yo'li bo'yicha antik dunyo mamlakatlari, Xitoy, Hindiston bilan faol savdo, madaniy va diplomatik munosabatlar yo'lga qo'yilgan. Yana bu davrda Baqtriyaga buddaviylik dini kirib kelgan, buddaviylik badiiy madaniyati rivojlangan. Baqtriyaliklar buddaviylikning keyinchalik Xitoy va Koreya hududida qabul qilinishida muhim rol o'ynadilar.

Buddaviylik O'zbekiston janubining qadimgi va ilk o'rta asrlari tarixida chuqur iz qoldirdi. Bu yerda buddaviylik madaniyatiga oid yodgorliklarni ochish va o'rganish, yuqori ko'rinishdagi badiiy asarlar va buyumlarning topilgani ham bundan yorqin dalolat beradi. Shunisi e'tiborliki, Markaziy Osiyoda buddaviylikning eng mashhur qadimgi yodgorliklari aynan O'zbekistonning janubida topilgan. Uning hududi milodning I-III asrlarida qadimgi dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri - Kushon saltanati tarkibiga kirgan. Hozir O'zbekiston janubida noyob buddaviylik yodgorliklari - Qoratepa, Fayoztepadagi yer osti va yer usti ibodatxonalari va monastirlari, Zurmala stupasi, Ayritom, Dalvarzintepa va Zartepadagi buddaviylik ibodatxonalari yaxshi o'rganib chiqilgan. Ushbu yodgorliklarni o'rganish Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixiga oydinlik kiritish bilan bir qatorda, Xitoy va Uzoq Sharq hududida mazkur dinning tarqalishida uning o'rnini to'liqroq tushunish imkonini berdi. Janubiy O'zbekistondagi buddaviylik yodgorliklarini arxeologik o'rganish shuni ko'rsatdiki, Baqtriyada buddaviylik va buddaviylik madaniyatining rivojlanishi Buyuk Kushonlar boshqaruvi davriga, milodning I-III asrlariga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, ayrim tadqiqotchilar bu jarayonni mil. avv. II asrning ikkinchi yarmiga, boshqalar esa yuechjilar davriga (mil. avv. II-I asrlar ikkinchi yarmi va mil. I asr boshi) taalluqli deb hisoblaydilar. Yana ba'zi tadqiqotchilarning taxminlariga ko'ra, baqtriyaliklar buddaviylikni mashhur Kushon shohi Kanishka boshqaruvi davrida (mil. I asri oxiri va II asrining birinchi yarmi) tanigan.

Shuni taxmin qilish mumkinki, Baqtriya aholisi ilk bor buddaviylik ta'limoti bilan mil. avv. I asrdayoq tanishgan va Kushon davlati paydo bo'lgan paytda bu yerda, ehtimol, Hindistondan kelgan budda missionerlaridan iborat yirik koloniyalar mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin. Ular mahalliy aholi orasida budda ta'limotini keng targ'ib qilgan. Biroq, buddaviylik Baqtriyaga Markaziy Osiyo yerlarining janubiy, Afg'oniston va shimoli-g'arbiy hududlari yagona Kushon saltanati tarkibiga o'tgach, jadal kirib keldi. Bu esa budda missionerlarining mamlakat bo'ylab ommaviy harakat qilishiga imkon berdi. Kushon shoxlari va mahalliy noiblarning ushbu ta'limotga alohida homiyligi Kushon saltanati, jumladan, Baqtriya hududida buddaviylikning keng tarqalishiga yordam berdi. Yozma manbalar va arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, ular ko'pincha bahs-munozaralar uyushtirganlar, buddaviylik topinish inshootlarini qurishga ko'maklashganlar, buning uchun ular katta miqdorda mablag'lar ajratganlar. Bu borada Kushon shohi Kanishkadan o'tadigani bo'lmagan.

Kushon imperiyasi hukmdorlari davrida buddizm keng miqyosda Baqtriya va Gandaraga kirib keldi. Pali tilida yozilgan afsonaga ko'ra, Baqtriyadan ikkita savdogar Trapusa va Bahalika Budda bilan uchrashish uchun yo'lga chiqib, uning shogirdlari bo'lishgan. Keyinchalik, ular Baqtriyaga qaytib, Budda sharafiga ibodatxonalar qurdilar.

Buddizmning mashhurligi uning shahar aholisining mafkurasi sifatida tushunishi bilan bog'liq. Buyuk Kanishka Mahayana buddizmining ancha soddalashtirilgan "najot yo'lini" tasdiqladi, bu uning ommalashishiga sabab bo'ldi.


Oq xunlar bosqindan keyin, shuningdek, musulmonlarning Transoksiyani bosib olishi kabi islom bosqini davrida buddaviylik O'zbekiston hududida keng tarqalgan va mashhur din bo'lishni to'xtatdi. XIII asrga kelib Xorazm davrida buddistlarning ta'qib qilinishi natijasida deyarli butunlay yo'q bo'lib ketdi.

ADABIYOTLAR:

1. Культура и искусство древнего Узбекистана. Каталог выставки в 2-х томах. М., 1991.
2. Древности южного Узбекистана. Альбом-каталог (на русск., японск., англ. яз.). Токио, 1991.
3. Материалы полевых исследований Узбекстанской искусствоведческой экспедиции (Уз ИскЭ). Вып. № 1, 1997; Вып. № 2, 1997; Вып. № 2, Ташкент, 1998.
4. Г.Пугаченкова Вклад "УзИскЭ" в познание художественного наследия Узбекистана. // Сб. "Санъатшунослик масалалари - I". Ташкент, 1998.
5. Материалы полевых исследований Узбекстанской искусствоведческой экспедиции (Уз ИскЭ). Вып. № 3, 1997; Вып. № 3. Ташкент, 1999.
6. Ртвеладзе Э. Великий шелковый путь. Ташкент, 1999.
7. Материалы полевых исследований Узбекстанской искусствоведческой экспедиции (Уз ИскЭ). Вып. № 4, 1997; Вып. № 4. Ташкент, 2000.
8. Материалы Тохаристанской экспедиции. Вып.1. Ташкент, 2000.
9. Termez - an ancient and modern city at important crossroads. Tashkent, 2001.

ГЛОБАЛ ФУҚАРО ТУШУНЧАСИ ВА БАҒРИКЕНГЛИК ТАМОЙИЛИ

Зийнатхон Абдуллаева,
*Фаргона вилояти "Адолат йўли" ҳуқуқ таҳририятида
ҳуқуқшунос ёрдамчиси ва жамоатчи мухбир.*



21-23 сентябрь кунлари Тошкент шаҳри "Ичанқалъа" меҳмонхонасида ўтказилаётган "Глобал фуқаролик мавзусини илгари суришда ОАВ ва кўнгиллиларнинг роли» мавзусида ўтказилган тренингда иштирок этдим. Унда глобал фуқаро ким?, деган саволга жавоб топишга ҳаракат қилдик.

Малакали тренерлар ёрдамида глобал мавзулар юзасидан маъруза ва мини-маърузалар, ролли ўйин, ақлий ҳужум, тақдимот, савол-жавоблар орқали биз учун янги билим ва кўникмаларни ўзлаштирдик. Турли дин, миллат, элат, ирк, жинс вакиллари ўртасида бағрикенглик тамойилини кенг тарғиб қилиш, жамиятда мавжуд

спереотипларни аниқлаб, улардан воз кечиш, бир сўз билан айтганда ҳақиқий глобал фуқаро - глобал журналист бўлиш масаласида баҳслашдик.

Жаҳоннинг қай бурчида бўлмасин, юз берадиган кичик мусибат сайёрадаги ҳар бир кишининг тақдирига бевосита ёки билвосита таъсир қилиши муқаррар. Бироқ шундай муаммолар борки, улар дунё халқлари ёинки муайян бир мамлакат фуқаролари ўртасига адоват уруғларини сепеди, одамларни бир-бирига қарама-қарши қилиб қўяди. Муқаддас замин узра қора кўланка солиб турган диний экстремизм ва ақидапарастлик - ана шундай мудҳиш хавфдир.

Бинобарин, экстремистик кучларнинг қадами етган жойларда қон тўкилиши, вайроналар, харобалар юзага келиши муқаррарлигини яхши биламиз.

Бевосита ўз мисолимизда гапирадиган бўлсак, Ўзбекистоннинг ривожланиш ва демократик тамойиллар йўлидан дадил одимлаётгани экстремистик оқимлар вакилларига сира-сира ёқмаяпти. Улар бу йўлда тўғаноқ бўлиш учун қўлларидан келадиган барча чора-тадбирларни ишга солаётгани ҳам бор гап. Шунингдек, бу борада гиёҳвандлик моддалари ёрдамида жамият аъзоларини таназзулга етаклаш, динимиз аҳкомларини нотўғри талқин этиш ва беқарор кайфиятдаги кишиларни бунга ишонтириш, ҳали суяги қотмаган, дунёқараши тугал шаклланмаган ёшларимизни йўлдан уриш уларнинг асосий вазифалари эканлигини ҳам яхши биламиз.

Экстремизм Ўзбекистонда илк марта 1989 йилда бўй кўрсатди. “Ваҳҳобий” номи билан танилган манфурлар жамоаси Наманган шаҳридаги масжидлардан бирини, кейинчалик эса Қўқон ва Андижон масжидларини эгаллашга уринди. Кейинчалик “Хизб ут-таҳрир”, “Нурчилар”, “Акримийлар” ғимирлаб қолди.

Яратганга беадад шукурки, халқимиз хоҳиш-иродаси, қатъияти ҳамда тинчлигимиз посбонларининг мардонаворлиги туфайли истиқлолни янчиб ташлаш мақсади билан суғорилган хавф вақтида бартараф этилди. Айни пайтда уларнинг юзини яшириб турган ниқоб ечиб ташланди. Ва иймон келтирдикки, ушбу гуруҳларнинг баъзилари исломий давлат куриш ниқоби остида жамиятни жаҳолат ботқоғига айлантиришга интилган бўлса, бошқалари ўзга дин вакилларига қақшатқич зарба бериш пайида. Ваҳоланки, жаноб Пайғамбаримиз (с.а.в.) бошқа дин вакилларига, ҳаттоки уларнинг маййитларига ҳам юқори эҳтиром кўрсатар эдилар. Ҳадисларда айтилишича, бир куни у зот саҳобалари билан суҳбатлашиб ўтирганларида олдиларидан бир гуруҳ оломон тобут кўтариб ўтиб қолади. Шунда у муборак Зот маййитнинг ҳурмати учун ўринларидан турадилар. Саҳобаларнинг “Ё Расуллуллоҳ, ўтираверинг, бу яҳудийнинг жанозаси”, - деган гапларига “Ким бўлишидан қатъий назар, аввало у – инсон ва Аллоҳнинг бандасидир”, - деган эдилар.

Ҳадисда келтирилган ушбу ҳақиқат эътирофи динимизнинг нақадар бағрикенглигидан далолатдир.

Қолаверса, улуғ мутафаккир Алишер Навоийнинг “Ҳайрат ул-аброр” достонида таъкидланганидек,

Кимки жаҳон аҳлида инсон эрур,

Билки, нишони анга имон эрур...

Бўлмади бас ноқису комилда фарқ,
 Топмағай эл олиму жоҳилда фарқ.
 Бас, ани инсон атағил бериё,
 Ким ишидур сабр ила шукру ҳаё.

Шоирнинг фикрича, иймонли одамгина инсон деб аталишга ҳақли. Иймон асоси эса сабр, шукр ва ҳаёдир. Бу уч фазилатдан узоқ бўлган кишини инсон деб атаб бўлмайди.

Навоий таъбири билан айтганда, кимки муслмонликни даъво қилса, тили ва кўли билан бошқаларга озор етказмасин, ёмонлик қилмасин.

Шунингдек, шоир “Халкининг ҳаётини кузатиб, ўзига хулоса чиқарган одам бахтиёрдир”, деган ҳадис мазмунини қуйидагича ифодалайди:

Элга не келса, айламас парво,
 Улки кўнглини қилди ғафлат панд.
 Кимки панд олди элга тушгандан,
 Они билким, эрур саодатманд.

Яъни кимнинг кўнглини ғафлат босган бўлса, у ўз халқи бошига тушган нарсаларга бефарқ қарайди. Халқ бошига тушган нарсалардан панд олган, ўзига хулоса чиқарган инсонгина бахтиёрдир.

Ана шулардан хулоса ясайдиган бўлсак, дунё динларининг ҳеч бири Яратганнинг мўъжизаси – инсон ҳаётига тажовуз қилишга изн бермайди, аксинча, бу - энг оғир гуноҳ ҳисобланади. Демак, дин ва диний экстремизм бир-бирига бир-бирига мутлақо ёт тушунчалардир. Дин юксак ахлоқ, тарбия ва маънавият асоси бўлиб хизмат қилса, диний экстремизм ижтимоий онгни чалғитувчи, ҳидоятдан адаштирувчи, жамиятни инқирозга олиб борувчи омил сифатида намоён бўлади.



ВАЗИФАДОШЛИКНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШИДА ЛИНГВИСТИК ОМИЛЛАР

Дедаханова Муаззам Алтмишбаевна

Таянч докторант

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация: Мазкур мақола вазифадошлик асосида маъно кўчишининг ўзига хос хусусиятларини очиб бериш масаласига бағишланади. Маъно кўчиш турлари моҳиятига қизиқиш кучайгани сари метафора ва метонимияга урғу берилиб, вазифадошлик ўринсиз қолдирилди ва тилшуносликда замонавий йўналишлар нуқтаи назаридан тўлиқ ёритилмади. Шунга кўра лингвистик назарияларнинг ривожланишида вазифадошлик табиатининг бир қатор жиҳатлари ўрганилмай қолаётганини инобатга олиб, мақолада мазкур мавзуга эътибор қаратилди.

Калит сўзлар: вазифадошлик, функциядошлик, ном кўчиши, лексема, луғавий маъно, референт, архаиклашмоқ.

Вазифадошлик нафақат ўзбек, балки бошқа тилларда ҳам у қадар кўп ўрганилмаган ва назарий жиҳатдан қондаси ишлаб чиқилган бўлса-да, бир қанча тилшунослар эътиборидан четда қолган, тадқиқталаб ҳодисалардан бири ҳисобланади. Ўзбек тилшунослигидаги адабиётларда уни *функционал кўчириш*, *функциядошлик* каби атамалар билан ҳам юритилади. Лотинча “*funktio*” — “*фаолият*”, “*вазифа*” деган маъноларни билдиради [2, 82]. Аксарият тилшуносларининг қайд этишича, вазифадошлик лексеманинг муайян луғавий маъноси референти ўз вазифасини бажариш учун эскириб – архаиклашиб, унинг ўрнига кўчма маъно референти келиши, вазифаси ва номини тўла эгаллашидир [1, 106]. Яъни бунда кўчма маънодаги сўз ўз маъносидаги дастлабки сўзни суриб чиқарганлиги учун унинг номини олади, дейилмоқда. Масалан, *ўқ* сўзини олайлик, у аввал камон ўқини ифодалаган ва жонзот ўлдириш вазифасида қўлланган. Кейинчалик юзага келган *замбарак ўқи*, *милтиқ ўқи*, *тўппонча ўқи*, *ракета ўқи* – булар камонниқига шаклан мутлақо ўхшамаса-да, вазифаси бир хиллигига асосланиб, айнан шу номда – “ўқ” дея аталган.

Функциядошликни тушуниш ва таърифлашда бир хиллик нисбатан анча кам, келтирилган асослар ҳам кўп ҳолларда бир-бирини тасдиқламайди. Жумладан, бугунги кунда ўзбек тилидаги мисолларнинг барчаси ҳам юқоридаги қоидаги мувофиқ келавермайди. “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати”да унга бир мунча аниқ таъриф берилган: “Бир предмет номини бошқа предметга бажарадиган вазифасидаги ўхшашлик асосида кўчириш” [3, 126]. Масалан: Машинанинг эшиги катта харсангтошга тиралиб қолган эди. Мазкур гапдаги эшиқ сўзи функционал

кўчиришга мисол бўлади. Чунки асл маъносидаги уй эшигига шаклан ўхшамайди, балки кириб-чиқиш жойи сифатида вазифаси жиҳатдан ўхшашликка таяниб, шу номда аталган. Қолаверса, у дастлабки “уй эшиги” бирикмасидаги луғавий маънони суриб чиқарган эмас, аксинча, бир вақтда паралел ҳолда бири иккинчисини инкор этмай истемол доирасида фаол қўлланмоқда. Демак, объектлар бир хил функция бажарганда вазифалар ўхшашлиги билан алмашинувлар пайдо бўлади.

Вазифадошлик, кўп ҳолларда номсиз нарсага янги ном қўйиш асосида юзага келади. Қолаверса, бирон нарса учун мўлжалланган предметнинг ўзи бўлгани ҳолда шу нарсанинг вазифасини айнан бажариш учун мўлжалланган яна бошқа предметнинг юзага келишига жуда кам эҳтиёж сезамиз. Бироқ “тарихий тараққиёт давом этар ва эски ишлаб чиқариш, яшаш воситалари ўрнини янгиси эгаллаб турар экан, улар тилда акс этмасдан иложи йўқ. Булар вазифадошлик содир бўлишида катта аҳамият касб этади” [1, 106]. Жумладан, *қалам сўзи тарихан ифодалаган предмет билан унинг ҳозирда ифодалайдиган шакли, материали жиҳатидан бутунлай фарқли. У дастлаб қамиш ёки патдан ясалган – патқаламга нисбатан қўлланган ва ёзув қуроли сифатида фойдаланилган. Ҳозирда унинг ўрнига шу вазифани бажараётгани сабабли графитли қаламлар ҳам шу номда аталади. Демак, шакли, ясалиши ва материали қандай бўлишидан қатъи назар, иккала предмет ҳам ёзув қуроли. Ёки яна бир бошқа мисол: Кўчамизни чироқлар чарогон қилган. – Чироқ (асл, ўз маъносида) пилигини *пасайтирди*. Юқоридаги икки гапда қўлланилган *чироқ* сўзининг маъносига эътибор берсак, у бир хил вазифа бажарувчи иккита бир-бирига ўхшамайдиган нарсаларни ифодаляётганининг гувоҳи бўламиз. Биринчисида “электр токи орқали ёритувчи ноксимон, шишали чироқ—электрлампочка ёки таёқсимон асбоб”ни, иккинчисида эса “қора чироқ — шам чироқ — керосинга пилик солиш воситаси билан ёритувчи, асос ва шиша қисмлардан ташкил топган асбоб”ни билдиради. Бу асбоблар шаклига кўра бир-бирига ўхшамайди, макон ва замонда уларнинг алоқадорлиги ҳам йўқ, лекин ҳар иккиси ёритиш вазифасини бажаради. Ана шу вазифавий бир хилликка кўра илгари ёгга пилик тегизиш орқали ёритиладиган шишасиз, очиқ асбоб номи кейинчалик асос қисмга шиша ўрнатилган ёритгич асбобни, кейинроқ эса электр токидан фойдаланишга ўтилгандан сўнг лампочкаларни ҳам ифодалаш учун қўлланилди. Натижада чироқ сўзи бир-бирига ўхшамайдиган хилма-хил ёритувчи воситаларга нисбатан қўлланила бошланди.*

Демак, вазифаси жиҳатдан бирор предмет билан умумийликка эга бўлган бошқа предмет юзага келар экан, улар ўртасида фақат умумийлик бўлади, бирлик эмас. Бу предметлар, шубҳасиз, хусусий (фарқли) белги(лар)га ҳам эга бўлади. Бундай ҳолларда предметни аниқ аташ учун махсус сўз(лар) қўлланади ёки предмет махсус ном олади. Вазифадошлик усулида юзага келган сўзларни фарқлаш, уларнинг аксарияти аввал қандай шаклдаги нарсаларни ифодалаганлигини англаш тилимиз имкониятларининг нақадар бой эканлигини ҳис қилишимизга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. / масъул муҳаррир А.П.Ҳожиёв. - Т.: “МУМТОЗ СЎЗ”, 2010. - 288 б. (www.ziyouz.com kutubxonasi)
2. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўқув юрти филология факультети талабалари учун дарслик.— Т.: “Ўзбекистон”, 1992.—399 б.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти – 164 б.

FIZIOLOGIK PISHIB O'TGAN UZUMNING SHARBATIDA AZOTLI MODDALARINI KIMYOVIY TAXLILI

Jo'lbekov Ibrohim Salimqul o'g'li,
Shermatova Dilafro'z

*Gulston davlat universiteti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini
qayta ishlash texnologiyasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotasiya: *Fiziologik etuklikdan o'tgan Bayan Shirey uzum sharbatining biologik qiymati yuqoriroq bo'ladi kuzatildi. Fiziologik etuklikga erishgan uzumni azot moddalarini o'rganilganda "Krioekstraksiyalangan" O'zbekiston Muskati uzumining aminokislotalari yukori kislotalik xususiyatiga egaligi bilan farqlandi.*

Kalit so'zlar: *fiziologik, Bayan Shirey, sharbat, Krioekstraksiyalangan, kislotalik, Muskat, aminokislota.*

Hozirgi kunda dunyo miqyosida soha etakchilarining diqqat-e'tibori uzumning vinobop navlarini etishtirishni kengaytirish va vinomahsulotini sifatini yaxshilashga qaratilgan. Sohaning rivojlanishi istiqbollari yuqori sifatli va ekologik toza mahsulotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan, O'zbekiston sharoitida etishtirilgan vinobop uzum navlaridan noa'naviy texnologiyalarni qo'llab, noyob, raqobatbardosh vino tayyorlash, uning assortimentini kengaytirish imkoniyatlarini o'rganib topish uchun shart-sharoitlar yaratilib borilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi PQ-4161-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori talablaridan kelib chiqib (1) 2019-2022 yillarda 21 ta korxonaga tegishli 32 ta uzumni birlamchi qayta ishlash punktlarida 13,4 mln. dollarlik zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ularni modernizatsiya qilish ishlari belgilangan edi. Shu bilan birgalikda ilmiy ishda Fiziologik pishib o'tgan uzumning sharbatida azotli moddalarini kimyoviy taxlilini fizik-kimyoviy usullaridan, polyarografik, biokimyoviy, voltamperometrik, xromotografik, fotokolorimetrik usullardan foydalanilgan.

Azotli moddalar miqdorini aniqlash. Oqsillarni modifikatsiyalangan Keldal mikrosulida aniqlash. Bu usul azot moddalarini konsentrlangan sulfat kislotasida kuydirib mineralizatsiyalashga asoslangan. Organik birikma azoti ammiakga aylanadi va sulfat ammoniy xosil bo'ladi. Katalizator sifatida CuSO_4 ; H_2O_2 ; simob, KMnO_4 ; selen va boshqa moddalar ishlatiladi. Sulfat ammoniy ishqor ta'sirida parchalanadi, ajralib chiqqan ammiak titrlangan kislotaga bilan reaksiyaga kirishadi. Ortikcha kislotaga NaOH eritmasi bilan titrlanadi.

Aniqlash yuli. Keldal kolbasiga 2sm^3 vino kuyiladi va bug'lantirib quruq xolatga keltiriladi, 2sm^3 konsentrlangan H_2SO_4 qo'shiladi va bir necha kristall selen qo'shiladi kuygundini rangi uchuncha murili shkafda kaynatiladi. Mieralizatsiya tugaganda aralashmani rangi och yashil, tinik buladi. Uni extietlik bilan xaydov kolbasiga shar-shar orkali kiskich erdamida kuyiladi. Ishlashdan oldin kabul kolbasiga $10-25\text{sm}^3$ 0,01n. sulfat kislotasidan kuyiladi va unga sovitish asbobiga ulangan tanovni uchi botib turishi kerak.

Asbob yigilgandan sung germetik ulanganligi tekshiriladi. Keyin shar-shar orkali xaydov kolbasiga 10-15sm³ 33%-li ishkor kiskich erdamida kuyiladi va xaydov kolba Bilan Bug ishlab chikaradigan asbobni biriktiradigan kiskich ochiladi. 15-20 dakika davomida distillyat yigiladi. Kabul kolbasiga yigilgan distillyat indikator ishtirokida 0,01n. ishkor eritmasi Bilan titrlanadi.

Tekshiruv tajribadan vinoni urniga kulsiz filtr kogozi quydiriladi va hama operatsiyalar takrorlanadi.

Azot miqdori quyidagi tenglamadan xisoblanadi:

$$X = \frac{(a - a_1) - (a - a_2)}{y_3} * 0,14 * 1000 , \text{ bu erda:}$$

X – azot miqdori, mgG'dm³

a – qabul kolbasiga ulchab quyilgan 0,01n. H₂SO₄ eritmasining xajmi, sm³

0,14 – 1sm³ 0,01n. sulfat kislotaning eritmasi azotning 0,14sm³-ga teng, sm³

a₁ - titrlashga sarflangan 0,01n. NaOH eritmasining xajmi, sm³

a₂ - tekshiruv nusxada titrlashga sarflangan 0,01n. NaOH eritmasining xajmi, sm³

u – aniklashga olingan vino xajmi, sm³


Tadqiqot natijalari. Uzumdagi azotli moddalar azotning organik va mineral formalaridan tarkib topgan. Organik formalariga oqsillar, aminokislotalar, peptidlar, aminlar, amidlar va boshqa azotli moddalar kiradi. Azotning minelar formalariga asosan ammoniy tuzlari va kam miqdorda nitratlar kiradi. Bu moddalar uzumning barcha organlarida sodir bo'ladigan fiziologik-biologik jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.

Uzumda va sharobda azotli moddalarning organik formalari ko'p bo'ladi.

Ulardan asosiylari aminokislotalar va polipeptidlar hissasiga to'g'ri keladi, bular umumiy azotning 38 dan 78% gachasini tashkil etadi, organik azotning qolgan formalari 8-13% ni tashkil etadi. Azotning mineral formalari hissasiga hammasi bo'lib 5-15% to'g'ri keladi [2].

Aminokislotalar – rangsiz, kristall moddalar bo'lib, suvda eriydi, ta'msiz yoki achchiq ta'mli bo'ladi. Amfoter xossalarga ega bo'lganligi sababli aminokislotalar muhit pH iga qarab kislota va asoslar xossalarini namoyon qiladi.

Aminokislotalar hosil bo'lishining asosiy yo'li uglevodlarning fermentativ o'zgarishi orqali quyidagi sxema bo'yicha boradi:



Uzumning turli xil navlarida eng ko'p tarqalgan aminokislotalar prolin, glitsin, alanin, leysin, izoleysin, tirozin, fenil-alanin, arginin, lizin, asparagin kislota va glyutamin kislota hisoblanadi. Uzum sharbatida Z.N.Kishkovskiy ma'lumotlariga ko'ra aminokislotalarning umumiy miqdori 246-442 mgG'dm³ atrofida bo'ladi, bu esa ularning bir bosh uzumdagi umumiy miqdorining 20% ni tashkil etadi.[3] Qolgan aminokislotalar uzum bandida (30%), urug'ida (30%) va po'stlog'ida (20%) bo'ladi.

Jadval 1

Fiziologik etuklikdan o'tgan uzum sharbatining tarkibidagi oksil va azotli moddalarining miqdori.

№ kG'k	ko'rsatgichlar	Bayan Shirey	O'zbekiston Muskati
1	Azot moddalari (%)	0,105	0,105
2	Oksil (%)	0,656	0,656
3	Aminokislotalar,	122,2050	67,71150

Birinchi jadvalda, fiziologik etuklikdan o'tgan Bayan Shirey va O'zbekiston Muskati navli uzum sharbatining azotli umumiy oksilning va azot moddalarining konsentratsiyasini taxlilining natijalari keltirilgan O'zbekiston Muskati navli uzum sharbatining tajriba nusxasida naviga xos atir muattarligi kuchsiz, sezilar-sezilmas darajada ifodalandi. Bu xolatni tashqi muxitning yukori darajadagi xaroratning ta'siri va uzum naviga xos texnologik etuklikdan o'tganligi bilan tushunish mumkun. [4].

Oddiy (javdari) nav xisoblanadigan Bayan-shirey sharbatida hammasi bo'lib aminokislotalarni miqdori (122,2 mgG'ml) teng va yuqori darajadagi sifatga, o'ziga xos

Jadval 2

Aminokislotalarni tarkibiy va miqdoriy xramotagrafik taxlil natijalari.

№	Nomlanishi	aminokislotalar miqdori	
		Bayan- Shirey	O'zbekiston Muskati
1	Asparagin	0,217349	0,38694
2	Glutamin	1,003579	0,34554
3	Serin	1,233054	1,32989
4	Glitsin	0,663782	0,714402
5	Asparagin	0,668785	0,713587
6	Glutamin	7,303888	4,619714
7	Sistein	5,57601	5,083135

8	Alanin	7,820029	9,391872
9	Prolin	46,02594	25,73182
10	Tirozin	0,669557	0,934489
11	Argenin	2,632943	2,208202
12	Gistidin	0,1344590	0,119606
13	Treonin	7,72651	3,511955
14	Valin	2,640306	2,529435
15	Metionin	0,370318	0,483825
16	Izoleysin	31,92558	3,257531
17	Leysin	3,335668	3,675303
18	Triptofan	1,18139	1,589127
19	Fenilalanin	0,999697	1,025485
20	Lizin	0,076242	0,059641
	Jami o'rnini bosaolmaydigan aminokislotalar, mgG/ml	48,029562	32,128302
	Hammasi bo'lib	122,2050	67,71150

O'zbekiston Muskati tarkibidagi aminokislotalarni bog'lovchi yoki parchalanishi shu darajada kuchli kechadimi, demak bu uzum navining nozikligi yukorida keltirilgan reaksiyalarni kechishiga moyilligini bildiradi,. Balkim, sintezlangan aminokislotalarni parchalanishi kuzatilmokda. [5] . Aynan shu bois, O'zbekiston Muskati uzumidan magiz tayerlanmaydi.

Tajribaga olingan uzumlarda umumiy oksilni va ozot modalarning miqdori protsentda birdek. Umumiy oksilni miqdori vino barqarorligi muammosida o'z o'rniga ega [6]. Bu nuxtai nazardan, ikkita nav na'munalarining sharbati, oqsilli loyqalanishga moyilligi birdek deb xisoblasak bo'ladi (jadval 1).

muattarlikga ega deb xisoblangan O'zbekiston Muskati navining shu ko'rsatgichni o'zi ikki barobar pas (67,7mgG/ml). Demak, fiziologik etuklikdan o'tgan uzum sharbatining tarkibidagi muttarlikni beruvchi aminokislotalarni tarkibiy va miqdoriy taxlilini olib borildi.

Xromatogramma taxlili shuni ko'rsatdiki eksperiment na'munalarining tarkibidagi Prolin aminokislotalar orasida eng ko'p miqdorda topilgan. Glutamina (35%) aminokislotalardan Bayan Shirey nusxasida O'zbekiston Muskatiga nisbatan ko'p miqdorda bo'lishi aniqlandi.

O'zbekiston Muskatida alanin aminokislotalari 17% -ko'p ekan.

Serin, glitsin, asparagin, sistein, arginin aminokislotalar konsentratsiyasining farqi kam. Shu bilan birga, O'zbekiston Muskati tarkibidagi asparagin, serin, glitsin, asparagin, alanin va tirozin aminokislotalar miqdorining sezilarli darajada ko'pligi aniklandi.

Prolin, fenilalanin, tirozin, triptofan aminokislotalari uzumni etilish, pishish davrida paydo bo'ladi. Prolin, alanin, glyutamin va asparagin kislotalari, serin amiokislotalarni asosi bo'lib, erkin aminokislotalarning 40-50%-ni tashkil etadi. Uzum sharbatidagi aminokislotalar miqdori 246-dan 2442mgG'dm³ -gacha bo'lib, uzumni qayta ishlash texnologiyasiga, uzumni qattik kislotalari bilan birga bo'lgan davomiylikga bog'langan.

Serin, prolin, fenilalanin kabi ayrim aminokislotalar oksillarni sharbatdagi polisaxaridlar, fenol moddalari bilan bog'laydi, dezaminlash kegin, dekarboksillash reaksiyalarga kirishadilar va vino iforini shakllantirishda ishtirok etuvchi aldegidlar paydo bo'ladi. Organoleptik ko'rsatgichlariga karab, vinolar kuyidagi guruxlarga bo'linadi:

- Uzum navini xususiyatlarini saklagan neytral vinolar
- Muattarlikka o'tadigan, yangi mevani xidlari ifodalangan vino.
- Uzum navining xususiyatlariga bog'lanmagan, gul va mevaning yorqin muattarligiga ega bo'lgan vinolar.

Bayan Shireyning sharbatida o'rni bosa olmaydigan aminokisotalardan, eng ko'p miqdorga ega bu izoleysina, kegin leysin, treonin, valin va arginin birdek miqdorda topildi.

Fiziologik etuklikdan o'tgan O'zbekiston Muskati uzum navining sharbatida Bayan-Shireyga nisbatan metionin, leysin, triptofan, fenilalanin va lizin kabi, o'rni bosa olmaydigan aminokisotalar ko'proq miqdorda topildi. (jadval 2). O'rni bosa olmaydigan aminokisotalar, umumiy aminokislotalardan %-da ifodalaganda, O'zbekiston Muskati uzum navining sharbatida 47,63%, Bayan-Shireyda esa 39% mavjudligi aniqlandi. Asl o'lchamda (mgG/ml) esa, fiziologik etuklikdan o'tgan Bayan Shirey sharbatida, O'zbekiston Muskati uzumiga qaraganda o'rni bosa olmaydigan aminokisotalar miqdori 16,7mgG/ml-ga ko'prokligi aniqlandi.

Xulosa. Fiziologik etuklikdan o'tgan Bayan Shirey uzum sharbatining biologik qiymati yuqoriroq bo'ladi. Fiziologik etuklikga erishgan uzumni azot moddalarini o'rganilganda "Krioekstraksiyalangan" O'zbekiston Muskati uzumining aminokislotalari yukori kislotalik xususiyatiga egaligi aniqlandi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi "Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish hamda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5656-sonli farmon .

2. Gontareva E.N., Ageeva N.M. Biryukova S.A. Issledovanie zakonomernostey izmeneniya aminokislotochnogo sostava v protsesse vinifikatsii krasno'x sortov vinograda. ViV 2017.№3 S.12-15.

3. Kishkovskiy Z.N., Skurixin I.M. Ximiya vina. M.: Agropromizdat, 1988. — 254 s.

4. Tkachenko P. Strategiya proizvodstva vin s yarkoy organoleptikoy 11.05.2016. Napitki. Texnologiya.injvatsii. Vinorobstvo. internet]

5. Fiziko-ximicheskie i biotexnologicheskie osnovo' povo'sheniya kachestva i ustoychivosti vin k pomutneniyam. Diss. d. t.n. Ageeva, Natalya Mixaylovna. Krasnodar 2001. 401s.

6. Romanenko E.S, Sosyura E.A., Xudnova A.F.i dr. Ximiya vina. Uchebnoe posobie. Stavropol Izd. StGU «AVrgus» 2013.135s

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QASAM ICHISH FUNKSIONAL - SEMANTIK MAYDONI

Mamadaliyeva Dilorom Dilshod qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

O'qituvchi

Қасам ичиш. Қасам сўзи ўзининг ҳақлиги, сўзининг тўғрилиги ва шу кабиларни тасдиқлаш, унга бошқаларни ишонтириш учун муқаддас нарсалар, кимсалар номини оғизга олиб айтиладиган масъулиятли сўз, онт каби маъноларни англатади⁴². Ҳар икки тилда қасам ичиш орқали суҳбатдошни нутқ мақсади сари чорлаш лисоний ҳодисаси кузатилади. Масалан:

*“Let me out,” she said. “Where are you going?” he repeated. Carrie merely pulled at the door. “Now be reasonable, Cad,” said Drouet gently. “What do you want to rush out for this way? You have not any place to go. Why not to stay here now and be quiet? I will not bother you. I don’t want to stay here any longer.” He received no answer... “Be reasonable now,” he said. “I don’t want to hold you. You can go if you want to, but why don’t you think it over? **Lord knows, I don’t want to stop you.**”⁴³*

Мазкур келтирилган мисолда (*Lord knows, I don’t want to stop you* – Худо ҳаққи, мен сени тўхтатиш ниятим йўқ) Худо номи билан қасам ичилмоқда. Қуйидаги мисоллар ҳам шулар жумласидан:

*“Who is it?” “Montag out here.” “What do you want?” “Let me in.” “I have not done anything.” “I am alone, dammit!” “**You swear it?**” “**I swear!**” The front door opened slowly⁴⁴.*

*She looked at me. “You have told someone?” “**No, I haven’t, I swear.**” “OK. Sorry. I knew you wouldn’t really tell,” Star nodded⁴⁵.*

Мисолларда *I swear* (қасам ичиб айтаман) жумласи орқали суҳбатдошни ишонтиришга ҳаракат қилинмоқда.

Инглиз тилида *I swear by Jupiter, by Jove!* (Юпитер ҳаққи онт ичаман), *I swear by almighty God* (қодир Аллоҳ ҳаққи онт ичаман), *I swear by all that is holy* (барча авлиёлар ҳаққи онт ичаман), *by the welkin* (осмон ҳаққи), *honest to God* (Худо ҳаққи), *honest to goodness* (Худо ҳаққи, чин сўзим) каби жумлаларда қасам ичилади⁴⁶. Қуйидаги мисолда эса онанинг гўрини ўртага қўйиб қасам ичиш ҳолати кузатилади:

⁴² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. 5-ж. – Б. 256.

⁴³ Dreiser Th. Sister Carrie. – Moscow: Higher School Publishing House, 1968. – P. 260.

⁴⁴ Bradbury R. Fahrenheit 450. – New York: Simon & Schuster, 1993. – P. 108.

⁴⁵ Wilson J. The Illustrated Mum. – Great Britain: Cox & Wyman, 2000. – P. 34.

⁴⁶ ru/dictionary/english_russian/swear.html

Jamieson was reading her list of potential suspects after eliminating villagers whom were too old or too young. “...Madeline Toombs...” “Strike her, she is too tiny.” “How tiny?” “Would not hurt a fly,” Gus added. “I swear to that on my mother’s grave... She won’t even kill a mosquito on her arm.” Jamieson put a question mark beside Madeline’s name, and continued the list⁴⁷.

Келтирилган мисолда сўзловчи ўз онасининг гўрини ўртага қўйиб қасам ичган ҳолда (*I swear to that on my mother’s grave*) Мадлен Тумбс хоним (*Madeline Toombs*) котил эмаслигига суҳбатдошини ишонтирмоқда.

Ўзбек тилида ҳам қасам ичишга мисол келтирамиз:

Мен ариқдан дўппимни тўлдириб сув олиб келиб акамга тутдим.

– *Эсингни едингми, рўзаман-ку!*

– *Ичаверинг. Рўза қолибдим, менам, дадам ҳам кўзалар. Боя ҳовлида бир коса сувни ичиб олдилар.*

– *Қўйсангчи ёлгон гапни!*

– *Ёлгон айтсам ёрилиб ўлай. Ишонмайсизми, мана кўринг, – деб сув ичдим.*

– *Ростдан дадамлар сув ичдиларми?*

– *Ёлгон айтсам Каломулло урсин.*

– *Ишондим, ишондим.*

Акам тескари қараб сув ичар экан, “Худонинг ўзи кечирсин”, деди⁴⁸.

– *Кечаси жондор келади.*

– *Қанақа жондор?*

– *Ёввойи чўчқа, бўри келади.*

– *Қўйсанг-чи лофни.*

– *Келмайди дейсан-а, бугун оқшом ўзим кўрдим келганини.*

– *Ёзда шунча итлар, одамлар юради, қандай келади бўри?*

– *Ишонмайсанми? Қасам ичайми? Худо урсин агар ёлгон айтсам.*

– *Ким билади келса келгандир⁴⁹...*

Юқорида келтирилган ўзбек тилидаги мисолларда сўзловчилар суҳбатдошни қасам ичиш орқали ишонтирмоқдалар (*ёлгон айтсам ёрилиб ўлай, ёлгон айтсам Каломулло урсин, Худо урсин* каби).

Ушбу халқларнинг турли динга эътиқод қилишлари диалогик риторикада қасам ичишга оид лисоний воситаларнинг мазкур тилларда фарқланишига сабаб бўлувчи омил деб ҳисоблаймиз.

⁴⁷ Macleod H. *Mind Over Mussels*. – Charlotte town: The Acorn Press, 2011. – P. 136.

⁴⁸ Сафаров Н. Наврўз. – Т.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 116.

⁴⁹ Ҳазратқулов М. Дийдор. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 77-78.

ИСЛОМ ТАЪЛИМОТИНИНГ ТАБОБАТДАГИ ЎРНИ

Очилова Ойдиной

ҚарДУ таянч докторанти

Аннотация: Мазкур мақолада ислом динининг халқ табобатида боғлиқлиги ва Марказий Осиёда халқ табобати вакиллари орасида диний йўналишда беморларни даволайдиган “эшонлар”, “муллолар”, “дуоихонлар”, “парихонлар”, “азайимхонлар” фаолияти ҳамда даволаш усуллари ҳақида маълумот берилган.

Аннотация: В статье представлена информация о зависимости ислама от народной медицины, а также о деятельности и методах лечения «эшонов», «мулл», «дуойксон», «парихонов», «азайимханов» среди представителей народной медицины Центральной Азии.

Annotation: This article provides information about the dependence of Islam on folk medicine and the activities and methods of treatment of "eshons", "mullahs", "duoixons", "parihons", "azayimkhans" among the representatives of folk medicine in Central Asia.

Калит сўзлар: Ислом таълимоти, “эшон”, “мулла”, “дуоихон”, “парихон”, “азайимхон”.

Ключевые слова: исламское учение, «эшон», «мулла», «дуойсон», «париксон», «азайимхан».

Key words: Islamic teaching, "Eshon", "Mullah", "Duoison", "Parikson", "Azayimkhan".

Илм инсонни улуғловчи, комилликка олиб борувчи энг тўғри йўлдир. Ислом дини инсонларни илми орқали ўртак бўлишга чақиради. Комилликка олиб борувчи илмни ўрганиб, уни амали ила фазилатли қилиш улуғлар йўлидир. Хусусан, Ислом таълимотида табобат илми бўйича жуда кўп ҳикматлар мавжуд.

Қуръони Карим ва Ҳадисларда саломатлик ва касалликлардан қутулиш ҳақида жуда кўп фойдали маслаҳатлар берилган. Кейинроқ, маълум тўпланган тажрибалар асосида Муҳаммад пайғамбар табобатни ўрганишга бағишланган “Тиббий набий” (Пайғамбар табобати) номли рисола ёзганлар⁵⁰.

Умуман олганда, Ислом дини (шу жумладан бошқа динлар ҳам) тиббиётга қарши бўлмаган, балки уни тарғиб қилганлар. Биз эса кўп йиллар давомида “дин афюндир”, “дин билан табобат келиша олмайди”, деб келдик. Муҳаммад пайғамбаримиз илм ҳақида бундай деган эдилар: “Ал илму илмани, илмул абдани ва илм ул адёни” (“Илм иккитадир: бадан илми ва дин илми”). Демак табобат илми диндан ҳам олдин тилга олинган. Табобат ривожланмаса, бошқа соҳалар ҳам ривожланмайди. Ҳақиқатдан ҳам, бадан саломат бўлмаса инсоннинг бошқа ишга қўли бормайди.

Қуръонда “Ўзларини доимо озода ва покиза тутиб юрувчи бандаларни Худо ўзига дўст тутди” деб ёзилган. Тозалик эса соғлиқнинг биринчи гаровидир.

⁵⁰ Салоҳиддинов Б.М., Муҳаммадов Т.М. Шарқ табобати тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи 2002.–Б.29.

Ҳадисда “Покизалик кишининг зехн-идрокини оширади, табиатини равшан қилади, чиройига чирой қўшади, уни ҳар хил касалликлардан сақлайди. Бунинг учун камида ҳафтада бир ҳаммомга тушиш, тирноқ, сочларни олиш, тишни ювиш, овқатдан олдин кейин, хожатдан сўнг қўлни ювиш лозим” дейилади.⁵¹

Юқумли касалликлар ҳақида гап кетганда (“Ҳадис”-да) – “Агар, бирон жойда вабо тарқалган бўлса, у ерга кирма, сен бор жойда вабо тарқалса қочиб чиқма” дейилган. Расулуллоҳу саллоллоҳу алайҳи васалламнинг заифалари Ойша онамиз хабар берадиларки, ул зот пайғамбаримиздан вабо ҳусусида сўраганларида бундай деб жавоб қилган эканлар: - Вабо оллоҳ истаган бандасига юборадиган азоб бўлган, эндиликда эса оллоҳ уни мўмин бандаларига ўзининг бир раҳмати сифатида юборадиган бўлди. Бирор бандага вабо теккан бўлсаю, у оллоҳ пешонасига ёзгандан ўзгаси бўлмаслигига ишониб ўз шаҳрида сабр қилиб қолса, албатта унга оллоҳ йўлида жанг қилиб шаҳид бўлган бандага қанчалик савоб бўлса, шунчалик савоб бўлғусидир.”⁵² Бу билан карантин жараёни назарда тутилади. Буни: “Ўзинга ҳам касалликни юқтирма, бошқага ҳам юқишига сабабчи бўлма” деб шархлаш мумкин.

Ислом дини фақат тоат-ибодат билан чекланиб қолмасдан, дори дармонлар билан ҳам даволанишни тарғиб қилган. Ҳадиснинг 550 сурасида, “Эй Оллоҳнинг бандалари! Даволанишлар, чунки Оллоҳ таоло бирор касалликни давосиз яратмаган, илло бир касалликнинг давоси йўқдур – бу қариликдир”,⁵³ дейилган.

Ибн Аббос Розиюллоҳу анҳу бундай деб ривоят қилганлар: - Уч нарсада дардга даво мавжуддир.

-асал ичмоқ;

-қон олдирмоқ;

-ярага тамға қиздириб босмоқ.

Жаноб расулуллоҳу саллоллоҳу алайҳи васаллам: - “Мен умматимга ярага тамға қиздириб босмоқни ман қилганман деганлар. Асал ва қон олдирмоқ дардга даво бўлғуси деганлар”⁵⁴.

“Беморларни ҳар ким эмас, фақат махсус билимга эга бўлган табиблар даволаши керак” деган сўзлар ҳам ёзилган. Бу фикрлар амалий тиббиётнинг негизини ташкил этади.

“Қуръон”да кайф берувчи ичимликлар, гиёҳвандлик, бузуклик, шаҳвоний хирсга берилишлар қораланади. Шу билан ислом дини бошқа динлардан устун туради, чунки бошқа динларда бундай фикрлар йўқ.

Болалар соғлиги, ҳомиладор аёллар соғлиғига алоҳида эътибор қаратилган. Уларнинг ҳатто мусулмончиликнинг асосий қоидаларидан бири – рўза тутишдан озод қилиниши ҳам фикримизнинг далилидир.

“Қуръон” ва “Ҳадис”лар мазмуни жихатидан зардўштиларнинг муқаддас китоби “Авесто”га ўхшаб кетади.⁵⁵

“Қуръон”да сафар қилинг соғлом бўласиз, очларга овқат беринг, беморларни бориб кўринг ва хожатмандларнинг ҳожатини чиқаринг” - деган сўзлар бор. Бу

⁵¹ Салоҳиддинов Б.М, Муҳаммадов Т.М. Шарқ табобати тарихи.– Тошкент: Ўқитувчи 2002.-Б.30.

⁵² Ҳадис 4-қисм. Тошкент-1992-Б. 24.

⁵³ Ҳадис 4-қисм. Тошкент-1992.- Б.14.

⁵⁴ Ҳадис 4-қисм. Тошкент -1992.-Б15.

⁵⁵ Салоҳиддинов. Б.М, Муҳаммадов Т.М. Шарқ табобати тарихи.-Тошкент: Ўқитувчи.- 2002.Б31.

сўзларни шархлайдиган бўлсак: киши қанча ҳаракатда бўлса, қуёш нурларидан баҳраманд бўлса у шунчалик соғлом бўлади, деган маъно келиб чиқади.

Пайғамбаримиз Муҳаммад солаллаҳу алайҳи ва саллам 3 хил усулда даволанганлар:

1. Табиий усул – доривор гиёҳлар билан.
2. Руҳий усул – Қуръон ва дуолар билан.
3. Қўшимча усул.

Марказий Осиёда халқ табобати вакиллари орасида диний йўналишда беморларни даволайдиган эшонлар, муллолар, дуоихонлар, парихонлар, азайимхонлар алоҳида мавқиега эга бўлган. Аммо табобатнинг бу йўналиши анъаналари асрлар оша яшаб келган бўлсада, совет даврида жиддий тўсиқларга учради. Совет ҳукумати динга қарши кураш баҳонасида халқ табобати вакиллари фаолиятига чек қўйишга ҳаракат қилди. 1928 йил ноябрида Самарқанд шаҳрида қўнгилли “Худосизлар” съезди чақирилиб, динга қарши кураш чора-тадбирлари ишлаб чиқилди. Бу анжумандан сўнг динга қарши тарғибот кучайтирилиб, “Худосизлар” жамиятининг Марказий Кенгаши тузилди. Бу орган барча жамоат жойларида, завод ва фабрикалар, колхоз ва совхозларда ўзининг тузилмаларини ташкил этиб, аъзолар сонини кўпайтирди. Унинг аъзолари сони 20 мингдан ортди ва улар оммавий равишда динга қарши кураш тадбирларини кучайтириб, маъруза, суҳбатлар, баҳслар, учрашувлар уюштирди⁵⁶. 1928 йил мартдан “Худосизлар” журнали ва газетаси нашр этила бошланди⁵⁷. Динга қарши кураш туфайли халқ табобатининг кўплаб вакиллари тазйиқ ва зўравонлик қурбонига айланди.

Дуохонлар айрим касалликларни (асосан руҳий-асаб касалликларини) “Чилла-ёсин”ни, яъни Қуръон сураларини икки, уч ва тўрт киши бўлиб, 40 марта ўқиб, беморни даволашда ижобий натижаларга эришган. Улар асосан беморга психотерапевтик таъсир кўрсатган.

Халқ дуохонлар билан бир қаторда муллаю эшонларга ҳам даво истаб мурожаат қилган. Эшон руҳий шахс бўлиб, у касалларни Қуръон сураларини ўқиш билан даволаган. Одамлар улардан вафот этган қариндош-уруғлари, дўст-биродорлари хотирасига дуо-фотиҳа ўқишини сўраб ҳузурларига ташриф буюрганлар. Шундай қилинса, вафот этган кишининг руҳи осайиш топиб, одамларга бахтсизлик ва касаллик келтирмайди, деб ишонганлар.

Халқ табобатининг яна бир вакиллари фолбинлар бўлиб, улар фаолиятида сирли воқеалар намоён бўлади. “Фолбин” сўзи арабча бўлиб, “фол”–тақдир, “бин”–кўрувчи, яъни инсонлар тақдирини кўрувчи маъносини билдиради. Бу атама Самарқандда айниқса шомонларга нисбатан кўп қўлланган⁵⁸. Халқ табобатида дуохонлар, эшонлар ҳам, озми-кўпми, халқни даволаш ишига ўз ҳиссаларини қўшган.

Шуни таъкидлаш лозимки, даволаш иши ҳар доим даромадли ишлардан бири бўлиб келган ва табибларга беморларнинг ижтимоий аҳволидан қатъи назар улар устидан маълум бир маънода ҳокимият ўрнатиш имкони бўлган. Бу эса сохта

⁵⁶ Аброров М. Преодоление пережитков шариата в Советском Узбекистане.: Автореф. дисс. канд. филос. наук.– Ташкент, 1970. – С. 13.

⁵⁷ Худосизлар. – 1929. – 3-сон. – Б. 38.

⁵⁸ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Ташкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 35.

“табиб”лар, “дуохон”ларнинг пайдо бўлишига замин ҳозирлади. Ўзбилармон, тажрибасиз “табиб”лар беморларни даволаш чоғида бир қатор хато ва камчиликларга йўл қўйган ва бемор аҳволининг янада оғирлашувига сабаб бўлган. Сохта “табиб”лар даволашга қурбилари етмаслигини била туриб, беморни ҳар хил ёлғон ваъдалар билан ишонтириб, касалхонага бормасликларини уқтирган. Сохта табиблар фаолияти тез-тез махсус йиғилишларда муҳокама этиб турилган.

Хуллас, ислом таълимоти табобат ривожига барча тарихий даврларда муҳим ўрин эгаллаган. Қуръони карим ва Хадис каби муқаддас китобларда соғлом турмуш тарзи, тана поклиги, атроф-муҳит озодалиги хусусида ниҳоятда қимматли маълумотлар келтирилади. Ўз ўрнида ислом таълимоти кейинги даврда табобат илмининг ривожига ўзининг жиддий таъсирини кўрсатди. Халқ табобати вакиллари совет даврида қувгин ва таъқибларга учраган бўлса-да, ота-боболардан қолган мерос сифатида яшашда давом этди ва аҳоли соғлигини сақлашда ўзининг муносиб улушини қўшиб, йилдан-йилга янги маълумотлар, тажрибалар билан бойиб борди ҳамда ҳозирги замон тиббиёти учун қимматли манба бўлиб хизмат қилди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Б.М.Салоҳиддинов, Т.М.Муҳаммадов. Шарқ табобати тарихи. Тошкент: Ўқитувчи. 2002.
2. Ҳадис 4-қисм. Т:1992.
3. Қуръони Карим. Т; 2019.
4. Павлов И. П. Полное собрание сочинений. – 1951. Т. II. Кн. 1.
5. Аброров М. Преодоление пережитков шариата в Советском Узбекистане.: Автореф. дисс. канд. филос. наук.– Ташкент, 1970.
6. Равшанова Г., Равшанов П., Мозий сабоғи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
7. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Ташкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 35.

ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА ОТА ОНАНИНГ ЎРНИ - ВАҲБА ЗУҲАЙЛИЙ ҲАЁТИ МИСОЛИДА

Ҳасанов Улуғбек Абдусалом ўғли

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

“Исломишунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш

ICESCO кафедраси” таянч докторанти

Бола дунёга келган кундан бошлаб ота онанинг бола тарбияси учун жавобгарлиги ва масъуляти орта бошлайди. Азал-азалдан бола тарбияси билан асосан она шуғулланиб келган. Отанинг асосий вазифаси эса оилани боқиш бўлиб, факатгина уйда бўлган вақтда болани назорат қилиб бориш бўлган ҳолос. Бола ўз оиласида теварак –атрофи қариндош ва яқинларига тўла бўлган муҳитда тарбияланади. Шу сабаб бу каби оилалар унинг дунё қараши ва хулқига доим ўз таъсирини ўтказиб туради, ундаги тарбиянинг шаклланишига ўзига хос фундаментни яратади.

Ота она аввалам бор ўз фарзандига тўғри тарбия бериб боришга бу йўлда ҳамиша изланишда бўлиб, ўқиш ва тажриба орттириш лозим яна шуниси аҳамиятлики, боладаги барча хислатлар диний ахлоқ билан камолга етади. Шу боис тарбия энг аввало гўзал фазилатли ахлоқ билан безатилмоғи даркор. Ахлоқий тарбияга эса ҳар бир инсоннинг муқаддас гўшаси, бошпанаси ҳисобланган оилада асос солинади. Бу йўлда ота оналар ўзларининг одоб ахлоқи билан ибратли бўлишлари лозим, чунки ота-оналар боланинг, илк бора кўзини очишдан то ёши катта бўлиб ақлини танигунга қадар бўлган вақтда бўлиб келган ҳаётларидаги биринчи тарбиячилари ҳисобланади. Оила жамиятнинг кичик бир ўчоғларидан бири ҳисобланиб, бу даргоҳда келажакда катта пойдеворга асос соладиган баркамол авлод вояга етади. Шунини унутмаслигимиз лозимки, шахснинг шаклланиши ниҳоятда мураккаб ва кўп қиррали жараён дур. Оилавий таърибия боланинг умумий ва ўзига хос ривожланишини таъминлаш билан бирга, мавжуд имкониятларини ва ақлий тафаккурини юксалтиради.

Биз ҳозир қуйида фарзанд тарбиясида ота онанинг ўрни нақадар кучли эканлиги ва унинг самараси улкан ютуқларга олиб келишига шоҳид бўламиз.

Биз бу мисолни Буюк муфассир Ваҳба Зуҳайлий роҳматуллоҳи алайҳининг камол топишидаги оталари ва оналарининг роли ҳақида маълумотлар келтириб ўтамиз.

У зотнинг оталари Мустафо Зуҳайлий роҳматуллоҳи алайҳ Аллоҳ таолонинг китобини ёд олган, кеча-ю кундуз Қуръони каримни тиловат қиладиган муҳтарам зот эди. Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи васалламнинг суннатларини маҳкам ушлаб, оғишмай амал қилар эди. Жуда ҳам кўп ибодат қилар ва рўза тутар эди. Масжидда жамоат билан намоз ўқишни сира қанда қилмас эди. Юксак ахлоқий одоб ва ҳиммат соҳиби эди. Тамбаллик ва ялқовлик нелигин билмас эди. Биз ҳаёт йўлларини ўрганаётган Ваҳба Зуҳайлий ҳам ўз отасининг ҳаёт тарзидан, исломий эътиқодидан

ниҳоятда қаттиқ таъсирланди. Мустафо Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳи деҳқончилик ва тижорат ишлари билан шуғулланар эди.⁵⁹ Фарзандлари илм олишлари учун барча шарт-шароитларни яратиб берган эди.

Ваҳба Зухайлийнинг онаси Фотима бинти Мустафо ҳам содда, вараъ соҳибаси, шариятнинг барча йўл-йўриқларига беками-қўст амал қиладиган фозила аёл эди.

Устоз Ваҳба Зухайлий ҳудди мана шу даврда яшаб, илк таҳсилини анъанавий тарзда Қуръони каримдан бошлаган. Онасининг ота уйига яқин жойда Қуръони каримни қироат ва тажвидлари билан бирга мукамал тарзда тамомлаган. Кейин оналарининг қизиқтиришлари ила ўрта мактабда ўқий бошлаганлар. Шомга кўчиб кетишларидан олдин мактабни мана шу жойда тамомлаганлар.⁶⁰

Ваҳба Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳи ўз замонасининг камёб иқтидорли толиби илмларидан бўлган. Ушбу илмга чанқоқлигини қондириш ҳамда юксак илмий салоҳиятга эга бўлиш учун шариат, ҳуқуқ, араб тили ва балоғат каби илмларни жидду жаҳд билан пухта ўрганди.

Сурияда қирқдан ортиқ авлод у кишини қўлларида таҳсил кўрди. Бундан ташқари Ливия, Судан, Араб амирлиги, Америка, Малайзия, Афғонистон, Индонезия ва дунёнинг машриқи ва мағрибида минглаб одамлар фикҳ, усул ва тафсир илмларидан таҳсил олишди.

Доктор Ваҳба Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳи ҳаёти мобайнида кўплаб лавозимларда ҳам фаолият кўрсатган. У кишининг ишлаган лавозимларини қуйида келтириб ўтамиз:

- Дамашқ университетининг шариат факултетида Исломий фикҳ ва мазҳаблари бўлимининг раиси;
- Араб муассасаларидаги исломий банкларидagi шаръий кузатув ҳайъати, исломий банклардаги муассасалар шаръий ўқув ҳайъати раиси, исломий банклар шаръий мажлиси аъзоси;
- Макка, Жидда, Ҳиндистон, Америка ва Судандаги фикҳ академияси аъзоси;
- Араб амирлигидаги университет қошидаги шариат ва қонун факультети, исломий шариат бўлими раиси сўнгра тўрт йил муддатга декани;
- Иорданиядаги «Оли байт муассасаси» қошидаги ислом маданияти тадқиқот маркази академияси аъзоси;
- Етмишдан ортиқ Дамашқ, Байрут ва Хуртум шаҳарларидаги магистр ва докторлик ишларига раҳбарлик;
- 1988-йили Қувайт университетида шариат ва исломий билимлар журнали ташкилотчиси;
- Сурия радиосида Қуръон тафсири асосида «Қуръондаги қиссалар», «Қуръон ва ҳаёт» номли эшиттиришлар муаллифи;
- Араб амирлиги университетида «Шариат ва қонун» журнали асос-чиси;

⁵⁹ Унинг ваҳба Зухайлийдан ташқари яна тўртта фарзанди бор эди. Ваҳба Зухайлийнинг Тавфиқ ва Маҳмуд исмли иккита акаси бор. Бу иккиси ҳам вафот этган. Аллоҳ раҳматига олсин. Ваҳба Зухайлийнинг Муҳаммад ва Аҳмад исмли яна иккита укаси ҳам бор.

⁶⁰ Саййид Лаҳҳом. Уълама вал муфаккирун. – Байрут, Дорул кутуб, 2006 й. –Б. 12.

– Дамашқдаги «Ислом дастури» журнали таҳрир ҳайъати аъзоси;

Бундан ташқари кўплаб лавозимларда хизмат қилган.

Доктор Ваҳба Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳи туғилиб ўсган жой, у ердаги илмий ва сиёсий муҳит у кишининг мана шундай юксак уламо бўлиб етишишида муҳим ўрин тутади.

Шу билан бирга, у киши туғилиб, вояга етган, у кишини мана шундай дунё тан олган уламо бўлиб етишишида беқиёс ҳисса қўшган ота-оналарини ҳам алоҳида қайд этиб ўтиш лозим.

Чунки, доктор Ваҳба Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳи зоҳид ва зоҳида, обид ва обида ота-онанинг фарзанди бўлгани учун ҳам шундай юксак илмий салоҳиятга эга бўлганлигини замондош уламолар билдириб ўтишади.

Доктор Ваҳба Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳининг ҳаётини ўрганиш бугун биз тарбия қилишга интилаётган юксак интеллектуалли ёш авлодни тарбиялашда ҳам жуда муҳим қўлланма бўлиб хизмат қилади.

Доктор Ваҳба Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳининг ота-онасидаги тақводорлик ва ихлос ҳар бир ота-онада бўлиши лозим. Ана шунда доктор Ваҳба Зухайлий роҳматуллоҳи алайҳи каби уламолар етишиб чиқади.

MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYALARDA XORIJIY TILLARNING O`RNI VA STEREOTIPLAR MUAMMOSI

Shodimetova Odinaxon

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik ta'minoti

(tillar bòyicha) yo`nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Madaniyatlararo muloqot - bu turli madaniyatlarning ikki yoki undan ortiq vakillari o'rtasidagi muloqotning maxsus shakli bo'lib, uning davomida o'zaro ta'sir o'tkazuvchi madaniyatlarning axborot va madaniy qadriyatlari almashiladi. Madaniyatlararo muloqot jarayoni - bu faoliyatning o'ziga xos shakli bo'lib, u nafaqat chet tillarini bilish bilan cheklanib qolmaydi, balki boshqa millatning moddiy va ma'naviy madaniyati, dini, qadriyatlari, axloqiy munosabatlari, mafkuraviy g'oyalari va boshqalarni bilishni talab qiladi. aloqa sheriklarining xulq -atvor modelini aniqlaydigan yig'indi. Biz ushbu maqolamiz orqali madaniyatlararo kommunikatsiyalarda xorijiy tillar o`rni va streotiplari haqida so`z yuritamiz.*

Annotation: *Intercultural communication is a special form of communication between two or more representatives of different cultures, during which information and cultural values of interacting cultures are exchanged. The process of communication is a specific form of activity, which requires not only knowledge of foreign languages, but also knowledge of the material and spiritual culture, religion, values, moral relations, ideological ideas of another nation, etc. a collection that defines the behavior model of communication partners. Through this article, we will talk about the role and stereotypes of foreign languages in cultural communication.*

Kalit so`zlar: *muloqot, nutq, til, OAV, aloqa, mintaq, sezgi, idok, tafakkur.*

Key words: *communication, speech, language, media, communication, region, Intuition, IDOC, contemplation.*

Amerikalik tilshunos Edvard Xoll birinchi bo'lib boshqa xalqlar bilan muloqot qilish madaniyatini o'rgatish kerak degan xulosaga keldi. Uning fikricha, ICC muammosini o'rganishning asosiy maqsadi turli madaniyat vakillarining bir -biri bilan muvaffaqiyatli muloqotga bo'lgan amaliy ehtiyojlarini o'rganishdir.

Ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning xilma -xilligi, ijtimoiy kontekstlar va muloqot ishtirokchilarining niyatlari har xil nutq janrlarida namoyon bo'ladi - har kungi suhbatdan hissiy e'tiroflargacha, ish uchrashuvlari va muzokaralardan OAVda gaplashishgacha. Shu bilan birga, tasvirlar, motivlar, munosabatlar, his -tuyg'ular orqali og'zaki muloqot ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarni belgilaydi, nutq ularni tashkil qiladi.

Xorijiy olimlarning maxsus tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, muloqotning tabiati, shakli va uslubi ko'p jihatdan muloqotning birinchi daqiqalariga, ba'zan esa soniyalariga bog'liq.

Deyarli har qanday vaziyatda muloqotning boshlang'ich bosqichini osonlashtirishga imkon beradigan juda ko'p oddiy texnikalar mavjud, bu jarayonning keyingi yo'nalishini belgilaydi. Bu usullarga tabassum, suhbatdoshning ismi bilan murojaat qilish, maqtash va boshqalar kiradi.

Turli xil usullarning kombinatsiyasiga bog'liq. Aloqa texnikasi va aloqa uslubida madaniyatlararo muloqotning uchta asosiy turi mavjud - og'zaki, og'zaki bo'lmagan va paraverbal.

Aloqa uchun ajralmas shart - bu nafaqat umumiy tilni bilish, balki undan oldin to'plangan ma'lum bilimlarning mavjudligi. Aloqa uchun uning ishtirokchilari ijtimoiy tarixning ma'lum bir umumiylikiga ega bo'lishi kerak, bu esa atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarda aks etadi. Kommunikativ harakat ishtirokchilarining ongida mavjud bo'lgan bu bilim fon bilimlari deb ataladi. O.S.ning so'zlariga ko'ra. Axmanova, ma'lumot - bu "lingvistik muloqotning asosi bo'lgan ma'ruzachi va tinglovchining haqiqatini o'zaro bilish".

Muloqot jarayonida asosiy bilimlarni hisobga olish zarurati bugungi kunda umuman tan olingan. Ma'lum bir etnik va lingvistik hamjamiyat a'zolarining ma'lumotlari lingvistik va mintaqashunoslikning asosiy ob'ekti hisoblanadi. YEMOQ. Vereshchagin va V.G. Kostomarov ma'lumotlarning uch turini ajratadi:

universal (masalan, hamma odamlar istisnosiz quyosh, shamol, vaqt, tug'ilish va boshqalarni bilishadi);

mintaqaviy (tropiklarning hamma aholisi, masalan, qor nima ekanligini bilmaydi);

mintaqaviy geografik.

Oxirgi tur - bu ma'lum bir etnik va lingvistik jamoaning barcha a'zolari ega bo'lgan va milliy madaniyatni bilish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar. Muayyan lingvistik jamoaga xos bo'lgan va chet elliklarda bo'lmagan bunday ma'lumotni mamlakatga xos bilimlar deyiladi.

Tushunmovchilik va nizolarning ko'p sabablari bor. Ularning barchasi qandaydir tarzda psixologik idrok etish jarayoni va madaniyatlararo kompetentsiyaning shakllanishi bilan bog'liq.

Insonning dunyoni idrok etishi ko'plab omillar bilan belgilanadi: ta'lim, ijtimoiy-madaniy muhit, ta'lim, xarakter, dunyoqarash, shaxsiy tajriba va boshqalar. Odatda, idrokning bir nechta turlari ajratiladi - oddiy, ongli, sezuvchan idrok (odam nimani idrok qilsa, tushunsa va bilsa).

Aloqa jarayoni odamni, uning tashqi qiyofasini, ovozi, xulq -atvor xususiyatlarini kuzatishdan boshlanadi, uning davomida biz bir qancha tashqi ko'rinishlarda ichki dunyo va shaxsiyat xususiyatlarini, harakatlar va fikrlash mantig'ini tushunishga harakat qilamiz.

Тепаликларда фақат битта тепалик локомотивдан фойдаланилади, тепаликдаги технологик интервал барча санаб ўтилган операцияларни бажаришга кетган вақтга тенг.


$$t_{мен} = t_3 + t_{силж} + t_{рос} + t_{oc}. \tag{8}$$

Бир нечта тепалик локомотивлари ишлаганда қатор операциялар параллел амалга оширилади.

а)



б)




1-расм. Бекатларда узмаларни тепаликга беришда ҳаракатланиш масофаси

Тепалик технологик интервалини аниқлаш учун тепаликни тўла даврда ишлашига технологик график тузилади, у операциялар орасидаги барча асосий алоқаларни ифодалаш имконини беради (2-расмга қаранг). График бўйича T_u даврини давомийлиги ҳисобланади ва T_u/n_u тенг $t_{мен}$ катталиги аниқланади, бунда n_u – бир давр ичида ташаланадиган ҳаракатлар сони.

3-жадвал

Операц	Вақ	Тепалик локомотивларини операцияни бажариш
--------	-----	--------------------------------------------



- биринчи тепалик локомотивини ишлаши;
- иккинчи тепалик локомотивини ишлаши;
- биринчи тепалик локомотивини кутиб туриш;
- иккинчи тепалик локомотивини кутиб туриш.

3-расм. Иккита тепалик локомотивли саралаш тепалигини ишлаш графиги

Иккита мунтазам поездни тарқатиш ўртасида бир дақиқалик технологик интервални t_u таъминлаш тавсия этилади. Келтирилган графикдан кўриниб турибдики, даврдавомийлиги:

$$T_u = 3t_{roc} + 2t_u + 3t_{oc} = 44 \text{ дақ} \quad (9)$$

Шундай экан, бундай ҳолатда тепаликдаги технологик интервал

$$T_u/n_u = 44/3 = 14,7 \approx 15 \text{ дақ. Тенг бўлади.}$$

Саралаш тепаликни ишлаб чиқариш қобилиятини ошириш учун қуйидагилар амалга оширилади:

– t_{mex} тепалик ишидаги танаффусларни қисқартириш ҳисобига камайтирилади (локомотивларни алмаштириш, бригадани алмаштириш вақтини қисқартириш, йириклаштириш йўли билан вагонлар сонини камайтириш ҳисобланади);

–танаффусларни зид кесишувлар сабабли қисқартирадилар, бунинг учун қабул парк бўғзида параллел ҳаракатлар, қабул қилиш ва саралаш парклари орасида бириктириш йўллари ва бошқалар уюштирилади;

–ҳаракатларни, узмани узунлиги ва уларни ҳаракатланиш маршрутига боғлиқ холда, тепаликдан ўзгарувчан тезликларда ташланади;

–тепаликдаги локомотивлар сони кўпайтирилади;

–ҳаракатлар орасидаги ташлаш интервалини вагонларни туширишга кетган вақт

сарфини камайтириб (ушбу операцияни поездни тузиш билан бирлаштириб, саралаш парки орқа томондаги бўғзида вагонларни етиштириб), қўшимча суриш йўлларини куриб, ҳаракатларни қабул қилиш паркидан тепалик чўққисига бир-бирини кетидан йўлакай суриш учун, суриш қисмидаги йўлларни секцияларга бўлиб, камайтирилади;

–ҳаракатларни тепаликдан параллел режимда ташлаш қўлланилади;

–қабул қилиш паркида тепаликдан ташлашга тайёр ҳаракатлар яхлитлаштирилади (алоҳида вагонлар гуруҳини қўшиб ёки ҳаракатларни бирлаштириб);

–Учинчи вагон секинлаштиргич (паркдаги) қувватини ошириш ҳисобига ва тепалик ости йўлларни ихтисослаштиришни қайта кўриб чиқиш билан, тепаликдан узмаларни кетма-кет тушаётганда охирги ажратувчи стрелкада маршрутларни ажралиш эҳтимоллигини камайтириш учун, саралаш суръати тезлатилади.

–Маълумки, тепаликни саралаш иш қобилиятини сезиларли даражада ошишига тепаликдан икки ва ундан ортиқ поездни бир вақтнинг ўзида параллел ташлаш орқали эришиш мумкин. Агар ҳаракатларни сутка қисмида тепаликда кетма-кет тарқатиш режимида ва қолганлари эса параллел тарқатиш режимида (ПТР-ПРС режими) кесишган (бурчакли) оқим йўналиши билан саралаш йўлларига ва кейин уларни қайта саралаш билан, унда тўртта паркли бекат схемаси ёки ҳаракатларни олдиндан фронт орти саралаш бекатларда саралаш паркининг чап ва ўнг қисмлари учун тепаликдаги технологик интервал тенг:

$$t_{\text{теп}}^{\text{ПТР}} = 0,5 \cdot t_{\text{теп}} \left[1 + \gamma_{\text{п}} \cdot \gamma_{\text{пс}} + \sqrt{(1 + \gamma_{\text{п}} \cdot \gamma_{\text{пс}})^2 - 4 \cdot \psi_{\text{п}} \cdot (\gamma_{\text{з}} \cdot \gamma_{\text{п}} + \gamma_{\text{пс}})} \right] \quad (10).$$

–Бунда $\psi_{\text{п}}$ –тепаликни фойдали қўллаш коэффициенти, тенг:

$$\psi_{\text{п}} = \frac{\alpha_{\text{менр}} \cdot 1440 - t_{\text{мех}}^{\text{менр}}}{1440 \cdot \mu_{\text{так}}^{\text{мен}}}, \quad (11)$$

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. М.Григорьев В.Л. Программное обеспечение микропроцессорных систем. - М.: Энергоатомиздат, 1983. - 208 с.
2. Boltaev S T., Rakhmonov B.B., Muhiddinov O.O., Saitov A.A., Toshboyev Z. B. Development of a block model for intelligent control of the position of the switches operating apparatus in the electrical interlocking system. CONMECHYDRO 2021 № 365.
3. Дюран Б., Одел П. Кластерный анализ. - М.: Статистика, 1977. - 150 с.
4. Zohid Toshboyev., Aziz Saitov., Janibek Kurbanov., Sunnatillo Boltayev. (IMPROVEMENT OF CONTROL DEVICES FOR ROAD SECTIONS OF RAILWAY AUTOMATION AND TELEMCHANICS). CONMECHYDRO 2021 № 267.
5. Toshboyev Z.B. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. vol.6, Issue 9, September 2019.
6. Тошбоев З. Б. Астаналиев Э. Т. Сборник материалов Международной научно-практической конференции-вопросы развития мировых научных процессов

(г.Кемерово,15-марта 2019 г); 2-том.

7. Тошбоев З. Б. Астаналиев Э. Т Сборник материалов Международной научно-практической конференции-вопросы развития мировых научных процессов (г.Кемерово,16-мая 2019 г); 1-том.

8. Toshboyev Z.B. , Astanaliyev E.T. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology – Axle Metering Devices and Their Use on the Railway Automation and Telemechanics, International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (vol.6,Issue5,May2019).

9. Toshboyev Z.B. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology – Use Of Modern Axles Counting Devices in Railway Automation and Telemechanics International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (vol.6,Issue 9,September 2019).

10. Kurbanov J.F, Toshboyev Z.B, Boltayev S.T, Saitov A.A, International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology – Intelligent diagnostics of the state of carriage retarders, International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (vol.8, Iss 4, april 2021).

ELEKTRON O'QITISH TIZIMI, UNDA DASTURIY VOSITALAR**Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich***Qo'qon DPI o'qituvchisi*

Elektron aloqa - axborotlarni qayta ishlash va uzatishda elektron usullardan foydalanishdir. Bu usul orqali bosma materiallarni, chizmalarni, turli hujjatlarni, jadvallarni va boshqa ma'lumotlarni uzatish mumkin.

Elektron aloqa «qog`ozsiz» aloqa munosabatlarini tashkil qiladi va hujjatlashtirilgan xabarlarni telefon va ma'lumot uzatish tarmoqlari orqali yig`ish, qayta ishlash va uzatish tizimini ifodalaydi. Telegraf bo`limi, masofali aloqa va teleks tizimi birgalikda elektron aloqaning elementlari hisoblanadi. Jumladan, teleks tizimi 100 ortiq mamlakatlarda mavjud bo`lib, 800 mingta abonentga xizmat ko`rsatadi. Mikroprotessorlarni joriy qilinishi elektron aloqa usuliga yangi o`zgartirish kiritdi. Shu sababli ham, elektron aloqa-ob'ektlar o`rtasidagi aloqa munosabatlarini axborotlashtirish va elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda amalga oshiruvchi tizim hisoblanadi.

Elektron aloqaning ishlash tamoyili quyidagiga asoslanadi. Foydalanuvchi terminal orqali tegishli iqtisodiy ob'ektlarga, ularning manzilgohlarini ko`rsatgan holda ma'lumotlarni uzatishi mumkin. Bu xabarlar kompyuter orqali qabul qilinadi, tartiblashtiriladi va elektron qutilarga jo`natiladi. Iqtisodiy ob'ektlar kelib tushgan xabarlarining ro`yxatini doimo nazorat qilib turadi va tegishli ma'lumotlarni tayyorlaydi.

Elektron aloqa yordamida katta hajmdagi axborot to`plamlarini, turli ma'lumotlarni tayyorlash mumkin. Bundan barcha axborotlar kompyuter xotirasida saqlanadi va kerakli nusxada tegishli ma'lumotlar bosmaga chiqariladi. 1-rasmda elektron aloqa tizimining tuzilishi ko`rsatilgan. Elektron aloqa tizimi o`zining funktsiyalarini amalga oshirish uchun kompyuter, magnitli barkash xotira, masofaga uzatish apparati, tasvirlarni ifodalash va bosmaga chiqarish vositalari bilan ta'minlangan bo`lishi kerak.

Elektron aloqa tizimining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- axborot uzatuvchi va qabul qiluvchi xodimlarning ish vaqtini optimal tashkil qilish;
- uzoq masofalarga axborotni uzatish;
- turli ko`rinishdagi ma'lumotlarni uzatish;
- elektron aloqa qutisidagi xabarlarni istagan vaqtda olish va boshqalar.

Elektron aloqa tizimi yordamida AQSh da 2000 yilda 30 mln. xabar jo`natilgan. Mutahassislarning hisob-kitobiga qaraganda, xabarlarining uzatish uchun 15 mlrd. dollar sarf qilinmoqda Hozirgi kunda E-COM (Electro Computer Originated Mail) tizimi yordamida elektron xabarlar jo`natilmoqda. Uning asosini CBMS (Computer Based Massase System) tizimi tashkil etadi. Ma'lumotlarni uzatishda Tymnet, Telenet, Uninet tarmog`idan foydalaniladi.

Teleanjuman va videotasvirli tizim. Inson faoliyatining turli sohalarida axborot almashish zaruriyati, yangi ma'lumotlarni olish ehtiyoji muloqat, ya'ni anjuman, seminar,

maslahatlashish kabi usullarni keltirib chiqaradi. Har bir masala turli darajada muhokama qilinadi va tegishli qaror ishlab chiqiladi.

Turli masofadagi shaxslar o`rtasidagi ma'lumotni almashish jarayonini kelib chiqishida telefonning ahamiyati juda katta bo`ldi. Hozirgi kunda bu vositalar birgalikda teleanjuman usulini yaratishga asos soldi. Teleanjuman asosida bir necha shaxslar o`zaro muloqatda bo`ladi va turli ko`rinishdagi axborotlarni uzatish mumkin.

Ma'lumki, maslahat jarayonini tashkil etish bir muncha harajatlarni sarf qilishni talab qiladi. Masalan, G`arbiy Evropada 1990 yilda 100 mingta, 2000 yilda esa 130 mingta anjumanlar o`tkazildi. AQShda shu yillar ichida 55 mlrd. dollar sarf qilindi.

Har bir rahbar ish vaqtining 6 foizini telefon orqali suhbatlashish, 10-20 foizini turli hujjatlarni o`qish va yozish, 70 foizini turli uchrashuvlarda ishtirok etish uchun sarflaydi. Ish vaqtdan samarali foydalanish, ularni ish joylaridan qo`zg`atmaslik maqsadida muloqat jarayoniga zamonaviy texnik vositalarni tatbiq qilishga kirishildi.

Teleanjuman usulining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- zarur masalalarni operativ muhokama qilish va tegishli shaxslarga etkazish;
- muhokama uchun turli ko`rinishdagi axborotlardan foydalanish;
- muhokamada qatnashuvchi mutaxassislarining miqdorini kengaytirish;
- ma'lumotlar bazasidagi axborotlarni olish va anjuman qatnashuvchilariga etkazish va boshqalar.

Videotasvirli xizmat xabar va ma'lumotlarni olishning yangi turi hisoblanib, elektron aloqaning ko`rinishidir. Bu usulda terminal vositasi sifatida oddiy televizordan foydalanish mumkin. U adapter orqali harflar dastasi va modemga bog`lanadi hamda telefon tarmog`iga ulanadi.

Kelayotgan xabarlarni tekshirish uchun ma'lumotlar bazasi kompyuterda tashkil qilinadi. Natijada foydalanuvchi «muloqat» tartibida ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydi va tegishli axborotlarni oladi. 8.3-rasmda videotasvir usulining ko`rinishi berilgan.

Foydalanuvchi tegishli ma'lumotlarni o`z faylida saqlashi yoki boshqa foydalanuvchiga jo`natishi mumkin. Har bir bog`lanish ma'lum bir mahfiy so`zlar orqali amalga oshiriladi.

Videotasvir usuli interaktiv tartibda axborot xizmatini ko`rsatuvchi tizim hisoblanadi. Bu tizim quyidagi imkoniyatlarga ega:

- foydalanuvchi talabiga muvofiq turli ma'lumotlarni olish;
- kompyuter xotirasida shaxsiy faylga ega bo`lish;
- sport musobaqalarini ko`rish;
- turli kompyuter o`yinlaridan foydalanish;
- transport vositalar chiptalarini band qilish va boshqalar.

Videotasvir tizimi birinchi marta 1972 yilda Angliyada tuzilgan. Uning tarkibiga televizor, telefon apparati, modem, harf-raqamli ma'lumotlarni jamlovchi vositalar kirgan. Prestel tizimi tijorat, sport, madaniyat va boshqa bir qator ma'lumotlarni uzatish uchun mo`ljallangan. Tizimning ma'lumotlari maxsus bo`limlar tomonidan o`zgartirib turiladi.

**ELEKTRON O'QUV – USLUBIY MAJMUALARNI YARATISH
TEKNOLOGIYALARI.****Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich***Qo'qon DPI o'qituvchisi*

Texnologiya - bu belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishning iqtisodiy samarali loyihalangan jarayonlar ketma-ketligi majmuidir. "Texnologiya" so'zi lotincha "Thexnos" - sanhat, hunar, soha va "Logos" - fan degan ma'noni anglatadi.

Texnologik klaster - bitta chegaralangan hududda joylashgan va ishlab chiqarish aloqalari orqali o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar va tashkilotlar birlashmasidir.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Fanni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan quyidagi interaktiv uslublardan keng foydalaniladi: muhokama-munozara, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, bahs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog'lam), baliq skeleti, FSMU, bumerang, pibord, "T-sxema-texnikasi", blits-so'rov, "Nima uchun?" texnologiyalari, BBXB (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), insert jadvali.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchitalabalar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir.

Bu interaktiv o'qitishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi va talabalarning ushbu mavzu bo'yicha turli xil bilim darajasi va tajribalari asosida o'rganiladigan masalaga qanday yondoshishi ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi muhokama uchun muammoli savolni yoki hayotdagi aniq bir vaziyatni belgilab, o'rtaga tashlaydi. Talabalarni esa mavzudan chetga chiqishlariga yoki ayrim faol talabalarni etakchi bo'lib, faqat ular fikr bildirishlariga yo'l qo'ymaydi, mumkin qadar barcha talabalarning faol ishtirok etishlariga ahamiyat beradi, talabalarni bir-birini fikrlariga hurmatsizlik bilan qarashlariga yo'l qo'ymaydi. Muhokama oxirida o'qituvchi fikrlarni umumlashtirib, o'z fikrini nazariy va amaliy isbotlab bayon etadi.

Multimediali elektron o'quv vosita ko'zni charchatib qo'ymasligi uchun o'zida minimum matnli axborotni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Qo'llanayotgan shrift o'lchami va turi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribadan shuni ko'rish mumkinki, bosma kitoblarda bo'yalgan va egiltirilgan yozma usullaridan ba'zi tushunchalarni ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Multimediali elektron o'quv vositalarda esa ajratib ko'rsatish lozim bo'lgan alohida tushunchalar ayrim holda, bo'yash orqali va fon bilan ajratilib ko'rsatilishi mumkin. Bu esa tushunish darajasini ortishiga olib keladi. Biroq ortiqcha kontrastlik va yorqinlik ham salbiy tahsirlarga olib kelishi mumkin.

Bunday materiallar ko'proq bezakli ko'rgazmalar bilan boyitilishi lozim. Morxelning ta'kidlashicha ta'limda bezakli ko'rgazmalar o'quvchini tafakkurlashi va tasavvurini kengaytiradi va ta'lim mazmunini boyitadi. Bir qator mualliflar bezakni yuqori didaktik qiymatga ega deb ta'kidlashadi. Multimediali elektron o'quv vosita hajmini kamaytirish va tarmoqdagi ishining optimalligini oshirish uchun GIF, JPEG va boshqa grafik hamda grafik jihatdan bo'yoq palitrasi kamaytirilgan yoki vektorli (WMF kabilar) grafik fayllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Video fragmentlarni qo'llash jarayon va hodisalarni dinamikada berish imkonini yaratadi. Fayl hajmi kattaligini hisobga olmagan holda bu jarayonni qo'llash o'quvchi uchun materialni qabul qilish darajasini oshirishga yordam beradi va albatta bilim sifatini oshiradi.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyaga asoslangan olamshumul multimedia vositali axborot tarmoqlaridan bogan sari muvoffaqqiyat bilan foydalanilmoqda va uning qudrati ortib boryapti. Har birimizning hayotimizda axborot olamining ahamiyati kuchaymoqda.

An'anaviy ta'lim berish formasi verbal hususiyatga ega. Multimediali elektron o'quv vositalarda audio-videofragmentlardan foydalanishni qabul qilishni an'anaviy darajaga yaqinlashtiribgina qolmay, balki qabul qilish sifatini yuqori darajaga olib chiqadi. Bundan tashqari auditoriyada bunday usul qo'llanganda audio vositani bir-biriga halaqit qilmagan holda individual foydalanish mumkin.

Multimediali elektron o'quv vosita o'zida qo'llanma elementlariga, imkoniyat bo'lsa boshqa elektron qo'llanma va ma'lumotlarga aniq murojaatli gipermurojaatga ega bo'lishi hamda ushbu murojaatlar orqali kerakli varaqqa o'tish imkoniyatini yaratadi.

Turdosh texnologiyalar yordamida misol, test va boshqa maqsadli dasturlarni ishlatib, ko'rsatib berishi.

Materialni o'rganuvchi tomonidan o'zlashtirilishi matn, grafika va boshqa elementlarning varaqdagi tartiblanishiga bog'liq. Chunki an'anaviy darsliklarda o'rganilayotgan materialda bir paytda tushuncha yozilgan betni ochib biri - biriga taqqoslash imkoni bor. Multimediali elektron o'quv vositalarda esa buni imkoni yo'q.

Multimediali elektron o'quv vositada albatta taklif etiladigan adabiyotlar ro'yxati (u bosma shaklda chop etilgan bo'lsa ham) berilishi lozim. Multimediali elektron o'quv vosita OTM uchun tuzilsa, albatta, unda kutubxonadagi ushbu adabiyotlar soni, jurnallar va maqolalarning aniq koordinati ko'rsatilishi lozim. Bundan tashqari OTM kutubxonasiga ega bo'lgan elektron ma'lumotlarga hamda internet tarmog'idagi elektron ma'lumotlarga aniq murojaat bo'lishi lozim.

Bugungi kunda kompyuter o'quv – uslubiy majmualarining ikki xil yo'nalishi mavjud: internet–texnologiyalar va case–texnologiyalari.

Birinchi, internet – texnologiyalari asosida qurilgan qo'llanma o'zida gipermatnli xujjatni ifodalab, WWW (World Wide Web) sahifasi hisoblanadi. UHTML (Her Text Marku Language) va JAVA kabi dasturiy tillar yordamida amalga oshirladi va internet hamda intranet tarmog'ida tarqatishga mo'ljallanadi.

SAHNA NUTQI VA UNING ZAMONIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Isfandiyor Xomidov*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti o'qituvchisi*

Pedagogik texnologiya aniq ketma-ketlikdagi jarayon bo'lib, u tinglovchi va pedagogning ehtiyojidan kelib chiqib, bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan, natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Teatr pedagogikasida esa talaba-aktyorning mahorati va sahna nutqini shakllantirishda ham ijodiy, ham amaliy va nazariy chuqur bilimga ega bo'lgan pedagoglar faoliyat yuritishi talab etiladi. Boisi, murakkabligidir. Bugungi kunda yosh avlod nutqi, ifodasi, so'z boyligi, iqtidori, iste'dodi qay darajada? Agar darajasi bugungi kun talablariga javob bera olmasa, uni mustahkamlash va takomillashtirish uchun pedagoglar oldiga qanday vazifalar, yuklar qo'yilishi kerak? Savollari muammolar yechimiga sabab bo'la oladigan uslubiy yo'lni biz pedagoglar topishimiz zarur. Shunday izlanishlar orqali biz teatr pedagogikasi va aynan "Sahna nutqi" ni o'qitishdagi yangi usul, uslublarni o'zlashtiramiz.

2015-yilning 12-17-dekabr kunlari O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutida, Angliyadan tashrif buyurgan teatr san'ati bo'yicha yetakchi mutaxassislar Djon Takker (sahna nutqi), Irina Braun (rejissor) hamda Niam Douling (plastika bo'yicha rejissor) lar institut talabalari va professor o'qituvchilari bilan yaqindan ijodiy hamkorlik doirasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazdilar. Olti kun mobaynida uzluksiz kechgan bu o'quv mashg'ulotlarida, nutq texnikasi va so'z ustida ishlash, mashq qilish, ayrim vaqtlardagina eslanadigan o'tkinchi mashg'ulot emas, har kuni takrorlanadigan, bir umr davom etadigan, vazifa deb qaralishi ta'kidlandi. Ularning ikkinchi tashrifi 2017-yil bo'ldi va o'zbek sahna nutqi pedagogikasiga yangilik bo'lgan metod bilan tanishtirishdi. Bu amaliy metod harakatlanganda, o'tirganda, yurganda, turganda tanamizning har kunlik noto'g'ri odatlaridan halos bo'lishga yordam beradi. Tananing yengilligi, harakatning erkinligi balans va koordinatsiyani boshqarishga yordam beradi.

Ta'limot asosini uchta prinsip tashkil etadi. Bular:

1. Anglash (knowing)
2. Tiyilish (inhibition)
3. Boshqarish (moving) [1]

Ingliz san'at maktabining nutq texnikasi bo'yicha tanlagan va jamlagan mashqlari bilan tanishar ekanmiz, o'zbek sahna nutqi maktabida tavsiya qilinayotgan va ishlanayotgan mashqlari, sahna nutqi texnikasi va so'z ustida ishlash tajribalarimizda, shakllangan va takomillashtirayotgan izlanishlarimizda mushtaraklik, o'xshashlik tomonlarimiz borligi, nafas, ovoz, talaffuz, so'z ustida ishlash uslublari tajribalarimizdagi yaqinlik, qiziqish va ishonchimizni mustahkamladi.

Janob Djon Taker har bir talabaning avvalo uning nafas maromi, ovozinin jarangiga to'sqinlik qiluvchi siqqliklar, bo'yin, tomoq, yuz mushaklari, yelka oyoq va qo'l

muskullaridagi siqqliklarni bartaraf etish uchun qator mashqlar tavsiya qilib ularning o'zlashtirilishiga e'tibor qaratdi. O'z o'rnida yosh aktyor va rejissorlarni erkin dadil faol, shiddatli, o'zgaruvchan maromlarda ishlashga yo'naltirdi. "Mening talabalarim,- dedi Djon Taker, olti hafta mobaynida har kuni kechadigan dars mashg'ulotlari paytida, yotgan holda butun nafasni chiqarish asosida siqqliklarni olib tashlab, nafasini yo'naltirish ustida ishlaydilar, undan keyin esa nafas, ovoz talaffuz va so'z ustida ishlash, uch yil mobaynida bakalavriat ta'lim yo'nalishida, bir yil magistratura mutaxassisligi ta'lim jarayonlarida aktyorlik mahorati mashg'ulotlari oldidan muntazam ishlash orqali bunga erishadilar teatrdan esa bu bir umr davom etishi takomillashishi zarur" – dedi.

Darhaqiqat so'z san'ati o'zining ulug'vor yuki, mazmundorligi ta'sirchanligi, qudrati va hikmati bilan mustahkam bo'lishi uchun unga qaratilgan ishonch, mehr, vaqt va harakat hech qachon to'xtamasligi kerak. So'zning hayotbaxsh tarbiyaviy qudrati va hikmatini topishda matnni uqish, uni fikri, tuyg'usiga singdira olish, so'zdan ta'sirlanib, quvvatini his etish, hamda irodasi, qunti saboti, aqliy salohiyati bilan asrash, kundalik hayoti va ijodiga tadbir qila olish, nechog'liq ijodiy qimmatga ega ekanligini yana va yana ko'ngildan o'tkazamiz. Teatr inson ruhini junbushga keltiradigan mo'tabar ijodiy maskan. Bir dunyo maqsad va umidlar bilan teatr olamida yashashga intilmagan, uni hayotning turli ikir-chikir tashvishlariga aralastirib, asosiy buyuk maqsadlardan ayri tutgan aktyorning ahvoli achinarli. Djon Takerning yutug'i tavsiya qilayotgan har bir mashqini noyob xazinaday his qilib, ishonch mehr bilan yondoshishida, har bir talabani fikrlaydigan qobil inson, shaxs sifatida ko'rishida, tavsiya qilayotgan mashqlarida oddiylik va tabiiylikka intilishida, bizni mulohazalarga chorlaydigan fikrlar ularni ham bezovta qilishida ekan.

"Sahna nutqi" bo'yicha yana bir dunyo miqyosidagi pedagog, GITISning "Sahna nutqi" kafedrasida dotsenti Kamishnikova Vera Petrovna Toshkentdagi "Yoshlar teatri" da uch kunlik master-klass olib bordi. Mashg'ulotlardan biz harakatdagi so'z ijrosi ustida ishlash jarayonini o'zbek sahna nutqi maktabiga mosladik. Bunda talabalar tana va ovozni qizitib olgach, stulda o'tirgan holda ham so'zlaydi, ham harakat qiladi. Foydali tomoni aktyor spektakldagi xatti-harakatlarda erkin va ravon, aniq va tiniq so'zlaydi. Bundan tashqari, "Nafas" mashqlari va "Artikulyatsion apparatni massaj qilishning noan'anaviy usullari" texnikasi bilan tanishdik. Bu ham hozirgi kun teatr pedagogikasida sahna nutqi uchun dolzarb mashqlardan biridir. Bajirilish uslubiga kelsak, oddiy qalamni yuz qismimiz, lab, burun, peshona, jag' a'zolariga qo'ygan holda massaj qilishdan iborat. Natija esa aktyorning nutq apparatlari faol holga keladi va ana shunday faollik bilan nutq irod qiladi. Tana esa mutlaqo erkin bo'ladi. Yelkalar, bo'yin va umurtqa yengillik his qiladi. Muntazam ravishda talabalar ushbu mashqlarni olib borish orqali sof, jarangdor nutq va diksiya ega bo'ladi.

Prezidentimiz – "Adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir." [2.] – deganlaridek yangi bosqichga ko'tarilishimiz kerak. Yuqoridagi kabi sahna nutqiga kirib kelayotgan yangi usullar, yondashuvlar fanning istiqboliga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aktyorlik mahoratida Aleksander ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari. Science and education scientific journal. Prospects of development of science and education. 27-aprel. 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan. Xalq so'zi. 2017-yil 4-avgust.

**BO‘LAJAK AKTYORLARNING SAHNAVIY NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA
ALEKSANDER TA’LIMOTI****Isfandiyor Xomidov***O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti o‘qituvchisi*

Bo‘lajak aktyorlarning sahnaviy nutqini rivojlantirishdagi muammolar “Sahna nutqi” pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Sahna nutqi texnikasi nafas, ovoz, artikulyatsiya, diksiya, orfoepiya qoidalari asosida o‘rganiladi. Bu jarayonlarni egallashda ularni bir-biridan ajratmagan holda, yaxlit o‘rganiladi. Boisi, ichki nutq tashqi nutqga o‘tib, biron so‘zga aylanguncha bo‘lgan fiziologik jarayonda insonning barcha a‘zolari ishtirok etadi. Shuning uchun ham nutq ustida ishlash hamisha nozik holatdir. Sahna nutqi pedagogikasida hozirgi kunda nutq ustida ishlashning an’anaviy usullari bilan birgalikda noan’anaviy usullardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda. Ko‘zlangan maqsad bo‘lajak aktyor sahna nutqi texnikasini tezroq va mukammalroq egallashidir. “Sahna nutqi” o‘qitishda ana shunday noan’anaviy usullardan biri yangi uslub sanalgan “Aleksander ta’limoti” dir. Ushbu ta’limot bugungi kunda g‘arb sahna nutqi maktabida keng qo‘llaniladi.

Aleksander texnikasi – bu inson tanasi bilan ishlash metodi. Uning asoschisi avstraliyalik aktyor Frederik Mattias Aleksander. 1869-1955-yillarda yashab o‘tgan. Professional ish faoliyati davomida ovozini yo‘qotgan. Tibbiyot va dori-darmonlar unga yordam bermagach, o‘zini-o‘zi dorilarsiz davolashga uringan. Ovozini qaytarishga va avvalgidek tiklashga qattiq kirishgan Aleksander, ovoz apparatiga ta’sir etayotgan narsa – tana a‘zolarining noqulay, noto‘g‘ri harakati ekanligini sezgach, uyini devorlariga oyna o‘rnatadi va har bir harakatini kuzatadi. Shundagina tushunib yetadiki, tanasining barcha a‘zolari ovoz apparatiga uyg‘un holda ishlab, faqat bosh harakatida notabiiy qaltiroq borligini anglaydi. Demak, tushundiki, bo‘yin paylarini tortib, mushaklarni siqiq holga olib kelgan boshning bu harakati ovoz apparatini buzilishiga sabab bo‘lgan. Muammoni to‘g‘rilashga kirishgan Aleksander bo‘yin paylarini yumshatish, bo‘yin mushaklarini ortiqcha bosimdan halos etish yo‘llarini ishlab chiqdi. Natijada, laringit kasalligidan ham batamom sog‘ayganligini his etadi. Shu usul bilan Aleksander ovozini tiklaydi va o‘zining xatti-harakatdagi nutqini rivojlantirib sahnaga qaytadi. Shaxsiy muammosini hal qilish yo‘lida uzoq yillar izlangan Aleksander, nafaqat aktyorlik kasbiga xos nuqsonlar va yana pedagogika, din, musiqa, san’at, adabiyot, falsafa, siyosat, ishlab chiqarish, ruhshunoslik kabi sohalarga tegishli bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish uslubini yaratdi. Bu uslub tibbiyot nuqtai nazaridan tan olinib, davolash usuli sifatida qo‘llanilishi bilan ta’limot darajasiga ko‘tarildi. [1.]

Sahna nutqi texnikasini egallashda to‘g‘ri nafasni yo‘lga qo‘yish asosiy bosqich hisoblanadi. Aleksander ta’limoti aynan shu jarayonga chuqur yondashadi. Nafas xatolarini topishning eng oson yo‘li chalqancha yotishdir. Lekin birinchi, tik holatda sinagan ma’qul. Kiyimlaringizni yechib, oynaga o‘ting va qo‘llarni tushiring. Chap va o‘ng qo‘lingizni

barmoqlariga e'tibor bering, ular bir xil balandlikdami? Agar yo'q bo'lsa, yelkangizga bir ko'z tashlang. Ularning biri ikkinchisidan pastroq. O'sha pastroq yelkangizning chetidan to yergacha hayolan vertikal chiziq chizing. Albatta, u bel orqali o'tadi. Endi boshqa yelkamizda shunday chiziq chizamiz va guvohi bo'lamizki belimizdan 2,5 sm farq qilishini ko'ramiz. Bu nomutanosiblikni sababini topish maqsadida, ko'krak qafasingizga qarang. Siz uning egriligini sezasiz. Bu albatta nafas olishingizga salbiy ta'sir qiladi va nafas buzilishiga olib kelishi mumkin.

Keling, endi yon ko'rinishdan qaraymiz. Bo'yin belga o'tish joyiga alohida e'tibor qaratish zarur. Hoynahoy, siz "bukrilik" ni topasiz. Tushgan va oldga egilgan bo'yin nafas yo'llariga bosim o'tkazadi.

Endi belning pastki qismini tekshiring. Agar umurtqa egilgan (lordoz) bo'lsa, qorin haddan tashqari oldga chiqqan va odatda ko'krak qafasi oldinga surilgan bo'ladi.

Usti qattiq joyga yuzni tepaga qaratib yoting, tizzalarni yuqoriga yo'naltiring, bosh tagiga tekis yostiq qo'ying. Tirsaklarga e'tibor qarating: tirsakning ichki tomoni ichkariga qaragan bo'lishi kerak. Agar sizning oldyelka va qo'l suyagingiz yuzalikda tekis yotmasa, yelka kamari keskin bo'lib turibdi. Uni bo'yin asosidan boshlab bo'shashtirish kerak.

Nafas belning orqasidan kelishi kerak. Agar siz nafas olganingizda, mavjud mexanizmni ishga solish o'rniga yerni changallab ko'krakning tepa qismini ko'tarsangiz (bu soyabonni ochmoqchi bo'lgandagi holatga o'xshaydi), bu fiziologik hisoblanmaydi.

Ko'krak qafasning yon tomoniga kaftlarni qo'ying. Tasavvur qiling, har ikki tarafingizda jabralar joylashgan. Ularning eng pastki nuqtasida nafas olishni boshlang. Siz qo'lingizdagi bosimni his qilgan holda, qovurg'a tashqi tomondan harakatlanishi lozim. Agar ko'krak qafasi qiyshaygan bo'lsa, unda bir tomoni yanada faol harakat qiladi.

Ko'krak qafasingizning yuqori qismiga kaftlarni qo'ying. Nafas chiqarishni boshlaganingizda ko'krak qafasingizning yuqori qismida kuchlanish bir oz susayadi – ko'krak tushadi. Nafas olishni boshlaganingizda ko'kraklarni ko'tarmang.

Tinch holatda nafas chiqarish, nafas olishdan ikki marta ko'p bo'ladi. Nafas chiqarish so'nggida qorin mushaklari yengil qisilganligini sezasiz. Yana belning orqa qismidan nafas olish uchun qorin mushaklarining tarangligidan xalos bo'lish kerak. Ko'p nafas buzilishlari yuqori ko'krak qafasi va qorin mushaklarini haddan tashqari siqiligi sabab paydo bo'ladi.

Ba'zi odamlar nafas olganda tomog'ini sakratadi va nafas chiqarganda mushaklarni to'liq bo'shashtirmaydi. Bu ko'krakning yuqori qismidagi kuchlanishga sabab bo'ladi va qomat yomonlashuviga olib keladi. Nafas chiqarganda, siqilikni kamaytirish uchun tomoqni bir oz bo'shashtirish va yuqori ko'krakni pasaytirish kerak. [2.]

Doimiy ravishda o'z nutqi ustida ishlagan bo'lajak aktyor kelajakda kasbning professional xususiyatlari sanalgan aniq, ravon, ta'sirchan so'zlash qobiliyatini o'zlashtirishi shubhasiz va bu orqali teatr sahnasida qahramon tilidan gapirib minglab tomoshabinlarning ma'naviy ozuqa olishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aktyorlik mahoratida Aleksander ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari. Science and education scientific journal. Prospects of development of science and education. 27-aprel. 2020-yil.
2. Wilfred Barlow – Alexander Technique. Knopf – November 12,1973.

OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASALARI HAMKORLIGIDA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNI.**Egamberdijev Umidbek Xo'jayevich***Andijon viloyati XTB yetakchi mutaxassisi*

Annotatsiya: *Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri- bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdan oq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Shunday bo'lsa-da jamiyatda xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan bolalarni uchratamiz.*

Kalit so'zlar: *“Oila xaritasi”, fiziologik nuqson, vositachilik, psixologik – ruhiy jihat, ta'limiy – ta'lim, ijtimoiy-pedagogik yordam, Sog'lom avlod.*

Mahallada va ta'lim muassasalarida qolaversa, mehnat jamoalaridagi yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'usi va mamlakatda ro'y berayotgan voqealarga dahldorlik hissini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish tartibi, namunaviy ssenariy va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, jumladan: - davlat bayrog'i, madhiyasi va boshqa davlat ramzlariga hurmat tuyg'usini tarbiyalash bilan bog'liq tadbirlar; - o'quvchilik, talabalik va mehnat jamoalari safiga tantanali ravishda qabul qilish marosimlarini o'tkazish; - umumiy bayramlar, ijtimoiy hayotimizni o'zida aks ettirgan tadbirlarni va boshqalar sog'lom avlodni shakllantirishning ma'naviy poydevorini mustahkamlashning muhim negizi hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, pedagoglar, psixologlar va huquqshunolar hamkorligida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari hamda o'quvchi va talabalarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan sodda, ravon tilda bayon qilingan huquqiy axborotlarni o'z ichiga olgan buklet, qonunlarga sharh, ma'lumotnoma va tarqatma materiallar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bu boradagi hamkorlikni metodik ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom avlodni tarbiyalash va shakllantirishda jamiyatdagi barcha institutlarning yoshlar ta'limi va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mutassadilarining pedagogik, psixologik, tibbiy bilimga ega bo'lishlari davr talabidir. Oilalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordam. Alohida ijtimoiy institut sifatida oila o'zining tarbiya uslubi, tajribasiga ega. Biroq, bugungidek, tezkor davrda ota-onalarning barchasi ham yetarli darajada pedagogik bilimlarga ega emaslar. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim muassasalari tomonidan oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatilishini taqozo etadi. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan oilalarga ko'rsatiladigan yordam uch asosiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni: 1) ta'limiy – ta'lim berish va tarbiyalash; 2) psixologik – ruhiy jihatdan qo'llab quvvatlash, ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish va qayta tiklash; 3) vositachilik – tashkil etish, ta'lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvoridagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zarur axborotlar bilan ta'minlash. Oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatishning dastlabki bosqichida ijtimoiy-pedagog tomonidan “Oila xaritasi”ning

shakllantirilishi jarayon muvaffaqiyatini ta'minlaydi. "Oila xaritasi" shartli ravishda ikki qismga ajratiladi. Ya'ni: 1) asosiy qism – unda oilaning har bir a'zosining tavsifi, tug'ilgan sanasi, oila maqomi, yashash sharoitlari, qo'shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi; 2) ilova – unda oilada bola tarbiyasini tashkil etish jarayonining mohiyati (ota-onalarning bola tarbiyasi uchun ajratayotgan vaqtlari, uning shakllari, bu jarayondagi faoliyatlari, farzandlar shaxsini yorituvchi (masalan: bolaning qiziqishlari, xohish-istaklari, intilishlari, do'stlari, salomatligi holati va boshqalar to'g'risidagi) ma'lumotlar yoritiladi. Ota-onalar tomonidan qo'yilayotgan talablarning aksariyati bolalarning yosh, psixologik va shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq kelmaydi. Natijada talablar garchi ijobiy mazmunga ega bo'lsa-da, o'z natijalarini bermaydi. Aksincha, bolalarda ularga nisbatan jiddiy norozilikni keltirib chiqaradi. Ba'zan o'smir axborot ko'lamining kengligi, tashqi g'oyaviy ta'sirlar tufayli muayyan vaziyatlarda qat'iy qarorlar qabul qilishga qiynaladi. Kuzatishlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar aksariyat holatlarda bolalarning mavjud ehtiyojlariga javob bermayotganligini ko'rsatadi. Ayrim tadbirlar tarbiyaviy tadbirlar rejasining bajarilishi uchungina tashkil etilayotgan bo'lib, o'quvchilarning xohish-istaklari, qiziqishlari hamda hayotiy intilishlarini inobatga olish asosida uyushtirilmaydi. Shuningdek, oilada ham muayyan vaziyatlarda ota-onalarning noto'g'ri yo'l tutishlari, o'z istaklarini bolalarning ehtiyojlaridan ustun qo'yishlari tufayli ichki ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Natijada ular hech qanday tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lmayapti. Mavjud maishiy qulayliklar, texnika taraqqiyotining tezkor rivoji zamonaviy shaxs ehtiyojlari ko'lamining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlar hayotida ommaviy axborot vositalari yetakchi o'rin egallagan bo'lib, endilikda pand-nasihatlar yordamida ularning axborot vositalari ta'siridan xalos etish mumkin emas. Shu bois oilaviy tarbiyani tashkil etish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni ham qaror toptirishga erishish – pedagogik jihatdan eng to'g'ri yo'l sanaladi. Zamonaviy yoshlarda mustaqil rivojlanishiga bo'lgan intilish kuchli. O'zo'zini tarbiyalash ko'p ijtimoiy tarbiyadan ilgari ketishga imkon yaratadi hamda pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yayotgan sub'ektlarga ma'lum vaziyatda qanday yo'l tutish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Natijada tarbiya jarayonining mantiqi buziladi. Talablarning bolalar yoshi, psixologik xususiyatlari hamda shaxsiy imkoniyatlariga mos kelishiga erishish ma'lum pedagogik masalalarning eng maqbul yechimlarini topishga imkon beradi. Ota-onalar bolalarning kundalik faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan ularning ayrim xatti-harakatlarini rag'batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oila, mahalla va ta'lim muassasa hamkorligi Konsepsiyasi. – Toshkent: PTM, 1993.
2. Musulmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. www.ziyouz.com

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ АНТИГЛАУКОМАТОЗНЫХ ОПЕРАЦИЙ ПРИ РАЗЛИЧНЫХ ВИДАХ ГЛАУКОМЫ

Юсупов Азамат Фарходович,

доктор медицинских наук, директор РСНПМЦМГ

Хайдаров Шерозбек Шермаматович,

Республиканский специализированный

научно-практический медицинский центр микрохирургии глаза

Актуальность. Глаукома остается одной из главных причин слепоты и слабовидения в развитых странах и является одной из актуальных проблем офтальмологии. По данным Всемирной организации здравоохранения, число больных глаукомой в мире колеблется от 60,5 до 105 млн. человек, причем в ближайшие 10 лет оно может увеличиться еще на 10 млн. Значительное распространение глаукомы, трудности ранней диагностики и серьезный прогноз служат причиной повышенного внимания к этому заболеванию со стороны ученых и практических врачей. На сегодняшний день существует множество различных методов хирургического лечения глаукомы, распространенными из которых являются глубокая синустрабекулиридэктомия с задней трепанацией склеры и синустрабекулиридэктомия с задней трепанацией склеры. Учитывая вышесказанное, для достижения наиболее эффективного снижения ВГД, а также предупреждения развития слепоты и слабовидения необходимо выявить эффективные методы хирургического лечения глаукомы.

Цель. Провести сравнительный анализ эффективности антиглаукоматозных операций при различных видах глаукомы.

Материал и методы исследования. Материалом исследования явились 54 больных (54 глаза), проходивших лечение в РСНПМЦМГ по поводу глаукомы. Из них мужчин было-28, женщин-26. Всем больным проведены офтальмологические методы исследования: визиометрия, тонометрия по Маклакову, компьютерная периметрия, гониоскопия, офтальмоскопия. Поскольку консервативная гипотензивная терапия не снизила ВГД до целевых значений, всем пациентам проведено хирургическое лечение. Все исследованные больные разделены на 2 группы в зависимости от проведенных антиглаукоматозных операций: Исследования показали следующие клиническо-функциональные показатели в 1 группе острота зрения было в пределах от 0.01 до 0.9 в среднем 0.3 ± 2 , во 2 группе острота зрения было в пределах от 0.01 до 0.8 в среднем 0.3 ± 1 . в 1 группу - 35 больных (35 глаз), которым сделана глубокая синустрабекулиридэктомия с задней трепанацией склеры, во 2 группу вошли 19 больных (19 глаз), которым проведена синустрабекулиридэктомия с задней трепанацией склеры. Среди больных 1 группы выявлена II стадия с открытым углом передней камеры на 9 глазах, закрытым

углом передней камеры – на 5 глазах; III стадия О/У-17, З/У- 4 больных. Во 2 группе больных II стадия с открытым углом диагностирована на 3 глазах, З/У-1, III стадия О/У-13, З/У- 1 больной. Возраст больных варьировал в пределах от 37 до 83 лет, в среднем составил $61,2 \pm 0,3$ года.

Результаты. Анализ данных ВГД в 1 группе больных показал, что параметры колебались в пределах от 16 мм рт.ст до 37 мм рт. ст и в среднем составили 24 мм рт.ст до проведения оперативных вмешательств. Интра и постоперационных осложнений не наблюдалось. При осмотре всех пациентов в первые сутки послеоперационного периода наблюдалась фильтрационная подушка. На двух глазах больных 1 группы (5,7%) отмечалась мелкая передняя камера, у одного пациента 2 группы (5,3%) отмечалась гифема, которая после проведения рассасывающей терапии ликвидирована полностью. Ежемесячное мониторирование ВГД показало следующие параметры: $17,8 \pm 1$ мм рт.ст, у больных первой группы, $17,2 \pm 1$ мм рт.ст у больных второй группы. Таким образом анализ полученных данных показал, что уровень снижения ВГД в первой группе больных отмечался в 1,1 раза (14,5%) больше, чем у пациентов 2 группы.

Вывод. Таким образом, проведенный анализ эффективности антиглаукоматозных операций при различных видах глаукомы показывает более высокую эффективность (в 1,1 раз) при проведении ГСТИЭ с задней трепанацией склеры, по сравнению с СТИЭ, как при закрытых углах, так и при открытых углах передней камеры. При этом, клиничко-функциональные показатели и уровень ВГД сохранялся у пациентов в также отдаленных периодах наблюдения.

ПРЕДИКТОРЫ РАЗВИТИЯ ХРОНИЧЕСКОГО ГНОЙНОГО СРЕДНЕГО ОТИТА У ДЕТЕЙ: ПО ДАННЫМ ДЕТСКОЙ МНОГОПРОФИЛЬНОЙ БОЛЬНИЦЫ ГОРОДА САМАРКАНДА

Хушвакова Нилюфар Журакуловна

Заведующая кафедрой оториноларингологии №1 СамГМИ

Рузикулова Нилюфар Равшановна

Соискатель кафедры оториноларингологии №1 СамГМИ

Махмудова Саодат Курбонбековна

Студентка педиатрического факультета СамГМИ

Введение: Хронический гнойный средний отит (ХГСО) является результатом начального эпизода острого среднего отита и характеризуется постоянным выделением из среднего уха.

Цель: Определить, какие факторы прогнозируют развитие хронического гнойного среднего отита (ХГСО) у детей.

Дизайн: Исследование случай-контроль, с применением одномерного и многомерного логистического регрессионного анализа для определения факторов, независимо предсказывающих ХГСО.

Материалы и методы: Прогностические факторы для ХГСО были определены у (1) 78 детей с ХГСО и 156 контрольной группы в возрасте от 1 до 12 лет и (2) 51 детей, у которых развился ХГСО при наличии тимпаностомической трубки, и 79 детей с тимпаностомической трубкой, у которых не развился ХГСО.

Результаты: Независимыми предикторами ХГСО были перенесенные более 3 инфекций верхних дыхательных путей за последние 6 месяцев ($p=0.01$, ОШ, 8,6 [95% ДИ, 2,5-17,3]); наличие родителей с низким уровнем образования ($p=0.01$, ОШ, 6,9 [95% ДИ, 1,5-12,3]); наличие старших братьев и сестер ($p=0.01$, ОШ, 3,1 [95% ДИ, 1,1-7,6]). Независимыми предикторами ХГСО после установки тимпаностомической трубки были более 3 эпизодов среднего отита за последний год ($p=0.01$, ОШ, 3,2 [95% ДИ, 1,7- 7,2]), посещение детского сада ($p=0.01$, ОШ, 2,6 [95% ДИ, 1,6-6,9]) и наличие старших братьев и сестер ($p=0.01$, ОШ 1,6 [95% ДИ, 0,92-6,5]).

Выводы: Лечение с использованием тимпаностомических трубок является наиболее важным прогностическим фактором для ХГСО у детей. У детей, которым проводится лечение с использованием тимпаностомических трубок по поводу персистирующего выпота в среднем ухе, наиболее важным прогностическим фактором развития ХГСО является наличие в анамнезе повторных эпизодов острого среднего отита. Эта информация должна быть принята во внимание и обсуждена с родителями при рассмотрении следующих вопросов.

Ключевые слова: Исследование-случай контроль, ХГСО, дети, риск.

ФАКТОРЫ РИСКА ХРОНИЧЕСКОГО ГНОЙНОГО СРЕДНЕГО ОТИТА У ДЕТЕЙ: ПО ДАННЫМ ДЕТСКОЙ МНОГОПРОФИЛЬНОЙ БОЛЬНИЦЫ ГОРОДА САМАРКАНДА

Хушвакова Нилюфар Журакуловна

Заведующая кафедрой оториноларингологии №1 СамГМИ

Рузикулова Нилюфар Равшановна

Соискатель кафедры оториноларингологии №1 СамГМИ

Махмудова Саодат Курбонбековна

Студентка педиатрического факультета СамГМИ

Введение: Хронический гнойный средний отит (ХГСО) является результатом начального эпизода острого среднего отита и характеризуется постоянным выделением из среднего уха.

Цель: Установить роль различных факторов риска развития хронического гнойного среднего отита среди детей получивших лечение на базе ЛОР отделения детского многопрофильного медицинского клинического центра и 1-семейной поликлинике города Самарканда.

Методы: Используя дизайн исследования случай-контроль, 78 больных детей с хроническим гнойным средним отитом и 156 сравнительно здоровых детей в контрольной группе были сопоставлены для определения различных общих факторов риска развития заболевания. Мы изучили следующие факторы риска: пол, возраст, социально-экономический статус (СЭС), питание, пассивное курение, храп, постоянная ринорея, положительная бактериальная культура горла, сезонный и аллергический ринит. Был проведен множественный логистический регрессионный анализ путем включения переменных с знанием $p < 0,30$ в би-вариантном анализе.

Результаты: По результатам исследования случай контроль, социально-демографические факторы (пол, возраст, СЭС) среди пациентов основной и контрольной группы были статистически сопоставимыми. Основные факторы риска хронического гнойного среднего отита, выявленные с помощью бивариантного анализа, включали постоянную ринорею, храп и сезонный ринит. При множественном логистическом регрессионном анализе постоянная ринорея ($p < 0.01$, ОШ = 4,8, 95% ДИ 2,74-8,76), храп ($p = 0.01$, ОШ = 3,41, 95% ДИ 1,91-6,01), сезонный ринит ($p = 0.001$, ОШ = 5,8, 95% ДИ = 3,1-10,5) и пассивное курение ($p < 0,19$, ОШ = 1.4, 95% ДИ 0.82 - 2.48) были признаны важными факторами риска хронического гнойного среднего отита. Возраст, пол, СЭС, образование родителей, сезонный или аллергический ринит, неадекватное питание и воздействие бытового дыма не были значимыми факторами риска.

Выводы: Храп, постоянная ринорея, сезонный ринит и пассивное курение являются факторами риска развития хронического гнойного среднего отита. Устранения указанных факторов риска может значительно снизить риск развития

хронического гнойного среднего отита среди детского населения. Лечение увеличенных аденоидов, хронического синусита и основной назальной аллергии необходимые меры для уменьшения проблемы постоянной ринореи. Регулярное посещение школ и лагерей для обследования детей на постоянную ринорею, затрудненное дыхание и средний отит должно стать частью специальной национальной программы здравоохранения по уходу за ушами. Возможный недостаток данного исследования включает так называемую «ошибку отзыва».

Ключевые слова: Хронический гнойный средний отит, факторы риска, случай контроль.

TIL- MILLAT KO'ZGUSI

Qudratova Nasiba Fayzullayevna*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani**80-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasi. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvida tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi.

Turk dunyosining buyuk marifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek : Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur. Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, mashhur bo'lgan A. Navoiy bobomizga tegishli "Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil". Inson qalbining xazinasini til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir. O'zbek tilining so'zlari shu qadar ma'noli, ko'pki bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchasi bir nechta so'zlar orqali ifodalash bo'ladi. Masalan, birgina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor . Bilamizki bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan, Til-millat ko'zgusi, Til-ma'naviyat ko'zgusi, Til-millatning bebaho boyligi va shu kabilardir. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqloq yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. Davlat tili haqidagi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan

besh jildlik. O'zbek tilining izohli lug'ati bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham xar bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. XXI asr o'rtalariga borib, Xitoy tili asosiy til bo'lib qolishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli, albatta.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir. Til—milliy ruhiyatimiz asosi .Ona tilimizga bo'lgan hurmat ajdodlarimizning yo'lining davom ettirilishi, milliy ruhning javhari, harakatlantiruvchi kuch sifatida anglashilishi, tanlanilishi va hayotda o'zini namoyon etishidir.

Alisher Navoiy ham turkiy tilimizni yuksaklarga chiqarib ulug'lagan allomalarimizdan sanaladi.Tilshunoslarning hisoblashiga ko'ra o'z ijodida 26035 ta miqdordagi so'zlardan foydalangan.O'zining kuch- g'ayratini ona tilimizning rivojiga bag'ishlagan."Muhokamat ul- lug'atayn"(Ikki til muhokamasi) 1498-1499 yil yaratilgan.Asarda adib,o'z tili bilan aytganda "nazm gulistonning andalibi nag'masaroyi" sifatida eski o'zbek tilini , uning badiiy uslubini ilmiy- nazariy jihatdan har tomonlama asosladi, turkiy til imkoniyatlarini isbotlab ko'rsata oldi.

"Sab'ati abhor"(Yetti dengiz). Bu asar lug'atshunoslikka oid bo'lib ,mumtoz arab tilining izohli lug'atini tuzishda muvafaqqiyatli tajribalardan hisoblanadi.

Ona tilini asrash va muntazam rivojlantirish o'zbek ziyolilari uchun hamisha eng muhim ma'naviy burch va vazifa bo'lib kelgan.Chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning fidoiyilik va jonkuyarlik bilan yo'g'rilgan ibratli faoliyati bunga yorqin misoldir .Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi muharrirlik qilgan "Oyina" jurnalining nishona sonidayoq "Ikki emas to'rt til lozim ",degan maqola bilan chiqqan edi.Jurnalning keyingi sonlarida ham bu masala ona tili muhofazasi ,yagona adabiy tilga birlashish, xorijiy tillarni puxta o'rganish kabi dolzarb mavzular doirasida muntazam muhokama qilingan.

Jadid bobolarimizdan biri Fitrar ham tilimiz yuksalishida jonbozlik ko'rsatgan.Uning sa'y-harakati bilan Buxoro jumhuriyatida turk(o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilindi.Ammo bu uzoqqa bormadi. Jadid adabiyoti namoyandalari tilimiz rivojiga ko'gina hissa qo'ganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevis, uni ardoqlash, millatni sevis va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf- odati, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. "Til- millat ko'zgusi", deb bejiz aytilmagan.

PYTHON DASTURLASH TILI VA UNING IMKONIYATLARI

Shermanova Gulbahor Joniqulovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani

19-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Informatika fani o'qituvchisi

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohada, shu jumladan axborotkommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy axborotlashgan jamiyatni shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar izchillik bilan va aniq maqsadni ko'zlab amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz ta'lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga qo'llashdan iborat. O'zbekistonda ta'lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro hamjamiyatda ham tan olindi. Masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatda islohotlarning o'tkazilishi natijasida o'quv jarayonining zahira hajmini keskin oshirish bo'yicha yangi talablar qo'yildi. Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda.

Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. Python yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi. Python quyidagi sohalarda ishlatiladi:

- Web dasturlash (serverlar bilan)
- Dasturiy ta'minot
- Matematika
- Tizim skriptlari



Python dasturlash tilini yaratilishi 1980-yil oxiri 1990-yil boshlaridan boshlangan. O'sha paytlarda uncha taniqli bo'lmagan Gollandiyaning CWI instituti xodimi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proektida ishtirok etgan edi. ABC tili Basic tili o'rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyalarini o'rgatish uchun mo'ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o'zining Macintoshida boshqa oddiy

tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba'zi bir g'oyalarini o'zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990-yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, C++, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko'plab xususiyatlarini o'ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni internet orqali tarqata boshladi. Bu paytda o'zining "Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi" veb sahifasi bilan internetda to 1996-yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi. U ham Macintoshni yoqtirardi va bu narsa uni Gvido bilan yaqinlashtirdi. O'sha paytlarda Gvido BBC ning "Monti Paytonning havo sirki" komediyasining muxlisi edi va o'zi yaratgan tilni Monti Payton nomiga Python deb atadi (ilon nomiga emas).

Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas. Ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishsiz ishlay oladi. Interpretatsiya(Интерпретируемый) qilinadigan til.

Kengayishga (Расширяемый) moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xohlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo'ladi. Juda ham ko'p xilma-xil kutubxonalarga ega.

- xml/html fayllar bilan ishlash
- http so'rovlari bilan ishlash
- GUI(grafik interfeys)
- Web ssenariy tuzish
- FTP bilan ishlash
- Rasmlı audio video fayllar bilan ishlash
- Robot texnikada
- Matematik va ilmiy hisoblashlarni programmalash

Pythonni katta proyektlarda ishlatish mumkin. Chunki, uni chegarasi yo`q, imkoniyati yuqori. Shuningdek, u sodda va universalligi bilan programmalash tillari orasida eng yaxshisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дмитрий Мусин. Самоучитель Python. 2015 г
2. К.Ю. Поляков, В.М. Гуровиц. Язык Python в школьном курсе информатики – М.: Издательский дом МЭИ, 2011. – 424.
3. Г.Росsum, Ф.Л.Дж.Дрейк, Д.С.Откидач. Язык программирования Python
6. К.Ю. Поляков, Е.А. Еремин. Информатика, 10 класс.

**YEVROPA MARIFATPARVARLIGI VA ISLOM DINI G'OYALARINING
MA'NAVIY BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDAGI AHAMIYATI****Qarshiyev Shohrux Anvar o'g'li***Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti**Magistratura talabasi*

Yurtimizda barkamol avlod tarbiyasiga qaratilgan e'tibor hamisha ustuvor vazifalardan biri bo'lgan. Buyuk ma'rifatparvar allomalarning ilmiy-ma'naviy asarlari, asriy qadriyatlar esa ushbu ezgu yo'lda xizmat qilmoqda. Milliy va vatanparvarlik ruhida kamolga yetgan kishi Vatan taqdirini o'z taqdiridek ko'rib, uning taraqqiyoti uchun bor kuch-g'ayratini ishga solidi.

Diniy-ma'rifiy sohadagi asosiy vazifalar ham buyuk ajdodlarimizning insoniyat ma'naviyatini yuksaltiruvchi ezgu g'oyalari, islom dinining muqaddas ekani va kishilarni halol-pok, adolatli, go'zal xulq-atvor bilan yashashga da'vat etishi, dunyoni yovuz illatlardan qutqarish, o'zi yashab turgan o'lka rivojiga hissa qo'shishga chorlovdur. Islom dinining asl mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish. Bu yo'lda diniy manbalar, xususan, Qur'on, hadislardagi, mutafakkirlarimiz ijodidagi axloq masalasini o'rganish yoshlarni ezgu g'oyalar asosida tarbiyalash muhim ishlardan. Qur'ondagi "Hujorot" surasi ham islomiy odob-axloqqa oid juda ko'p qonun-qoidalarni qamrab olgan. Birinchi oyatning o'zida Alloh, Payg'ambar, Qur'on va sunnatdan oldin shoshib biron gap yoki xulosa qilmaslikka chorlagan holda, itoatkorlik va mulohazakorlik bilan ish yuritishga undaydi. So'ng Rasululloh (s.a.v.) bilan baland ovozda gaplashmaslik, barcha ishlarni komil tarbiya va xushxulqlik bilan amalga oshirish borasida nasihatlar keltiriladi.

Islom dinida axloqiy kamolot muammolari tor ma'noda yoki bitta millatning manfaatlari bilan bog'liq ravishda talqin etilmaydi. Balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, undagi barcha muammolarni yechishning asosiy, hal etuvchi sharti sifatida talqin qilinadi.

Barkamol shaxsni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi xam bu xaqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilar, xukumdorlari, xisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'zni xurmati bor. Bu jahon xamjamiyati tomonidan qabul qilingan xaqiqatdir. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusida o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin.

Mustaqillikka erishgach ma'rifatparvarlikka, dinga, hususan Islomga xalqimiz ma'naviyatining yuksalishi mezonlaridan biri sifatida qaraldi. Istiqloq yillarida Islom dini va diniy qadriyatlar yo'lida uzoq yillar davomida o'rnatilgan sun'iy to'siqlar, zararli g'ovlar, qilingan tazyuqu ta'kiblar olib tashlandi, fuqarolarning diniy erkinliklariga chek qo'yish, yo'l bermasliklar batamom tugatildi. Diniy tashkilotlar, dindorlarga, diniy qadriyatlarga nisbatan munosabat keskin o'zgardi. Chunki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallari, xaq va xaqiqat, insof va adolat to'g'risidagi

orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustaxkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Xalqimiz ma'naviyatining negizini tashkil etuvchi islom dinidan ham g'arazli kuchlar uni buzub talqin etib foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bunda ular islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini teng qo'yishdan foydalanmoqdalar. Ular islom dinini niqob qilib olib, manfur ishlarini amalga oshirayotgan mutasib kuchlar hali ongi shakillanib ulguragan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh ko'zini aylantirib, ulardan o'zini nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning shaniga dog' bo'lib tushadi, ohir – oqibat ma'naviy hayotimizga salbiy tasir ko'rsatadi. Bo'shliqdan foydalanib, chetdan ma'naviyatimiz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarinio'zichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi xam ma'naviyatga qilinayotgan taxdidning yo'nalishi ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish kerak bo'lsa, shuning xisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning (jumladan o'zbek xalqining) necha ming yillik anana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik. ularni qo'porishga qaratilgan xatarli taxdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Dunyoviy va diniy mafkuralar munosabatini o'zaro uyg'unlashtirishda mafkuraviy tarbiya alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, g'arazli manfaatlarni ko'zlagan ayrim kuchlar dindan niqob sifatida foydalanib, yoshlarni o'z domiga tortishga intiladi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda, globallashuv sharoitida ayrim yoshlar ongiga bu holat salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu boisdan ham, haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-xodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqloq yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi. Hozirda mamlakatimizda olib borilayotgan uchinchi renessans aslida kelajak uchun olib borilmoqda. O'z kelajagini ta'minlashga intilgan, har qanday davlat va millat, eng avvalo, yoshlarga nisbatan to'g'ri siyosat olib borishi lozim. Yosh avlod kamoloti uning ma'naviyati va diyonati bilan ham bog'lanmoqda. Bu esa yoshlarni o'zini-o'zi yuksaltirish, iqtidorini namoyon qilish, mamlakat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shishga undamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraimova M. Demokratiya: diniy bag'rikenglik va milliy o'zlikni anglash. – Toshkent: ToshDAU, 2009. -30 b.
2. Abduraxmonova Z. Milliy birlik tuyg'usining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. T.: Falsafa va huquq instituti, 2010.-B.-16.

QISQA NAVBATLAB EKISH DALALARIDA O‘SIMLIKLARNI TUPROQDA QOLDIRGAN ILDIZ VA ANG‘IZ QOLDIQLARI MIQDORI

Usmanova Nilufar Avaz qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qisqa navbatlab ekish dalalarida o‘simliklarni tuproqda qoldirgan ildiz va ang‘iz qoldiqlari miqdori hamda ko‘rsatkichlari misollar bilan yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qisqa navbatlab ekish, o‘simliklar ildiz qoldiqlari, ang‘iz qoldiqlari, kuzgi bug‘doy, tuproqdagi gumus.*

Respublikamiz tuproqlari unumdorligini saqlash va oshirish faqat ekinlarni almashlab ekish orqaligina amalga oshirilishi hammaga ma‘lum. Bizga ma‘lumki, o‘simliklar qoldig‘i bu organik modda, organik modda esa tuproq unumdorligini asosiy ko‘rsatkichi hisoblangan gumusni tashkil etadi. Demak, tuproqdagi gumus miqdorini qanchalik bo‘lishi o‘simliklarni organik qoldig‘iga bog‘liq ekan, amalda joriy etilayotgan g‘o‘za-g‘alla qisqa navbatlab ekish tizimlariga tuproqda ko‘proq organik qismlarini qoldiradigan takroriy va oraliq ekinlarni ekish talab etiladi.

Bulardan kelib chiqqan holda, tajribaning navbatlab ekish tizimlarida ekilgan kuzgi bug‘doy, soya hamda oraliq ekinlar (suli+ko‘k no‘xat+javdar) tomonidan tuproqda qoldirgan ang‘iz va ildiz qoldiqlari miqdori hisoblandi. Ma‘lumotlar 3.1.5.1,3.1.5.2-jadvallarda keltirilgan.

Kuzgi bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida ekilgan soya o‘rtacha 1,42-1,45 t/ga miqdorda ang‘iz va ildiz qoldiqlari qoldirgani kuzatildi.

Tuproqda nisbatan ko‘proq miqdorda organik qoldiqlar qoldirgan ekinlar oraliq ekinlar bo‘lganligini ta‘kidlash joizdir. Oraliq ekinlar ikki komponentli (suli+ko‘k no‘xat) qilib ekilganda (4-variant) ang‘iz va ildiz qoldiqlari miqdori 4,39 t/ga.ni tashkil etgani kuzatildi.

Tajribada oraliq ekinlarni ikki komponentli uch komponentli (suli+ko‘k no‘xat+javdar) holida ekilishi tegishli ravishda 4,68; 5,64; 5,57 t/ga miqdorida organik qoldiqlari tuproqda qolishini ta‘minladi. Umuman olganda, ekinlarning ang‘iz va ildiz qoldiqlarining miqdori bir rotatsiyasi davomida kuzgi bug‘doy va takroriy ekin-soya ekilgan variantlardan jami 4,63 t/ga, ni tashkil etdi.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan xulosa qilish mumkinki, g‘o‘za-g‘alla qisqa navbatlab ekish tizimlariga qanchalik ko‘p miqdorda kuzgi bug‘doydan keyin takroriy dukkakli-don va g‘o‘zadan keyin kuzda oraliq ekinlar joylashtirilsa, shunchalik ko‘p miqdorda o‘simlik tomonidan organik (ang‘iz va ildiz) qoldiqlar qoladi. Bu esa o‘z navbatida tuproqda gumusni hosil bo‘lishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, nitrafikatsiya jarayonlarini yuqori sur‘atlarda o‘tishiga, tuproqda boshqa ijobiy mikrobiologik jarayonlarni maqbullashuviga, pirovardida esa tuproqning unumdorligini saqlash va oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan hisoblanadi.

1-jadval

Qisqa navbatlab ekish tizimlarida kuzgi bug‘doy, takroriy ekin soya va oraliq ekinlarning tuproqda qoldirgan ildiz va ang‘iz qoldiqlari miqdori

№	Tajriba variantlari	Soya, t/ga			Oraliq ekinlar (suli, javdar, ko‘k no‘xat), t/ga			Jami ang‘iz va ildiz qoldiqlari, t/ga
		Ang‘iz	Ildiz	Jami	Ang‘iz	Ildiz	Jami	
1	g‘o‘za (nazorat)	-	-	-	-	-	-	-
2	1:1	0,24	1,18	1,42	-	-	-	4,93
3		0,22	1,24	1,46	-	-	-	4,96
4		0,25	1,20	1,45	1,25	3,14	4,39	9,45

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdukarimov D. Tuproqqa asosiy ishlov berish texnologiyalari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi -Toshkent, 2000. № 2. B. 36-37.
2. Azimov.B.J. G'alladan keyin kartoshka yetishtirish texnologiyasi. //ToshDAU ilmiy asarlar to'plami. –Toshkent, 1996. –B. 220-222.
3. Aliyev E.I. Корневые и пожнивные остатки культур как источник органических удобрений. // Vestnik s-x.nauk. -Moskva, -1964.-№4. -S.12.
4. Andreev N.G. «Кормопроизводство с основами земледелия». -М., Agropromizdat, 1996 . -S. 345-346.
5. Antonov S.I. Soya univyersalnaya kultura // Земледелие –Moskva, 2000. - №21. -S. 45.
6. Astanov R.A. Использование подзимных промежуточных культур в качестве сидератов на зараженных вилтом лугово болотных почвах Ташкентской области. Avtoref. dis... kand. s/x nauk. -Tashkent, 1980. -17 s.
7. Babich A.A Соя на Украине. // Vestnik.s/x. nauk. -Moskva 1978. -№ 7. - S. 121.

O'QUVCHILAR TA'LIM TARBIYASI JARAYONIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLANING O'RNI VA AHAMIYATI

Ibragimova Dilnoza Rashid qizi

Oila, maktab, mahalla bu muhit har bir inson hayotidagi eng bebaho maskanlardir. Hech bir insonning hayotini bu maskanlarsiz tassavur etib bo'lmaganidek, bu so'zlarni bir birisiz tassavur etish qiyin. Zero inson hayotidagi har qanday jarayon dastlab oiladan boshlanib maktab, mahalla bilan bog'lanadi. Dast avval oilaning o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati haqida gapirsak. Demak xalqimizda juda ko'p maqollar bor. Farzand – oila ko'zgusi. Qush inida ko'rganini qiladi. Bu maqollar be'jiz emas. Ba'zi oilalar borki, bu oilalarni oila deyish ham ba'zida erish tuyiladi. O'ziga to'q, qiyinchilik, mehnat nimaligini ko'rmay o'sgan, ba'zi yosh oilalar hayot, oila nima kanligini to'liq anglamasdan oila qurishadi, natijada esa hech qancha vaqt o'tmay ajralishadi va albatta bir farzand yetim qoladi. Bunday yo otasiz, yo onasiz qolgan bolalarning esa, ruhiyatida ancha zaiflik, katta bo'lgan sari insonlarga atrof-muhitga mehirsiz, toshbag'ir insonlar bo'lib ulg'ayishadi. Buning yagona sababi esa o'z vaqtida berilmagan mehrdir. Yana shunday oilalar borki bunday oilalarda ota ham, ona ham, hayot bir uyda yashashadi, lekin bir oila emas, ota ham, ona ham, pul topish, dang'ilama uchastkalar, qo'sha-qo'sha moshinalar chet ellarga sayohat qilish haqida o'ylashadi. Farzandimga eng qimmat kiyimlaru-so'ngi rusumdagi telefon, moshina oilb bersam hursand bo'ladi deb o'ylashadi. Mehr berish, farzandining orzu umidlari, qiziqishlari haqida suhbatlashishni unutib qo'yishadi. Bunday oilada o'sgan har qanday bola ham oiladan topa olmagan mehrini ko'chadan qidirishga, o'ziga do'st, sirdosh topishga intiladi va oxir oqibat qandaydir diniy oqimlarga, ko'cha bezorilarga qo'shilib o'z kelajagini barbod qiladi.

Shunday ekan bugungi globallashuv jarayonida ayniqsa axborot hujumi, texnologiya asrida hech qaysi ota onaning farzandi ta'lim tarbiya jarayoniga befarq bo'lishga haqi yo'q.

Shuningdek, davlatimiz tomondan yaratilgan keng imkoniyatlarga shart sharoitlarga javoban, har qaysi ota-ona yaxshi, komil farzand tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilmog'i, har qanday ota-ona avval o'zini tarbiyalashi va o'zi namuna bo'lishi kerak. Shuningdek o'rnak qilib ko'rsatsak arzigulik ota-onalar ham yo'q emas. Shunday ota onalar borki, ular farzandini tarbiyalash uchun ko'p vaqt sarflashmaydi, aksicha ular o'zlarini tarbiyalashga ulgurushgan farzandlari esa ularga o'xshash uchun intilishadi. O'sib kelayotgan yosh avlod oiladan keyin ta'lim dargohiga borgungacha albata xohlaymizmi yo'qmi mahalla bilan muloqotga kirishadi. Dastlab qo'shnilar bilan muloqotga kirishadi. So'ngra mahallaning boshqa vakillari bilan muloqotga kirishadi. Bu jarayonda farzandlarimiz albata yaxshi, namunali insonlar bilan muloqotda bo'lishlari, yo'l yo'lkay biron bir maqsadlarga erishgan, namuna bo'la oladigan, dunyoqarashi keng insonlar bilan muloqotga kirishish natijasida dunyoqarashi, fikrlashi yaxshi tomonga o'zgaradi. Va o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yadi. ``Tarbiya bizlar uchu yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir. Abdulla Avloniy.

Darhaqiqat, jadidchilar maktabi asoschisi Abdula Avloniy ham bejizga bu sozlarni me'ros qoldirmagan. Agar biz o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga befarq bo'lsak, yosh avlodni ma'nadan, jismonan komil inson qilib tarbiyalashga befarq bo'lsak bu kelajakda vatanimizni halokatga olib boradi. Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch" asarida takidlagan sozlariga e'tibor bersak Mafkuraviy poligon -yadroviy poligonlardan kuchli. Bu gaplar zamirida juda chuqur ma'no yotadi. Barchamizga ma'lum bugungi axborot texnologiyalari rivojlaayotgan asrda internetdagi axborot hujumlaridan farzandlarimizni shunchaki cheklash orqali asrash mumkin emas yoki qandaydir cheklovlar telefon, planshet, kompyuterdan foydalanishni taqiqlash orqal hech narsaga erishmaymiz. Aksincha, biz yoshlarimizga eng avval o'z mintalitetimizga mos odob axloq, urf-odatlarimizni o'rgatsak va internedan samarali foydalanishni, har daqiqa vaqtimiz g'animat ekaligini o'rgatsak, shundagina farzandlarimiz turli xil oqim va guruhlarga qo'shilib jamiyatni halokatga olib bormaydi. Ta'lim dargohi bo'lgan muqadas maktabga ilk qadam qo'yar ekan har bir o'quvchi o'zgacha hayajon, orzu- umidlar bilan keladi Beg'ubor qalb egalarining fikricha "ustoz" bu eng buyuk, hamma narsani biladigan, mehribon, aqlli, bir so'z bilan aytganda ideal inson hisoblanadi. O'quvchi ko'p savolar bergisi, ustoz bilan ko'proq muloqotda bo'lgisi keladi. Uning shirin so'zlarini eshitgisi keladi. Bu vaqtda esa bolaga also qatitq gapirmaslik kerak aksincha sabir bilan har bir savoliga javob berishi, uni tushunishga harakat qilishi kerak. Zero xalqimizda bir naql bor "Shirin so'z bilan ilon inidan chiqar, achchiq so'z bilan pichoq qinidan chiqar".

Xulosa qilib aytganda o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiya jarayonida oila, maktab, mahallaning o'rnini va ahamiyatini tabiyatning bir jarayoniga qiyoslasak bo'ladi. Mevali kichkina niholni ko'z oldimizga keltiraylik. Niholning o'sib unib, meva berishi uchun uch narsa juda muhim va bu uch narsa birga bo'lmasa mevali daraxtga aylanmaydi, meva bermaydi. Bular eng avvalo yer, suv va quyosh. Demak, kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlod ta'lim tarbiyasida ham uch omil bor bularni bir biridan ayro tasavvur etish qiyin. Bular oila, maktab va mahalla. Shuningdek mahalla bu- jamiyatning bir bo'gini. Vatan bu bizning quyoshimiz. Yer, niholga mehr bergandek, har bir oila o'z farzandiga mehr e'tibor bersa, maktab, maktabdagi ustozlar kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodga, suv ko'chatning chanqog'ini bosgandek, bor bilim salohiyatini sarflasa, umid qilamizki kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlod o'z bilimlari, intilishlari, kashfiyotlari orqali Jannatmakon go'zal O'zbekistonimizni dovrug'ini butun dunyoga tanitishadi degan umitdaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqar Zunnunov. Pedagogika nazariyasi. -T.: «Aloqachi», 2006.
2. Berdiyev G. O'quvchilarda shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. // Xalq ta'limi, № 6. 1998
3. Bobomurodov Ahmad. Islom odobi va madaniyati. -T.: «CHO'lpon», 1995.

INFLATSIYA VA PUL-KREDIT SIYOSATINING MOHIYATI

Olimov Hikmatillo Sodiqjon o'g'li*Andijon mashinasozlik instituti Menejment yo'nalishi**2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inflatsiya, uning mazmuni, mohiyati, turlari, iqtisodiyotga ta'siri, pul-kredit siyosati, uning mazmun-mohiyati haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *inflatsiya, giper inflatsiya, talab inflatsiyasi, taklif inflatsiyasi, pul-kredit siyosati.*

Inflatsiya - lotincha “inflatio” so'zidan olingan bo'lib, “shishish”, “bo'rtish”, “ko'tarilish” degan ma'nolarni anglatib, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi (o'sishi) tushuniladi. Narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi (milliy valyuta) xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.

Pulning qadrsizlanishi deganda, bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq bo'lgan tovar va xizmatlarni sotib olish, ya'ni sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi. Misol uchun, yilning boshida 100 ming so'mga sotib olish mumkin bo'lgan kundalik iste'moldagi tovar va xizmatlarning miqdori yilning oxiriga kelib kamayadi. Bu esa 100 ming so'mga yilning oxirida yilning boshidagiga nisbatan xuddi o'sha tovar va xizmatlarni kamroq miqdorda sotib olish demakdir. Inflatsiyaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib iste'mol narxlari indeksining ma'lum bir davrdagi o'zgarishi hisoblanadi.

Iste'mol narxlari indeksi – uy-xo'jaliklari talabidan kelib chiqib, ma'lum bir tovar va xizmatlar umumiy narxlarining o'rtacha o'zgarish darajasini aks ettiradi. Ushbu umumiy ko'rsatkich iste'mol savatidagi har bir tovar va xizmat uchun narxlarning o'zgarishini inobatga olgan holda hisoblanadi.

Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflatsiya turli darajalarda bo'ladi:

1. Sudraluvchi (mo'tadil) inflyatsiya - Uzoq vaqt davomida barqaror va past darajada bo'lgan inflyatsiya (zamonaviy iqtisodiyot uchun yiliga 1-4% normal hisoblanadi).
2. Shiddatli (galloping) inflyatsiya - Inflyatsiyani yillik darajasi 10% dan oshib, har oyda o'sib boradi.
3. Giperinflyatsiya - Mamlakatda o'rtacha narx-navoning haddan tashqari oshgandagi holati bo'lib, oyiga 50%, yiliga esa 50 baravardan ham ko'proq oshishi mumkin.

Uzoq vaqt mobaynida tovar va xizmatlar narxlari barqaror bo'lgan, rivojlangan mamlakatlarda inflatsiyaning o'rta muddatli ko'rsatkichi 2 foiz atrofida, ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlar uchun esa nisbatan yuqoriroq, taxminan 2-6 foiz atrofida bo'lishi maqbul deb topilgan. Bugungi kunda har

qanday darajadagi inflatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflatsiya kelgusida yuqori inflatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflatsiya ijobiy hisoblanadi.

Inflatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin:

1. Talab inflatsiyasi - Inflatsiyaning bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxlari o'sadi.

2. Taklif inflatsiyasi - Inflatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi.

"Pul-kredit siyosati" atamasi, odatda, Markaziy bankning faoliyati yoki Markaziy bankga mos keladigan vazifalarni bajaradigan boshqa struktura nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Jumladan:

1. moliya tizimi, kredit bozori faoliyati sub'ektlari faoliyatini tartibga solish;
2. Tijorat banklarini litsenziyalash;
3. Inflatsiya boshqaruvi;
4. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish;
5. Davlat byudjeti mablag'larini boshqarish bo'yicha yordam.
6. Ko'rib chiqilayotgan kontseptsiyaning yana bir nomi "pul siyosati" dir.

Markaziy bank va unga o'xshash tuzilmalar faoliyatida muayyan maqsadlar mavjud. Ular nima bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqaylik.

7. Pul-kredit siyosatining asosiy vazifalari, umuman, yuqorida qayd etgan CBR funktsiyalariga mos keladi. Quyidagi maqsadlar haqida:

8. Ortiqcha inflatsiyani cheklash;
9. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash;
10. Asosiy iqtisodiy tarmoqlarni kapitalizatsiya qilishni boshqarish;
11. Milliy iqtisodiyot to'lovlarining optimal balansini ta'minlash.

Ushbu maqsadlar ko'pgina davlatlarning markaziy banklari, shu jumladan, Rossiya Banki tomonidan belgilanadi. Mamlakatning moliyaviy organlarining bunday yo'nalishini pul siyosati sifatida tasniflashda asosiy yondashuvlarni ko'rib chiqish foydali bo'ladi. Maqsadlar, biz ko'rib chiqqan ro'yxatga muvofiq, bu holatda bir xil bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild.-Toshkent, 2000.
2. Internet manbalari: www.ziyonet.uz
3. www.arxiv.uz

OPTIKANING PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISHI

Safayev Ibrohim Ulug'bek o'g'li*Evropean Medical University Tabiiy fanlar
kafedrası assistenti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada optikaning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi, yorug'lik va uning nazariyasi, optikaning turlari hamda ularning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *optika, yorug'lik, tabiat, yorug'lik hodisalari, zarra, yorug'lik to'lqin nazariyasi, yorug'lik interferensiyasi, yorug'lik bosimi, yorug'likning elektromagnit nazariyasi, yorug'likning yutilishi, yorug'likning sochilishi.*

Optika fizikaning yorug'likning tabiatini, yorug'lik hodisalari qonuniyatlarini, yorug'lik bilan moddalarning o'zaro ta'sirini o'rganadigan bo'limi. Yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishi qadimda Mesopotamiya va qadimgi Misrda ma'lum bo'lgan hamda undan qurilish ishlarida foydalanishgan. Tasvirning ko'zguda hosil bo'lishi bilan miloddan avvalgi III asrda Aristotel, Platon, Yevklidlar shug'ullanishgan. Optikaning rivojlanishi I.Nyuton, R.Guk, F.Grimaldi, X.Gyuygens va boshqalarning ishlari bilan bog'liq. XI asrda arab olimi Ibn al-Xaysam optika to'g'risida risola yozgan bo'lsada, yorug'likning sinishi qonunini ifodalay olmagan. Faqat 1620-yillarda bu qonunni tajriba yo'li bilan golland olimi V.Snellius va R.Dekart isbotladi. XVII asrdan yorug'lik haqida korpuskulyar va to'lqin nazariyalar paydo bo'la boshladi. Yorug'lik korpuskulyar (zarra) nazariyasining targ'ibotchisi X.Gyuygens edi. Yorug'likning to'lqin tabiati haqidagi tasavvurlar M.Lomonosov va L.Eyler tomonidan rivojlantirildi. XIX asr boshlarida ingliz olimi T.Yung va O.Frenel ishlari yorug'lik to'lqin nazariyasining uzil-kesil g'alabasiga olib keldi. O.Frenel kristallooptika hodisalariga to'lqin nazariyasini qo'lladi. T.Yung yorug'lik interferensiyasi hodisasini kuzatdi. Bu hodisa yorug'lik to'lqin tabiatiga ega ekanligini ko'rsatdi. O.Frenel yorug'lik interferensiyasi asosida yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishini, turli difraksiya xrdisalarini va boshqalarni tushuntirdi. Yorug'likning sinishi va qaytishida yorug'likning qutblanishini fransuz olimi E.Malyus kuzatdi va fanga "yorug'likning qutblanishi" terminini kiritdi. M.Faradey yorug'lik qutblanish tekisligining magnit maydonda burilishini kashf qildi va elektromagnetizm bilan optika orasidagi bog'lanishni, tok kuchi elektromagnit birligining elektrostatik birligiga nisbati yorug'lik tezligiga tengligini ($3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$) topdi. J.K.Maksvell elektromagnit maydon tushunchasini rivojlantirdi, yorug'lik ham elektromagnit to'lqindan iborat, degan nazariyani yaratdi. U yorug'likning elektromagnit nazariyasiga asoslanib, yorug'likning hatto bosimi bo'lishini aytdi va uning son miqdorini nazariy aniqladi. Uning nazariy tekshirishlari elektromagnit maydonning yorug'lik tezligiga teng tezlik bilan tarqalishini ko'rsatdi. Italyan olimi A.Bartoli esa 1876 yilda yorug'lik bosimining termodinamik asosini yaratdi. 1899 yilda P.N.Lebedev birinchi bo'lib tajriba yo'li bilan yorug'lik bosimini aniqladi. 1888 yilda

G.Gers vakuumda tarqalayotgan elektromagnit maydonning tezligi yorug'lik tezligiga teng ekanligini aniqladi va J.Maksvell nazariyasini tajriba yo'li bilan tasdiqladi. Yorug'likning moddalar bilan ta'sirlashuvini XIX asr 90-yillarida juda ko'p olimlar, jumladan, nemis olimi E.Drude, G.Gelmgols va G.A.Lorents tekshirdilar. Lorents modda va yorug'likning elektromagnit nazariyasini yaratdi. Shu nazariya asosida optikadagi qator hodisalarni, mas, yorug'likning dispersiya hodisasi, dielektrik singdiruvchanlik yening elektromagnit to'lqin uzunligi X ga bog'liq bo'lishi va uni tekshirish va tushuntirish mumkin bo'ldi.

Klassik elektron nazariya ayrim optik hodisalarni tushuntirib bera olmadi va nazariya natijalari tajriba natijalariga, mas, mutlaq qora jismning issiklik nurlanishi spektrida energiya taqsimoti va boshqalarga mos kelmay qoldi. Bunday qiyinchilikni bartaraf qilish uchun M.Plank yorug'likning kvant nazariyasini yaratdi (1900). Optikaning keyingi rivojlanishi kvant mexanika nazariyalari bilan bog'liq. Fotoeffekt hodisasi uchun Plank nazariyasini A.Eynshteyn rivojlantirib, yorug'lik kvanti-foton tushunchasini fanga kiritdi. Yorug'likning elektromagnit nazariyasi nisbiylik nazariyasining yaratilishiga mos bo'ldi.

Optika shartli ravishda geometrik optika va to'lqin optikasiga, fiziologik optika, nochiziqli optika va boshqa xillarga bo'linadi. Geometrik optikada yorug'likning qaytishi va sinishi qonunlari asosida, ya'ni ikki muhit chegarasida yorug'likning sinishi va qaytishi natijasida ob'yektlarning tasviri hosil bo'lishini tushuntirish mumkin. Unda fotometriya, yorug'lik oqimi, yorug'lik kuchi, yoritilganlik va yorug'likni miqsoriy ifodalovchi boshqa kattaliklar qaraladi. Geometrik optika fotometriya bilan birga optika texnikasi, ya'ni optik asboblarning nazariyasi va ratsional yoritish, yorug'lik dastasini taqsimlash va yo'naltirish ta'limotining ilmiy asoslari bilan ham shug'ullanadi. To'lqin optikasida interferensiya, difraksiya va yorug'likning qutblanishi kabi yorutlik tabiati bilan bog'liq bo'lgan hodisalar o'rganiladi. Bu hodisalar nazariyalarining rivojlanishi yorug'lik tabiatini to'la ochib berish bilan birga, yorug'likning qaytishi va sinishi qonunlarini ham tushuntirib bera oldi. Yorug'likning modda bilan ta'siri tufayli har xil effektlar-mexanik (yorug'lik bosimi, Kompton effekti), xususiy optik (yorug'likning sochilishi, fotolyuminessensiya), elektr (fotoelektr hodisa), kimyoviy (foto-kimyo va fotografiya effektlari), shuningdek, yorug'likning yutilishi va sochilishi, issiklik nurlanishi va boshqa kuzatiladi.

Yorug'likning yutilishi va sochilishi rang haqidagi ta'limot asosini tashkil qilib, rassomlik san'atida keng ishlatiladi. Mas, tiniq bo'lmagan muhitda yorug'likning sochilishi fotolyuminessensiya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Lyuminessensiya hodisasi hozirgi zamon gaz razryad va lyuminessensiya yorug'lik manbalarini yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bu yorug'lik manbalari elektr energiyani ancha tejaydi. Ulardan lyuminissensiyalanuvchi ekranlar tayyorlashda foydalaniladi. Bu ekranlar rentgenologiya, televideniye, o'lchov asboblari va harbiy texnikada ishlatiladi. Fotoelektr hodisaga asosan o'lchov asboblari, har xil yorug'lik relelari ixtiro qilindi. Optika texnikasi va mashinasozlikda metall yoki ob'yektni nazorat qilish yorug'lik interferensiyasi hodisasiga asoslangan. Yorug'lik difraksiyasi hodisasi arxitektura akustikasida ultraakustik to'lqinlarni optik qayd qilishga imkon beradi. Rentgen nurlarining molekulalar, ayniqsa, kristallardagi difraksiyasi moddalar strukturasi tahlil qilishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Born M., Volf E., Osnovi optiki. –M.,1973.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. –Toshkent, 2000.
3. Internet manbalari: www.arxiv.uz
4. www.referat.uz
5. www.ziyonet.uz

УДК. 633.11-631.52

**ЮМШОҚ БУҒДОЙ ТИЗМАЛАРИДА ҲОСИЛДОРЛИКНИНГ БИОМЕТРИК
КЎРСАТКИЧЛАРГА БОҒЛИҚЛИГИ****Д.Т. Жўраев***Жанубий Деҳқончилик илмий тадқиқот институти
қ/х.ф.ф.д. ...***С.Т.Жўраев***Тошкент давлат аграр университети доценти, қ.х.ф.н., ...***Н.А.Якубжонова***Тошкент давлат аграр университети ассистенти,*

Ўзбекистон ҳукумати томонидан аҳолини дон ва дон маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини тўла қондириш, дон мустақиллигини янада мустаҳкамлаш борасида комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқилган. Чора-тадбирлар негизида мамлакатнинг ўзгарувчан ва мураккаб тупроқ-иқлим шароитида маҳаллий шароитларда мос, серҳосил, дон сифати юқори, касаллик ва зараркунандаларга чидамли бошоқли дон экинлари навларини яратиш, уруғчилигини ривожлантириш, турли тупроқ-иқлим шароитида бошоқли дон экинларидан юқори ва сифатли дон ҳосили олиш агротехикасини ишлаб чиқиш ҳамда ишлаб чиқаришга жорий этиш каби бир қатор вазифалар белгилаб берилган.

Сўнгги беш йилликда қишлоқ хўжалиги диверсификацияси, озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш ва экологик тоза маҳсулот ишлаб чиқаришни кенгайтирилиши Ўзбекистоннинг ҳозирги кундаги модернизациялаш стратегиясининг ёрқин хусусиятларидан бирини ифодалайди. Мустақилликнинг илк йиллариданок, ғаллачиликни ривожлантириш борасида қатор ислохотлар амалга оширилди. Бугунги кунда дон ҳосилдорлик 70-80 ц/га ташкил этади. Республикада 2020 йилда 6 миллион 400 минг тоннадан ортиқ ғалла етиштирилди. Дон ҳосилдорлиги йилдан йилга ошиб бориши, яратилаётган навларнинг минтақа тупроқ-иқлим шароитларига мослиги, касаллик ва зараркунандаларга, ташқи муҳит омилларига бардошли эканлигидадир.

Яратилаётган янги нав, ҳудудда экилиб келинаётган навлардан юқори ҳосилдор бўлиши асосий селекциянинг мақсадларидан бири бўлиб, навларнинг биометрик кўрсаткичлар юқори ҳосилли ўсимликларни танлаб олиш имкониятини беради ва уни баҳолаш буғдой навлари учун энг долзарб ишлардан ҳисобланади. Ўрганилган нав ва дурагайларнинг ўсимлик бўйи, охирги бўғин узунлиги, бошоқ узунлиги, бошоқчалар сони каби биометрик кўрсаткичлари устида ўлчов ишлари олиб бориш муҳим.

Тадқиқот натижаларига кўра ўрганилаётган нав ва тизмаларнинг бўйи 91-113 см ораликда бўлганлиги қайд қилинди. Ўсимлик бўйи 90 см ва ундан паст бўлган калта пояли нав ва тизмалар аниқланмади. Ўсимлик бўйи 91-110 см бўлган нав ва тизмалар

сони 29 та ни ташкил этганлиги аниқланди. Ўсимликларнинг ўртача бўйи 113 см бўлган 1 та, KR17-SAL тизмасида қайт этилди.

Тадқиқот натижаларига кўра, нав ва тизмаларнинг бошоқ узунликлари 8,7-11,7 см бўлганлиги қайд этилди. Бошоқ узунлиги андоза Кеш-2016 ва Шукрона навларида 10,0 см бўлганлиги ҳамда андоза навлардан 8 та юқори нав ва тизмалар борлиги ўлчов натижаларига кўра аниқланди.

Бошоқдаги бошоқчалар сони кўрсаткичи аниқланганда 14,7-20,7 та бўлганлиги аниқланди. Нав ва тизмалар орасидан юқори бошоқчалар сонини ҳосил қилган АС-2008-Д-4 ва АС-2006-Д-20 тизмалари 20,7 см ни ташкил этганлиги аниқланди.

Буғдой ўсимлиги маҳсулдорлиги селекцияда муҳим аҳамият касб этади. Маҳсулдорлик ҳосилдорликни белгилашда энг муҳим белги хусусиятларни ўзида мужассам қилган ва улар бир-бири билан узвий боғлиқдир. Маълум бир унсурлар навдорлик хусусиятига мутаносиб равишда ирсиятга боғлиқ ва унчалик катта бўлмаган ўзгаришлар орқали ўзгариши мумкин (бошоқ узунлиги, бошоқдаги дон сони) ва ташқи шароит омиллари ва йиллар мобайнида, ўсимликнинг ривожланиш шароитига қараб яққол кўзга ташланиши ёқий бунинг акси бўлиши мумкин.

Тизмаларда ўсимлик бўйи ўртача баландликка эга бўлишига қарамасдан, ётиб қолишга чидамли бўлиб 8 та ўсимлик 9 балл билан баҳоланди. Тажриба даласига 8 апрелда ёғган қор ўсимликларга салбий таъсир кўрсатди, натижада айрим нав ва тизмалар ётиб қолди.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки ҳосилдорлик бир хил бўлганлиги билан унинг структуравий тузилиши ҳар хил бўлиши мумкин ва маҳсулдорликни оширишда бошланғич манбаларга қўйилаётган талаб ўзгачадир. Ўрганилган тизмаларнинг ҳосилдорлиги кўрсаткичлари 20,5-73,3 ц/га ни ташкил этганлиги таҳлил қилинди. Тизмалор орасида KR15-РҮТ13-970 тизмаси энг кам ҳосилдорликни намоён қилган бўлса, GCB-17/2017-10 тизмаси 73,3 ц/га барча нав ва тизмалар орасида юқори ҳосилдорликни намоён қилди. Ўрганилган барча нав ва тизмалар орасида андоза навлардан устун 6 та тизма 60 ц/га дан юқори ҳосилдорликка эга эканлигини намоён қилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аманов А., Бўриев Ҳ.Ч., Гафурова Л.А., Нурбеков А. Бир бошоқ дон. - Тошкент: Меҳнат. 2003. –Б. 30-35.
2. Халилов Н.Х. Донли экинлар биологияси. –Самарқанд, 2002. –Б. 78-79
3. Ходжакулов Т.Х. Интенсивный сорт пшеницы Шердор //Ж: Сельское хозяйство Узбекистана, 1991. –№1. –С. 13-19.
4. Ўринбоев Т.Х., Илашев А.И. Жиззах вилоятида буғдойчиликнинг илмий-амалий асослари. –Ғаллаорол, 2010. –Б. 35-55.
5. Аманов А., Бўриев Ҳ.Ч., Гафурова Л.А., Нурбеков А. Бир бошоқ дон. - Тошкент: Меҳнат. 2003. –Б. 30-35.

УДК: 633.511: 575.127.2: 631

**СКОРОСПЕЛОСТЬ ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА В РАЗЛИЧНЫХ
ПОЧВЕННО КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА****С.Т. Жураев***к.с.х.н., доцент.***Н.А.Якубжонова***ассистент (ТашГАУ)*

Создание сорта предполагает не только получение и отбор новых генотипов, но и поиск экологической ниши, где этот генотип (генотипы) обеспечит высокую продуктивность, экологическую стабильность и качество продукции как основные цели селекции растений. Решение задач адаптивной селекции базируется на изучении методов оценки взаимодействия генотипа и среды [1].

Скороспелость хлопчатника, как и многие другие хозяйственно-ценные признаки является количественным признаком и в значительной степени подвержен изменчивости в онтогенезе растений, а также зависит от условий и зоны возделывания и др.

Цель исследования: изучение длины вегетационного периода у гибридов хлопчатника различного генетического происхождения, а также влияния факторов генотипа и среды на признак в различных экологических регионах Узбекистана.

Эксперименты проводили в 2018-2020 г.г. в НИИССАВХ (Ташкентская область) и его филиалах в Ферганской (Кува) и Кашкадарьинской (Касби) областях. Материалом исследования служили гибридные комбинации F_2 - F_4 , полученные на основе интрогрессивных форм с участием дикого вида *G.trilobum* Skovsted и рудеральной формы *G. Harknessii* Brandg, а также сортов зарубежной селекции из коллекции НИИССАВХ.

Варианты в опытах закладывались рендомизированно, в четырех повторностях в каждом регионе.

Скороспелость у гибридов и стандартных сортов изучалась нами по установлению даты созревания коробочек у 50% растений. Статистическая обработка данных осуществлялась с использованием двухфакторного дисперсионного анализа с повторениями [2].

Ташкентская область имеет три различных климатических условия, но преобладают C_{sa} согласно классификации климата Кеппен-Гейгера. Температура здесь в среднем за год $14.6\text{ }^{\circ}\text{C}$. 429 мм - среднегодовая норма осадков. В Куве (Ферганская область) превалирует климат степей. В течение всего года осадков мало. Этот климат считается B_{Sk} по классификации климата Кеппен-Гейгера. Среднегодовая температура $14.1\text{ }^{\circ}\text{C}$. Выпадает около 220 мм осадков в год. Кашкадарьинская область имеет два различных климатических условия, но

преобладают BSk. Классификация климата Касби по Кеппен-Гейгеру составляет BSk. Средняя температура воздуха 15.7 °C. В год выпадает около 212 мм осадков [3].

В 2018 г. наиболее скороспелой оказалась гибридная комбинация F₂ [(F₈ (Бухара бхЛ-h) x Л-247) x (F₈ Л-247xS-6593)] в среднем по регионам длина вегетационного периода у нее равнялась 115 дням. Наибольшей длиной вегетационного периода отличились комбинации F₂ [(F₁₅ Л- 248) x (F₈ Л-243 x S-2552)] и F₂ [(F₁₅ Л- 248) x S-2016] – 125, 124 дня (табл.1).

Известно, что длина вегетационного периода колеблется в зависимости от погодных и климатических факторов. В наших опытах при оценке групп гибридов оказалось, что наиболее короткая длина вегетационного периода наблюдалась у гибридов выращенных в Кашкадарьинской области в среднем по группе 116 дней, далее следует группа в Ферганской области 117 дней. Испытываемые гибриды в Ташкентской области в среднем созревали за 131 день, что соответствует климатическим условиям регионов.

В результате дисперсионного анализа выявлены существенные различия между изученными гибридами F₃ по скороспелость. Наибольшее влияние на признак имел фактор среды 39.2%. Доля влияния генотипа оказалась равной 30.0%. Влияние взаимодействия генотип-среда на показатели признака было довольно существенно – 24.3%. Доля неучтенных факторов оказалась небольшой – 6.4% (табл. 1).

Таблица 1

Дисперсионный анализ длины вегетационного периода у гибридов F₃

<i>Источник вариации</i>	<i>SS</i>	<i>f</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>	<i>P-Значение</i>	<i>F критическое</i>
Выборка	482.3493		160.7831	55.96166	1.24E-13	2.866266
Столбцы	629.1102		314.5551	109.4831	4.97E-16	3.259446
Взаимодействи						
е	390.2893		65.04822	22.64048	7.37E-11	2.363751
Внутри	103.4314	6	2.873094			
Итого	1605.18	7				
Выборка	30.0%					
Столбцы	39.2%					
Взаимодействи						
е	24.3%					
Внутри	6.4%					

Данные таблицы 1 показывают, что средняя скороспелость по трем регионам у гибридов F₄ в целом не отличалась и равнялась 120 – 121 дням. В Кашкадарьинской области по сравнению с остальными регионами скороспелость была короче у всех комбинаций примерно на 10 дней, и составляла в среднем 114 дней. У групп гибридов

в Ташкентской и Ферганской областях данный показатель был равен 125 и 123 дням соответственно. Наибольшая скороспелость в 2020 г. проявилась у комбинации F_4 [F_8 Л-247 x S-484) x F_{15} Л- 248] в Кашкадарьинской и Ферганской областях 113 и 118 дней, однако в Ташкентской области она оказалась позднеспелее остальных (129 дней).

Двухфакторный дисперсионный анализ длины вегетационного периода гибридов F_4 показал, что в данном опыте влияние генотипа на изменчивость признака несущественно так как р-значение оказалось меньше 0.05, а влияние среды и взаимодействия факторов генотип-среда на признак было достоверно и достигло 68.3% (вклад среды) и 19.0% (вклад ГС). Доля неучтенных факторов составила 12.6%.

Таким образом трехлетние экспериментальные данные подтверждают тот факт, что на скороспелости больше влияет среда, а именно географическая широта возделывания хлопчатника. При выведении сортов хлопчатника необходимо это учитывать. Стабильность длины вегетационного периода и скороспелость по годам и зонам возделывания проявилась в комбинации [F_8 (Бухара 6x Л-h) x Л-247) x (F_8 Л-247 x S-6593)].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Генетико-экологические основы селекции растений А.В. Кильчевский Вестник ВОГиС, 2005, Том 9, № 4
2. Доспехов В.А. Методика полевого опыта. - М.: Колос, 1979. - 416 с.
3. <https://ru.climate-data.org/>

**ТАЪМИРЛАНАДИГАН ЮМШОҚ ТОМҚОПЛАМАЛАРНИНГ ТУРЛИ
КОНСТРУКТИВ ЕЧИМЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ЭТИШ****Ходжаева Шахноза Назарбаевна***Ассистент***Р.А.Норов***Техника фанлари номзоди, профессор -**Тошкент архитектура қурилиш институти*

Бино ва иншоотлардан фойдаланиш ишончилиги кўпчилик ҳолларда томқопламанинг конструктив ечимига ва техникавий ҳолатига боғлиқ бўлади. Томқопламалар табиий емирилиши оқибатида вақт ўтиши билан шикастланадилар ва кўп жойлардан, айниқса, уларни барпо этиш даврида нуқсонларга йўл қўйилган бўлса, чакка ўтади. Томқопламанинг соз ҳолатини сақлаб туриш учун ўз вақтида таъмирлаш – тиклаш ишларини ўтказиш зарур, чунки бунда пастда жойлашган конструкцияларни шикастланишини олдини олиш имконияти бўлади.

Сўнгги йилларда бу муаммо янада чуқурлашиб кетганлиги шундаки, бино ва унинг томқопламаси ёши 40 йил ва ундан кўпроққа етди, емирилиш эса 70 – 80 % дан ошди. Саноат ва фуқаро биноларининг ўрама материалли томқопламаларидан фойдаланиш тажрибаси кўп ҳудудларда ва шаҳарларда етарли тўлиқ ўрганилган, томқопламанинг техникавий ҳолати ҳақида ва уларнинг шикастланган бўлишлари тўғрисида катта статистик материал йиғилган.

Тошкент, Янгийўл ва бошқа шаҳарларда биноларнинг томқопламаларини ташқи томондан ўрганиш шуни кўрсатдики, асосий нуқсонлар бинодан фойдаланишнинг биринчи йилидаёқ ҳосил бўлади. Томқопламанинг сифатсиз бажарилган асосининг чўкиши оқибатида унинг юзасидан сувни кетиши бузилади ва сувдан ҳимоялаш қатлами сувга тўйинган ҳолда доимо бўлишидан тезроқ бузилади ёки қатламлаб кўча бошлайди. Текисловчи сувоқ қатлами материалининг ҳарорат ва киришиш деформациялари сувдан ҳимоялаш қатламини ёрилишига олиб келади, ўрама материал қатламининг елимлашдаги нуқсони бўлган берк бўшлиқлар, шишган жойларни тез ҳосил бўлиши ва ўсишига олиб келади.

Томқопламанинг сувдан ҳимоялаш қатламига иссиқ ишлов беришда қиздириш (иситиш) жадаллиги алоҳида аҳамиятга эга: ундан фақат қатлам материалларининг бошланғич физик – механик хусусиятларини сақлаш эмас, балки том ёпиш – монтаж ишларидаги ёнғин хавфсизлиги, иш унумдорлиги ва энергия сифими боғлиқлиги таҳлил этилди. Битум материаллари паст иссиқ ўтказувчанликка (0,25 Вт/(м.К)) эга бўлгани учун иссиқлик томқоплама конструкцияси ичига жуда секин тарқалади.

Келтирилган шароитларни ҳисобга олган ҳолда учта асосий технологик операциялар (қиздириш, текислаш ва эски томқопламанинг қиздирилган участкасини зичлаш) ни бажаришнинг оқилона режимлари аниқланган ва зарур механизм ва мосламалар ҳисобланган. Шу жумладан, томқопламада битум материалларини 135 –

200 °С гача қиздириш тавсия этилади, бунда битум ва битум мастикаси юмшайди ва юза, бўшлиқлар ва каваклар бўйлаб оқади, ўрама материал қатламлари орасидаги адгезия боғловчиларининг бўшашиши туфайли уларнинг баъзи ўзаро сурилиши юз беради. Юқори ҳарорат оқибатида томқоплама ва сувоқ қатлами материалларидаги ғоваклар, капиллярлар ва бўшлиқлардаги мавжуд бўлган микроорганизмлар нобуд бўлади. Текислаш воситаси ёрдамида томқоплама юзасидаги эриган битум мастикаси ва битумни бир текис тақсимланишига эришилади. Бунда юзадаги нуқсонлар ва шикастланишлар (ёриқ-дарзлар, рубероидни кўчиши, битум мастикасининг қуйилиб йиғилган жойлари ва бошқалар) йўқотилади. Томқопламанинг қиздирилган участкасини зичлашда сувдан ҳимоялаш материалларини эзилиши битум ва битум мастикаси билан қайта тақсимланиши юз бериб, улар қатлам қаъридаги ёриқ-дарзлар, ғоваклар ва бўшлиқларни тўлдиради. Томқоплама совиганидан кейин янги томқоплама сифатидан кам бўлмаган зарур фойдаланиш сифатларига эга бўлади.

Сувдан ҳимоялаш қатламини шишишдан асраш учун янги усул тақдим этилади. Текисловчи сувоқ қатламини қиздиришдан олдин маълум тартибда бир ўқда жойлашган рубероиддаги тешиклар орқали унда тешиклар ҳосил қилинади.

Ўрама томқопламаларни таъмирлашнинг янги технологияси ўндан ортиқ саноат ва фуқаро биноларини капитал ва жорий таъмирланишида ҳамда тажриба участкасида синаб кўрилган, амалиётда бу усулни қўллаш соҳаси аниқлаштирилган. Шу жумладан, сувдан ҳимоялаш қатламига термомеханик ишлов бериш томқопламанинг 80% дан кўп бўлмаган аввал келтирилган нуқсон ва шикастланишлар қисми физик емирилган ҳолда бўлиши белгиланган. Агар томқоплама емирилиши 80 % дан ошса, унда тақдим этилган усулда таъмирлаш имконияти қопламанинг юза қатламларидан олинган материалларни лаборатория синовлари натижалари бўйича аниқланади. Бу ҳолатда сувдан ҳимоялаш қатламига термомеханик ишлов берилгандан сўнг унинг юзасини битум эмульсияси ёки совуқ битум-резина мастикасидан ёшартирувчи таркиб билан ишлов берилиши керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Мирахмедов М., Бозорбоев Н., Бозорбоев Ф. “Бино ва иншоотларни таъмирлаш ва қайта қуриш технологияси”. Тошкент, 2005 й.
2. Жабборов У.Р. Долговечность гидроизоляционных материалов плоских крыш в условиях жаркого климата. Ташкент, Фан, 1992 г.
3. Бозорбоев Н., Ярматов И. “Қурилиш технологияси ва ташкилиёти” фанидан электрон ўқув қўлланма. 1-қисм. Қурилиш технологиясининг муаммоли масалалари. 2004 й.

PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Kozimova Dilorom Ashurovna

*Buxoro Viloyat xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
Pedagogika psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida eng yuksak natijalarga erishib, faoliyatining yuksak darajada baholanishini va hamma tomondan tan olinishini istamaydigan o'qituvchi topilmasa kerak. Bunga erishishini, ana shu xil orzuning ushaliyini pedagogik mahorat deymiz. Xo'sh pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo'ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi adabiyotlarda «Pedagogik mahorat» tushunchasiga doir turlicha izohlarga duch kelamiz. Bu tushunchaning mohiyatini bir muncha to'laroq, aniqroq ta'rifi «Pedagogik endiklopediya»da berilgan deyish mumkin. Bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta'rif pedagogik mahorat mazmunini va mohiyatini bir muncha to'g'ri yoritadi: «Tarbiya berish va o'qitishda yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi san'at bo'lib, bolaga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevgan har bir o'qituvchining qiladigan ishidir. O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog - bu yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tsgishli sohalarini yaxshi tahlil eta olaadigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir».

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy qismlarini ajratish mumkin:

1. Pedagogik insonparvarlik yo'nalishi;
2. Mutaxassislikka doir bilimlar;
3. Pedagogik qobiliyat;
4. Pedagogik texnika (ko'nikma-iqtidor)

O'qituvchilik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati hech qachon kamaymaydi, so'nmaydi. O'qituvchilik kasbi bir qator muhim talablarga javob berishi kerak.

Hozirgi davrda, biz mustaqil O'zbekistonda qurayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon o'qituvchisining shaxsi uchun eng muhim asos - bu insopparvarlik yo'nialishidir. O'qituvchi juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega odam. U juda ko'p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o'zi o'qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi, o'z o'quvchilarini har kuni o'qishga o'rgatib borish uchun o'zi muntazam o'qib o'rganishi, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Demak, o'qituvchi pedagogik mahoratining asosi o'z ustida ishlab borish – mustaqil o'qishdir.

Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi - yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odob, qalb egasi qilib tarbiyalash lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu katta muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarni o'rni muhim va pedagogik mahorat fanining roli ulkan.

«Pedagogik mahorat» fanining predmetini pedagogning faoliyati tashkil etadi.

«Pedagogik mahorat» kursining maqsadi esa - mahoratli pedagogni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik mahorat fanining vazifalari:

- tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda tarbiyaning rolini ochib boradi;

- tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi;

- shuningdek pedagogik mahorat fani o'z taraqqiyoti davomida ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yo'llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning shakllarini ko'rsatadi.

O'qituvchinning pedagogik mahorati shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali o'z fikrlarini yetkazish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

4. Sayidahmedov H. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T. 2003.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003.
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. T. 2007.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T. 1996.

**TOMQOPLAMALARNI ESKIRISHI YOKI ULARNING XIZMAT
KO'RSATISHINI OSHIRISH****Xodjayeva Shaxnoza Nazarbayevna***Assistent**Toshkent arxitektura qurilish institute*

Issiq iqlim sharoitlarida sanoat va fuqaro binolarini barpo etish jarayonini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, binolaming yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalari montajining yuqori jadallikda mexanizatsiyalashgan va industriallashtirilganiga nisbatan tom yopish ishlari, ayniqsa, tomqoplamalarini bajarish va ta'mirlash texnologiyasini sezilarli darajada orqada qolganligi ko'zga tashlanmoqda. Bino va inshootlarning qurilishida bitumli o'rama ashyoli tomqoplamalar eng keng tarqalgandir. Lekin bunday tomqoplamalarning tashqi ta'sirlarga chidamliligi kam bo'lib, me'yoriy xizmat qilish muddati 10 yildan, issiq iqlim sharoitlarida esa 3—5 yildan oshmaydi.

O'rama ashyoli tomqoplamalarni ta'mirlash uchun ketadigan xarajatlar, ulami qurishga ketgan xarajattan baland turadi, chunki ta'mirlash texnologiyasida tomqoplamaning shikastlangan qatlamlarini olib tashlash va almashtirish ko'zda tutilgan. Tomqoplamalarini barpo etish va ta'mirlash jarayonlari qurilish ishlarining g'oyatda mehnattalab va qimmat qismi bo'lib, binoning umumiy narxining 10—15 % ini tashkil etadi. Bino va inshootlarni barpo etishda mehnat xarajatlarining 16—20 % tomlarga tegishlidir. Turli konstruksiyali tomlarni loyihalash, barpo etish va ta'mirlashning mexanizatsiyalashgan texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirishda mavjud bitum-polimer qavatiga ega bo'lgan ruberoidlardan foydalaniladi.

Uzoq muddatli tomqoplama ashyolarini yaratish, konstruksiyalarini loyihalash, barpo etish mavjud bitum-mineral qoplama ruberoidlarni bitum-polimerli kompozitsion qoplamalarga almashtirish, yuqori sifatli tarkiblarni yaratishni, qo'llash texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu hozirgi zamon dolzarb muammolardan bo'lib, faqat issiq iqlimli o'lkalarga tegishli bo'lmasdan, balki boshqa chet el mamlakatlarida ham katta muammolardan biridir. Chet ellarda bu muammolar asosan qalin, chirimaydigan asoslardan tayyorlangan, qalin bitum-polimerli ashyolarni yaratish, qurilishda qo'llash, mukammal texnologiyalarini ishlatish asosida hal etiladi. Bu ishlar bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan firmalar tomqoplama konstruksiyalarini barpo qilib, ularning xizmat qilish muddatlarini 20—25 yilga cho'zishga kafolat beradilar.

Samarali texnologiyalarni ishlab chiqishdan avval bitumli ashyolardan barpo etilgan yumshoq tomqoplamalarni shikastlanish va buzilish jarayoni xarakteri haqidagi mavjud tushunchalarni tahlil etish lozim. Hamma e'tirof qilganday, bunday tomqoplamalarning buzilishi ko'pincha ustki suvdan himoyalash qatlamlaridagi bitumning eskirishi bilan bog'liqdir. Bitumning eskirishi uning uglevodorodlari va kislorod o'rtasida o'tadigan turli xildagi kimyoviy reaksiyalar oqibatida ro'y beradi. Eskirishning faollashtirgichlar: quyosh radiatsiyasi, issiqlik va suv hisoblanadi. Ularning ta'siri ostida moyning smolaga,

smolalaming — asfaltenlarga, asfaltenlaming — karben va karboidlarga kimyoviy o'tishi hisobiga bitumdagi tarkibiy guruh o'zgaradi.

O'rama ashyoli tomqoplamalarni ta'mirlash tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularni sozlangan holatga keltirishning ko'p sonli usullari mavjud. Lekin bu usullar, odatda, suvdan himoyalash qatlamining shikastlangan joyini almashtirish yoki qo'shimcha qatlamni ustidan yotqizishga asoslangan. Bunda tomqoplamalarni ta'mirlash vaqtida shikastlangan qatlamlar ashyolari olib tashlanadi va qayta foydalanilmaydi. Shuni hisobga olgan holda, o'rama ashyoli tomqoplamalarni suv o'tkazmasligi va yaxlitligini tiklashning mumkin bo'lgan usuli katta qiziqish uyg'otadi. Bunda qatlamdagi bitum ashyolari regeneratsiyalash yo'li bilan va havo pufaklari hosil bo'ladigan yopiq bo'shliqlarni yo'qotish orqali yaxshilanadi.

Tomqoplamlar quyidagi ancha noqulay sharoitlarda joylashgan: kunlik va mavsumiy haroratlarning o'zgarishi, yog'ingarchilik va quyosh radiatsiyasining ta'siri, ishlab chiqarish omillari va shamol, qoplama yuzasida oksidlanish jarayonlari va boshqalar. Bizning hududlarda obyekt sharoitida barpo etiladigan o'rama ashyoli tomqoplamlar keng tarqalgan. Issiq iqlim sharoitlarida bunday tomqoplamalarning hamma variantlarida ham mustahkamligi va uzoqqa chidamliligi yuqori emas. Amaldagi ta'mirlash orasidagi muddatlar me'yordagi 12—25 yil o'miga 3—4 yilni tashkil etadi.

Tomqoplama ashyosini tanlashda uning issiqqa chidamliligini va elastikligini hisobga olish zarur, chunki kunduzgi yozgi davrda tomqoplama qatlami 80°C gacha qizisa, tungi vaqtda 20—25°C gacha soviydi. Tashqi havo harorati 45°C gacha qiziganda, tomqoplama sirtidagi issiqlik 85—90°C gacha ham qizib ketadi. O'rama ashyo mustahkamligiga tekislovchi qatlam va isitkich ashyosining deformatsiyasi katta ta'sir ko'rsatadi. Deformatsiyalar haroratning katta kunlik o'zgarishlari (60°C gacha) va ashyolarning o'zlarini namligidan yuz beradi.

Shunday qilib, issiq iqlimda o'rama ashyoli tomqoplama va issiqni himoyalash uchun absorbsion ashyolar qurilish talablariga yetarli javob bermaydi. Yuk ko'tarish, issiq va suvdan himoyalash funksiyalarini o'zida birlashtiruvchi o'ramasiz tom va tomqoplamaning majmualari plitalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. «O'ramasiz tom» atamasi binoning industrial tomqoplamalari konstruksiyalariga qo'llaniladi. Bunda to'liq korxonada tayyorgarligidagi yig'ma temir-beton elementlarini montaj qilinganda, asosiy tom konstruksiyalarini montajidan so'ng darhol himoya funksiyasi bajariladi va o'rama ashyoli suvdan himoyalash qatlamini barpo etishga hojat qolmaydi. Bunday konstruksiyalarning qo'llanishi m ehnat sarfini va tomni barpo etish muddatini keskin kamaytiradi hamda ularning sifatini va foydalanishdagi ishonchlilikni oshiradi. Ularning afzalligiga konstruksiyaning umumiy massasini kam aytirishni ham keltirish mumkin. Bu zilzilabardosh hududlarda ayniqsa, ahamiyatlidir va tom yopish ishlarini mavsumiylikini yo'qotadi. O'ramasiz tomlarga mastikali tomqoplamlar ham tegishlidir.

DINAMIKA QONUNLARI MAVZUSINI O'QITISHDA DAVRA SUHBATI VA MUAMMOLI VAZIYAT USULLARIDAN FOYDALANISH

Boynazarov Mirshod Azadovich
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani
2-IDUMI Fizika fani o'qituvchisi

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'quv jarayonining ilmiyligi, zamon talablariga mosligi, turmush amaliyot bilan bog'lanishiga asoslangan. Shuning uchun fizika fanini o'qitishdan maqsad, o'quvchilarga yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun yetarli darajada baza yaratish, ularni kelgusidagi mehnat faoliyatlarida uchraydigan muammolarni hal etishda mustaqil fikr yuritishlariga va fizika fanining yutuqlarini bevosita tadbiiq eta olishlaridan iborat. Fizika kursi o'quvchiga xilma-xil asboblar va qurilmalarning ishlash prinsipini o'rganish va tushunish uchun zarur bo'lgan chuqur bilimlarni berishi kerak. O'quvchilar keyingi ish faoliyatlarida, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishlata bilishlari kerak. Fizika fanini o'rganish o'quvchi falsafiy dunyoqarashini shakllanishi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Fizika rivojlanishining butun tarixi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot dialektikasini yoritishdan, fan va texnikaning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va ekologik muammolar bilan murakkab o'zaro bog'lanishini aks etishdan iborat.

Fizika darsida "Dinamika qonunlari" mavzusini mummaoli ta'lim texnologiyasi asosida olib borilishi, darsning mazmunli olib borilishi va o'quvchilar to'liq tushunishlari uchun qulay bo'lishini ta'minlaydi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi - o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to'liq tashunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o'quv fanlari bo'yicha o'qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

- hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;

• o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;

• o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

• muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish;

• solishtirish, umumlashtirish;

• faktlarni aniqlash va qiyoslash;

• vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;

• o'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

O'zbekistonda muammoli ta'limni qo'llash bo'yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan.

Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq vato'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o'qituvchining o'quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi, fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo'liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi. Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin;

Savol-javoblar orqali o'quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash. O'rganilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, o'quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo'lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi. O'quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag'batlantirish usullaridan foydalaniladi. O'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek, o'quvchidek tutib, savollar berib boradi. O'quvchining to'g'ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish. O'quvchining xato fikrlarini aniqlab borish. O'quvchining xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o'quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o'quvchini o'z xatolarini o'zi tuzatishiga yo'naltiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo'lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat.

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI
IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH****Toshmirzayeva Muhayyo Mahkamboyevna***Namangan shaxar 2-son kasb-hunar maktabi
maxsus fan o'qituvchisi*

Hozirgi kunda jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Zamon talabi shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida oshirib borish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot ob'ektlarini ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlantiradi.

O'qituvchilar ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olish zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya jarayoni shaxsga yo'naltirilgan xarakterda bo'lishi, ya'ni shaxsning har-xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

O'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarining takomillashuviga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishga o'ziga xos vazifalarni qo'yadi:

— masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o'qituvchilar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishni;

— o'qituvchilar o'rtasida vazifalarning bir maromda to'g'ri taqsimlanganligini;

— ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qituvchining pedagogik faoliyatida :

— ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon yengillashadi.

— dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

— masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablar va o'quv materialining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi.

— ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyati takomillashadi, dars jarayoninig samaradorligi o'qituvchidan o'quvchiga ko'chadi.

— o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchining tashkilotchiligi va shaxsiy ishtiroki ortadi.

— zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o'quvchi bilan teskari aloqa vujudga kelishi ta'minlanadi.

Kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi)dan foydalanishda o'qituvchi uning mazmuniga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Ular quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

— multimedia texnologiyalarini qo'llash evaziga o'quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi.

— ta'limning interfaolliigi tufayli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollashadi va o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

— real holatlardan namoyish qilinishi yoki murakkab jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini berish bilan muhim ahamiyatga ega.

— o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilarning mantiqan erishish darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi.

— masofadan turib ta'lim olishni faqat o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun yoki internet ta'limi uchun tashkil etilmaydi. Balki sababsiz dars qoldirgan o'quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi.

— o'quvchilarga mustaqil izlashi uchun materiallarni topish hamda muammoli masalalarga javob berish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi.

— o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, axborot va ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi.

Ta'lim tizimini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan "qo'llab quvvatlovchi axborot" ini ko'paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligini, giper matn va multimedia o'qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan.

Ma'lumotlar bazasi deganda, axborotni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilish tushuniladi.

Bir qator axborotlarni an'anaviy qayta ishlash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo'lib, ularga bibliografiya, statistik ma'lumotlar, referatlar kiradi. Ma'lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko'rinishli axborotlarni cheksiz ko'p miqdorda va albatta, belgilangan ko'rinishlarda qabul qiladi.

Bilimlar bazasi esa yopiq tizimda mazkur mavzu bo'yicha qo'shimcha axborotlarga ehtiyoj sezmaganda va uning har bir elementi mantiq jihatidan bog'langan boshqa elementlarga chiqq olish bo'yicha axborotlashtirilgan tizimga ega bo'ladi. Bunda ushbu bilimlar bazasiga kiritilmagan, ya'ni undan tashqi elementlarga murojaat qilinishiga imkon bo'lmaydi. Bilimlar bazasining birlamchi bibliografik o'xshashliklari sifatida turli ensiklopediyalar, lug'atlar xizmat qiladi.

Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o'quv materiallari, o'quv materiallari bo'yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ

kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo'yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar ta'lim mazmunini sezilarli o'zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi. Uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Kompyuter vositalari yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, uning interfaoligini, bevosita muloqot yordamida o'quvchi o'quv rejasida ko'rsatilgan, istalgan fan sohasida maxsus o'quv dasturlari yordamida bilim olish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlash mumkin. Kompyuter vositasi, o'quvchi yoxud o'qituvchi murojaatlariga "javob" beradi, ular bilan "muloqot"ga kirishadi.

Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati u o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida yangi o'quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o'quvchilarning fan bo'yicha erishgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

Bunday jarayonda o'qituvchi kompyuterning o'quvchi uchun turli vazifalarni, xususan o'qituvchilik, ishchi qurol, ta'lim ob'yekti o'zaro muloqot kabi funksiyalarini bajarishni bilishi kerak. Bunda o'qituvchining vazifasi dars jarayonida o'quvchilarni kompyuterdan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat.

Kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.O'quv jarayonini bir butun guruh sifatida tashkil etish.

2.O'quv jarayonida guruhlarni faollashtirish va muvofiqlashtirish, ish joylarini taqsimlash, ko'rsatmalar berish.

3.O'quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko'rsatish, har bir o'quvchi bilan individual muloqot olib borish.

4.Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o'quv va namoyish qurilmalarning har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o'quv metodik ko'rsatmalar va h.k.) ma'lum o'quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog'liqlik asosida tashkil etish.

Kompyuter texnologiyasi asosida mustaqil ta'limni ta'minlashda o'qituvchilar quyidagi tuzilmalar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi;

- kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlarini bilishi;

- zamonaviy operatsion tizimlarni bilishi va ularning asosiy buyruqlarini o'zlashtirishi;

- zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tuzilmalarni bilishi va ularning vazifalarini o'zlashtirishi;

- kamida bitta matn muharriri bilan tanish bo'lishi;

- algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'lishi;

- amaliy dasturlashdan foydalanish to'g'risida dastlabki tajribaga ega bo'lishi;

Ta'limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

- o'qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan

foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- uzoq masofalarda joylashgan yetakchi ta'lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari bilan tanishadilar;

- turli mavzularda videokonferensiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishadilar;

- o'qituvchilarning o'zaro trening va seminarlari o'tkaziladi;

- masofaviy ta'lim, axborotlar almashinish va shunga o'xshash juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladilar;

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalardan ta'lim muassasalarida amalda tadbir etish o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashda hamda o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

ISLOM OLAMIDAGI ILK FIQHIY ADABIYOTLAR

Hafizov Najmiddin

Fiqh (arab. — bilish, tushunish) — musulmon huquqshunosligi, shariat qonunqoidalarini ishlab chiqish bilan shugʻullanuvchi islom taʼlimotining bir sohasi. “Fiqh” soʻzi atama sifatida Qurʼon va hadislarida qoʻllanilgan. Fiqh islom dini vujudga kelib, xalifalik qaror topishi bilanoq darhol tarkib topgan emas. Fiqh ning qaror topishi Muhammad (sav) hadislarini va choryorlarning aytgan gaplarini yozib olish bilan birga davom etgan. Zayd ibn al-Hasanning "Majmu' al-fiqh", Molik ibn Anasning “al-Muvatta”, Ibn Hanbalning “al-Musnad” kitoblari Fiqhga oid dastlabki asarlar hisoblansada, ular muayyan mavzuda tanlab olingan hadislardan iborat edi. Fiqh ilmi 10-asrga kelib mustaqil fan sifatida shakllangan. Fiqh bilan shugʻullanuvchi, uni oʻrganuvchi kishi faqih (qonunshunos) deb atalgan. Movarounnahrda Burhoniddin Margʻinoniy, Abu Lays Samarqandiy va boshqa mashhur faqihlar hisoblangan. Fiqh islom huquqshunosligi sifatida 2 sohada — shariat manbalarini ishlab chiqish (usul al-fiqh) va shariatni tayin sohalarga tatbiq qilish (furu' al-fiqh)dan iborat boʻlgan. Islomning sunniylik yoʻnalishi huquqshunosligi 4 ta mustaqil huquq mazhablari — hanafiylik, molikiylik, shofiʼiylik va hanbaliylik vujudga kelgan. F.da boshqa maktablar xam mavjud edi, biroq 14-asrga kelib, mazkur 4 mazhab hamda bir necha shialik tariqatlarigina saqlanib qolgan. Oʻrta asrlarda va yangi davrda F.ga oid asarlar orasida fatvo toʻplamlari koʻpaydi. Al-Kuduriyning (1037 yilv.e.) “Muxtasar”, Qozixonning (1196 yilv.e.) “Fatovo”, Burhoniddin Margʻinoniyning “Hidoya”, Ibn Bazzozning (1414 yilv.e.) “Fatovo” asarlari bunga misol boʻladi.⁶¹ Ular ichida “Hidoya” asari hanafiylik mazhabida katta shuxrat qozongan amaliy qoʻllanmadir. “Hidoya”ga bir qancha sharhlar yozilgan. Musulmon faqihlarining koʻp asarlari qozi va muftilar uchun dasturilamal boʻlgan, koʻpincha maʼmurlarning buyurtmasi bilan davlat mahkamalari uchun maxsus kitoblar yozib berilgan: Abu Yusufning (798 yilv.e.) “Kitob al-xaraj”i yoki Boburiylar saltanatining hukmdori Avrangzeb (1658—1707) amri bilan 1669 yilda bir guruh hanafiy huquqshunoslar tuzgan “al-Fatovo al-Hindiya” asari va boshqa Islom mamlakatlari huquq tizimida fiqhning roli doimo bir xil boʻlgan emas. Jumladan, XVI-asrda Usmonli turk saltanatida va XX asr 2-yarmida Boburiylar davlatidagi huquqiy amaliyotda uning kridalari juda keng va izchil qoʻllanildi. Biroq, umuman Fiqh huquqshunoslik bilan toʻla-toʻkis moye kelgan emas.

Tojuddin Subkiyning xabar berishicha, Qosim ibn Muhammad ibn Ali Shoshiydan xurosonlik fuqaholar taʼlim olishgan. Undan Iroq ahli ham koʻp yaxshiliklarni koʻrgan⁶². Mashhur tarixchi Xoja Xalifa oʻzining “Kashf az-zunun” asarida “at-Taqrib” (toʻliq nomi “at-Taqrib fil-furu” – “Furu’ga yaqinlashish”) asari muallifi Shayx Imom Qosim ibn

⁶¹ Tabaqot ash-shofiʼiya al-kubro. 3-jild. -B. 334—335.

⁶² Kashf az-zunun. 1-jild. B – 466

Muhammad ibn Qaffol Shoshiy Shofi'iy", deb yozgan⁶³. Ma'lumki, Qosim ibn Ali Shoshiy ushbu fiqhiy asari bilan shuhrat qozongan. Bu haqda Hamza Sahmiy "Tarixi Jurjon" asarining Halimiy tarjimai holi bobida aynan shunday iboralarni keltirgan: «Halimiy degan: "at-Taqrib" asari sohibi Qosim ibn Abu Bakr Qaffol mendan fiqhga oid o'n bitta juz (bob) izoh va sharhlar yozib oldi".

Ibn Xallikonning aytishicha, «Bu asar shofi'iy mazhabidagi mo'tabar kitoblardan bo'lib, kimning huzurida shu kitob bo'lsa, boshqasining hojati yo'qdir. Bu kitobni Bayhaqiy va Imom Haramaynlar maqtashgan. "Kitob at-Taqrib"ga Imom Haramayn Abul-Ma'oliy (vaf. 478) talxis (qisqartma) yozgan.

Ba'zilar ushbu kitobning muallifi otasi Qaffol Shoshiy deyishadi. "Bu xato fikrdir", deb yozgan Ibn Xallikon⁶³.

U o'zining bu fikrlarini quyidagicha izohlab, "Men 665/ 1266 yil shavvol oyida Damashqdagi Odiliya madrasasining kitoblar xazinasida asli o'n jilddan iborat "Kitob at-Taqrib"ning olti jildi saqlanayotganini ko'rdim. Asarning ustiga uning muallifi Abu Bakr Qaffol Shoshiyning o'g'li Abulhasan Qosim, mazkur nusxa avval Shayx Qutbiddin Mas'ud Nisoburiyga tegishli bo'lib, keyin uni vaqf qilganligi yozilgan edi. Bu "Kitob at-Taqrib" Sulaym Roziy qalamiga mansub "Kitob at-Taqrib" emas. Men faqihlardan kuplarini ko'rdimki, Sulaymning asarini Qaffolniki deb ishonadilar. Shuning uchun ham bu masalaga chuqurroq yondashdim. Qaffolning o'g'liga mansub bo'lgan "Kitob at-Taqrib"ning soni juda kam. Sulaymning asari esa odamlarning qo'llarida mavjud. Xuroson faqihlari o'qib o'rganadigan "Kitob at-Taqrib" ham shudir".

Tojuddin Subkiy "Tabaqot ash-shofi'iya al-kubro" asarida shofi'iya mazhabining ulug' imomlari to'g'risida ma'lumotlarni keltirib shunday yozgan: "As'hobimiz faqihlaridan to'rttasi o'zidan davomchilar qoldirgan. Abu Bakr Ismoilidan o'g'li Abu Sa'd, Imom Abu Sahldan o'g'li Imom ibn Imom, Abu Ja'far Xanotiydan o'g'li Shayx Abu Abdulloh tug'ilgan. Abu Bakr Qaffol Shoshiy o'z naslidan iqtidorli o'g'ilga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tabaqot ash-shofi'iya al-kubro. 3-jild. -B. 334—335
2. Kashf az-zunun. 1-jild. B – 466.
3. Tabaqotash-shofi'iya al-kubro. 2-jild. -B. 334—335.

⁶³ Tabaqotash-shofi'iya al-kubro. 2-jild. -B. 334—335.

HAKIM AT-TERMIZIYNING ILM OLISH VA UNI ANGLASH HAQIDAGI QARASHLARI

Valiyev Ilhom Majidovich

Xoja Buxoriy madrasasi o'qituvchisi

Ilm olish odamzotning zehnini kuchaytiruvchi, irodasini mustahkam qiluvchi ruhiy quvvatdir. O'rganish davomida inson bilmaganlarini biladi va ilmsizlik jaholatidan uzoqlashib ma'rifat nuriga yaqinlashadi. Kishining ilm hosil qilib yashashiga islom dini katta ahamiyat beradi. Oxirzamon Payg'ambari Muhammadga (s.a.v.) ilk nozil qilingan vahiy ham o'qi deb boshlangani musulmon xalqlar uchun ilmning turli sohalarida peshqadam bo'lishlariga sabab bo'lgan.

Ilm talabi: Ilm va uni qo'lga kiritish; Termiziyga ko'ra ikki turdagi bilim mavjud bo'lib, insonning harakatisiz unga berilgan ilm (al-ilmul vahbiy) va turli urinishlar orqali hosil qilingan ilm (al-ilmul iktisobiy)dir⁶⁴. Bu ilmlarning birinchisi Alloh tomonidan in'om qilinarkan, ikkinchisi kishining say-harakati bilan qo'lga kiritiladi. Uning ilmni bu shaklda sinflantirilishi Payg'ambarning (s.a.v.) bu boradagi hadisi bilan bog'liqdir: "Ilm ikki xildir. Birinchisi til ilmiki, bu Allohning mahluqotiga hujjatidir. Ikkinchisi qalb ilmiki, foydali ilm shudir."

Termiziy asarlaridan ma'lum bo'lishicha u hadisda kelgan "til ilmi" ifodasini kasbiy ilm, "qalb ilmi" so'zidan esa vahbiy ilm qasd qilingan deb tushingan. Chunki u qancha asar ta'lif qilgan bo'lsa ilmni ikki turda ekanini aytgan va ularni ilmi zohir hamda ilmi botinga ajratgan. Termiziy botiniy ilmni foydali va haqiqat ilmi derkan, zohiriy ilmni dunyoviy ilm deydi va bularning ikkinchisini birinchisisiz hech qanday qiymati yo'q ekanini aytadi. Mazkur ilmlarning har ikkisi inson uchun kerakligini aytib shunday diydi. "Bu ikki ilm bir-birisiz hech qanday ahamiyatga ega emas. Zero zohiriy ilm shariat tazahhuri, botiniy ilm esa haqiqatning asosidir. Bundan tashqari qalb bularning har ikkisiga birdek ehtiyoj sezadi. Muftahid olim bo'lishni istagan kishi bu ilmlarni har ikkisini puxta egallashi kerak bo'ladi. Agar bularning biridan mahrum qolsa bunday kishiga nuqson ko'zi bilan qaraladi. Har kishi zohiriy ilmga ko'ra yashasa va botiniy ilmni inkor qilsa u munofiqdir. Kimki shariatni da'vo qilib zohiriy ilmni o'rganmasa va uni inkor qilsa u zindiqdir. Bunday kishining egallagan ilmi ilm emas balki shaytonning vasvasasidir."⁶⁵

Uning ilmni bunday tasniflashi mazkur ikki ilmning qanday egallanishiga yo'l ko'rsatmoqda. Insonning o'rganish malakalariga kelinsa, bu nuqtada Termiziyning qalb tushunchasi va uning ikki borlig'i bo'lgan nafs va aql haqida mushohada qilishni taqozo qiladi. Qalb kishining haqiqatidir. Qachon qalb pok bo'lsa inson solih bo'ladi. Hikmat sohiblari qalbn, bergan har bir amri bajo keltiriladigan podshohga qiyos qiladi. Termiziy qalb terminini ikki ko'rinishda tasovvur qiladi. Birinchisi, butun botiniy maqomlarni

⁶⁴ Hasan esh-Sherkavi, Min hukemai l-umme. S – 132.

⁶⁵ El-Ceyushi, al-Tirmidhi's Theory of Gnosis The Islamic Quarterly 15, no: 4, 1971, S – 171.

qamragan keng ma'nodagi qalb. Ikkinchisi esa inson tanasining jismoniy a'zovidir. Bu ikkisi orasidagi farq bilinishi uchun birinchisi "Q" ikkinchisi "q" harfi bilan keltiriladi.

Termiziy qalbni to'rt turga bo'ladi. Ular sadr, qalb, fuad va lubbdir. Bu o'lchamlar shunday tartibli joylashganki, eng ustda sadr turadi, uni qalb ta'qib qiladi, undan keyin fuad va eng ichkaridan lubb joy oladi. Uning tushintirishiga ko'ra lubbning ichida ham yana boshqa maqomlar mavjud ammo ular juda latif bo'lgani uchun so'z bilan ifodalash imkonsizdir.

Termiziy tushunchalarini ochiqlarkan bir necha masalalarni o'rtaga qo'yadi. Masalan, u qalbni bir uyga o'xshatadi. Bunda uy umumiy ma'noda va ichidagi borliqlari, bog'chalari bilan ifodalanada. Uni misoli haramu sharf diyilganda Ka'bani atrofi ham uning muqaddasligiga qo'shilgani kabidir. Uning bu misollarni keltirishi inson zehin quvvatidan tashqaridagi narsalarni idrok qilolmasligini tushintirish uchundir.

Kasbiy bo'lgan ilmning aksi o'laroq qulning qalbida paydo bo'lgan ilm u uchun Allohning bir ehsonidir. Tangri uni xohlagan bandasiga in'om qiladi. Bu ilm bandani Xoliqiga yanada yaqinlashtiradi. Termiziyga ko'ra hikmat latiflari va ihson shohidlari qalbida bu ilm tajalliy qiladi. Ammo u joyda muqim qololmaydi chunki qalb keraksiz tushuncha, orzular va boshqa foydasiz narsalar kelib ketib turadigan idish kabidir.⁶⁶

Termiziyga ko'ra Allohndan kelgan ladun ilmi qalbda (ya'ni, sadrdan keyingi bosqichda) ma'rifat va ruyat fuadda, Allohning ehson va lutflari esa eng ichkari lubbda saqlanadi. Bu ilm qanchalar Alloh tomonidan ilhom qilinsada unga tolib bo'lgan kishi g'ayrat ko'rsatishi kerak bo'ladi. Bunday qimmatli ilmga loyiq bo'la olish uchun zohiriy ilmga erishilgani kabi yo'l tutilmaydi. Bilaks limning makoni bo'lgan qalb poklanib unga hozirlanishi kerak bo'ladi. U ilhomni qo'lga kiritish haqida bir qancha tafsiyalar beradi va ularning birida shunday diydi: "Bu ilm tadriji o'laroq Allohga ixlosli bo'lish bilan qo'lga kiritiladi."

Termiziyga ko'ra bu holat qalb dengizining so'ngsiz tubsizligi va u dengizga oqqan daryolar hisoblab bo'lmas darajada ko'pligidir. Bu ilm uchun harakat qilganlar dengizlardagi inju qidiruvchilariga va daryolardagi baliqchilarga o'xshaydilar. Ularning har biri o'zi uchun taqdir qilingan miqdorda bu ilmdan qo'lga kirita oladilar.

Xulosa: Termiziyning bilish va anglash haqidagi tushunchalari insonning ma'naviy tomoniga birinchi darajada e'tibor qaratgan xususdir. Masalan u qalb, aql va ruhning rollariga juda ko'p urg'u beradi. Insonni boshqa butun mahluqotdan ajratib turadigan bu ma'naviy tomon aslida uning haqiqatidir. Bu kabi tushunchalarni hozirgi zamonda shaklangan sikulyar jamiyatda qabul qilinishi imkonsiz ishdir. Chunki ular insondagi ma'naviy borliqni e'tiborga olmaydi.

Bu borada Hakim Termiziy psixologiya sohasi uchun ham qimmatli meros qoldirgan. Qalb kasalliklarining paydo bo'lish sabablari haqida so'z yuritarkan, ularni davolash borasida ham tafsiyalar berib boradi. U dinga tegishli bo'lgan hamda keng qamrovli va inson tabiatiga uyg'unlik kabi xususiyatlarni tasvirlagan bir ruhshunos olimdir.

⁶⁶ Beyan, S – 35.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hasan esh-Sherkavi, Min hukemai l-umme. S – 132.
2. El-Ceyushi, al-Tirmidhi’s Theory of Gnosis The Islamic Quarterly 15, no: 4, 1971, S – 171.
3. Beyan, S – 35.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKETINGINING MOHIYATI

Buvorayev Shuhrat Ortiqali o'g'li

Toshkent shahridagi

Singapur Menejmentini Rivojlantirish Instituti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari marketingining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot, marketing, axborot texnologiyalari, iqtisodiy taraqqiyot, marketing organlari, axborot ishlab chiqaruvchilar.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari faqat fan va texnika yangiligi doirasidan chiqib, oddiy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga ham aylandi. Shu bilan birga axborot mahsulotlari va xizmatlarini ularni kelgusida sotish uchun ishlab chiqish-ishlab chiqarishning mustaqil tarmog'iga aylandi.

Inson yashayotgan olam turli moddiy va nomoddiy obyektlardan, shuningdek, aloqalar va ular o'rtasidagi o'zaro harakatlardan tashkil topgan. Sezgi organlari, uskunalar va shu kabilar yordamida qayd etiladigan voqealiklar *ma'lumotlar* deb ataladi va aniq vazifalarni hal qilishda ular *axborotlarga* aylanadi. Vazifani hal qilish natijasida yangi *bilimlar*-tizimlashtirilgan, qonunlar, nazariyalar va qarashlar hamda tushunchalarning boshqa yig'indisi ko'rinishida umumlashtirilgan haqiqiy yoki sinovdan o'tgan ma'lumotlar paydo bo'ladi. Kelgusida bu bilimlarning o'zi boshqa vazifani hal qilish yoki oldingilarini aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibiga kiradi.

Ma'lumotlarni axborotga aylantirish ularning iste'molchisi ya'ni foydalanuvchisi tomonidan o'z axborot modeli asosida amalga oshiriladi. Bularning barchasini amalga oshirishda marketing organlari asosiy rol o'ynaydi.

Ma'lumotlar ularning bo'lg'usi iste'molchisi tomonidan axborotga aylantirilganda ishlab chiqaruvchi va iste'molchining axborot modellari tabiiy ravishda bir-biriga mos keladi. Agar ma'lumotlar tovar sifatida namoyon bo'lsa, u holda iste'molchi axborot mahsulotlari, ya'ni ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan kelgusida tarqatish uchun shakllantirilgan ma'lumotlar yig'indisiga duch keladi. Axborot mahsuloti tuzilishi yoki unda ma'lumotlarni taqdim etish shakli uni ishlab chiqaruvchining qandaydir bir axborot modelini o'z ichiga olgan bo'ladi va u ta'rifan foydalanuvchining axborot modelidan farq qiladi.

Tabiiyki, tijorat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar o'z modellarida iste'molchilarning modelini ham hisobga olishga harakat qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarning axborot modeli hech qachon to'laligicha bir-biriga to'g'ri kelishi mumkin emas. Chunki:

a) foydalanuvchilar ko'pincha o'zlariga qanday axborot kerakligi to'g'risidagi ancha noaniq tasavvurlarini yaqqol axborot modeliga joylashtira olmaydilar. Bu esa mazkur tushunchalarni mahsulot konsepsiyasida hisobga olishga to'sqinlik qiladi;

b) agar hatto bunday modellar qandaydir darajada bor bo'lsada, birinchidan ishlab chiqaruvchi ular haqida bilmasligi yoki ularni noto'g'ri qabul qilishi, ikkinchidan turli foydalanuvchilarda bu modellar bir-biriga mos kelmasligi va shu bilan foydalanuvchining abstrakt axborot modelini tuzishni umuman qiyin, ba'zan esa amaliy ahamiyatsiz masalaga aylantirishi mumkin.

Ma'lumotlar olish va ularni qayta ishlash jarayonini foydalanuvchilar uchun qanday qilib qulaylashtirish masalasi zamonaviy axborot texnologiyalari paydo bo'lguniga qadar ancha oldin yuzaga kelgan edi. Masalan, qog'oz manbalarida axborot ishlab chiqaruvchilar (kitoblar, jurnallar va boshqa manbalar mualliflari va nashr etuvchilar) axborot qidirishni materialni qulaylashtirib berish, predmet va nomli ko'rsatkichlar tashkil etish yili bilan osonlashtirishga xizmat qilganlar. Shu maqsadda "ma'lumotlar haqida ma'lumotlar" ko'plab chop etilgan. Yangi axborot texnologiyalari paydo bo'lishi bilan ma'lumotlar izlash va ularni qayta ishlash imkoniyatlar tom ma'noda cheksiz kengaydi. Ensiklopediyalarning elektron variantlari, axborot tizimlarining elektron variantlari va shu kabilar keng qo'llanilmoqda.

Marketing axborot xizmati keng ma'noda foydalanuvchiga axborot mahsulotlarini taqdim etishdan iborat. Tor ma'noda axborot xizmatlari deganda yangi axborot texnologiyalari yordamida olinadigan xizmatlar tushuniladi. Marketingning muhim vazifalaridan biri-iste'molchilarni yangi axborot texnologiyalariga ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu vazifalarni to'g'ri va to'liq bajarish yangi axborot mahsulotlariga bo'lgan talabni kengaytirdi, ma'lumotlarni individuallashtirishga, uning alohida foydalanuvchilar individual ehtiyojlariga yaqinlashishga va shu bilan ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar axborot modellarining yaqinlashuviga ko'maklashadi. Bundan tashqari, foydalanuvchi butun axborot mahsulotiga ega bo'lishi shart emas. Bu esa boshqa teng sharoitlarda real olingan axborotni ancha arzonlashtiradi. Shu bilan birga, axborot marketing xizmati axborot mahsulotisiz mavjud bo'la olmaydi. Lekin, axborot mahsuloti ham marketingga tegishli axborot xizmatlarisiz o'z ma'nosini yo'qotadi. Mohiyatan, mavjud xizmatga biror xizmatni havola qilish foydalanuvchi uchun ma'lumotlarni taqdim etish shaklining o'zgarishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, aynan oldingilaridagi ma'lumotni o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, axborotlashganlikning boshqa darajasiga ega boigan yangi mahsulot paydo bo'lishini keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Майоров А.П. Информационная технология на современном мире. —М.: Дело, 2004 г.
2. Харитонова И.С. XX I век - век информации. -М.: ЮНИТИ, 2004 г.
3. Цуркань А.М. Информационный маркетинг. —Киев.: Знания, 2003 г.
4. Блайд Джим. Маркетинговые коммуникации: Что? Как? И почему? Пер. с англ. -Днепропетровск: Баланс-Клуб, 2004 г. — 368 с.
5. Галатенко В.А. Основы информационной безопасности. - М.: ИНТУИТ РУ

«Интернет — Университет Информационных Технологий», 2003 г. —280 с.

ҚОНУНЧИЛИКНИ ТИЗИМЛАШТИРИШ ТУШУНЧАСИ ВА ТУРЛАР

Nishonboyeva Gulhumor Ne'mat qizi

Farxodova Shohista Sardor qizi

Shonazarova Intizor Abdullajon qizi

Хоразм вилояти юридик техникуми талабалари.

Аннататсия: *ушбу мақола Ҳуқуқий муносабатларнинг вужудга келиши, ўзгариши ва бекор бўлиши билан боғлиқ масалалар жуда кенг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар доираси билан тартибга солиниши, мазкур ҳужжатларни қўллаш жараёнини энгиллаштириш ва шу асосда ҳуқуқий тартибга солишнинг самарадорлигини оширишда қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш муҳим аҳамият касб этиши ҳақида байон қилади.*

Калит сўзлар: *Норматив-ҳуқуқий ҳужжат, қонунчилик, акт, субъект, ҳуқуқий онг, маданият, кодекс, кодификация, Инкорпорация.*

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар (қонунчилик)ни тизимлаштириш уларни тартибга солиш ва такомиллаштириш бўйича амалга ошириладиган фаолият бўлиб, у мазкур ҳужжатларни белгиланган ва ўзаро ички боғланган тизим ҳолига келтиришни англатади. Бинобарин, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштириш ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш, қонунчиликни эскирган актлар ва ўзаро қарама-қарши нормалардан халос этиш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдаланишни энгиллаштириш ва соддалаштириш, жамиятнинг ҳуқуқий маданияти ва ҳуқуқий онги даражасини оширишда катта аҳамиятга эга.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштириш қуйидаги мақсадларда амалга оширилади: қонунчиликни ривожлантириш ва янада такомиллаштириш; норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тўғри англаш ва қўллаш; зарур бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжат (норма)ни топишни энгиллаштириш; жорий қонунчиликдаги зиддиятлар, ноаниқликлар, такрорланишлар, бўшлиқларни бартараф этиш; ҳуқуқий муносабат субъектларининг ҳуқуқий онг ва маданиятини шакллантириш ва бошқа.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни кодификациялаш қуйидаги белгилари билан фарқланади:

Биринчидан, кодификациялаш фаолияти билан фақат ваколатли ҳуқуқ ижодкорлиги органлари конституциявий ва бошқа қонуний ваколатлар асосида шуғулланади.

Иккинчидан, кодификациялаш натижасида олдин амалда бўлганларидан жиддий фарқланувчи нормаларни ўз ичига олган янги норматив-ҳуқуқий ҳужжат яратилади.

Учинчидан, кодификациялаштирилган ҳужжат йиғма ҳужжат ҳисобланади. Чунки, унда олдин турли ҳужжатларда акс этган, лекин ижтимоий муносабатларнинг

маълум бир соҳасини тартибга солишга хизмат қилган нормалар бир жойга жамланади.

Тўртинчидан, кодификацияланган ҳужжат ижтимоий муносабатларнинг муайян соҳасида амал қилувчи ҳужжатлар тизимида асосийси ҳисобланади.

Бешинчидан, кодификациялаш натижасида яратиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижтимоий муносабатларни узоқ вақт давомида тартибга солишга мўлжалланган. Улар ижтимоий ҳаётдаги эҳтимол тутилган ўзгаришларни ҳисобга олиб, келажакда юзага келадиган янада такомиллашган ижтимоий муносабатларни тартибга солиш имкониятига эга бўлади.

Инкорпорация (лот. Incorporatio) – тизимлаштиришнинг бир тури бўлиб, бунда кодификациядан фарқли ўлароқ амалдаги қонунлар, фармонлар, ҳукумат қарорлари ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмунига бирон-бир ўзгариш киритилмасдан, улар хронологик, алифбо, мавзу бўйича ёки ўзгача тартибда (масалан, ҳуқуқ соҳалари бўйича) тизимга солиб нашр қилинади. Қонунларни инкорпорация қилиш орқали тизимлаштириш деярли барча давлатларда амалга оширилади. Улар кўп жилдли шаклда нашр этилиб, қонунларнинг чиқарилган вақтига қараб (хронологик), алфавит тартибида ва бошқа сифат ҳамда белгиларига қараб жойлаштирилади.

Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки йилларида чиқарилган қонунлар Ўзбекистон Республикасининг янги қонунлари деган кўп жилдли хронологик тўплам сифатида нашр этилган эди. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларининг тўпламида муайян муддат давомида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар инкорпорация шаклида тизимлаштириб борилади.

Консолидация – бу тизимлаштиришнинг шундай шаклидирки, бунда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмунига ўзгартиришлар киритилмайди, лекин бу ҳужжатлар мустақил юридик акт сифатида ўзининг кучини йўқотади. Консолидация норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштиришнинг инкорпорация ва кодификация ўртасидаги оралиқ шакли ҳисобланади. Консолидация натижасида бир турдаги ижтимоий муносабатларни тартибга соладиган турли хил юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар умумлаштирилади ва шу асосда кераксиз такрорланиш ҳамда зиддиятлар бартараф этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Дарслик. –: ТДЮУ, 2019. – 240 б.
2. “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги қонун.

ЎЗБЕКИСТОН ВА МИСРНИНГ ДИНИЙ ТАЪЛИМ ЖИХАТЛАРИДАГИ БОҒЛИҚЛИК

Холмуротов Асадулла Эшмаматович

Тадқиқотчи

Маълумки, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясининг бешинчи бўлими: хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат соҳасидаги устувор йўналишлар этиб белгиланган.

Мазкур устувор йўналишдан келиб чиқиб, юртимизда охириги йилларда кўплаб ислохотлар амалга оширилмоқда. Шу жумладан, зиёрат туризми, диний таълим соҳасини ривожлантириш, халқимизнинг бой илмий ва маънавий меросини ўрганиш ва уни келажак авлодга тўла-тўқис етказиш борасида ҳам бир қатор ишлар йўлга қўйилди. Диний таълим тизимида ҳам диний фанларни чуқур ўргатадиган ва унда илмий изланишлар олиб бориш учун Ўзбекистон Халқаро Ислом Академияси, Имом Бухорий номидаги ҳадис илми олий мактаби, Имом Термизий номидаги ислом ўрта махсус таълим муассасаси каби бир қанча таълим муассасалари ташкил этилди.

Бу борада хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш ва уларни юртимиз таълим даргоҳларида татбиқ қилиш борасида ҳам бир қанча ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, Миср, Малайзия, Туркия, Ҳиндистон, Покистон ва бошқа бир қанча давлатларнинг ислом дини илмларини ўрганиш ва ўргатишдаги тажрибаларини ўрганилмоқда.

Биз уларнинг таркибий тузилмалари ва тажрибаларига эътибор қаратганимизда маълум бўлдики, хориждан келадиган талабаларга ҳам алоҳида эътибор, енгиллик ва шароитлар яратилган.

Биз бу мақоламизда дунёдаги энг қадимий дорулфунунлардан бири Ал-Азҳар дорулфунуни ва унинг минг йилдан ортиқ тажрибаси ҳақида сўз юритмоқчимиз.

Милодий 639-642 йиллардаги Миср фатҳидан сўнг у ерда ислом тарқала бошлади. Бу ерда саҳоба Амр ибн Ос каби адолатли волийлар раҳбарлик қилишди. Кейинчалик умавийлар, тулунийлар, аббосийлар, ихшидийлар, фотимийлар, айюбийлар, усмонийлар ҳукмрон бўлишган. Мамлакат кейинчалик кўп йиллар француз ва инглиз мустамлакачилари истилосини бошдан кечирди. 1953 йил 18 июнда у Миср Араб Республикаси деб эълон қилинди.

Миср аҳолисининг 90 фоизини мусулмонлар ташкил этади, бу ерда Ислом дини давлат дини ҳисобланади. Мусулмонларнинг асосий қисми суннийликнинг шофеъий мазҳабидадир. Улардан ташқари, ҳанафий, ханбалий, моликий мазҳабига эргашувчилар ҳам бор. Аҳолининг 7 фоизи насроний динидаги Мисрнинг қадимий халқи бўлмиш қибтийлардан иборат.

Мисрда дунёга машҳур “ал-Азҳар” дорулфунуни, Амр ибн Ос, султон Ҳасан,

амир Шалку масжидлари, Ислом музейи кабилар мавжуд. Мисрда жуда кўп Ислом мутафаккирлари ва олимлари, муҳаддислар, Қуръон ҳофизлари етишиб чиққан⁶⁷.

Ал-Азҳар дорулфунуни Миср Араб Республикасида жойлашган бўлиб, у биринчи Қоҳира шаҳрида Султон Ал-Муиззу лидийниллаҳнинг мавлоси ва кўмондони Жавҳар Сиқиллий томонидан ҳижрий 359 йилда қурилиши бошланиб, ҳижрий 361 йилда тугалланган ва ишга туширилган⁶⁸.

Машҳур сайёҳ, тарихчи олим Ибн Баттута ўзининг “Саёҳатнома” асарида Қоҳира шаҳрини шундай васф қилади: “Сўнг шаҳарлар онаси бўлган, ер майдони кенг, катта ҳамда гўзалликда тенги йўқ иморатларга бой Мисрнинг Қоҳира шаҳрига етиб келдим. У келган-кетганни ўзда жам қилган, заифу қодир кимсалар унда кўним топган. У ўз аҳолиси билан денгиз каби мавжланиб, макону имконларнинг кенглигига қарамай уларга торлик қилмоқда. Ундаги йигитлар узоқ муддатгача бахтли ҳаёт кечириб, бахт юлдузлари ўз ўрнидан жилмай келмоқда.

Унинг Қоҳираси халқлардан ғолиб келган, ундаги подшоҳлар араб-у ажамнинг устидан ҳукмрон бўлганлар. Унинг хусусиятларидан бири машҳур Нил дарёси бўлиб, бу дарё Қоҳира қадрини янада юксалтириб юборган, суви ерларни ёмғир сувидан беҳожат қилган. Унинг тупроғи саховатли бўлиб, ғариб учун ҳамиша мунис дардкаш бўлиб келган.

У ҳақда Носируддин ибн Ноҳид шундай деган:

Қоҳира соҳили – мисли йўқ жаннат,

Айниқса, Нил аро тушганда шиддат.

Ишлов бермаса ҳам ҳазрати Довуд

Шамоли – ўқ ўтмас, мустаҳкам совут.

Мулойим ҳавоси танларга дармон,

Кемалар ҳар сари қатнайди равон⁶⁹.

Юқорида айтилгани каби, “ал-Азҳар” дорулфунуни қадимий дорулфунунлардан биридир унинг ташкил этилганига 1050 йил тўлди. Ўн бир асрдан буён ўз нуфузин сақлаб келмоқда. Ушбу дорулфунунда аввалда ислом дини билимлари ўргатила бошлаган бўлса, кейинчалик араб тили, фалсафа, мантик, адабиёт, ҳисоб каби бир қанча илмлар кўшиб ўргатилган. Ҳозирги кунга келиб жуда кўп диний ва дунёвий илмларга ихсослашган факультетларни қамраб олган. Жусладан, ислом шариати, араб тили, Қуръоншунослик, ҳадисшунослик, тиббиёт, таржима, хорижий тиллар, журналистика, тижорат, қишлоқ хўжалиги, фармацевтика каби бир қанча факультетлар мавжуд. “Ал-Азҳар”нинг филиаллари Миср давлатининг барча губернаторликларида ва дунёнинг бир қанча давлатларида ҳам очилган. Жумладан, Малайзия, Индонезия, Қозоғистон ва бошқа давлатларда очилган.

⁶⁷ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи. 2-жўз – Т.: “Nilol-Nashr” 2018 – Б 465-467.

⁶⁸ Суютий. Хусну-л-муҳазаро фи ахбари Миср ва-л-Қоҳира. –Байрут: Дору ихяу-л-кутуби-л-арабий, 1967. –Ж. 2. –Б. 251.

⁶⁹ Ибн Баттута. Саёҳатнома “Тухфат ан-назор фи ғариб ал-амсор ва ажоиб ал-асфор” / Баттута Ибн: масъул муҳаррир ва муқаддима муаллифи Н. Иброҳимов. – Т.: - “Sharq”, 2012. – Б 56.

2018 йил октябрь ойида Ал-Азҳар мажмуаси раҳбари шайх Аҳмад Муҳаммад Тоййиб ҳам Ўзбекистонга келганида мамлакатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев қабулида бўлди.

Мазкур учрашувда Аҳмад Тоййиб Халқаро ислом академияси таркибида Ал-Азҳар университети кафедрасини ташкил этиш, мисрлик таниқли олимларнинг Ўзбекистонда дарс бериши, Ал-Азҳар магистратурасида талаба ва ёш олимларимизнинг имтиёзли таҳсил олиши, икки давлат уламоларининг қўшма Фатво ҳайъатини тузиш ҳамда биргаликда илмий анжуманларни ва қўшма тадбирларни ўтказиш бўйича таклифларни қўллаб-қувватлаган.

Мисрнинг фахри, ислом оламининг илмий марказларидан бири – минг йилдан ортик тарихига эга бўлган Ал-Азҳар дорулфунуни жаҳондаги ҳам диний, ҳам дунёвий йўналишлар борасидаги етакчи олий таълим муассаса саналади.

Қоҳира шаҳри географик жиҳатдан Осиё ва Африка минтақасининг чорраҳасида жойлашганлиги боис Ал-Азҳарга кўплаб хорижий мамлакатлар талабалари ҳам илм талабида ташриф буюради. XIV–XV асрларда Ал-Азҳар атрофида бир нечта мадрасалар очилган. Кейинроқ, улар Ал-Азҳар таркибига қўшилган ва хорижлик талабалар учун алоҳида турар жойлар ҳозирланган. XVIII асрга келиб, Ал-Азҳар умуммусулмон таълим ва фан марказига айланган. XIX асрнинг сўнгги чорагида таълим муассасасида ўқув дастурлари янгиланиб, ташкилий тузилмалар ва ички тартиб қоидалар шаклланишидек узоқ жараён бошланган ва Ал-Азҳар аста-секин университет унвонини қабул қилган.

Миср давлати ҳукуматининг 1961 йилда эълон қилган “Ал-Азҳарни ривожлантириш тўғрисидаги қонун”га мувофиқ университетда политехника каби дунёвий факультетлар ҳам очилган. Ўша йили таълим муассаси қошида аёллар ва кизлар учун коллеж ташкил топган. Уларга аёл ўқитувчилар дарс берган.

Бугунги кунга келиб университет араб мамлакатлари ичидаги энг катта ва нуфузли таълим даргоҳига айланиб бўлган, у ўзига хос Миср бренди ҳисобланади. Ҳатто, университет номи мамлакат конституциясида қайд этиб ўтилиши унинг аҳамият қанчалик муғим эканлигини кўрсатиб турибди. Ҳозирда Ал-Азҳар ўз таркибида ислом тадқиқотлари академияси, университет, маъҳадлар, жоме масжиди, бир қанча илмий марказларни бирлаштирган йирик расмий диний мажмуа ҳисобланади. Бугунги кунда университетнинг дунёда 3 миллионга яқин битирувчиси бор.

Университет битирувчилари орасидан файласуф, судья, ҳуқуқшунос, рассом, дипломат, жамоат арбоби, президент, олим, сиёсатчи, маданият арбоблари чиққан.

Ҳозирда Халқаро ислом академиясида ва Имом Бухорий номидаги ҳадис илми олий мактабида Ал-Азҳар университетининг бир неча профессор ўқитувчилари таълим бермоқда.

Хулоса:

1. Мазкур давлатларнинг тажрибаларидан келиб чиқиб, Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантириш мумкин.

2. Собик иттифоқ давлатлари орасида ягона саналган Ўзбекистоннинг Бухоро шаҳридаги Мир Араб мадрасаси ва Тошкент шаҳридаги Имом Бухорий номидаги ислом институтида соби иттифоқ таркибидаги барча давлатлардан талабалар келиб диний таълим олгани маълум.

3. Демак, зиёрат туризмнинг бир тармоғи сифатида таълим туризмини яна ривожлантириш мумкин. Зотан, бунинг Ўзбекистонда тажриба, имконият ва салоҳият бор.

4. Таълим туризмини ривожлантириш учун хорижлик талабаларга қонун доирасида баъзи имконият енгилликлар яратиш лозим.

5. Таълим туризми орқали, аввало юртимизни дунёга танитишимиз, қолаверса, кўпроқ сайёҳларни юртимизга жалб қила оламиз. Бунга Миср Араб Республикаси ва ундаги Ал-Азҳар дорилфунуни тажрибаси мисол бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги “Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5416-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 22 июндаги “Ўзбекистон халқаро ислом академиси фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 466-сонли қарори.

3. Ш.Ёвқочев. Аждодлар орзу қилган муборак маскан. “Ислом тафаккури” журнали. 2018.№1. – Б. 4-8.

4. Мулло Али ал-Қорий. Мирқот ал-мафотиҳ шарҳ Мишкот ал-масобиҳ. 10 жилдли. – Байрут: Дор ал-Фикр, 2002.

5. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи. 2-жуз – Т.: “Nilol-Nashr” 2018 – Б 465-467.

6. Суютий. Ҳусну-л-муҳазаро фи ахбари Миср ва-л-Қоҳира. –Байрут: Дору ихяу-л-кутуби-л-арабий, 1967. –Ж. 2. –Б. 251.

7. Доктор Муҳаммад Абдулмунъим Хофажий ва доктор Али Али Субҳ. Ал-азҳар фий алфи аам. – Қоҳира: Мактабату ал-азҳарийя лит-турос. 2012. – 319б.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH MASALALARI

Raxmonova Maxbuza

Paxtaobod tuman 16-DMTT tarbiyachisi

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni kompleks rivojlantirish orqali ularni maktab ta'limiga intensiv tayyorlash masalasi dolzarb sanalmoqda. Mazkur yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish maktab ta'limiga tez va samarali ijtimoiylashish omili hisoblanadi. Kommunikativ kompetentsiya ijtimoiy tavsifga ega bo'lib, uni bolalarda shakllantirish uchun umumdidaktik, xususiy tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayonni tashkil etish taqozo etiladi. Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik ta'minoti bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetentsiya va bolalar nutqini o'stirish metodikasini o'qitishga ham bevosita bog'liqdir. Sanab o'tilgan vazifalar maktabgacha ta'lim mazmuni, unga qo'yiluvchi davlat ta'lim standarti talablari ko'lami doirasida amalga oshadi.

Maktabgacha yosh shaxs rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanib, bu davrda bolalarda nutqiy ko'nikmalar shakllanadi, umuminsoniy qadriyatlar va madaniyat olami bilan muloqotda bo'ladi. Nutq bolalarda maktabgacha bolalikda ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirishidagi muhim omil sanaladi. Ma'lumki, bolalar tug'ilgan davrida nutqi rivojlanmagan bo'ladi, biroq nutq shakllanishi uchun vaqt talab etiladi. Kattalar va tarbiyachi-pedagoglar bolalarda nutqni to'g'ri rivojlanishiga e'tibor qaratishlari zarur. Nutq bolaning o'z xatti-harakatlari, faoliyati, istiqboldagi hayotlarini tashkil etish va rejalashtirishlarida, o'z-o'zini rivojlantirish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Bola nutqining rivojlanishi ko'p jihatdan uning intellekti, ruhiyati, sog'lom va tetik o'sishi bilan namoyon bo'ladi. Binobarini bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish ularda nutqni qanday rivojlanganligiga bog'liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta'limda o'z yechimi topishi bolalarni ona tilida ravon, erkin so'zlay oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur.

Nutq o'stirishning muvaffaqiyati mashq qilishga, nutq tajribasiga bog'liqdir. Mashg'ulotda hamma vaqt har bir bolaning nutqini o'stirish uchun sharoit yaratib bo'lmaydi, chunki mashg'ulot davomida bola tarbiyachining va o'rtog'ining nutqini tinglaydi, xolos. Tarbiyachi bolada shunday ko'nikma hosil qilsinki, u mashg'ulotdan tashqari vaqtda ham o'z nutqini o'stirish bilan shug'ullansin. O'yin, mehnat, maishiy hayot faoliyatlarini tashkil qilish orqali tarbiyachi bolalarning nutq faolligini o'stirib borishi, har bir bola bilan suhbatlashishi, u o'z nutqida ishlatishi lozim bo'lgan so'zni aytib berishi, bola nutqidagi xatoni tuzatishi shart. Bola tarbiyachi bilan erkin gaplasha olishi, buning uchun unga ishonishi va uni sevishi lozim. Ta'lim muassasalarida nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so'zdan tashqari tasviriy san'at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmatini shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o'z navbatida tilni o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Quvonch hissi, hayajonlanganlik,

ko'tarinkilik holati, g'ayrioddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Suratlar, amaliy san'at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko'p savol beradilar, olgan taassurotlarini so'zlay oladilar.

Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari, unga qo'yilgan talablar, usullari, shakllari, nutqni rivojlantirish muammolari, barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shakllantirish yo'llari va ish samaradorligi. Bolalar nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish hamda ravon nutqni shakllantirish usul va uslubiyotini o'rgatishdan iborat. Bolalarni mantiqiy fikrlashi va tafakkurini rivojlantirish maxsus rejalashtirilgan va tashkil etilgan mashg'ulotlarda amalga oshirilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, mashg'ulotlarni tashkil etishda eng mabqul natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur bo'ladi:

- mashg'ulotlarni ularning maqsadi, mazmuni va o'tkazilish muddatini hisobga olgan holda rejalashtirish;
- bolalarning analitik-sintetik xarakteridagi nutqiy vazifalarni yechish mashg'ulotlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o'rtasida aloqalar o'rnatish, o'xshashliklarini ajratish;
- tarbiyaviy xarakterdagi aniq masalalarni hal etish (mashg'ulot mazmuni, vaqti va o'tkazish metodini aniq belgilash);
- bolalarda nutqni shakllantirishga oid mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish;
- rejalashtirilayotgan mashg'ulotlar o'rtasida izchillikga rioya qilish;
- mashg'ulotning bosqichlarini o'tkazish uchun ish vaqtining sarflanishini asosli ravishda aniqlash.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida aniq maqsadga qaratilmagan mashqlar bolalarni mantiqiy fikrlashi va tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirishda metodik tamoyillarga tayaniladi. Chunki, mazkur tamoyillar asosida tarbiyachi-pedagog o'quv muhitini yaratadi. Metodik tamoyillar bolalarni til va nutqni o'zlashtirish qonuniyatlari ko'zda tutiladi hamda umumdidaktik tamoyillar to'ldiriladi.

ҚОНУНЧИЛИКНИ ТИЗИМЛАШТИРИШ ТУШУНЧАСИ ВА ТУРЛАР**Nishonboyeva Gulhumor Ne'mat qizi****Farxodova Shohista Sardor qizi****Shonazarova Intizor Abdullajon qizi***Хоразм вилояти юридик техникуми талабалари.*

Аннотация: *ушбу мақола Ҳуқуқий муносабатларнинг вужудга келиши, ўзгариши ва бекор бўлиши билан боғлиқ масалалар жуда кенг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар доираси билан тартибга солиниши, мазкур ҳужжатларни қўллаш жараёнини энгиллаштириш ва шу асосда ҳуқуқий тартибга солишнинг самарадорлигини оширишда қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш муҳим аҳамият касб этиши ҳақида байон қилади.*

Калит сўзлар: *Норматив-ҳуқуқий ҳужжат, қонунчилик, акт, субъект, ҳуқуқий онг, маданият, кодекс, кодификация, Инкорпорация,*

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар (қонунчилик)ни тизимлаштириш уларни тартибга солиш ва такомиллаштириш бўйича амалга ошириладиган фаолият бўлиб, у мазкур ҳужжатларни белгиланган ва ўзаро ички боғланган тизим ҳолига келтиришни англатади. Бинобарин, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштириш ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш, қонунчиликни эскирган актлар ва ўзаро қарама-қарши нормалардан халос этиш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдаланишни энгиллаштириш ва соддалаштириш, жамиятнинг ҳуқуқий маданияти ва ҳуқуқий онги даражасини оширишда катта аҳамиятга эга.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштириш қуйидаги мақсадларда амалга оширилади: қонунчиликни ривожлантириш ва янада такомиллаштириш; норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тўғри англаш ва қўллаш; зарур бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжат (норма)ни топишни энгиллаштириш; жорий қонунчиликдаги зиддиятлар, ноаниқликлар, такрорланишлар, бўшлиқларни бартараф этиш; ҳуқуқий муносабат субъектларининг ҳуқуқий онг ва маданиятини шакллантириш ва бошқа.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни кодификациялаш қуйидаги белгилари билан фарқланади:

Биринчидан, кодификациялаш фаолияти билан фақат ваколатли ҳуқуқ ижодкорлиги органлари конституциявий ва бошқа қонуний ваколатлар асосида шуғулланади.

Иккинчидан, кодификациялаш натижасида олдин амалда бўлганларидан жиддий фарқланувчи нормаларни ўз ичига олган янги норматив-ҳуқуқий ҳужжат яратилади.

Учинчидан, кодификациялаштирилган ҳужжат йиғма ҳужжат ҳисобланади. Чунки, унда олдин турли ҳужжатларда акс этган, лекин ижтимоий муносабатларнинг маълум бир соҳасини тартибга солишга хизмат қилган нормалар бир жойга жамланади.

Тўртинчидан, кодификацияланган ҳужжат ижтимоий муносабатларнинг муайян соҳасида амал қилувчи ҳужжатлар тизимида асосийси ҳисобланади.

Бешинчидан, кодификациялаш натижасида яратиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижтимоий муносабатларни узоқ вақт давомида тартибга солишга мўлжалланган. Улар ижтимоий ҳаётдаги эҳтимол тутилган ўзгаришларни ҳисобга олиб, келажакда юзага келадиган янада такомиллашган ижтимоий муносабатларни тартибга солиш имкониятига эга бўлади.

Инкорпорация (лот. Incorporatio) – тизимлаштиришнинг бир тури бўлиб, бунда кодификациядан фарқли ўлароқ амалдаги қонунлар, фармонлар, ҳукумат қарорлари ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмунига бирон-бир ўзгариш киритилмасдан, улар хронологик, алифбо, мавзу бўйича ёки ўзгача тартибда (масалан, ҳуқуқ соҳалари бўйича) тизимга солиб нашр қилинади. Қонунларни инкорпорация қилиш орқали тизимлаштириш деярли барча давлатларда амалга оширилади. Улар кўп жилдли шаклда нашр этилиб, қонунларнинг чиқарилган вақтига қараб (хронологик), алфавит тартибида ва бошқа сифат ҳамда белгиларига қараб жойлаштирилади.

Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки йилларида чиқарилган қонунлар Ўзбекистон Республикасининг янги қонунлари деган кўп жилдли хронологик тўплам сифатида нашр этилган эди. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларининг тўпламида муайян муддат давомида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар инкорпорация шаклида тизимлаштириб борилади.

Консолидация – бу тизимлаштиришнинг шундай шаклидирки, бунда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмунига ўзгартиришлар киритилмайди, лекин бу ҳужжатлар мустақил юридик акт сифатида ўзининг кучини йўқотади. Консолидация норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштиришнинг инкорпорация ва кодификация ўртасидаги оралиқ шакли ҳисобланади. Консолидация натижасида бир турдаги ижтимоий муносабатларни тартибга соладиган турли хил юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар умумлаштирилади ва шу асосда кераксиз такрорланиш ҳамда зиддиятлар бартараф этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Дарслик. –: ТДЮУ, 2019. – 240 б.
2. “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги қонун.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI SIFAT- SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
O'QITUVCHINING MAHORATI****Abdurahmonova Gulasal Ravshanovna***Namangan Davlat Universiteti**Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi
kafedrası o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim sohasida, xususan boshlang'ich ta'lim sohasida tubdan islohotlar amalga oshirildi. Boshlang'ich ta'limning mazmuni yangilandi, yangi ishlab chiqilgan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari asosida esa zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan darsliklar yaratildi. Bugungi kunda zamonaviy pedagoglar tomonidan intensiv usullar- interaktiv metod va didaktik o'yinlar dars jarayonida tadbiiq qilinmoqda. Shu bilan birga boshlang'ich sinf davridanoq o'quvchilarga chet tillarini o'rgatib borish ham keng yo'lga qo'yildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'zlangan vazifalarni ado etish uchun ta'lim jarayonini ilmiy asoslangan g'oyalar, ya'ni ma'lum bir konsepsiya asosida tashkil qilinishi boshlang'ich ta'limni sifat samaradorligini oshiradi va kutilgan natijalarni beradi. Ta'lim- o'quvchilarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Boshlang'ich ta'lim- umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflarni qamrab oladi va ta'lim oluvchilarga ta'lim berish, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash, tafakkurini o'stirishning dastlabki bosqichi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirish talab qilinmoqda. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim oldiga bir qator vazifalar qo'yilmoqda. Bular:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash istagi va ko'nikmalarini shakllantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg'or tajribalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi. O'qituvchining mahorati insonparvarlik, bolalar bilan ishlash jarayonida mavzuni to'liq tushuntira olishi, kuzatuvchanlik, to'g'ri muomila qila olishi, kelajakni ko'ra bilishi, nutq malakasi, mimik va pantamimik ifodaliligi, qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar o'z hissiy holatini boshqara olishi bu o'qituvchining mahoratini

ifodalaydi. Bizning ta'lim tizimimizda ta'lim va tarbiya birgalikda olib boriladi. Bu esa ta'lim sifatini va davomiyligini yahshi ta'minlash uchun xizmat qiladi. "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan edi milliy tarbiyamiz daxolaridan biri A.Avloniy. Hayot, najot, saodatga eltuvchi ish, tarbiyani amalga oshiruvchi zot- o'qituvchidir. Pedagogik mahorat tug'ma iste'dod yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Yurtimiz kundan kunga rivojlanib bormoqda biz o'qituvchilar ham zamon bilan hamnafas bo'lishimiz uchun izlanishdan aslo to'xtamasligimiz kerak.

Hayotga endigina qadam qo'yayotgan bolajonlarimizga ta'lim berishda ularning har bir fanni tanishtirish tabiat bilan bog'lash, hayvonlarni sevishni, o'simlik olamiga mehr bilan qarashni va ularni parvarish qilish usullarini o'rgatish, tabiatimizga befarqlik bilan qaramaslikni, tozalikga rioya qilishni, odob ahloq qoidalarini, kattaga hurmatda, kichikga izzatda bo'lishni o'rgatish yahshi bilan yamonni farqlay olishlari, do'st tushunchasi haqida har xil rivoyatlar hadislardan misollar keltirib ularni o'zlari ishtirokida sahna ko'rinishlari asosida dars jarayonlarini tashkil qilish bu yahshi natijaga erishishning bir pog'onasidir.

Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kompyuterdan, proyektordan, ko'rgazmali plakat, tarqatma materiallar, orqali dars jarayonlarini tashkil etib har bir mavzuga oid o'yinli video roliklar, slaydlardan foydalanib o'quvchilarni har bir to'g'ri bajarilgan ishlarini munosib rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantirilib borilishi dars jarayonini tashkilshtirish, guruhlar o'rtasida muzokarali bahsli metodlardan, o'yinlardan foydalanish ham boshlang'ich ta'lim tizimimizning sifat - samaradorligi oshishiga katta hissa qo'shadi. Dars jarayonida hech bir o'quvchi nazoratdan chetda qolmasligi, pastroq o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan darsdan tashqari vaqt oralig'ida qo'shimcha to'garak darslarini tashkil etish har bir o'quvchimizga e'tiborli bo'lib ularning psixologiyasi, temperamenti bilan tanish bo'lishimiz har bir o'qituvchining vazifasi deb bilaman. Oilaviy muhiti bilan tanishib chiqqan holda ota-onalar bilan har doim muloqotda bo'lib turishimiz lozim.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI****Abdurahmonova Gulasal Ravshanovna***Namangan Davlat Universiteti**Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi
kafedrasida o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi- barkamol va sog'lom avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Har bir davlatning kelajagi ta'limning rivojlanishi bilan bog'lanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini njoiriy qilish hamda ta'lim samaradorligiga oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Respublikamizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari yangi ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Pedagoglarga qo'yilayotgan talablar asosida o'z faoliyatlariga yangiliklar kiritib bormoqdalar. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida fan, texnika va ilg'or tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Bu jarayon o'qituvchilarning mas'uliyatini yanada oshirmoqda. Pedagogik texnologiya nima? Biz uni qanday va qayerda samarali qo'llay olamiz? Bu kabi savollarga javob berish uchun biz avvalo boshlang'ich ta'limdagi dars jarayoni, undagi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini keng o'rganishimiz kerak? Boshlang'ich ta'lim- umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Shu bois hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'qituvchilar dars jarayonida zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayonini ijobiy tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, dars maqsadlarini to'g'ri tanlash, metodlarni o'z o'rnida qo'llay olish, o'quvchilar bilan hamkorlik o'rnatib, sinfda ijobiy-emotsional muhitni yuzaga olib chiqish o'qituvchining asosiy faoliyati hisoblanadi. O'quvchilarni o'qishga o'rgatish, bilim berishdan o'quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko'maklashish hamda dasrda ijobiy natijaga erishish uchun turli usullar bilan birgalikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tushunib qo'llay olish pedagogdan mahoratni talab etadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- muntazam tahlil qilib borish;

- loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash;
- metod va usullarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish;
- olinishi zarur bo'lgan natijasini oldindan taxmin qilish, ya'ni
- maqsadlarning amalga oshishiga erishish;
- ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar va elementlarga asoslangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy qilish, xorijiy hamda hamdo'stlik davlatlaridagi pedagogik texnologiyadan foydalanib, o'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va amalda qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari pedagog va o'quvchi o'rtasida o'quv mehnati rejasini ishlab chiqish, ya'ni pedagog bo'lim yoki bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada talaba faoliyati o'z aksini topishi lozim.

2. Fanning ichki bog'lanishi yoki fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish. Ma'lumki, har bir o'rganiladigan kichik yoki yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlariga tayanadi. Demak, o'quvchini yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina o'quvchini bilimlarni o'rganishning navbatdagi bosqichiga olib kirish lozim. Bunday ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy elementlaridan biri diaqnoz (tashxis) hisoblanib, o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishga qanchalik darajada tayyor ekanliklarini aniqlashdan iborat.

3. O'quv birliklari mezonlarini belgilash. O'quv birliklari o'quvchi tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan tushuncha, ta'rif, qoida, qonunlar, hodisa va voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishini shu bob yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa soxalar qatorida ta'lim jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi ehtiyojidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olish va yangilik yaratish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun o'qituvchi darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli va oson qiziq bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

VOLEYBOL SPORT MUSOBAQALARIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI

Akbarmirzo Ortiqaliyev Ismoiljon o'g'li

NamDU sport klubi rais o'rinbosari

Zamonaviy voleybol musobaqalarida yuksak sport natijalariga erishish keskin raqobat ostida kechayotganligi isbot talab qilmaydi. O'yinlarning har bir lahzasi o'ta shiddatli va tezkor o'zgaruvchan vaziyatlar ustunligi bilan farqlanadi. Mashg'ulot va musobaqalarga xos yuklamalar hajmi, shiddati va o'yin mazmuni mukammal shakllangan jismoniy hamda funksional imkoniyatlarni talab qiladi. Faqat shunday imkoniyatlarga asoslanilsa yuksak texnik-taktik mahorat musobaqa taqdirini belgilaydi. Shu bilan bir qatorda bugungi voleybolning yana bir ustuvor xususiyatlari shundan iboratki, har bir o'yinchi vajamoa jismoniy hamda texnik-taktik jihatlaridan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-yu, lekin ularning psixologik imkoniyatlari zaif bo'lsa, musobaqa davomida foydali natijaga erishish mushkul bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Voleybolchilarni tayyorlash amaliyotida psixologik tayyorgarlik quyidagi ikki yo'nalishda olib borilishi odat tusiga kirgan:

- umumiy psixologik tayyorgarlik;
- muayyan musobaqaga maxsus psixologik tayyorgarlik.

Umumiy psixologik tayyorgarlik. Voleybol maydonchasi gandbol, basketbol va tennis maydonlaridan nisbatan kichik bo'lgani va unda har bir jamoada 6 o'yinchining o'zaro tezkor va o'zgaruvchan vaziyatlarda harakat qilishi hamjihatlik, oraliq-vaqtni his qiiish, tezkor fikrlash, o'z jamoadoshi va raqib harakatlarini tezkor payqash hamda idrok qiiish va boshqa psixologik xislat (xotira, diqqat, tafakkur va h.k.)larning shakllangan bo'lishini talab qiladi.

Voleybolchiga xos ushbu psixologik xislatlar mashg'ulotlar davomida o'z holicha ham shakllanishi mumkin. Masalan, shug'ullanuvchilarda jismoniy va funksional imkoniyatlar hamda texnik-taktik mahorat shakllangan sari, jamoa tarkibida mashg'ulot va musobaqalarda o'yin tajribasi ortgan sari ularda iroda, oraliq-vaqtni his qiiish, ko'rish doirasi, to'pni yo'nalishi, tezligi, baland-pastligini oldindan bashorat qiiish, vaziyatga mos va raqib taktikasi qarama-qarshi foydali taktikani tanlash xislatlari sayqal topib boradi. Agar bunday psixologik xislatlarning shakllanish mexanizmi va qonuniyatlari nazariy-uslubiy mashg'ulotlarda tushuntirilsa, amaliy mashg'ulotlarda ularni maxsus yo'naltirilgan mashqlar (farazlar, ishontirish, mo'ljal, ehtimollar va bashorat qiiish mashqlari) yordamida shakllantirilib borilsa, foydali natija yanada salmoqliroq bo'lishi mumkin.

O'yin taktikasi va taktik fikrlash o'yinchining psixologik imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Agar texnika (usullar-harakatlar texnikasi) o'yinchi organizmining markaziy (nerv sistemasi) va periferik-ijrochi organlari mahsuli bo'lsa, taktika (usul-harakat taktikasi, taktik kombinatsiyalar, taktik fikrlash, oldindan bashorat qiiish va h.k.) oliy nerv faoliyati - intellectual va harakat birligining mahsulidir. Demak, psixologik-jismoniy, psixologik-

funksional, psixologik-texnik va psixologik-taktik tayyorgarlik integral mazmunli mashg'ulotlarda shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak musobaqa o'tkazish joylari, iqlim sharoitlari, kun-tun bioritmi modellashtirilgan sharoitlarda o'zlashtiriladi.

Muayyan musobaqaga maxsus psixologik tayyorgarlik. Muayyan musobaqaga tayyorgarlik ko'rish o'ta murakkab va mas'uliyatli jarayondir.

Ma'lumki, har bir sportchi musobaqalarda ancha barvaqt va musobaqa oldi vaziyatlarda mahorati va tajribasidan qat'i nazar, turli xil psixologik holatlar (lixoradka - talvasaga tushish, apatiya - tushkunlikka tushish, jangovor holat, hayajonlanish va h.k.)ga duchor bo'ladi. Agar o'yinchi va jamoa uchun bo'lajak raqibning o'yin va psixologik modeli (jismoniy, funksional, texnik-taktik, psixologik imkoniyatlar) yaxshi, batafsil tanish bo'lmasa, salbiy psixologik hissiyotlar kuchayishi, hatto o'z-o'zini boshqara olmaslikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun musobaqaoldi mashg'ulotlarda bo'lajak raqibning barcha imkoniyatlari, shu jumladan uning psixologik imkoniyatlari puxta o'rganiladi. Bunda videofilmlar, «sport razvedkasi» taqdim etgan ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Imkoniyatlar va vaziyatlar o'zlashtirilganidan so'ng, ular modellashtirilgan mashg'ulotlar tarkibida mashq qilinadi.

Salbiy psixologik hissiyotlarni bartaraf etish va jangovor psixologik holatlarni shakllantirish uchun quyidagi mashq-formulalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Musobaqaoldi vaziyatlarida ro'y beradigan salbiy holatlarni bartaraf etish:

- bugun tinch va osoyishta uxlayman, butun ichki a'zolarim, mushaklarim, diqqatim va xotiram chuqur dam oladi;

- uyqudan a'lo kayfiyat, a'lo hissiyot, yorqin xotira bilan uyg'ondim;

- o'rnimda bajargan qayishqoqlik va nafas mashqlarim kayfiyatimni yanada ko'tardi, o'zimni yengil his qilmoqdaman, «uchishga tayyorman»;

- biroz yengil yugurganim, asta-sekin bajargan badantarbiya - chigilyozdi mashqlarim, toza nafas olish meni «qushdek» yengil qildi;

- o'yinoldi mashg'ulotida barcha imkoniyatlarimni raqib kamchiliklari, zaif jihatlari va kutilmagan vaziyatlarga qarama-qarshi kurashga shaylantirdim;

- jangovar holatga keldim, «jangga» tayyorman;

barcha imkoniyatlarim yuksak psixologik faollik asosida tayyor!!! Yuqorida qayd etilgan «autotrening» - ishontirish mashqlarini har bir sportchining psixologik va boshqa imkoniyatlariga qarab dasturlash mumkin. Psixologik tayyorgarlik jarayonini tashkil qilishda yuqorida aks ettirilgan tartibga rioya qilish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonuni. - T.: «O'zbekiston», 1997. - 16 b.

2. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni. -T.: 27-iyul, 2000.

3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol. // Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma.T.: 2009. - 77 b.

TILSHUNOSLIKNING BARCHA FANLAR BILAN UZVIY ALOQASI

Madraximov Asadbek Matrasul o'g'li
Qurbonova Sabohat O'ktam qizi
O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi
Xorazm viloyati Yuridik texnikumi talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi haqida to'xtalib o'tganmiz. Tilshunoslikning dolzarb muammolari haqida ham biroz yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, tilshunoslikning yo'nalishlari va ushbu yo'nalishlarni yoritib berishga harakat qilganmiz.*

Kalit so'zlar: *darvinizm, naturalistik, ligvistika, xususiy, amaliy, struktural, matematik.*

Tilshunoslik – bu tilning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning faoliyat qonunlari va tarixiy taraqqiyotini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Tilshunoslik atamasi bilan bir qatorda ilmiy adabiyotlarda lingvistika termini ham keng qo'llaniladi.

Tilshunoslikning fanining asosiy masalalaridan biri bu tilning ushbu fanning predmeti sifatidagi ta'rifi hisoblanadi. Tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki bir qator fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab hodisa bo'lib, har bir fanning tilga bergan ta'rifi turlichadir. Tilning ta'rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli xil maktablar va oqimlar o'rtasida keskin bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Tilshunoslik fanlar sistemasida deyarli barcha fanlar bilan o'zaro aloqada turadi. Buning sababi tilshunoslik fanining o'rganilish obyekti bo'lgan tilning mohiyati bilan bog'liqdir. Til - bu odamlar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasifatida ijtimoiy xarakterga ega hisoblanadi. Bundan ko'rinib turadiki, u boshqa ijtimoiy hodisalar bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, til egasi bo'lgan xalqning tarixi, madaniyati, ruhiyati va hokazolardir. Demakki, o'zaro munosabatda bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalarni o'rganuvchi ijtimoiy fanlar ham o'zaro munosabatdadir. Chunonchi, tilshunoslik falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar bilan o'zaro aloqadadir.

Darvinizmning dunyo fanida katta obro'-e'tibor qozonishi uning boshqa fanlarga ham ta'sirini kuchaytirdi. Bu ta'limotning ta'sirida tilshunoslikda alohida yo'nalish – naturalistik oqim maydonga chiqdi. Tilga naturalistik yondashuv konsepsiyasi Germaniyaning Ien universiteti professori Avgust Shleyxerning (1821-1868) “Til haqidagi fanga Darwin nazariyasining tadbiqu” (1863) va “Insonning tabiiy tarixi uchun turlarining ahamiyati” (1865) asarlarida yorqin ifodasini topgan. A. Shleyxer tilni “tovushlar yordamida ifodalangan fikr” deb tushunadi. Uning fikricha, til alohida shaxsga bog'liq emas. Tilda inson irodasiga bo'ysunmaydigan ma'lum qonunlar mavjud. Xuddi shunday qonunlar tabiiy

fanlardagina kuzatiladi. Tilshunoslik obyekti lingvistga bevosita beriladi. U tadqiqotchi subyektivizmdan holidir. Ana shunday fikrga tayangan holda, Shleyxer tilshunoslik inson tabiiy tarixining bir qismini tashkil etadi degan xulosaga keladi va uni tabiiy fanlar sistemasiga kiritadi.

Tilshunoslik boshqa fanlar bilan ma'lum munosabatda bo'lib keladi. Bu esa tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rnini belgilashda bir qadar qiyinchilik tug'diradi. Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o'rganiladigan obyektning tabiati asos qilib olinadi. Bu jihatdan uning o'rganish obyekti ham ko'p qirrali, murakkabdir. Birinchidan, til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarini saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi, kishilarda estetik zavq uyg'otuvchi qudratli vositadir. Chunki u muayyan jamiyat uchun xizmat qiladi. Agar shu jamiyat bo'lmasa, uning tiliga ham zarurat bo'lmaydi. Jamiyatdagi har bir o'zgarish uning tilida o'z izini qoldiradi. Tilni ana shunday ijtimoiy mohiyat sifatida o'rganish tilshunoslikni ijtimoiy fanlar tarkibiga kiritishga asos bo'ladi.

Til - bu fikrni ifodalovchi va shakllantiruvchi vosita hisoblanadi. Talabalarda "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, kuchaytirish, "Tilshunoslikning dolzarb muammolari"ning o'ziga xos nazariyasi, til materiallarini ilmiy tahlil etish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita amaliy va ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu fanni o'rganish va tadqiq etish bugungi kun nuqtayi nazaridan juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" kishilik jamiyatining amaliy ehtiyojlari ta'sirida yuzaga kelgan tilshunoslikning mustaqil bir sohasidir. Kishilik jamiyatining taraqqiy eta borishida "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" fanining yechishi lozim bo'lgan masalalari ham, shu masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan yo'l-yo'riqlari va metodlari ham o'sib, rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmonov A, Mahmudov N.. "O'zbek tilshunosligi tarixi". T., "Kamolot qatortol". 2000.
2. N. Uloqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz mediya", 2016.

SINF DAN TASHQARI TADBIRLARNI TASHKIL ETISH

Ahrorova Shohzoda Rajabovna

Buxoro viloyat Jondor tuman

38-umumiy o'rta ta'lim maktabining

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Sinf dan tashqari tadbirlarni tashkil etishda, bugungi kun o'qituvchisining o'zi har tomonlama shakllangan va o'zida sahna madaniyatini yuksak darajada shakllantira olgan hamda o'rni kelganda she'rxon, o'z imkoni doirasida raqqos-u xonanda, sahnada xuddi hayot sahnida turgandek mustaqqil obraz yarata oladigan, o'quvchining sahnada mustaqqil va shaxdam qadam tashlashiga erishish uchun ular bilan birga sahnaga chiqa oladigan, sahnaga qo'yiladigan asarlarda esa, adolat timsolida Alisher Navoiyning "Shoh G'oziy", va yolg'onchilikning oqibatlari aks etgan "Sher bilan durroj" hamda xalqchil ruhda sug'orilgan milliy urf-odatlar aks etgan, (Sh Ahrorova tomonidan Habiba buvi tilidan yozib olingan "Bir chimdim mehr" sahnasi)

Buvi tilidan – Bizning bolalik chog'imizda onajonlarimiz eski kiyimlarimizni olib ichiga tikka turishi uchun ikki hachchali cho'p tiqib yenglari va oyoq uchlarini tikib ustiga bir bosh yasab unga yo'rma bilan qosh, ko'z-u og'iz yo'rmalab, qora ipda mayda o'rilgan soch tikib, ustiga yana bir o'rma qilib, ko'ylak kiydirib bizga berishardi. Biz esa, xuddi tengi yo'q narsaga ega bo'lgandek onajonimizning mehri qo'shib yasalgan qo'g'irchoqni qo'limizdan qo'ymasdan qattiq quchib yotardik.

Bugunchi, har bir bolaga zavodda sovuq temir mashinalar dunyoga keltirgangan bir uy qo'g'irchoq, ammo bolalar birini urib, ikkinchisini turtib katta bo'lishadi. Aksariyat onajonlarimiz esa, o'z dilporalari uchun eski kiyimlar-u oddiy ipdan dildan mehr mehr qo'shib tayyorlangan o'yinchoqlar o'rniga, o'sha sovuq temir mashinalar dunyoga keltirgan hashamga boy, ancha xarjga sabab bo'ladigan mehrsiz qo'g'irchoqlarni xarid qiladilar. Bugun siz o'z dilporangizdan bir chimdim mehri ayasangiz, erta mehrga zor bo'lib qolmaysizmi?...





Bugungi maktab yoshidagi qizlar bilan yumshoq o'yinchoqlar tikish va bugunning imkoniyati kiriditlardan foydalanib to'garaklar faoliyatida ularni savdoga chiqarish imkoni bo'lsa, chetga import qilishga erishish

(“O'zbekistonda ishlab chiqarilgan

Mehr qo'shib tayyorlangan”

“Made in Uzbekistan

T was made with love”

yorlig'i ostida) ga o'xshagan bir qator ibratli sahna asarlarini tanlab ola biladigan va shu asarni tomoshabinga ta'sirini yetkaza oladigan o'quvchilarni tanlab, saralay olib sahna asari orqali turmush tashvishlari hamda shu tashvishlar egib qo'ymaydigan ilg'or, mehnatkash, mehnati samarasidan zavqlanib, faxr tuyg'usini tuyadigan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan obrazlarni tomoshabinga, maktab o'quvchisiga yetkaza oladigan bo'lsa, “Ming bora eshitgandan bir marta ko'rgan afzal” deganlaridek o'quvchini hayotda o'z o'rnini topishi uchun maqsadli harakat bo'lardi.

(Muhammad Yusufning 60 yilligiga bag'ishlangan “Nafosat kuychisi” tadbiri ilova qilinadi)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buxoronoma 2006-yil 5-avgust “Farishtali uy” Ahrorova Shahzoda Bux DU filologiya fakulteti III kurs talabasi.

2. O'tkir Hoshimov Toshkent 2011 “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”

3. "O'zbek xalq maqollari" Toshkent 2002

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKETINGINING MOHIYATI

Buvorayev Shuhrat Ortiqali o'g'li

Toshkent shahridagi

Singapur Menejmentini Rivojlantirish Instituti magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot texnologiyalari marketingining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *axborot, marketing, axborot texnologiyalari, iqtisodiy taraqqiyot, marketing organlari, axborot ishlab chiqaruvchilar.*

Bugungi kunda axborot texnologiyalari faqat fan va texnika yangiligi doirasidan chiqib, oddiy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga ham aylandi. Shu bilan birga axborot mahsulotlari va xizmatlarini ularni kelgusida sotish uchun ishlab chiqish-ishlab chiqarishning mustaqil tarmog'iga aylandi.

Inson yashayotgan olam turli moddiy va nomoddiy obyektlardan, shuningdek, aloqalar va ular o'rtasidagi o'zaro harakatlardan tashkil topgan. Sezgi organlari, uskunalar va shu kabilar yordamida qayd etiladigan voqealar **ma'lumotlar** deb ataladi va aniq vazifalarni hal qilishda ular **axborotlarga** aylanadi. Vazifani hal qilish natijasida yangi **bilimlar**-tizimlashtirilgan, qonunlar, nazariyalar va qarashlar hamda tushunchalarning boshqa yig'indisi ko'rinishida umumlashtirilgan haqiqiy yoki sinovdan o'tgan ma'lumotlar paydo bo'ladi. Kelgusida bu bilimlarning o'zi boshqa vazifani hal qilish yoki oldingilarini aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibiga kiradi.

Ma'lumotlarni axborotga aylantirish ularning iste'molchisi ya'ni foydalanuvchisi tomonidan o'z axborot modeli asosida amalga oshiriladi. Bularning barchasini amalga oshirishda marketing organlari asosiy rol o'ynaydi.

Ma'lumotlar ularning bo'lg'usi iste'molchisi tomonidan axborotga aylantirilganda ishlab chiqaruvchi va iste'molchining axborot modellari tabiiy ravishda bir-biriga mos keladi. Agar ma'lumotlar tovar sifatida namoyon bo'lsa, u holda iste'molchi axborot mahsulotlari, ya'ni ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan kelgusida tarqatish uchun shakllantirilgan ma'lumotlar yig'indisiga duch keladi. Axborot mahsuloti tuzilishi yoki unda ma'lumotlarni taqdim etish shakli uni ishlab chiqaruvchining qandaydir bir axborot modelini o'z ichiga olgan bo'ladi va u ta'rifan foydalanuvchining axborot modelidan farq qiladi.

Tabiiyki, tijorat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar o'z modellarida iste'molchilarning modelini ham hisobga olishga harakat qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarning axborot modeli hech qachon to'laligicha bir-biriga to'g'ri kelishi mumkin emas. Chunki:

c) foydalanuvchilar ko'pincha o'zlariga qanday axborot kerakligi to'g'risidagi ancha

noaniq tasavvurlarini yaqqol axborot modeliga joylashtira olmaydilar. Bu esa mazkur tushunchalarni mahsulot konsepsiyasida hisobga olishga to'sqinlik qiladi;

d) agar hatto bunday modellar qandaydir darajada bor bo'lsada, birinchidan ishlab chiqaruvchi ular haqida bilmasligi yoki ularni noto'g'ri qabul qilishi, ikkinchidan turli foydalanuvchilarda bu modellar bir-biriga mos kelmasligi va shu bilan foydalanuvchining abstrakt axborot modelini tuzishni umuman qiyin, ba'zan esa amaliy ahamiyatsiz masalaga aylantirishi mumkin.

Ma'lumotlar olish va ularni qayta ishlash jarayonini foydalanuvchilar uchun qanday qilib qulaylashtirish masalasi zamonaviy axborot texnologiyalari paydo bo'lguniga qadar ancha oldin yuzaga kelgan edi. Masalan, qog'oz manbalarida axborot ishlab chiqaruvchilar (kitoblar, jurnallar va boshqa manbalar mualliflari va nashr etuvchilar) axborot qidirishni materialni qulaylashtirib berish, predmet va nomli ko'rsatkichlar tashkil etish yili bilan osonlashtirishga xizmat qilganlar. Shu maqsadda "ma'lumotlar haqida ma'lumotlar" ko'plab chop etilgan. Yangi axborot texnologiyalari paydo bo'lishi bilan ma'lumotlar izlash va ularni qayta ishlash imkoniyatlar tom ma'noda cheksiz kengaydi. Ensiklopediyalarning elektron variantlari, axborot tizimiarining elektron variantlari va shu kabilar keng qo'llanilmoqda.

Marketing axborot xizmati keng ma'noda foydalanuvchiga axborot mahsulotlarini taqdim etishdan iborat. Tor ma'noda axborot xizmatlari deganda yangi axborot texnologiyalari yordamida olinadigan xizmatlar tushuniladi. Marketingning muhim vazifalaridan biri-iste'molchilarni yangi axborot texnologiyalariga ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu vazifalarni to'g'ri va to'liq bajarish yangi axborot mahsulotlariga bo'lgan talabni kengaytirdi, ma'lumotlarni individuallashtirishga, uning alohida foydalanuvchilar individual ehtiyojlariga yaqinlashishga va shu bilan ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar axborot modellarining yaqinlashuviga ko'maklashadi. Bundan tashqari, foydalanuvchi butun axborot mahsulotiga ega bo'lishi shart emas. Bu esa boshqa teng sharoitlarda real olingan axborotni ancha arzonlashtiradi. Shu bilan birga, axborot marketing xizmati axborot mahsulotisiz mavjud bo'la olmaydi. Lekin, axborot mahsuloti ham marketingga tegishli axborot xizmatlarisiz o'z ma'nosini yo'qotadi. Mohiyatan, mavjud xizmatga biror xizmatni havola qilish foydalanuvchi uchun ma'lumotlarni taqdim etish shaklining o'zgarishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, aynan oldingilaridagi ma'lumotni o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, axborotlashganlikning boshqa darajasiga ega boigan yangi mahsulot paydo bo'lishini keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Майоров А.П. Информационная технология на современном мире. —М.: Дело, 2004 г.
2. Харитонов И.С. XX I век - век информации. -М.: ЮНИТИ, 2004 г.
3. Цуркань А.М. Информационный маркетинг. —Киев.: Знания, 2003 г.
4. Блайд Джим. Маркетинговые коммуникации: Что? Как? И почему? Пер. с

англ. -Днепропетровск: Баланс-Клуб, 2004 г. — 368 с.

5.Галатенко В.А. Основы информационной безопасности. - М.: ИНТУИТ РУ «Интернет — Университет Информационных Технологий», 2003 г. —280 с.

УЗУМНИНГ ОФТОБИ ВА СОЯКИ УСУЛЛАРИДА ҚУРИТИШНИНГ МАЙИЗ ЧИҚИШИГА БОҒЛИҚЛИГИ

Раимова Дилноза Раимовна

Тошкент давлат аграр университети магистранти

Музрабов Абдурахмон Назир ўғли,

Бегмахматов Азизбек Бахтиёр ўғли

Гулистон давлат университети талабаси

Аннотация: Мақолада узумни қуритишнинг офтоби ва сояки усулда қуритилганда, қуритилган маҳсулот чиқиши, қуритилган маҳсулотнинг этдорлиги бир биридан фарқ қилди. Офтоби усулда Қуритиш муддати 20-30 кун. 22-25% майиз чиқиши аниқланган бўлса, сояки усулда қуритилганда ҳеч қандай ишлов берилмаганда қуритиш муддати 25-30 кун; каустик соданинг 0,3-0,4% ли қайноқ сувдаги эритмаси ботириб билан ишлов берилганда 14-20 кун давомида қурилди. Қуритилган майизнинг чиқиши 26-32% бўлиши аниқланди. Офтоби усулда қуритишга 22-25% майиз чиқиши аниқланган бўлса, Сояки усулда қуритилганда офтоби усулга нисбатан майиз чиқиши 4-7% юқори ва этдорлиги билан ажралиб турди.

Калит сўзлар: узум, нав, офтоби, сояки, майиз, қуритилган, шигони, бедона, кимёвий таркиб, қандлилиқ, кислоталлиқ.

Кириш Узум маҳсулотлари ичида унинг қуритилган навлари кишмиш (уруғсиз-кишмишбоп навлардан тайёрлангани) ҳамда майиз (уруғли навлардан тайёрлангани) озиқ-овқат саноати ва инсон саломатлигини мустаҳкамлашда муҳим ўрин тутади. Уларнинг сифат кўрсаткичлари узумнинг навига, тупроқ-иқлим шароитларига, ўстириш ҳамда қуритиш усулларига боғлиқ. Дунё бўйича етиштирилаётган майизларнинг аксарият қисми (90-95%) уруғсиз-кишмишбоп навлар (Қора кишмиш, Оқ кишмиш, Кишмиш Хишрау, Кишмиш, ВИР, Аскарри, Коринка ва х.к.) дан тайёрланади.

Майиз қилинадиган узум таркибидаги қанд моддаси камида 23-25%, узум бошлари эса ўртача зич, ғужумлари этдор бўлиши лозим. Майизнинг кўпроқ чиқиши, асосан биринчи галда узумнинг ширадорлиги ва этининг консистенцияси (зичлик даражаси)га боғлиқ.

Узум, асосан очик ҳавода офтобда (офтоби усули), махсус сояхоналарда (сояки усули), шунингдек, қуритиш мосламалари ёрдамида қуритилади. Кишмиш қадимдан узумнинг Қора кишмиш, Оқ кишмиш наваларидан, айрим холларда эса Аскери ва Пушти кишмиш наваларидан ҳам тайёрланиб келинган.

Кейинги йилларда олимлар томонидан сифатли кишмиш ва майиз берувчи бир

қатор кишмишбоп (Кишмиш Хишрау, Кишмиш Зарафшон, Кишмиш Согдияна, Кишмиш ВИР) ҳамда хўраки (Ризамат, Қора жанжал ва ҳ.к.) навлари яратилган бўлиб, улардан сифатли махсулот тайёрланмоқда. Шунингдек, Ўрта Осиё, хусусан Ўзбекистонда Каттакўрғон (маска), Нимранг, Султони (жаус), Тойифи, Гўзал қора, Штур ангур, Хусайни каби хўраки навлардан ҳам гермиён ва авлон деб аталувчи сифатли майиз тайёрланади. Ўзбекистонда майиз ва кишмиш, асосан Самарқанд, Бухоро, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятларида етиштирилади.

Узум қуритишнинг офтоби, обжуш, сояки каби усуллари бор. Барча усулларда узум терилгач, махсус қуритиш майдончаларига келтирилади, сараланади ва керакли идишлар (сават, ёғоч патнис ва ҳ.к.) га жойланади. 1 м² майдонга 10-12 кг. узум жойланиб бир текис қуриши учун улар ҳар 5-6 кунда ағдариб турилади. Таркибидаги намлик 18-20% бўлганда узум қуриган ҳисобланади.

Узумни офтоби усулда қуритиш- узумнинг ҳечқандай ишлов бермасдан офтобда қуритиш усули. Асосан кишмишбоп ҳамда майизбоп хўраки навлар қуритилади. Қуритиш муддати 20-30 кун. 22-25% майиз тушади. Оқ кишмишдан бўлган майиз бедона, Қора кишмишдан бўлгани шигани деб аталади.



1-расм Узумни офтоби усулда қуритиш

Сояки - узумни махсус соякихоналарда осиб қуритиш усули (2-расм).

Ҳеч қандай ишлов берилмаганда қуритиш муддати 25-30 кун; каустик соданинг 0,3-0,4% ли қайноқ сувдаги эритмасига ботириб олинганини 14-20 кун. 26-32% майиз тушади. Оқ кишмишнинг соякихоналарда осиб қуритилгани оч яшил рангда кўримли ва сифатли бўлди. Оқ рангдаги узумларни янада рангдор (тилла ранг) қилиш учун улар штабел (сўкчак) ларда олтингугурт билан дудлаб қуритилади (ҳар бир кг. узум ҳисобига 0,6-0,8 г. олтингугурт 30-40 дақиқа ёқилади). Оқ кишмишдан қуритилган майиз **сабза** ёки олтин ранг сабза, Катта кўрғон, Нимранг каби хўраки навлардан қуритилгани шигани ёки олтин ранг шигани дейилади. Соякихоналарда қуритилган майизлар юқори сифатли, ширадор ва шифобахш ҳисобланади.



2-расм. Узумни сояки усулда қуритиш усули

Узумни қуритишнинг офтоби ва сояки усулда қуритилганда, қуритилган маҳсулот чиқиши, қуритилган маҳсулотнинг этдорлиги бир биридан фарқ қилди.

Офтоби усулда Қуритиш муддати 20-30 кун. 22-25% майиз чиқиши аниқланган бўлса, сояки усулда қуритилганда ҳеч қандай ишлов берилмаганда қуритиш муддати 25-30 кун; каустик соданинг 0,3-0,4% ли қайноқ сувдаги эритмаси ботириб билан ишлов берилганда 14-20 кун давомида қурилди. Қуритилган майизнинг чиқиши 26-32% бўлиши аниқланди. Офтоби усулда қуритишга 22-25% майиз чиқиши аниқланган бўлса, Сояки усулда қуритилганда офтоби усулга нисбатан майиз чиқиши 4-7% юқори ва этдорлиги билан ажралиб турди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш. Темуров. Узумчилик Тошкент-2002 й. 9-110 б.
2. Р.М. Абдуллаев, М. М. Мирзаев, У.Я. Набиев. Ш.М. Абборов, У.А. Бекчанов, Ғ.Ғ. Маҳмудов. Узум етиштириш ва майиз қуритишнинг замонавий технологияси. Тошкент -2013. 135-141 б.
3. Х.Б. Шомурадов., Ж. Н. Файзиев. Узумни сақлаш ва қайта ишлаш технологияси (маръузалар матни) 2006 й 33-40 б.

УЗУМНИНГ ХЎРАКИ НАВЛАРИНИ ВОИШ УСУЛИДА ЎСТИРГАНДА МЕХАНИК ТАРКИБИНИ КУРТАК ЮКЛАМАСИГА БОҒЛИҚЛИГИ

Эгамбердиев Пулатжон Эргашович

Гулистон давлат университети ўқитувчиси

Раимова Дилноза Раимовна

Тошкент давлат аграр университети магистранти

Музрабов Абдурахмон Назир ўғли,

Бегмахматов Азизбек Бахтиёр ўғли

Гулистон давлат университети талабаси

Аннотация: Мақолада хўраки узум навларининг узум бошларини механик таркиби ўрганилганда олинган натижалар барча навлар бир-бирига нисбатан катта фарқ қилинмаганлиги аниқланди. Узум бошининг оғирлиги энг кўпи Оқ хусайни навида 160-200 та куртак юкламали ток тупида 355,8 г, Ризамат навида 200-240 та куртак юкламали ток тупида 422,3 г ва Катта қўрғон навида 160-200 та куртак юкламали ток тупида 455,3 г бўлиши аниқланди. Ток тупига мейёрда кутак қолдирилса ҳосил сифати ва механик таркиби йўқори бўлиши қайт этилди.

Калит сўзлар: гужум, ток, туп, куртак, юклама, механик таркиб, эт, шарбат, пўст, уруг, хўраки.

Хўраки узум навларининг узум бошларини механик таркиби ўрганилганда олинган натижалар барча навлар бир-бирига нисбатан катта фарқ қилинмаганлиги аниқланди [1].

Хўраки узум навларининг узум бошлари, эти, шингили, уруғи аналетик тарозида, ўлчаниб, фоизда ҳисобланди, узум бошининг ўлчами эса чизғичда ўлчанди [2,3]. Олинган натижалар 1-жадвалдаги маълумотлардан кўришиб турибдики, Оқ хусайни узум бошининг оғирлиги ток тупи кесилмаган (назорат) вариантда 317,8 г, узум бошининг узунлиги 21,7 см, эни 11,2 см, узум бошининг эти ва шарбати 87,8%, банди 4,6%, узум ғужумининг пўсти 0,5% ва узум ғужумнинг уруғи 7,1 % кўрсаткичда бўлиши аниқланган бўлса, 80-120 та куртак ток туп куртак юкламасида узум бошининг оғирлиги назорат вариантдан 12,7 г, узум бошининг узунлиги 2,6 см кўп, эни 0,1 см кам, узум бошининг эти ва шарбати 3,0% кўп, банди, 1,2% кам, узум ғужумининг пўсти 0,1% ва узум ғужумнинг уруғи 1,6% назоратдан кам кўрсаткичда бўлиши кузатилди, 120-160 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 17,3 г, узум бошининг узунлиги 2,5 см, эни 1,2 см, узум бошининг эти ва шарбати 3,3% кўп, узум бошининг банди 1,2% кам, ғужумининг пўсти 0,1% кам, узум ғужумининг уруғи 2,8 % кўп бўлиши аниқланди. 160-200 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари оғирлиги назорат вариантга нисбатан 18,0 г оғир, узум бошининг узунлиги 2,7 см, эни 4,0 см, узум бошининг эти ва шарбати 3,0% кўп, узум бошининг банди 0,5% кам ва ғужумининг пўсти 0,1 % кам,

узум ғужумининг уруғи 2,0 % кам бўлиши қайт этилди. 200-240 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 35,9 г, узум бошининг узунлиги 2,6 см, эни 2,3 см, узум бошининг эти ва шарбати 1,6% кўп, узум бошининг банди 0,5% кам ва ғужумининг пўсти 0,1% кам, узум ғужумининг уруғи 2,8 % кам бўлиши кузатилди. 240-280 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 15,9 г, узум бошининг узунлиги 2,5 см, эни 1,6 см, узум бошининг эти ва шарбати 1,1% кўп, узум бошининг банди 0,6% кам ва ғужумининг пўсти тенг ва узум ғужумининг уруғи 1,6 % кам бўлиши аниқланди.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида узумнинг хўраки Ризамат нави узум бошининг оғирлиги ток тупи кесилмаган (назорат) вариантда узум бошининг ўртача оғирлиги 368,1 г, узум боши узунлиги 15,8 см, узум боши эни 11,1 см, узум бошининг эти ва шарбати 87,4 %, узум бошининг банди 5,8%, узум ғужумининг пўсти 0,7% ва узум ғужимининг уруғи 6,1% ни ташкил этди. 80-120 та ток туп куртак юкламасида узум бошининг ўртача оғирлиги назорат вариантдан 3,9 г, узум бошининг узунлиги 0,4 см, эни 0,3 см, узум бошининг эти ва шарбати 0,6% кўп, банди, 0,3%, узум ғужумининг пўсти 0,2% кам ва узум ғужумининг уруғи 0,6 % кўрсаткичда бўлиши қайт этилди, 120-160 та куртак юкламали вариантда ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 24,7 г, узум бошининг узунлиги 0,6 см, эни 2,4 см кўп, узум бошининг эти ва шарбати тенг, узум бошининг банди 0,6% кам, ғужумининг пўсти 0,2% кам, узум ғужумининг уруғи 0,8 % кўп бўлиши аниқланди. 160-200 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 37,7 г кўп, узум бошининг узунлиги 2,5 см, эни 3,4 см, узум бошининг эти ва шарбати 1,9% кўп, узум бошининг банди 1,0% кам ва ғужумининг пўсти 0,3 % кам, узум ғужумининг уруғи 0,1 % кўп бўлиши қайт этилди. 200-240 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари оғирлиги назорат вариантга нисбатан 54,2 г, узум бошининг узунлиги 2,2 см, эни 3,4 см, узум бошининг эти ва шарбати 1,0% кўп, узум бошининг банди 0,7% кам ва ғужумининг пўсти 0,1% кам, узум ғужумининг уруғи 1,1 % кўп бўлиши кузатилди. 240-280 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 40,1 г, узум бошининг узунлиги 1,4 см, эни 2,5 см, узум бошининг эти ва шарбати 0,6% кўп, узум бошининг банди 0,8% кам ва ғужумининг пўсти 0,1% кам ва узум ғужумининг уруғи 0,6 % кўп бўлиши аниқланди.

Жадвал маълумотидан кўришиб турибдики узумнинг хўраки Катта кўрғон навида куртак юкламасининг механик таркибига таъсири ўрганилганда қуйидаги натижаларга эришилди. Ток тупига шакл берилмаган (назорат) вариантда узум бошининг ўртача оғирлиги 418,2 г, узум бошининг узунлиги 25,3 см, эни 19,8 см, узум бошининг эти ва шарбати 88,4%, узум бошининг банди 5,1%, узум ғужумининг пўсти 0,6% ва узум ғужимининг уруғи 7,2% чиқиши аниқланди. Ток тупда 80-120 та куртак юклама қолдирилганда узум бошининг ўртача оғирлиги назорат вариантдан 12,2 г, узум бошининг узунлиги 3,1 см, эни 2,0 см, узум бошининг эти ва шарбати 2,0% кўп, банди, 1,3%, узум ғужумининг пўсти 0,2% ва узум ғужумининг уруғи 2,0 % кўрсаткичда бўлиши кузатилди. 120-160 та куртак юкламали вариантда ток

тупининг узум

1-жадвал

Хураки узам навларнинг воиш усулида етиштирганда механик таркибига куртак юкламасининг таъсири (2018-2020 йй.)

Вариантлар	Узум бошининг ўрғача оғирлиги, г	Узум боши ўлчами		Узум бошининг эти ва шарбаги, %	Узум бошининг банди, %	Узум ғужумининг пусти, %	Узум ғужумининг уруги, %	
		узу нлиги, см	эн и, см					
Оқ хусайни								
Ток тупи кесилмаган (назорат)	317,8	21,7	11,2	87,8	4,6	0,5	7,1	
80-120 та куртак	340,5	23,18	11,13	90,78	3,4	0,4	5,38	
120-160 та куртак	345,1	24,20	12,40	91,05	3,4	0,4	5,25	
160-200 та куртак	355,8	24,43	15,18	90,83	4,1	0,4	5,08	
200-240 та куртак	353,7	24,33	13,55	89,43	3,9	0,4	5,33	
240-280 та куртак	343,7	24,38	12,75	88,93	3,7	0,5	5,48	
Ризамат								
Ток тупи кесилмаган (назорат)	368,1	15,8	11,1	87,4	5,8	0,7	6,1	
80-120 та куртак	372,0	16,2	11,4	88,0	5,5	0,5	6,75	
120-160 та куртак	392,8	16,4	13,5	87,4	5,2	0,5	6,98	
160-200 та куртак	405,8	18,3	14,5	89,3	4,8	0,4	6,85	
200-240 та куртак	422,3	18,0	14,5	88,4	5,1	0,6	7,20	
240-280 та куртак	408,2	17,2	13,6	88,0	5,0	0,6	6,73	
Катта кургон								
Ток тупи	418,2	25,3	19,8	88,4	5,1	0,6	7,20	

кесилмаган (назорат)								
80-120 та куртак (назорат)	440,4	28,48	21,08	90,38	3,83	0,43	5,18	
120-160 та куртак	446,9	28,38	21,80	91,38	3,65	0,50	5,28	
160-200 та куртак	455,3	30,65	22,45	91,28	3,70	0,53	5,68	
200-240 та куртак	436,7	28,03	21,03	90,53	3,70	0,58	5,75	
240-280 та куртак	424,5	26,48	20,65	89,95	3,63	0,48	5,63	

бошлари оғирлиги назорат вариантга нисбатан 28,7 г, узум бошининг узунлиги 3,0 см, эни 2,0 см, узум бошининг эти ва шарбати 3,0% кўп, узум бошининг банди 1,5% кўп, ғужумининг пўсти 0,1%, узум ғужумининг уруғи 0,2 % кўп бўлиши аниқланди. 160-200 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 37,1 г, узум бошининг узунлиги 5,3 см, эни 2,6 см, узум бошининг эти ва шарбати 2,8% кўп, узум бошининг банди 1,4% кўп ва ғужумининг пўсти 0,1 % кам, узум ғужумининг уруғи 1,6 % кам бўлиши қайт этилди. 200-240 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 18,5 г, узум бошининг узунлиги 2,7 см, эни 1,2 см кўп, узум бошининг эти ва шарбати 2,1% кўп, узум бошининг банди 1,4% кам ва ғужумининг пўсти тенг кўп, узум ғужумининг уруғи 1,4 % кам бўлиши кузатилди. 240-280 та куртак юкламали ток тупининг узум бошлари назорат вариантга нисбатан 6,3 г, узум бошининг узунлиги 1,1 см, эни 1,1 см кўп, узум бошининг эти ва шарбати 1,5% кўп, узум бошининг банди 1,5% кам ва ғужумининг пўсти 0,1% ва узум ғужумининг уруғи 1,6 % кам бўлиши аниқланди.

Хўраки узум навларининг узум бошларини механик таркиби ўрганилганда олинган натижалар барча навлар бир-бирига нисбатан катта фарқ қилинмаганлиги аниқланди. Узум бошининг оғирлиги энг кўпи Оқ хусайни навида 160-200 та куртак юкламали ток тупида 355,8 г, Ризамат навида 200-240 та куртак юкламали ток тупида 422,3 г ва Катта қўрғон навида 160-200 та куртак юкламали ток тупида 455,3 г бўлди, энг кам узум бошининг оғирлиги Оқ хусайни навида ток тупи кесилмаган (назорат) юкламали ток тупида 317,8 г, Ризамат навида ток тупи кесилмаган (назорат) юкламали ток тупида 368,1 г ва Катта қўрғон навида ток тупи кесилмаган (назорат) юкламали ток тупида 418,2 г ни ташкил қилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Темуров Ш. Узумчилик.–Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент, 2002. – Б. 53–56.

2. Рябова Н.И, Винтовский В.Л. Изучения сортов винограда (Методические указания). – Л., 1988. – С. 28–30.

3. Гаврилов Г.П. Урожай и качество винограда столовых сортов в зависимости от способа ведения и типа формировки. Материал научно-практической конференции «Садоводство и виноградарство XXI века». –Краснодар, 1999, с-18–21.

КУЗГИ БУҒДОЙНИНГ НАВЛАРИНИ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ**Урунбоева Гулчехра Шокировна***АҚХАИ Доцент***Аҳмедов Соҳибжон Саибович***дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот институти**таянч докторанти***Наджимов Талантбек Эшмурод ўғли***Дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот институти**таянч докторанти*

Бугунги кунда Ўзбекистонда суғориладиган ерларда буғдой етиштиришга катта эътибор берилмоқда. Суғориладиган ерларда тўғри нав танлаш ва агротехника тадбирларини илмий асосланган ҳолда ўтказилганда ҳосилдорликни 65-70 ц га етказиш мумкин.

Кузги буғдой етиштиришда ҳар бир ҳудуднинг тупроқ-иқлим шароити, тупроқ-унумдорлиги, ўтмишдош экин тури, шўрланиш даражаси, юқори ҳарорат, касаллик, зараркунандаларга янги навларни бардошлилиги, яъни энг муҳими биологик хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда нав танлаш ва уни етиштиришнинг мақбул агротехникаси таркибий қисмларини (экиш муддати, экиш сифати, экиш меъёри, озиклантириш, суғориш тартибини) ишлаб чиқиш асосида ҳосилдорлик ва дон сифатини ошириш, ҳозирги кунда олдимизда турган энг долзарб, иқтисодий, агрономик жиҳатдан юқори самарали, экологик жиҳатдан зарарсиз усул ҳисобланади.

Суғориладиган ерларда кузги буғдойнинг тупроқ ва иқлим шароитимизга мос келадиган юқори ва сифатли ҳосил берадиган навларини етарли даражада ўрганилмаган. Шунинг учун кейинги йилларда экилаётган кузги буғдойни четдан келтирилган ва маҳаллий яратилган навлари ўтлоқи ботқоқ тупроқлар шароитида ўргандик.

Тажрибалар Андижон қишлоқ хўжалик институти ўқув илмий ишлаб чиқариш хўжалиги шароитида 2012-2013 йиллар давомида ўтказилди.

Дала тажрибасида Чиллаки (St), Марс 1, Бобур, Андижон 4, Омад, Крошка, Краснодарская-99, Таня, Москвич, Нота навлари синалди.

Бизнинг тажрибамизда намуналар уруғи 10 октябрда экилиб, 8-10 октябрда ундириб олинди. Одатда селекция материаллари эртапишарлик кўрсаткичи билан баҳоланадиган бўлса, бошоқлаш фазасига кириш билан белгиланади, яъни эртапишар нав ёки намуналар бошка навларга нисбатан эрта бошоқлаши билан ажралиб туради.

Кузги буғдой навларни униб чиқиш-бошоқлаш фазалари оралиғи давомийлиги билан баҳолайдиган бўлсак, ўрганилган намуналардан энг эртапишари Чиллаки, Марс-1, Бобур, Крошка, Нота навлари, қолган Таня, навлар ўртапишар навлар эканлиги қайд этилди ва бу нав ва намуналардан эрта ва ўртапишар интенсив типдаги

кузги буғдой навларини яратишда селекцияда бошланғич материал сифатида фойдаланиш мумкин.

Навлар орасида Чиллаки нави ўрганилган навлар орасида энг тезпишар нав сифатида қайд этилди. Ушбу нав бошқа навларга нисбатан 2-8 кун эрта пишиши аниқланди. Махаллий навлардан Андижон-4, Омад ва Хорижий навлардан Таня, Краснодарская-99, Москвич навлари эса нисбатан кеч яъни 10 июнда пишиши аниқланди.

Буғдой ҳосилдорлигини ортиши ҳар бир тупдаги ҳосил тузилиши таркибий қисмини шаклланишига боғлиқ. Рақобатли синовидаги барча навлар учун бир хил агротехника шароити яратилган бўлса ҳам навлар генотиби ҳар хиллиги сабабли ҳар бир навдаги ҳосил тузилиши таркибий қисмлари бир хил шароитда ҳар хил номаён бўлганлиги кузатилди.

Тажрибада поя баландлиги (см) бўйича нисбатан юқори кўрсаткичлар махаллий навлар орасида Омад ва Марс 1 навларида (92-95 см) кузатилди. Хориждан келтирилган навлардан эса нисбатан поя баландлиги бўйича юқори кўрсаткичлар Москвич навида (90 см) қайд этилди. Қолган навлар эса нисбатан паст бўйли ва ярим пакана навлар хосбланиб уларда поя баландлиги 75-85 см ни ташкил этди. Бошоқ узунлиги бўйича энг юқори кўрсаткич (10 см) Марс-1 навида, қолган барча навларда бу кўрсаткич 7.0-8,0 см.ни ташкил этди.

Битта бошоқдаги бошоқчалар сони Марс-1 навида 20 дона, Бобур, Краснодарская-99, Таня ва Москвич навларида 19 донани бошқа навларда эса 16-18 донани ташкил этди. Битта бошоқда шаклланган дон сони, битта бошоқдан олинган дон оғирлиги ва 1000 дона дон вазни бўйича ҳам энг юқори кўрсаткич Марс-1, Бобур ва Крошка навларида кузатилди.

Ҳар қандай навни якуний баҳолаш ҳосилдорлик кўрсаткичи билан белгиланади. Шунинг учун ҳам ўрганилган кузги буғдой навлари биринчи навбатда ҳосилдорлик кўрсаткичи бўйича баҳоланди.

Маҳсулдорлик элементларидан бирортасини ижобий томонга ўзгариши, бошқа бир маҳсулдор элементларини камайишига сабаб бўлади.

Биз ўрганган буғдойни нав ва намуналарида ҳосилдорлик кўрсаткичи бўйича катта фарқ хорижий ва махаллий навлар орасида кузатилди, Энг паст ҳосилдорлик тажрибамизда кузги буғдойни Чиллаки навида кузатилди. Бунда ҳар гектар майдондан ўртача 65.4 ц дон ҳосили олинди. Махаллий навлар орасида энг юқори дон ҳосили Бобур (72.1 ц/га) ва Андижон 4 (74.4 ц/га) навларидан олинди. Хорижий, яъни Россиянинг Краснодар ўлкасидан келтирилган навлар орасида эса энг юқори ҳосилдорлик кўрсаткичи Таня навида 13.9 ц/га. Краснодарская-99 навида 78.1 ц/га қайд этилди.

Демак. ҳосилдорлик кўрсаткичи бўйича юқори натижаларни кўрсатган Таня, Краснодарская-99 навларини ўртапишар, Андижон 4, Бобур навларини эртапишар навлар сифатида экишга тавсия этиш мумкин. Аммо шуни такидлаш керакки берилган тавсия бир йиллик натижаларга асосланган, шу сабабли бу навларни бошқа

тувроқ иқлим шароитларида тўла ўрганилиб баҳоланганидан кейингина илмий асосланган тавсия бериш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бахрамов С. Кузги буғдойнинг «Крошка» навини экиш муддатлари ва меъёрлари. Фермер хужаликларида пахтачилик ва ғаллачиликни ривожлантиришнинг илмий асослари. Тошкент, 2006, 425 бет.
2. Бўриев А. ва бошқалар. Кузги буғдой навлари ва ҳосилдорлик / Ғўза ва кузги буғдойнинг парваришlash агротехнологияларини такомиллаштириш УзПТИ тўплами, 2003, 200-бет.
3. Губанов Я.В. Сроки посева. Агротехника озимой пшеницы М. 1967. 399 стр.

ЁШЛАР ТАРБИЯСИГА ТАҲДИД

Баҳауддинов Шамсуддин Салиевич

“Ажинияз” номидаги НДПИ докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада маданият ва “оммовий маданият” тушунчалари таҳлили келтирилди. “Оммовий маданият”нинг ёшлар тарбиясига салбий таъсири очиб берилди. Салбий натижалар бериши таъкидланди. Ёшларни комил инсон қилиб тарбиялаш зарурати кўрсатилди. Маълумотлар ишончли манбалардан олинди.

Таянч сўзлар: маданият, “оммовий маданият”, қадрият, гоя, мафкура, тарбия, китч, асл, суррогат, ниқоб, моҳият, маъно, мазмун.

Маданият бу тарбия билан узвий боғлиқ тушунча бўлиб, комил инсон тарбиясида муҳим аҳамият касб этади. Зеро, тарбияли шахс бир вақтнинг ўзида маданиятли деб ҳам юритилади. Демак, ёшлар тарбиясида маданиятнинг таъсирини ҳам изчил ўрганиш зарур бўлади.

Афсуски, баъзида Ғарб оламининг ёшлар дунёқарашини бузишга қаратилган ҳатти-ҳаракати сезилади. “Оммовий маданият” номини олган, бугунги кундаги хавfli иллатлардан бири айнан ғарбда юзага келиб, дунёнинг барча ҳудудларига кириб бормоқда. У ўз ватанини ёмон кўрсатиш, ўтмишга нисбатан беписандлик руҳини қарор топтириш, давлат ва жамиятга нисбатан ишонсизлик уйғотиш-ёшлар дунёқарашини бузишга қаратилган гоялардир. Бунинг акси ўлароқ Ғарб ҳаёти худди жаннатдек кўкларга кўтарилиб мақталмоқда. Бу омилларнинг барчаси ривожланиш йўлидаги жамиятда изчил маънавий тарбияни йўлга қўйиш заруратини келтириб чиқаради.

Миллий ғурур ва ватанпарварлик туйғулари - ватан тараққиёти, юрт тинчлиги ва халқ фаровонлиги учун кураш туйғулари билан қўшилиб, маънавият асосини белгиламоқда. Дарҳақиқат, бу жарёнлар фуқаролик жамияти сари тараққий этиш ҳамда демократия тамойилларини мустаҳкамлашда дадил кадам бўлди. Ҳақиқат шундаки, бунда фақат Ғарб демократияси талаблари эмас, балки ҳар қандай миллатнинг қадимий давлатчилик анъаналари ҳам ҳисобга олиниши мумкин. Бошқача қилиб айтганда, Шарқ демократияси унсурлари ва энг асосийси, миллий-маънавий қадриятлардан ҳам фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Бугун Ғарб турмуш тарзини, ахлоқини кўр-кўрона қабул қилиш мумкин эмас. Чунки, унда ҳаддан ташқари индивидуализмга берилиш, худбинлик, ўзибўларчилик, шахсий манфаат йўлида ҳеч нарсадан тап тортмай, босиб-янчиб кетиш каби истак хоҳишлар аслида инсон табиатига мос эмас.

Ҳаёт шиддат билан ўзгараётган, ҳаётга муносабат ҳам ўзгача тус олаётган бир даврда сир эмаски, айрим ёшлар ўз устида ишлашдек машаққатли ишдан кўра, бугунги ҳаёт тақдим этаётган енгил неъматларга интилишни афзал кўради, яхши яшаш учун пул, бойлик керак, деган жўн фалсафага таяниб яшайди. Аксарият

замонавий ёшлар эркинлик ҳавосига ўпкаси тўлиб, ҳаёт йўлини мустақил танлашни даъво қилади. Бу ҳам аслида тўғри. Зеро, ҳар бир одам ҳаётда ўз йўлини танлашга ҳақли. Қолаверса, ҳар қадамда катталарнинг оғзига қараб турса, мустақил фикрлашга интилмаса, келажакда ундан бир ишга қодир одам чиқиши гумон. Бироқ маълумки, алоҳида одам танлаган йўл нафақат унинг ўз тақдирини, балки бутун жамият, бутун халқ тақдирини ҳал қилади. Ҳали ҳаётини тажрибаси бўлмаган, оқ-у қорани танимаган бола ўз ҳаёт мақсадини тўғри танлай оладими?. Ва бунда ота-онасининг, мураббийнинг хуллас, катталарнинг ўрни, тўғри маслаҳати муҳим аҳамият касб этади. Бу осон иш эмас.

Ёшлар катталардан кўра ўзгача фикрлайдилар, ҳаётга ўзгача муносабатда бўладилар, оламни бошқача кўрадилар. Кўпинча суҳбат чоғида айрим зиёлилар номаъқул мусиқа, номаъқул фильмларнинг, маълум бир миллат руҳиятига, маънавиятига зид урфларнинг ёшларга, умуман одамлар онги ва қалбига салбий таъсири ҳақида куюниб гапириб қолишади. Дарҳақиқат, на маъно ва на мазмун бўлган, инсоний ҳислардан кўра, кўпроқ паст инстинктларни кўзғовчи кўшиқ, ғоявий бўш, хатто зарарли филм каби “оммавий маданият” намуналарига ҳаётда кўп дуч келамиз. Балки айримларнинг четдан ёғилиб келадиган бундай “асар”ларнинг йўлини тўсиш ҳақидаги фикр тўғридир. Аммо бутун дунёда балои-азимга айланган салбий кўринишдаги “оммавий маданият”нинг тарқалишини бундай йўл билан олдини олиб бўлармикин? Кишиларни “Оммавий маданият” қуллигидан буйруқ ёки фармон билан ҳалос этиш мумкинмикин? Хитой мутафаккирларидан бири айтган экан: “Агар сен золимни тахтдан ағдармоқчи бўлсанг, аввал ўз юрагингга унга ўзинг ўрнатган тахтни йўқ қилгин”. Зеро, ҳамма гап одамнинг мойиллигида. Бошқа сўз билан айтганда, талаб бор экан, таклиф ҳам бўлади ва муаммо ана шу мойилликни йўқотишда. Акс ҳолда ҳеч нарса ва ҳеч бир куч унинг йўлига ғов бўла олмайди.

Шундай экан “Оммавий маданият” га қарши курашнинг энг самарали йўли йигит-қизларни ёшлигидан бошлаб юксак маданий савия, дид ва фаросат эгаси, мустақил фикрлайдиган, маърифатли қилиб тарбиялашдан иборат. Ана шундай фазилатларга эга бўлган ёшлар замирида вайронкор ғоялар ётган “оммавий маданият”намуналаридан ҳазар қилади.

Фойданалиган манба ва адабиётлар:

1. Бьюкенен П. Дж. Смерть Запада. /П. Дж. Бьюкенен; Пер. с англ. А. Башкирова. –М.: ООО “Издательство АСТ; СПб.: Terra Fantastica, 2003. –444с. 68-б.
2. Бьюкенен П. Дж. Смерть Запада. /П. Дж. Бьюкенен; Пер. с англ. А. Башкирова. –М.: ООО “Издательство АСТ; СПб.: Terra Fantastica, 2003. - 444 с.
3. Қаҳҳорова М. Маънавий идеал ва жамият ахлоқий муҳити” .- Т.: ТДПУ нашри, 2007. - 44 б.
4. Йонас Г. Принцип ответственности. –М.: Астра. 2004. С. - 80.
5. Хаттингтон С. Столкновение цивилизаций. –М.: АСТ. 2005. с. 54.

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATUVCHI INTERAKTIV VA NOAN'ANAVIY METODLAR

Soliyeva Rohatoy Abdulomonovna

Farg'ona viloyati Quva tumani

32-umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida interaktiv usullardan foydalanish, dars samaradorligining qay darajada oshishi muammoligi ko'rsatilgan. Shuningdek, muallif o'quvchining diqqatini jamlashda, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda noan'anaviy metodlardan foydalanish haqida tavsiyalar berib o'tgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, interaktiv metod, qobiliyat, uslub, topqirlik, ijodkorlik, noan'anaviy metodlar.*

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi.

Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo'lib, 1-sinf o'quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmi topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi: "Kungaboqar" metodi. Kungaboqar rasmi o'rtasida ova uunlilari, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unlilarni almashtirish ham mumkin. O'quvchilar mustaqil ravishda daftarlariga tuzgan so'zlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma o'quvchilar baravar ishtirok etishadi. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag'batlantirib,

baholab boradi. Ushbu usuldan yozuv darslarida ham, alifbe darslarida ham foydalanishimiz mumkin. O'quvchi qancha ko'p harf o'rgansa shu harflarni qo'shib so'z yasay oladi. Birinchi va ikkinchi kungaboqarda berilgan harflardan shunday so'zlar yasashimiz mumkin. Masalan: olam, olcha, ota, osmon, usta, uka, uxla.

Alifbe darsligi tugagandan so'ng 1-sinf ona tili kitobida dastlab o'quvchilarga "Tovush va harf" haqida ma'lumotlar beriladi. Mavzular sekin-asta murakkablashib boradi. Bu holat muayyan qiyinchilik tug'dirib, biroz bo'lsa-da o'quvchilarning darsdan zerikishiga sabab bo'ladi. Shunday holatlarda interaktiv metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqorida ko'rsatilgan kungaboqar metodimiz ham bunga yaqqol misol bo'ladi. "Tovush va harf" bo'limining dastlabki mashqlari ham o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish uchun berilgan. Ushbu metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga xizmat qiladi.

"Sinkveyn" metodi. Sinkveyn so'zining ma'nosi "beshlik" bo'lib, "Qofiyalanmagan besh qatorlik she'r" degan ma'noni anglatadi. O'quvchilar "Sinkveyn" metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she'r yozadilar. Bunga ko'ra birinchi qator bitta so'zdan iborat bo'lishi va bu ot so'z turkumiga oid so'z bo'lishi, ikkinchi qator ikkita so'zdan iborat bo'lishi va bu sifat so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, uchinchi qator uchta so'zdan iborat bo'lishi va bu fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, to'rtinchi qatorda to'liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi so'zga sinonim bo'lgan bir so'z qo'yilishi mumkin. Ushbu metoddan 2-, 3-sinflarga o'tgandan keyin o'quvchilar so'z turkumlari haqida tushunchalarga ega bo'lganlaridan so'ng foydalanishi mumkin. 2-sinf ona tili darsligida so'z bo'limida shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, sanoq va tartibini bildirgan so'zlar haqida ilk morfologik tushunchalar berilgan.

O'qituvchi o'quvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, o'quvchilarni ham birbirlarining so'zlariga e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. E'tiroz yoki qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizlarning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o'z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Boshlang'ich ta'limda ona tili o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, lug'at boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya'ni to'g'ri o'qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so'z yasalishi va gramatikaga oid bilimlarni o'rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim.

Ma'lumki, ona tili darsida ham lug'at ishlarini o'tkazish o'quvchilarda o'zi uchun notanish bo'lgan so'zni izohi haqida qiziqish paydo bo'ladi. Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod o'quvchilarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlashga ham o'rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi.

O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva M. "Ona till o'qitish metodikasi" .T- 2017
2. Muhamedova S. "Tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyadan. T-2015
3. Jumaniyozova M., Ishmuhammedov R. Ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent: Iste'dod, 2012.
4. ziyo.uz
5. saviya.uz